



UDK:811.111'373.611:338:48

**Gulbahor ABDUXALILOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi*  
E-mail: [abdukhalilovagulbahor@gmail.com](mailto:abdukhalilovagulbahor@gmail.com)

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Sh.Aripova taqrizi asosida*

## FORMATION OF TOURISM WORDS IN ENGLISH BY BORROWED SUFFIXES

Annotation

In this article, the author has analyzed some words and phrases related to the field of tourism in the English language, which are formed through suffixes adopted from Romance languages. Along with the analysis, the author attached importance to the etymology of words and phrases. The research results in the article serve as a useful resource for in-depth knowledge of the English language and the study of tourism.

**Key words:** Borrowed suffixes, word formation, formed nouns, abstract nouns, verb stems, word order, word structure, tourism.

## ОБРАЗОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ СЛОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЗАИМСТВОВАННЫХ СУФФИКСОВ

Аннотация

В данной статье автор проанализировал некоторые слова и словосочетания, относящиеся к сфере туризма в английском языке, которые образованы посредством суффиксов, заимствованных из романских языков. Наряду с анализом автор придавал значение этимологии слов и словосочетаний. Результаты исследования в статье служат полезным ресурсом для углубленного знания английского языка и изучения туризма.

**Ключевые слова:** Заимствованные суффиксы, словообразование, образованные существительные, абстрактные существительные, основы глаголов, порядок слов, структура слова, туризм.

## INGLIZ TILIDA TURIZM SOHASIGA OID SO'ZLARNI O'ZLASHTIRILGAN SUFFIKSLAR ORQALI YASALISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada avtor roman tillaridan o'zlashtirilgan suffikslar orqali yasalgan ingliz tilidagi turizm sohasiga oid bir necha so'z va iboralarni tahlil qilgan. Tahlil barobarida avtor so'z va iboralarni etimologiyasiga ham ahamiyat bergan. Maqoladagi izlanish natijalari ingliz tilini chuqur bilishda va turizm sohasini o'rganishda foydali manba sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zlashtirilgan suffikslar, so'z yasash, yasama otlar, mavhum otlar, fe'l o'zaklari, so'z turkumi, so'zlarning tarkibi, turizm.

**Kirish.** Zamonaviy hayot va zamonaviy jamiyatning muhim elementi bo'lgan turizm, unga bog'liq barcha infratuzilmalarning rivojlanishida bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida qaraladi. Zamonaviy turizm transport, ijtimoiy va xizmat ko'rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanganligiga asoslanadi, bu esa pirovardida uni iqtisodiyotning yuqori daromadli sohasiga aylantiradi. Shu bilan birga turizm, xalqaro miqyosda eng istiqbolli faoliyat sohasi sifatida e'tirof etilgan bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sish, valyuta tushumlari va bandlik yaratish, balki ekologik, madaniy va ijtimoiy ongni mustahkamlash, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni tan olishda ham muhim ahamiyatga ega.

M.A. Vinokurovning fikricha, turizm nafaqat sayyohat va dam olish, balki xalq diplomatiyasini rivojlantiradi, hududlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi [1].

Zero, "Boshqalarni bilish orqali o'zini bilish" [2] turizm va sayyohatning eng muhim madaniy funksiyalaridan biri ekan, turizm sohasini chuqur o'rganish, yurtimizda turizm yo'nalishida olib borilayotgan islohatlarga xissa qo'shish, mamlakatimizda turizm sanoatini rivojlantirishda albatta tilshunoslar zimmasiga ulkan vazifalar yuklanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Butun dunyoda jadal rivojlanayotgan turizm industriyasi o'z tiliga

ega bo'lganligi sababli so'ngi o'n yillikda turizm nutqi (turizm diskurs) sohasida lingvistik tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Turistik nutqning tipologik holati va turizm sohasidagi nutqning dominant xususiyatlarini O.R. Bondarenko, turistik nutq va uning reklama xususiyatlarini V.A. Maslova, YE.YE. Menshikova, M.G. Voxrisheva, N. V. Filatova va N.A. Tyulenovalar ilmiy taxlil qilgan. S.A. Pogodayeva turistik nutqdagi argumentatsiyaning lingvistik vositalarini o'rgangan[3]. Turizm leksikologiyasi yo'nalishida bir necha olimlar jo'shqin faoliyat olib borgan. Ulardan I.N. Konopleva, L. P. Krisina, T. A. Aleksandrovoy, L. V. Aminovoy, T. M. Belyayevoy i V. A. Xomyakova, V. A. Xomyakova, T. Dalzella, Dj. Draskau, T. Inskipa, E. Matiellou, R. Portera va S. B. Fleksnera. L. Soudek va S.P. Paliy kabi tilshunos olimlar ingliz tilida so'z yasashning affiksatsiya usuli eng sermaxsul usullardan ekanligini e'tirof etgan[4].

Ingliz tilida so'z yasovchi suffikslar kelib chiqishi jihatidan turlichadir: a) sof ingliz (german) suffikslar: er, dom, ess, hood, ing, ship, ness, man. b) ingliz tiliga o'zlashtirilgan suffikslar: or, ant, ist, ment, ee, sion, tion, ation, fication, acy, age, ery-ry va boshqalar [5].

**Muhokama va natijalar.** O'rta asrlarda ingliz tilining lug'at tarkibi, tarkibida -ion, -tion, -sion, -ation, -fication, -lization suffikslari bo'lgan roman tillaridan o'zlashtirilgan yasama mavxum otlar hisobiga ancha boyidi:

attraction vacation reception commission invasion	diqqatga sazovor joy ta'til qabulxona mukofot puli xujum, bosqin
---	--

division acidulation acceptation hospitalization cannibalization  commodification diversification beautification	bo'lim zaxarlanish qabul qilish kasalxonaga joylashtirish kannibalizatsiya (bozordagi maxsulot o'rini boshqa yangi maxsulot egallashi) mahsulotga aylantirish diversifikatsiyalash sharoitlarni yaxshilash
--	---

Manba: Philip Durkin, The Oxford handbook of lexicography. Oxford University Press. 2016.- 400 p.

O'zlashtirilgan suffikslar yordamida yasalgan turizm sohasiga oid so'z va iboralarni bir nechasini taxlil qilamiz:

{ment} suffiksi XII asrda fransuz tilidan fe'llardan yasalgan mavhum otlar bilan o'zlashtirilgan. Ingliz tilida {ment} suffiksi aqliy yoki his-tuyg'uga oid holat ma'nosini ifodalovchi fe'llardan mavhum otlar yasab, o'zak ifodalagan holatda, sifatda yoki vaziyatda bo'lish ma'nolarini bildiradi:

astonish + ment = astonishment – xayron bo'lish  
[fe'l+suffiks] = [ot]

excite + ment = excitement – hayajonlanish  
[fe'l+suffiks] = [ot]

O'zakdan anglashilgan faoliyatni amalga oshirish xarakati yoki shu faoliyatni amalga oshirilganligi haqidagi dalil, fakt ma'nosi bildirish uchun {ment} faol, xarakatdagi ma'noli ish-xarakatni anglatuvchi o'timli fe'l o'zaklari bilan birikadi:

embank + ment = embankment - mustaxkamlangan qirg'oq

[fe'l + suffiks] = [ot]

pave + ment = pavement - yo'lak (tratuar) [fe'l + suffiks] = [ot]

Yuqorida qayd qilinganidek, {ment} suffiksi faol ma'noli ish xarakatni anglatuvchi o'timli fe'llar va aqliy yoki his-tuyg'uga oid holat ma'noli fe'l o'zaklari bilan birika oladi. {ment} bilan birikadigan ko'pgina fe'l o'zaklari tarkibida {en, em, be}, {le, er, ish} va boshqa cuffikslar bo'ladi: employ + ment – bandlik, enroll + ment - ro'yxatga olish, bewilder + ment – anglashilmovchilik, abolish + ment - bekor qilish.

{ment} suffiksining fe'l o'zaklariga qo'shilishi yozuvda ba'zi o'zgarishlarga sabab bo'ladi: undoshdan keyin turgan, oxirgi unli tovush "u", "i" ga aylanadi va unga {ment} suffiksi qo'shiladi:

merry + ment = merriment – xursandchilik

jolly + ment = jolliment - xurramlik

{yeru} suffiksli yasama otlar. XII asr boshlarida ingliz tiliga asosan fransuzcha so'zlar kirib kelishi oqibatida ingliz lug'atida {yeru, ru} suffiksli yasama so'zlar paydo bo'ldi: delivery – yetkazib berish ( fransuzcha "delivrer"), grocery – oziq-ovqat do'kon (fransuzcha "grosserie").

Ingliz tilida ushbu suffiksning ikkita formasi {-yeru va -ru} mavjudligini fonetik sabablari bor. {yeru} shakli bir bo'g'inli o'zaklardan otlar yasash uchun qo'llaniladi: bribe + ery – poraxo'rlik, cook + ery - pazandalik

Agar ushbu suffikslar yordamida otlar yasaladigan bir bo'g'inli so'zlarda qisqa unli bo'lsa, u holda oxirgi undosh ikkilanadi: jobbery – chayqovchilik, pottery – kulolchilik.

{ru} shakli birdan ortik bo'g'indan iborat bo'lgan va urg'usi oxirgi bo'g'inga tushmaydigan o'zaklar bilan birikadi. Bunday so'zlar, odatda, [t, d], [sh, n, l] undoshlariga tugallanadi: revel + ry = revelry – ziyofat, jewel + ry = jewelry - zeb-ziynat, merchand + ry = merchandry - savdo-sotiq, palmist + ry = palmistry-folbinlik.

Bundan tashqari, ushbu suffiks birikadigan o'zaklar urg'uli unliga yoki diftongga tugallanadigan hollarda {ru} shakli qo'llaniladi: satisfactory – qoniqarli natija, diary – kundalik.

{asu} suffiksli yasama otlar. -asu suffiksli dastlabki so'zlar ingliz tiliga XIV asrda kirib keldi. -asu suffiksi amalda roman tilidan kelib chiqqan {ate va at} suffiksli co'zlarga birikib umumiylik, jamoa, kollektivni va shaxsning faoliyat turini anglatib, jamlovchi ma'nolarni beruvchi otlarni yasagan: delegate – delegacy – delegatsiya, aristocrat – aristocracy – aristokratiya, pirate – piracy – qaroqchilik, diplomat – diplomacy – diplomatiya.

Yana, {asu} suffiksi o'zi yasagan otga yasama so'z o'zagi ko'rsatgan sifat yoki holatning mavhum ma'nosini beradi: delicacy – noziklik, efficacy – samaradorlik, accuracy – aniqlik.

{age} suffiksli yasama otlar. XIII asrda fransuz tilidan ingliz tiliga - age suffiksli ko'plab so'zlar kirib keldi: massage – silash, mirage – sarob, barrage – to'ciq.

{age} suffiksi ko'pincha o'lchov birliklarini anglatuvchi ot o'zaklari bilan birikadi: millage – kilometr, percentage – foiz, footage - metraj / uzunlikni o'lchash, hourage - soatlab o'lchash.

{age} suffiksi eltish, saqlash, o'rnatish, mustaxkamlash harakatlarini yoki "o'zak ko'rsatgan vaziyatda bo'lishlik" ma'nosini ifodalashi mumkin: carriage – eltish, storage – saqlash, passage – o'tkazish, moorage – qayiqalar to'xtash joyi, package – qadoqlash, portage - jo'natish.

{ist} ingliz tilida so'z yasovchi element sifatida qabul qilingan. {ist} suffiksi (fransuz tilida -iste, lotinda -ista, german tilidan -istes) zamonaviy ingliz tilida nafaqat roman tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarda, balki yangi yasama so'zlarda ham uchraydi. Roman tillarida {ist} suffiksi ot o'zaklaridan ot turkumidagi so'z yasagan va bu xususiyatini u ingliz tilida ham saqlab qolgan:

tour - tur + ist = tourist – turist [ot+ suffiks]

reception - qabulxonaga + ist = receptionist – bosh ma'mur [ot+ suffiks]

orchard - bog' + ist = orchardist – bog'bon [ot+ suffiks]

vacation - ta'til + ist = vacationist – dam oluvchi [ot+ suffiks]

{ist} suffiksi sifatlar bilan ham birikishi mumkin. Bunday yasama so'zlarning o'zaklari {al} suffiksli o'zaklardir. Ular odatda o'zakdan anglashilgan ilmiy yoki siyosiy oqimlarga karashlilikni ifodalaydi:

natural – tabiiy + ist = naturalist – tabiatshunos [sifat+suffiks]

environmental - ekologik + ist = environmentalist - ekolog [sifat+suffiks]

{ist} suffiksi zamonaviy ingliz tilining eng sermaxsul suffiksidir. U mashhur shaxs nomlari, fandagi turli ta'limot, nazariya, oqim, ma'lum bir qarashlarning avtorlarini bildiruvchi otlar bilan birikib, shu ta'limot, nazariya, g'oyaviy oqim, fandagi yo'nalishlar, qarashlar va shu kabilarning izdoshlari va davomchilarini anglatadi. Odatda bunday so'zlarning tarkibida {ism} suffiksi bo'ladi:

humanism	humanist	insonparvar
opportunism	opportunist	muxolifatchi
racism	racist	irqchi
socialism	socialist	sotsialist

Fransuz tilidagi sifatdoshdan o'zlashtirilgan {yeye} suffiksi ingliz tilida so'z yasovchi qo'shimcha sifatida keng qo'llanilmadi. [6] Bu suffiksning kam unumligini sababi, asosan bu qo'shimchaga bog'lana oladigan fe'l o'zaklari semantik guruhlarining son jihatdan kamligidir, bu asosan yuridik va ma'muriyatga oid terminlar: lessee – ijarachi, employee – ishchi, refugee – qochoq, detainee – maxbus.

{ity} suffiksli yasama otlar. Ingliz tilida -ity suffiksli mavhum otlar soni ko'pligining sababi shundaki, juda ko'p -ity suffiksli otlar yoki bevosita lotin tilidan yoki fransuz tili vositasida o'zlashtirilgan bo'lib,

inglizcha o'zaklarga nisbatan ancha ko'p bo'lgan lotincha va fransuzcha sifat o'zaklaridan ingliz tili negizida yasalgan mavhum otlarni tashkil etadi:

adversity – falokat, accessibility – foydalanish imkoniyati, antiquity – antik davr, celebrity – mashxurlik.

{ant/ent} suffikslari odatda (y, ate) suffiksli fe'l o'zaklariga birikib ish xarakatni bajaruvchi shaxs otlarini yasaydi: communicate – communicate – suhbatdosh, participate – participant – ishtirokchi, occupy – occupant – bosqinchi, defy – defiant – e'tirozchi.

{ant/ent} suffikslari {ance, -ence} kabi suffiksi o'zaklariga birikib xususiyat va holatni ifodalovchi sifatlarini yasaydi:

arrogance - arrogant – dimog'dor [ot] +[suffiks] = [sifat]

convenience - convenient – qulay [ot] +[suffiks] = [sifat]

difference - different - turli [ot] +[suffiks] = [sifat]

{or} suffiksi yordamida yasalgan so'zlar. O'rta asrlarda ingliz tiliga roman tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar, shu jumladan, -or suffiksiga tugallanuvchi otlar tilning lug'at

tarkibida paydo bo'ldi: spectator – tomoshabin, supervisor – boshqaruvchi, elevator – lift.

Zamonaviy ingliz tilida {or} suffiksi odatda tarkibida -ate qo'shimchasi bo'lgan fe'l o'zaklariga, yoki roman tilidagi sifatdoshdan kelib chiqqan o'zaklarga birikadi (ingliz tilida bunday fe'llar odatda t tovushiga tugallanadi):

accommodate – accommodator – joylashtiruvchi [fe'l+ or] = [ot]

facilitate – facilitator – ko'maklashuvchi [fe'l+ or] = [ot]

visit + or = visitor - tashrif buyuruvchi [fe'l+ or] = [ot]

invest+ or = investor – sarmoyachi [fe'l+ or] = [ot]

{or} suffiksi ilmiy tilga daxldor bo'lgan fe'l o'zaklari bilan birika olgan. Odatda ular ilmiy, texnikaga oid va boshqa terminlardir: [7] accelerator – tezlatgich (gaz beruvchi), generator – generator, operator – operator, reactor – reaktor.

Shaxs ma'nosidagi {or} suffiksli ko'pgina otlarda fe'l o'zaklarini erkin ajratib yuqorida aytilgan semantik guruhlar (ko'proq yuridik va siyosiy terminlar) ga birlashtirib bo'lsada, bunday otlarning birortasi ham ingliz tili negizida yasalmagan: ambassador – elchi, emperor – imperator, editor – redaktor, chancellor – kansler, governor – gubernator, solicitor – advokat, mayor – shahar xokimi, councillor – maslahatchi.

**Xulosa.** Shunday qilib, yuqoridagi turizm sohasiga oid so'z va iboralar misolida suffikslar bir so'z turkumidan boshqa so'z turkumini yasashda xizmat qilishiga amin bo'ldik. Suffikslar leksik-semantik jihatdan shaxs oti, narsa buyum nomi, o'rin-joy va mavxum tushunchalarni yasash ekan. Ingliz tilida so'z yasalishi bo'yicha ot eng boy so'z turkumi hisoblanar ekan. Ingliz tilida otlar o'zagiga boshqa so'z turkumlariga nisbatan ko'proq suffiks olar ekan.

#### ADABIYOTLAR

1. Vinokurov M.A., Chto takoye turizm? //Izvestiya Baykalskogo gosudarstvennogo universiteta. 2004. - №3, 1-3 s.
2. Borovinskaya D.N., -Turizm: sovremenniy podxod k issledovaniyu
3. //Filosofiya i kultura. 2018. № 2. 14 c, Zaxarova L.N. Turizm kak sotsiokulturnoye yavleniye. Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2013,124 c.
4. Bondarenko O.R., Dominant properties of the English-language discourse of the tourism sector as the basis of the discursive competence of professionals. //Herald Moscow State Linguistic University. Moscow, 1012 No.5. 64-74 p. Maslova V.A., Introduction to cognitive linguistics /Moscow, 2011, p 296. Tyulenova N.A., Dissertation for the scientific title of Candidate of Philological Sciences. Linguocognitive strategies for positioning and promoting tourism services in Russian and Anglo-American advertising. Omks, 2008, p 269. S.A., Pogodayeva, Yazikoviy sredstva argumentatsii vo fransuzskom turisticheskom diskurse: tekst. diss. kand. filol, nauk. Irkutsk, 2008, 20 s.
5. Dyachkova YE.S., Polusuffiksi i obrazovaniya s nimi v sovremennom angliyskom yazike. Avtoreferat. VAK RF10.02.04., 2011, 6-7 s.
6. Vosiyeva SH., Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari. Buxoro, 2018, 57 b.
7. Sokolova A. A., Fransuzkoye zaimstvovaniye v angliyskom yazike //Sifrovaya nauka, UDK 81. № 4. Rossiya 2021, 21-24 s.
8. Bo'ronov J., Hoshimov O., Ismatullayev X., "Ingliz tili grammatikasi" Toshkent: 1978, 67 b.
9. <https://nbpublish.com/library>
10. <https://www.etymoline.com>
11. <https://www.vocabulary.com>
12. <https://www.fayllar.org>.



UDK: 81'23:14:343.23(575.1)

**Muqumjon AXUNOV,**  
(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  
E-mail: [muqumjon.axunov@bk.ru](mailto:muqumjon.axunov@bk.ru)  
**Bibi Muxlisa G'ULOMOVA,**  
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

ADChTI dotsenti Vositov V.A. taqrizi asosida

### SYNONYMS OF LEXEME "CRIME" AND THEIR PECULIARITIES

Annotation

The present article is dedicated to the semantic analysis of the concept of "crime" in English and Uzbek. This article also reveals the similarities and dissimilarities between the concept of "crime" in English and Uzbek linguocultures. The main, important features of the criminal lexeme should be called the universal nature of the criminal lexeme, which reflects the objective content of the norms, which puts morality above the interests of a narrow group, ideological or practical ideas, corporativeness.

**Key words:** Concept, crime, culture, national culture, linguoculturology, socio-cultural reality, values

### СИНОНИМЫ ЛЕКСЕМЫ "ПЕСТУПЛЕНИЕ-CRIME" И ИХ ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

Данная статья посвящается семантическому анализу концепта, «криминал» в английском и в узбекском языках. А также в данной статье раскрывается схожие и различные лингвокультурологические особенности концепта «преступления» в английском и в узбекском языках. Основными, важными чертами криминальной лексемы следует называть универсальный характер криминальной лексемы, которая отражает объективное содержание норм, ставящих мораль выше интересов узкой группы, идеологических или практических идей, общечеловеческого характера

**Ключевые слова:** Концепт, преступление (криминал), культура, национальная культура, лингвокультурология, общественно-культурная реальность, ценность.

### "JINOYAT"- "CRIME" LEKSEMASI MA'NODOSHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida "jinoyat" konseptining semantik tahliliga bag'ishlanadi. Shuningdek, ushbu maqolada "jinoyat" konseptining ingliz va o'zbek lingvomadaniyatidagi o'xshashlik va farqli jihatlari ham ochib beriladi. Jinoyat leksemasining asosiy, muhim xususiyatlarini axloqni tor guruh manfaatlaridan, g'oyaviy yoki amaliy fikrlardan, korporativlikdan ustun qo'yadigan jinoyat leksemasini me'yorlarning ob'ektiv mazmunini aks ettiruvchi umuminsoniy tabiati deb atash kerak.

**Kalit so'zlar:** Konsept, jinoyat, madaniyat, milliy madaniyat, lingvokulturologiya, ijtimoiy-madaniy voqelik, qadriyat.

**Kirish.** Tilning konseptual sohasini va semantik maydonini belgilash zamonaviy tilshunoslik uchun muhim va fundamental masala bo'lib ko'rinadi. Ko'plab asar mualliflari qarashlarida bu «olamning lisoniy manzarasi» deya talqin qilinadi [1]. Bu manzarada o'zbek tilida «jinoyat», ingliz tilida «crime», rus tilida «prestuplenie» konseptlari ham inson ongi kategoriyasining asosiy tushunchalari sifatida o'rin egallaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ye.M.Mikaelyanning nomzodlik dissertatsiyasi ma'lumoti bo'yicha, zamonaviy ingliz tili diskursida «jinoyat» konsepti yuqori reprezentativlik xususiyati bilan xarakterlanadi [2]. Tadqiqotchining fikricha, zamonaviy Britaniya va Amerika olamning lisoniy manzarasida (demakki, jamiyatida ham) «jinoyat» konsepti muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, o'zbek jamiyatida ham jinoyat tushunchasi allaqachon xalq ong-u shuurida boshqacha ahamiyat kasb eta boshlagan. Ravshanki, Yevropada jinoiy harakatlar, qonunbuzarliklar, insonni o'ldirish, katta ob'ektlarni tunash yoki nomusga tegish kabi holatlar ko'p uchraydi. Keltirilgan misollar o'z aksini kinofilmlarda ham topadi. Chunki asarlar ham albatta real voqelikka tayanib yaratiladi. Shunga qaramasdan, bularning oldini olish chora tadbirlari va tegishli qarorlar ko'payishi natijasida ingliz va amerikaliklarni qonunlarga qattiq rioya qilishi haqidagi ma'lumot ham hammaga ayon. Shuning uchun, olamning lisoniy manzarasidagi jinoyat asosan millatning kelib chiqishiga borib taqaladi va voqeliq muayyan guruhga mos bo'lgan milliy va madaniy xususiyatlar prizmasi

negizida ifoda etadi. Xalqning yashash tarzi, xatti-harakati, ijtimoiy holati, mentaliteti, hattoki tarixiy o'tmishi ta'sirida jinoyat tushunchasiga qarashlari yuzaga keladi, deyishimiz mumkin. Olamni anglash, bilish va u haqida fikr, tushuncha, shuningdek, g'oyalarni hosil qilish, shakllantirish funksiyasi yordamida ob'ektiv voqelikni mujassam etgan individual yoki jamoaviy ong konsept ko'rinishida universal tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** V.A.Maslova, I.A.Sternin, Z.D.Popova va boshq. fikriga ko'ra, konsept yadro va periferiya nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Yadroga eng asosiy, vizual aniq, birlamchi, jonli va ahamiyatli tasvirlarga ega bo'lgan qatlamlar kirs, periferiyaga ikkinchi darajali, mavhum, assotsiativ shaklli ifodalar kiradi. Asosiy va qo'shimcha qatlamlar yagona negiz-konseptda jamlanadi va konsept tarkibi boyib boradi. «Jinoyat» konseptida «jinoyat» leksemasi yadro bo'lib, u «jinoyat» konseptini nomlash uchun yagona kalit vazifasini o'taydi. Leksemaning sinonim va antonim shakllari «jinoyat» konseptiga tegishli tushunchalar hisoblanadi.

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da «jinoyat» leksemasi quyidagicha ta'riflanadi: Jinoyat [arabcha-ayb, gunoh; jinoiy ish] I.huq. Davlat qonunlari bilan belgilangan tartibga xilof va shu qonunlarga asosan javobgarlikka tortishni talab qiladigan, jamoat uchun xavfli xatti-harakat. Og'ir jinoyat. Amaldan foydalanib qilingan jinoyat. Jinoyat ustida ushlamq. 2. ko'chma. Yomon oqibatlariga olib boradigan zararli xatti-

harakat, ish; gunoh. Bas siz bilan biz, Tojiboy aka, bu ishga rahbarlik qilish o'rniga qo'l siltar ekanmiz, jinoyat qilgan bo'lamiz va buning uchun xalq oldida javobgar bo'lamiz [4].

Demak, «jinoyat» leksemasi ikkiyoqlama tushuniladi. Biri yuridik jihatdan bo'lsa, ikkinchisi milliy madaniy tomondan tahlil qilinadi. Birinchi ta'rifga binoan «jinoyat» so'zi huquq, sud, sud hukmi, jazo, ayblov, ijro, qonun hujjatlari, noqonuniy, kodeks, qonunbuzarlik, mahkum, adolat, jabrlanuvchi, aybdor shaxs kabi verbalizatorlar bilan bog'liq.

Ikkinchi ta'rifga binoan, O'zbek xalqi qiyofasida jinoyat, bu katta gunoh hisoblanadi. Dinimiz islom ta'limotida jinoyat tushunchasi katta va kichik gunohlarga bo'linadi: 1. Banda va Alloh taolo orasidagi gunohlar. 2. Bandalarning haqlariga taaluqli gunohlar. Ular tarkibiga suiqasd, zino, poraxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'irlik, g'iybat, yolg'on gapirish, tuhmat, behayo ishlarni qilish, qimorbozlik, ichkilikbozlik, birovning haqini yeyish va h.k. kiradi [3]. Islomda bunday jinoyatni insonning o'zi anglab yetib, qilgan jinoyatidan pushaymon bo'lsa va tavba qilsa, u Alloh taolo tomonidan marhamat qilinadi va kechiriladi.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» ma'lumotiga ko'ra: Jinoyat-jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni J.deb hisoblash masalasi har bir davlatda o'zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari va h.k.ga muvofiq xalqaro huquq me'yorlari e'tiborga olingan holda hal etiladi. Qilmish J. ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi: 1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi; 2) aybning mavjudligi; 2) jazoga sazovorligi. Har qanday jinoyat

qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo'lishi shart, ulardan biri mavjud bo'lmasa, qilmishni J.emas, deb hisoblashga asos topiladi. J.lar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan; uncha og'ir bo'lmagan; og'ir; o'ta og'ir J.larga bo'linadi. J.lar tajovuz ob'ektiga ko'ra shaxsga qarshi J., iqtisodiyot sohasidagi J., jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi J., davlat hokimiyatiga qarshi J., ekologiya sohasidagi J., harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi J., tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi J.ga bo'linadi. Aybning shakliga ko'ra esa qasddan sodir etilgan J. va ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan J.ga bo'linadi. Shaxs o'z harakati yoki harakatsizligini va bundan kelib chiqib chiqadigan jinoyatni anglatgan, o'z harakatlarini boshqara oladigan bo'lsagina qilmishi J. hisoblanadi. Sub'ekt yoshiga yetmagan va aqli noraso shaxslar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish J. sanalmaydi va ularga nisbatan J. qonunida nazarda tutilgan majburlov choralarini qo'llash mumkin emas. O'z.R. Jinoyat kodeksida qilmishning jinoyiligi istisno etadigan holatlarining quyidagi 6 turi belgilangan: 1) kam ahamiyatli qilmishlar; 2) zaruriy mudofaa; 3) oxirgi zarurat; 4) ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazish; 5) buyruq yoki boshqa vazifalarni ijro etish; 6) kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq asosli tavakkalchilik (36-41- moddalar)[4].

**Tahlil va natijalar.** Demak, o'zbek tilida olamning lisoniy manzarasida «jinoyat» konsepti bevosita «gunoh» tushunchasi bilan ifodalanadi. Bunda biz «jinoyat» konseptiga «ikki shoxli tushuncha» sifatida qarashimiz mumkin.



1-chizma. «Jinoyat» konseptining dastlabki tarkibi

1. O'zbekistonda noqonuniy moliyaviy piramidani tashkil etgan Ahmadboy va uning jinoyat sheriklari bilan bog'liq sud ishi bugun o'z yakuniga yetadi. Ya'ni sudya bugun odil hukmni o'qiydi. Ushbu ish Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent viloyati sudi tomonidan sudya Dilshod Komilov raisligida ko'rilmogda [6].

2. Hali to'zoni bosilmagan osmonga qarab turgan bir chol do'ng'illadi:

- Boshlagan ishimiz ollo taologa yoqmadi chog'i. (Said Ahmad. Ufq. 61)

Ko'rib turganimizdek, «jinoyat» konseptining yadrosi «jinoyat» leksemasi va u ikki tushuncha ostida birlashadi. «Gunoh» tushunchasi diniy axloqiy tushuncha bo'lib, u barcha dinlarda o'ziga xos ko'rinishga ega. Gunohlarning behisobligini, unga tegishli tushunchalarni ko'pligini hisobga olib unga alohida konsept sifatida qarash mumkin. Ammo uning yadrosi jinoyat ekanligini bilish mumkin. Shuning uchun jinoyat-gunoh tushunchalarini yonma yon qo'llash o'rinlidir, ya'ni gunohning asosi jinoyat, jinoyatning tarkiblaridan biri gunoh. Jinoyatning birinchi tarkibi, davlat qonunlariga zid, noqonuniy, aybli va noto'g'ri ijtimoiy xavfli qilmish bo'lsa, ikkinchi tarkibi shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki hattai harakat, deya olamiz.

Ingliz tilida «crime» so'zi «Macmillan English Dictionary»da shunday ta'riflanadi:

1. An illegal activity or action: commit a crime (=do something illegal) She was unaware that she had committed a crime.

2. Something that is morally wrong or a mistake: be a crime to do sth. It would be a crime to waste all that food [6, 187].

«ABBY LINGVO x5» elektron lug'atida «crime» so'zi transgression, offence, violation, delinquency, criminality, sin, wrongdoing so'zlari bilan ifodalanadi va quyidagi ta'riflar beriladi:

1. noun  
a) an action or omission which constitutes an offence and is punishable by law  
b) illegal activities  
c) an action or activity considered to be evil, shameful, or wrong.

2. verb [with obj.] (especially in the army) charge with or find guilty of an offence [6].

«Crime» so'zining etimologiyasiga yuzlansak, «Collins Etymological Dictionary» bo'yicha, lotin tilidagi crimen so'zidan olingan bo'lib, a charge ma'nosini anglatadi

[7]. «Oxford Etymological Dictionary»da ham XIII asrning o'rtalarida qadimiy Fransuz tili orqali lotin tilidan olinganini ta'kidlaydi: via Old French from Latin crimen 'judgement, offence', based on cernere 'to judge' [6]. Yana bir «Online Etymology Dictionary»da uni Sin so'zi bilan bog'laydi: «sinfulness, infraction of laws of God,» from Old French crimne «crime mortal sin» (12 c., Modern French crime), from Latin crimen (genitive criminis «charge, indictment, accusation; crime, fault, offence,» which probably is from cernere «to decide, to sift»( from PIE root krei-» to sieve», thus «discriminate, distinguish») [7, 5].

**Xulosa va takliflar.** Ko'rinib turibdiki, ingliz tilida «crime» konsepti «sin» tushunchasi bilan bog'lanadi va bu o'zbek tilida «gunoh» so'zi bilan ifodalanadi. Yuqorida keltirgan «ikki shoxli tushuncha»miz ingliz tiliga ham bo'ysunishini bildiradi. Bunda «crime» konseptini ham yuridik, ham lingvokulturologik tushunchalar ortidan tahlil qilamiz:

«It was such a horrible sin to kill an aged creature like Sam Cayhall. His crimes were committed a generation ago. He had suffered and died many times in his six-by-nine cell. How

would the state benefit by killing him now?» (John Grisham. The Chamber, 488)

Ye.M.Mikaelyanning nomzodlik dissertatsiyasida «crime» konseptiga uch tomonlama –trinar tushuncha sifatida qaraladi. «Srime» bu inson qonunlarini, «sin» – ilohiy qonunlarni, «vice» – ahloqiy me'yorlarni buzishni o'z ichiga oladi. Aytib o'tilganlarning birinchisi dunyoda sud hukmi bilan jazolanadi, ikkinchisi oxirat dunyosida jazolanadi, uchinchisiga kelsak, behayolikka berilib jismoniy va ma'naviy jihatdan o'zini yo'q qiladi [3]. Yu.G.Yevtushok esa «srime» konseptini «sin» va «wrong» leksemalari bilan bog'laydi va uni, birinchidan, jinoyat konseptining qismlari sifatida ifoda etishni taklif etadi. Ikkinchidan, ular alohida konsept sifatida qo'llanilishi mumkinligini uqtiradi va shunday izohlaydi: «Crime, sin va wrong tushunchalarining lingvistik ifodalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar bitta sohani tashkil etadi. Ularning lisoniy ifodalari bir-biriga mutanosib sinonim ekanliklarini bildiradi. Biroq, bu tushunchalar bir-biri bilan to'liq mos tushishi ehtimoldan holi bo'lishi mumkin, ularning har biri lisonda turli xil shakllanishi olimlar tomonidan tahlil qilingan».

#### ADABIYOTLAR

1. Abdumajidov G'. A. va boshqalar. Kriminalistika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Adolat», 2003. – 266 b.
2. Abdurahmonov G'. , Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 352 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati/ M.Madvaliev tahriri ostida. 5 jildlik.– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. K harfi, 2006-2008. –479 b.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2001-2006. – 237 c.
5. Fallows Samuel. A Complete Dictionary of Synonyms and Antonyms. – New York: Fleming H. Revell Company, 1898. – 516 p.
6. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. – London. United Kingdom: Macmillan Publishers Limited, New Edition, 2007. – 1748 p.
7. Merriam-Webster. URL: <https://www.merriam-webster.com/dictionary/neocolonialist>(data dostupa 1.12.2019).



**Mehribon GAPPAROVA,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti,  
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi  
E-mail: mehribon.gapparova@gmail.com

O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

### SYNTAX ANALYSIS AS A METHOD OF FUNCTIONAL SYNTAX

Annotation

This article discusses syntax analysis as a method of functional syntax. Let's consider the concept of syntax. We will analyze the concepts and opinions of philologists regarding the syntax analysis of the sentence

**Key words:** Syntaxeme, predicativeness, syntaxeme analysis, lexical synonyms, syntactic structure, lexical unit.

### СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАК МЕТОД ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СИНТАКСИСА

Аннотация

В этой статье рассматривается синтаксический анализ как метод функционального синтаксиса. Давайте рассмотрим понятие синтаксиса. Разберем понятия и мнения филологов относительно синтаксического анализа предложения.

**Ключевые слова:** Синтаксема, предикативность, синтаксемный анализ, лексические синонимы, синтаксическая структура, лексическая единица.

### SINTAKSEM TAHLIL – FUNKTSIONAL SINTAKSIS USLUBI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada sintaksem tahlil ni funktsional sintaksis uslubi sifatida fikr yuritiladi. Sintaksema tushunchasini ko'rib chiqamiz. Gapning sintaksem tahlili borasidagi tushunchalarni va filologlarning fikrlarini tahlil qilamiz

**Kalit so'zlar:** Sintaksema, predikativlik, sintaksem tahlili, leksik sinonimlar, sintaksik struktura, leksik birlik

**Kirish.** Tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida gap va uning tarkibiy qismlari, gap tarkibi va semantik tarkibini birlashtirish mumkin. Bunday birlashish yangi funktsional birlik – sintaksema tufayli yuz beradi. Sintaksema gap tarkibidan ham, semantik tarkibdan ham farqlanadi. Ikkinchisidan farqli o'laroq, sintaksema faqat semantik ma'no bilan chegaralanmaydi. Gapning ma'lum bir sintaktik o'rin va morfologik belgilar bilan bog'langan tarkibdan farqli o'laroq, sintaksema uchinchi jihat – semantikaga ham egaligidir. Sintaksema ma'noning konstruktiv tashuvchisi bo'lib, semantik, morfologik va sintaktik jihatlar o'rtasidagi munosabatga asoslangan sodda gaplar tipologiyasini yaratishga imkon beradi[1].

Sintaksema – bu predikativlikka ega bo'lgan birlik bo'lib, oldingi birlikda uchramagan noyob xususiyat. Nutqda bunday birlik gap shaklida namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Y.A. Vanchikova yozishicha, “gapning sintaksem tahlili gap tarkibidagi sintaktik tahlildan tubdan farq qiladi. Asosan formal mezonlarga asoslangan sintaktik vazifalar faqat tilning sintagmatik darajasida namoyon bo'ladi, sintaksemalar esa ham sintagmatik, ham paradigmatic darajalarga tegishlidir. Sintaksis bir-biriga qarama-qarshi bir xil sintaktik pozitsiya bo'lishi mumkin, lekin har xil gaplarda namoyon bo'ladi hamda ma'lum bir turga nisbatan bo'lishi mumkin”. Olim, sintaksema turli sintaktik pozitsiyalarda namoyon bo'ladi. Sintaksemadan farqli o'laroq, gap tarkibi turli sintaktik holatda bo'la olmaydi, chunki ma'lum bir sintaktik bog'lanish asosida ajralib turadi va predmet tobe komponentga aylana olmaydi[2] deb hisoblaydi.

Bir sintaksemaning bir xil sintaktik holatda boshqasiga qarama-qarshi qo'yilishi til paradigmasiga tegishli oppozitsiya sifatida qaraladi. Bu oppozitsiya turli tasnifga ega bo'lgan xususiyatlariga ko'ra har xil sintaksemalar bir xil sintaksemalar bir xil sintaktik pozitsiyani egallashi mumkin.

Demak, gapning sintaksem tahlili uni moddiy jihatdan birlashgan ob'ekt sifatida ko'rsatadi, uni tahlili bo'linishga emas, balki uning tuzilishining yaxlit yondashuviga asoslanadi.

V.Doroshevskiy lisoniy belgining ma'no berish usuli – predikatsiya orqali yoritishga harakat qiladi. Uning fikricha, “Bu jarayon “fikir-nutq-til” harakat mexanizmiga uyg'unlik bilan mos keladi. V.Doroshevskiyning fikricha, predikatsiya qobiliyati inson miyasining asosiy vazifasidir. Miya tashqi ogohlantirishlarga javoban paydo bo'lgan taassurotlarni shunday filtrlaydiki, bizni o'rab turgan dunyo bizga tartibsizlik sifatida emas, balki sub'ektlar va munosabatlar toifalarida tashkil etilgan o'zaro ta'sir qiluvchi elementlarning uzluksiz harakati sifatida ko'rinadi”[3].

V.Doroshevskiy o'z asarida so'zning predikativ vazifasi haqida gapirib, aslida tilda predikatsiyaga aloqador bo'lmagan elementlarning yo'qligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, “predikatsiya tushunchasi elementlarning bir-biri bilan munosabatlarida hisobga olinadi. Har qanday element haqidagi har bir fikr uni makon va vaqtda belgilash usuli, uning ma'lum bir vaziyat tuzilishi bilan bog'liqligidir. Bu korrelyatsiya predikatsiya hisoblanadi”[4].

Shunday qilib, sintaksik tahlil va sintaksem tahlil gapni tahlil qilishda til birliklarining har xil daraja va turlariga e'tibor markazini qaratib ikki xil turli yondashishdir.

Sintaksik tahlil – tilga oid qoidalar va me'yorlar nuqtai nazaridan gapning grammatik strukturasi tahlil jarayonidir, masalan, so'zlarning gapdagi sintaksik rolini, so'zlarning o'zaro moslashuvi, gapning qismlari o'rtasidagi sintaksik bog'lanishni aniqlash.

Sintaksem tahlil, o'z navbatida, funktsional birliklar, ya'ni sintaksemalarning tahliliga e'tiborni jamlaydigan funktsional sintaksis uslubidir. Sintaksema – bu gapda ma'no funktsiyasini ifodalovchi minimal birlikdir. Sintaksem tahlil gapda sintaksemalar yordamida ifodalanadigan sintaksik

funktsiya va munosabatlarni aniqlash va tasniflash imkonini beradi. Bu sintaksik strukturalarni ularning funktsional tavsiflar asosida ta'riflash va tahlil qilish uchun funktsional sintaksisda qo'llanuvchi uslubiyatdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Leksik sinonimlarning sintaksem tahlili leksik sinonimlardan tuzilgan, ya'ni bir xil yoki o'xshash ma'noga ega bo'lgan, ammo yozilishi har xil bo'lgan gaplarning sintaksik strukturasi tahlil qilishdir.

Leksik sinonimlarni sintaksem tahlil qilish jarayonida avval so'z turkumi, kelishik, zamon, shaxs va xokazolar kabi leksik birliklar va ularning xususiyatlari aniqlanadigan leksik tahlil sodir bo'ladi. So'ngra gapning sintaksik strukturasi tahlili va uning boshqa gaplar bilan bog'langanligi tahlili sodir bo'ladi.

Leksik sinonimlarning sintaksem tahlilining xususiyatlaridan biri shunday so'zlar bilan ishlashda ularni gapning kontekstida ishlatishda har xil variantlar bo'lishi mumkinligidir. Masalan, ingl.t. large, big, vast, enormous; o'zb.t. katta, ulkan so'zlari, kontekstga qarab, turli sintaksik konstruksiyalarda ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, sintaksem tahlil so'zlarning funktsiyasini tadqiqot qilish va gapda ularning o'zaro bog'lanishiga asoslangan funktsional sintaksisning uslublaridan biridir. Bu uslub sintaksik strukturalarni aniqlab topish va til birliklarini kontekstda ishlash xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Sintaksemalarni tahlil qilish alohida so'zlar gapda qanday vazifani bajarishini tushunishga va bir biri bilan qay tarzda o'zaro bog'lanishiga yordam berishi mumkin. Bu til tizimining xususiyatlarini aniqlash va uning aniq kontekstlarda ishlashini aniqlash imkonini beradi.

Bundan kelib chiqib, sintaksem tahlil sintaksik strukturalarni o'rganishda va kontekstda leksik birliklarning ishlashi uchun samarali vositadir, bu vosita umuman olganda til tizimi haqida ancha chuqur tushuncha olish imkonini beradi.

M. Borek muallifligi ostidagi «Sintaksem tahlil: nazariya va amaliyot»[5] nomli maqolada igliz tili misolida sintaksik tahlilning asosiy bosqichlarini tavsiflangan va ular quyidagilardan iborat:

birinchi bosqichi – bu leksik tahlil bo'lib, gapda alohida so'zlarni ajratish va ularning so'z turkumlari va shakllarini aniqlashdan iborat;

ikkinchi bosqich – morfologik tahlil sodir bo'ladi va tahlil jarayonida so'zni hosil qiluvchi morfemalar ajratiladi va gapda ularning roli aniqlanadi.

ikkinchi bosqichda sintaksik tahlil boshlanadi va uning davomida gapning strukturasi va so'zlar o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. Maqolada sintaksik tahlilning turli usublari, shu jumladan grammatikalar yordamida tahlil uslubi ham tavsiflanadi.

Maqolaning yakuniy qismida muallif sintaksem tahlilini, jumladan adabiy asarlardan gaplar strukturasi tahlili va reklama matnlari strukturasi tahlilini amaliy qo'llanishi misollarini taklif qiladi. Bundan tashqari, muallif mashqda kompyuter dasturlari va topshiriqlar bilan bir qatorda sintaksik tahlilga o'rgatish uslublarini taklif qiladi[6].

Shunday qilib, M. Borekning maqolasida ingliz tili misolida sintaksik tahlil va uning usublari, hamda amaliy qo'llanishi va o'rgatish uslublarining tavsifi taqdim qilingan.

Y.A. Vinchikova «Sintaksemalar – fransuz tilida predikativ alomatlarini ifodalovchilar»[7] nomli ishida sintaksemalarning fransuz tilidagi sintaksik roli ko'rib chiqilgan.

«Sintaksem» tushunchasi muallif tomonidan turli kontekstlarda so'zlar o'rtasidagi ma'no munosabatlarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan sintaksik darajadagi minimal ahamiyatli birlik sifatida aniqlanadi. Sintaksemalar sub'yektning alomatlarini va holatlarini

ifodalovchi predikativ so'zlar va ifodalar sifatida chiqishlari mumkin[8].

Fransuz tilidagi predikativ alomatlariga ega bo'lganlar sifatida chiquvchi sintaksemalarni, masalan: être content, devenir grand, avoir peur, etc. tahlil qilib, Y.A. Vinchikova ba'zi sintaksemalar ham fe'llar, ham sifat, yoki ravish sifatida ham qo'llanishi va ularning ma'nosi kontekstga qarab o'zgarishi mumkinligiga e'tiborni qaratdi.

So'ngra sintaksik konstruksiyalar tahlili olib boriladi, va bu tahlilda sintaksem-predikativlar qatnashadi, masalan: bevosita va bilvosita to'ldiruvchiga ega bo'lgan gaplar, shaxsi ko'rsatilmagan gaplar, solishtirish va a'lo darajani ifodalovchi konstruksiyalari, va hok. Har bir holatda sintaksemning qo'llanishi va uning semantik tavsiflariga chuqur e'tibor bilan qaraladi.

Olib borilgan tahlil asosida Y.A. Vinchikova fransuz tilidagi sintaksik konstruksiyalar va gaplarning ma'nosini tushunish uchun predikativ alomatga ega bo'lganlar sifatida sintaksemalarni o'rganish muhimligi haqidagi xulosaga keladi.

Y.A. Vinchikovaning «Gapning sintaksik, semantik va sintaksem tahlili» nomli maqolasida sintaksik va semantik lingvistikasi doirasida gapning turli tahlil usublari ko'rib chiqiladi[9].

Mavjud bo'lgan gapni tahlil qilishning turli usublari, ya'ni strukturali va funktsional tahlil, bir-biriga qaramlilik tahlili, sintaksik bog'lanishlar tahlili va boshqa tahlillar obzoriga tayanib, Y.A. Vinchikova sintaksik, semantik va sintaksem tahlillarni birlashtirgan o'zining tahlil qilish uslubini taklif qiladi

Sintaksik tahlil gapning sintaksik strukturasi aniqlash, so'zlar o'rtasidagi sintaksik bog'lanishlarni aniqlash, grammatik shakllarni va so'zlar kategoriyasini ajratib ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ularning usublari yordamida gapni tahlil qilish misolini keltirib, uchta turdagi tahlilning har biri gapning sintaksik strukturasi, semantikasini va sintaksemasini tushunish uchun qay tarzda yordam berishini namoyish qilib, Y.A. Vinchikova tahlil qilishning turlicha usublari kombinatsiyasini ishlatish gapni to'laroq va aniqroq tushunishga olib kelishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi, bu holat sintaksik, semantik va sintaksem tahlilning lingvistikada, hamda kompyuter lingvistikasi va mashina yordamida tarjima kabi boshqa sohalarda ham muhimligini ko'rsatadi.

K. Egamnazarovning «Sintaksem tahlil va uning chet tillariga o'rgatishdagi roli» nomli maqolasida sintaksem tushunchasini batafsil yoritib beradi va qay tarzda sintaksem tahlil chet tillarini o'rganishda foydali bo'lishini ta'riflaydi.

Sintaksema – bu sintaksik funktsiyaga ega bo'lgan minimal birlikdir. Sintaksik funktsiya, o'z navbatida, so'zning gapdagi pozitsiyasi va gapda uning boshqa so'zlar bilan bog'lanish roliga ko'ra aniqlanadi. Sintaksem tahlil – bu gapni sintaksik birlik sifatida tahlil qilish, ularning vazifalari va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash jarayoni.

K.Egamnazarov sintaksem tahlil nafaqat tilning grammatik konstruksiyalarini, balki uning ma'nosidagi nozik farqlarni ham tushunish imkonini beradi, deb ta'kidlaydi. Masalan, «The boy gave the girl a book» gapini tahlil qilganimizda, «boy», «girl», «book», «give» va «to» sintaksemalarini ajratib ko'rishimiz mumkin. Ushbu sintaksemalarning tahlili mazkur gapda harakatni bajaruvchi shaxs sifatida «boy» so'zi ekanligi, harakat ob'ekti «book» so'zi, harakatni qabul qilib oluvchi esa «girl» so'zi ekanligini tushunish imkonini beradi. Yana shuni tushunib yetishimiz mumkinki, «to» bu gapda harakatni qabul qilib oluvchiga ko'rsatuvchi old ko'makchi bo'lib kelar ekan.

**Xulosa va takliflar.** Semantik tahlil so'zlar o'rtasidagi ma'noga oid munosabatlarni aniqlash va gapning umumiy ma'nosini aniqlashga yo'naltirilgan.

Sintaksem tahlil so'zlarning gapdagi sintaksik vazifasini va ularning boshqa so'zlar bilan bog'langanligini, hamda sintaksemlar – sintaksik darajadagi ma'noga ega

bo'lgan minimal birlikni aniqlashga asoslangan, va ular so'zlar o'rtasidagi ma'nosiga oid munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladilar.

#### ADABIYOTLAR

1. Золотова Г.А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. – М.: Эдиториал УРСС. 2001. –С.3. - 368 с.
2. Ванчикова Е.А. Синтаксический, семантический и синтаксемный анализ предложения. file:///C:/Users/ACER/Downloads/sintaksicheskiy-semanticheskiy-i-sintaksemnyy-analiz-redlozheniya.pdf
3. Дорошевский, В. Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс, 1973. – С. 183. - 288 с.
4. Дорошевский, В. Элементы лексикологии и семиотики. – М.: Прогресс, 1973. – С. 183. - 288 с.
5. Борек М. Синтаксемический анализ в изучении языка (на материале русского и польского языков) // Linguodidactica, Том 24, 2020. – С. 19-28.
6. Борек М. Синтаксемический анализ в изучении языка (на материале русского и польского языков) // Linguodidactica, Том 24, 2020. – С. 19-28.
7. Ванчикова Е.А.. Синтаксемы – носители предикативного признака во французском языке // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, № 2, 2014. – С. 61-66.
8. Ванчикова Е.А.. Синтаксемы – носители предикативного признака во французском языке // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация, № 2, 2014. – С. 61-66.
9. Ванчикова Е.А. Синтаксический, семантический и синтаксемный анализ предложения // Казанский педагогический журнал, № 6-2, 2015.



Zebiniso DAVRONOVA,

Toshkent viloyati, Piskent tumani, 10-umumta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

E-mail: zebinisodavronova4@gmail.com

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

### THE METHODS OF DEVELOPING CREATING DESCRIPTIVE TEXT SKILLS IN THE MOTHER LANGUAGE

Annotation

In this article, the linguo-didactic basics of developing students' skills of creating descriptive text were highlighted. Effective approaches to its teaching were determined and a methodological basic was developed. Scientific-experimental test works were analyzed and necessary conclusions and recommendations were given.

**Key words:** descriptive text, four language skills, creating text, writing, language teaching methodology, problem, language acquisition.

### МЕТОД РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ УМЕНИЯ СОЗДАВАТЬ ОПИСАТЕЛЬНЫЙ ТЕКСТ НА ЗАНЯТИЯХ РОДНЫМ ЯЗЫКОМ

Аннотация

В данной статье освещены лингводидактические основы развития у учащихся умений создания визуального текста. Определены эффективные подходы к его преподаванию и разработана методическая основа. Проанализированы научно-экспериментальные опытные работы и даны необходимые выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** описательный текст, четыре языковых навыка, создать текст, письменная речь, методика преподавания языка, овладение языком, проблема, овладение языком.

### ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TASVIRIY MATN YARATISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Mazkur maqolada o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari yoritilib berildi. Uni o'qitishdagi samarali yondashuvlar aniqlanib metodologik asos ishlab chiqildi. Ilmiy-tajriba sinov ishlari tahlil qilinib zarur xulosa va tavsiyalar berildi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy matn, to'rt lisoniy malaka, matn yaratish, yozma nutq, til o'qitish metodikasi, muammo, til o'zlashtirish.

**Kirish.** O'quvchining ona tilini o'zlashtirishda to'rt lisoniy malakani shakllantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ushbu to'rt lisoniy malakadan biri yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirish dolzarb masalalardan biridir. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda ularning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha turli metodist olimlar tomonidan turli tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ayni paytda ona tili va unga oid yo'nalishlarda ham yangilanishlar va rivojlanishlar yuz bermoqda. Ayniqsa, til o'qitish metodikasini takomillashtirish borasida, ta'lim mazmunining sifatini yanada oshirish, ilg'or tajribalarni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kun o'quvchilaridan o'z fikrini mustaqil og'zaki va yozma bayon eta olishi, o'zining mustaqil fikriga va keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab etiladi.

Mamlakatimizda barcha sohalarida tub o'zgarishlar, yangilanishlar sodir bo'lmoqda. Jumladan, davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish maqsadida ta'lim tizimiga, o'zbek tilini rivojlantirishga hamda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko'tarishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farnonni imzoladi. Unga ko'ra uch oy ichida "Davlat tili haqida"gi Qonunni takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasi ishlab chiqildi[1].

Fanning maqsadiga ko'ra o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila oladigan shaxsni

tarbiyalashda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish hamda shaxsni turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash va yozma savodxonlikni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Biroq hozirgi kun ona tili ta'limida o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishda muammolar mavjud. Bundan tashqari o'quv darsliklarida ham o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi mashq va topshiriqlar ham mukammal darajada emas.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish muhim hisoblanadi. O'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish bo'yicha turli olimlar tomonidan turli tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.

T.Ziyodovanning "Matn yaratish texnologiyasi", M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarining "Matn tilshunosligi", N.Bekniyazovanning "Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi" (monografiya), I.Azimovanning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" (monografiya), K.Mavlonovanning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" (dissertatsiya)tadqiqot ishlari, o'quv qo'llanmalari, monografiya, metodik qo'llanmalarda hamda amaldagi "Ona tili" darsliklari yuzasidan o'qituvchilar uchun yozilgan metodik adabiyotlarda yozma ishlarni tashkil qilish, bog'lanishli nutq tuzish, matn, matn strukturasi, tuzilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan[2].

MDH davlatlari orasida tasviriy matn mavzusi yuzasidan rus olimlaridan bir qanchasi tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Jumladan, Rubinchik Lyudmila Ivanovna, Vodyasova Lyubov Petrovna, Kobozeva Irina Mixaylovna va Xamaganova Valentina Mixaylovna o'z ishlarida tasviriy matn ko'nikmasini rivojlantirishga oid bir qancha masalalar yoritib berilgan.

Xorij olimlaridan Jeremy Harmer, Byrne, Brown[3]lar o'z izlanishlarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish hamda ularning yozma nutqini rivojlantirishda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish masalalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olishimiz mumkin. Boshqa ko'plab xorij olimlari va tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida hosil bo'lgan ilmiy xulosalar bo'yicha kerakli yo'nalish olishimiz mumkin bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada bir qancha o'zbek va xorij olimlarining ilmiy-nazariy, metodologik qarashlariga tayanildi. Maqola mavzusiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqish, nazariy va metodik adabiyotlarni o'rganish, darslarni kuzatish, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan suhbatlashish va so'rovnomalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va ularning natijalarini tahlil qilish ishlari amalga oshirildi.

Tasviriy matn yaratishda o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan omillarni asosiy besh turga bo'lishimiz mumkin.

Mazmun.

O'quvchilar tasviriy matn yaratish davomida o'z bilimlariga tayanadilar. Ammo o'quvchilar uchun fikrlash, g'oyalar yaratish, o'z fikrlarini dalillash, o'z tajribalarini ulashish biroz qiyin jarayondir.

Tuzilma (Struktura).

Tasviriy matn yaratishda o'quvchilar o'z fikrlarini bayon etishda, ularni qay tartibda yozishda ikkilanishlarga duch kelishadi. Matn paragraflarining qaysi birida qanday ma'lumotni yozish, ma'lumotlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish, ya'ni matnning kirish qismida tasvirlanayotgan narsa haqidagi qaysi ma'lumotlar, asosiy qismida tasvirlashda asosiy e'tibor nimalarga qaratilishi va xulosa qismni qanday fikrlar bilan yakunlash kerak ekanligi kabi jihatlar o'quvchi uchun ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Lug'at.

Tasviriy matn yaratish jarayonida lug'at boyligining sayozligi, so'z tanlashdagi xatoliklar o'quvchilar tez-tez uchrab turadigan holatdir. O'quvchilar matn yaratish davomida takrorlardan ko'p foydalanishadi, matn mazmuniga, uslubiga mos so'zlarni tanlay olishmaydi. O'zlari tasvirlayotgan obyektini ham istashganlaridek batafsil tasvirlay olishmaydi.

Grammatika.

Grammatika yozma nutqning muhim elementi hisoblanadi. Matndagi gaplarni to'liq va to'g'ri shakllantirish uchun grammatik bilim muhim hisoblanadi, ammo o'quvchilarda grammatik savodxonlik to'liq shakllanmagan hamda ular da grammatik bilimlarini amaliyotda qo'llashda doimo qiyinchilikka uchrashadi.

Imlo va punktuatsiya.

So'zlarni to'g'ri yozish va tinish belgilarini o'rnida qo'llash yozilgan matnning mukammal bo'lishi uchun muhim hisoblanadi.

O'quvchilar uchun ushbu qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi bir qancha sabablar mavjud. Ana shu sabablar o'quvchilarning tasviriy matn yaratishdagi ba'zi noqulayliklarni yuzaga keltiradi

Yozma nutqning shakllanmagani

Yozma nutq muntazam ravishda bajariladigan mashqlar natijasida shakllanib boradi, ammo o'quvchilarning yozma nutqi qoniqarli darajada emas. Shu sababli ham, o'quvchilar tasviriy matn yaratishdagi qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Yozishga bo'lgan qiziqishning yo'qligi

O'quvchilar ona tili darsi mashg'ulotlarini, faqatgina, yozish darsi deb hisoblashadi. Yozish jarayonini esa zerikarli mashg'ulot sifatida qabul qilishadi.

Vaqtning yetishmasligi

O'quvchi o'z fikrini yozma holatga aylantirish ma'lum bir vaqtni talab etadi. O'quvchi uchun vaqtning chegaralanganligi, ularning erkin ijod qilishiga to'sqinlik qiladi.

Yozish bilan shug'ullanmaslik

O'quvchi yozma nutqini shakllantirish uchun doimiy ravishda yozish bilan shug'ullanishi lozim. Sportchilar ham ma'lum natijaga erishishlari uchun o'z ustida ishlashadi, mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanib borishadi, natijada o'zlari ko'zlagan maqsadiga yetishadi. O'quvchilarning ham yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish uchun doimiy mashg'ulotlar zarur.

O'qituvchining o'quvchi yozma nutqiga fikr-mulohazasining kamligi

O'qituvchi o'quvchi yozma nutqidagi kamchiliklar va erishilgan yutuqlarga alohida e'tibor qaratishi lozim. O'quvchiga to'g'ri yo'nalish ko'rsatishi kerak.

**Tahlil va natijalar.** Dastlab, tajriba-sinov ishlaridan oldin o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining bugungi holati aniqlab olindi. Tajriba-sinov natijalari quyidagicha natija ko'rsatdi:

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining dastlabki holati		
O'quvchilar soni (18 nafar)	Ball miqdorida	Foiz miqdorida
0	Yuqori (18-20)	0%
0	O'rta (14-17)	0%
18 nafar	Quyi (10-13)	100%

Natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining dastlabki holatida 100% o'quvchi quyi ko'rsatkichni qayd etishdi. Bunga sabab o'quvchilarning tasviriy matn turi bilan to'liq tanish emasligidir.

O'quvchilarning aksariyat qismi matn turlarini farqlay olishmaydi. Xususan:

- o'quvchilar uchun vazifa qilib berilgan shaxs tasviridagi matn turi bilan o'quvchilar tanish emas;
- tasviriy matn turi haqida yetarli ma'lumotga ega emas;

– ona darsliklarida o'quvchilar tasviriy matn yaratishda shaxs tasvirini qanday qolipda yozish, matnda aynan nimalar yoritilishi kerak ekanligi va shunga bog'liq bo'lgan mashq va topshiriqlar deyarli mavjud emas.

6-sinf o'quvchilari kundalik hayotlari davomida biror narsani, shaxsni, joyni va boshqalarni tasvirlash bilan bog'liq vaziyatlarga duch kelishadi va bunda turli qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ammo o'quvchilarda tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor kam qaratiladi. Biroq til ta'limida bunday dolzarb mavzularga e'tibor qaratilishi zarur.

Uchinchi bosqichda esa yakuniy natija olinib tahlil qilindi. Yakuniy natijalar esa quyidagicha ko'rsatkichga ega bo'ldi:

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining so'nggi holati		
O'quvchilar soni (18 nafar)	Ball miqdorida	Foiz miqdorida
4 nafar	Yuqori (18-20)	22%
8 nafar	O'rta (14-17)	45%
6 nafar	Quyi (10-13)	33%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, to'rt nafar o'quvchi yuqori ballni, sakkiz nafar o'quvchi o'rtacha ko'rsatkichni, olti nafar o'quvchi quyi ko'rsatkichni qayd etishdi.

O'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining umumiy holati				
Farqlanish darajalari		Yuqori (18-20)	O'rta (14-17)	Quyi (10-13)
Dastlabki natija	O'quvchilar soni (18 nafar)	0	0	18 nafar
	Foiz miqdorida (100%)	0	0	100%
So'nggi natija	O'quvchilar soni (18 nafar)	4 nafar	6 nafar	8 nafar
	Foiz miqdorida (100%)	22%	45%	33%
Samaradorlik ko'rsatkichi		22%	45%	77%


So'nggi umumiy natijada dastlabki va oxirgi natijalar qiyoslandi. Ushbu ko'rsatkichda quyidalarga erishildi:

Tasviriy matn yaratish ko'nikmasida yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar 22% ga ko'tarildi.

Tasviriy matn yaratish ko'nikmasi o'rtacha natija ko'rsatgan o'quvchilar 45% ga ko'tarildi.

Tasviriy matn yaratishda quyi natija ko'rsatgan o'quvchilar 77% ga kamaydi.

Tajriba-sinov natijalaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilardagi eng yuqori samaradorlik 43%, eng kam samaradorlik esa 6%ni ko'rsatdi. Umumiy holatda esa o'quvchilarning natijalari 25% o'sdi.



Umumiy natijada dastlabki va so'nggi natijalar qiyoslandi. Ularning orasidagi farqlari, samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Natijalarga ko'ra:

– tasviriy matn yaratish ko'nikmasida yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar 22% ga ko'tarildi.

– tasviriy matn yaratish ko'nikmasi o'rtacha natija ko'rsatgan o'quvchilar 45% ga ko'tarildi.

– tasviriy matn yaratishda quyi natija ko'rsatgan o'quvchilar 77% ga kamaydi.

– o'quvchilardagi eng yuqori samaradorlik 43%ni ko'rsatdi.

– o'quvchilardagi eng kam samaradorlik esa 6%ni ko'rsatdi.

– umumiy holatda esa o'quvchilarning natijalari 25% o'sdi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasining mavjud holatini aniqlash uchun olib borilgan tajriba-sinov natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, 6-sinf o'quvchilari tasviriy matn yaratishda tasviriy matnning mazmun jihati va tasviriy matn strukturasi, tuzilishini shakllantirishda asosiy muammolarga duch kelishmoqda. Tajriba-sinov natijalari yakunida o'quvchilar qayta tasviriy matn yozishdi. So'nggi tajriba-sinov natijalaridan shu ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar va materiallar o'quvchilarning tasviriy matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirishga sezilarni ta'sir ko'rsatgan.

#### ADABIYOTLAR

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent – 2019.
2. "O'zbek Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent– 2020.
3. Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiya. – T.:Navoiy universiteti, 2019. – 160 b.
4. Azimova I. Lisoniy malakalarni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
5. Brown, H. 2007. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Langu age Pedagogy. (2nd ed.). New York: Longman.
6. Mavlonova. K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 2019. 237.
7. Mavlonova K. Umumiy o'rta ta'lim jarayonida yozma ishlarni tashkil etish. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2019.



UDK: 415.61=29 (045)

*Dilshoda IBRAXIMOVA,*

*Qashqadaryo VPyAMO'MM "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasida v/b dotsenti*

*E-mail: dilshodaxonibraximova69@mail.ru*

*Qarshi DU f.f.d.prof. X.Jabborov taqrizi ostida*

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI ANTROPONIMIK BIRLIKLARINING LISONIY VA NUTQIY VAZIFALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada til tizimining har qanday sathiga oid birliklar nutqiy faoliyat jarayonida, ya'ni insonning yaratuvchanlik qobiliyatini faollashuvda hosil bo'lishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Muloqot, ishtirok, antroponimik birlik, kommunikativ faoliyat, fikriy izchillik, yaratuvchanlik qobiliyati, kommunikativ imkoniyat.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И РЕЧЕВЫЕ ФУНКЦИИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье описано формирование единиц любого уровня языковой системы в процессе речевой деятельности, то есть при активизации творческих способностей человека.

**Ключевые слова:** Общение, участие, антропонимическая единица, коммуникативная деятельность, интеллектуальная состоятельность, творческая способность, коммуникативная возможность.

## LINGUISTIC AND SPEECH FUNCTIONS OF ANTHROPONYMIC UNITS OF THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article describes the formation of units of any level of the language system in the process of speech activity, that is, in the activation of human creativity.

**Key words:** Communication, participation, anthroponymic unit, communicative activity, intellectual consistency, creative ability, communicative opportunity.

**Kirish.** Til tizimining har qanday sathiga oid birliklar nutqiy faoliyat jarayonida, ya'ni insonning yaratuvchanlik qobiliyatini faollashuvda hosil bo'ladi. Nominatsiyani faoliyat mezoni asosida talqin qilish g'oyasi tilni ko'p vazifali faoliyat sifatida tadqiq qilish tashabbusi bilan chiqqan Praga lingvistik maktabi a'zolari tomonidan ilgari surilgan edi. Unga ko'ra, "Inson ichki va tashqi, real va mavhum holatlardagi borliqni tarkibiy qismlarga ajratishda nominativ faoliyatga tayinlanadi. Mazkur faoliyat natijalari esa tilning markaziy birligi va asosiy nominativ funksiyasini namoyon etadigan so'zlarda mujassamdir".

Darhaqiqat, nominantlar borliqdagi narsa va hodisalarni atash barobarida borliqni kategorial belgilarga ko'ra tasniflash, kommunikativ faoliyat uchun zamin yaratuvchi sintaktik-semantik imkoniyatlarni yaratuvchi lingvokognitiv vositalarni vujudga keltirishi bilan xarakterlanadi. M.V. Nikitinning qayd etishicha, "ushbu jarayon moddiy va nomoddiyliklarni ism guruhida, belgi, miqdor, harakat va holatlarni esa belgilar guruhida tasnifiy idrok etish va narsalarni belgilar, belgilarni esa narsalar vositasida anglash imkonini yaratadigan mexanizmni vujudga keltirish bilan bog'liq maishiy falsafaga asoslanadi".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** D. Katsnelson ushbu uzviylikka bevosita va bilvosita nomlashga asoslanuvchi yadro va periferik munosabat nuqtai nazaridan baho beradi. Unga ko'ra, bevosita nomlash so'zning ekstension tabiqiga asoslanadi va bunda fikriy izchillik bevosita narsalar va tushunchalarga yo'naltirganligi xarakterlanadi. Bilvosita nomlashda esa so'z o'zining intension tabiqiga ega bo'ladi va bunda fikriy izchillik bevosita narsaga emas, balki uning mohiyatini taqozo etuvchi belgilarga yo'naltiriladi.

Har ikkala holatda nomlash o'z ibtidosiga "nomlovchi subyekt (nominator), nomlanuvchi obyekt (nominat) va nom (nominant)" kabi ishtirokchilarga asoslanuvchi subyektiv faollik orqali ega bo'ladi. Mazkur faoliyat ijtimoiy qiymat kasb etishi esa insonning o'z taassurotini boshqalar bilan bo'lishish istagi va ehtiyoji tufayli adresat hisobiga kengayishi, ya'ni "nomning muloqot ishtirokchilari bo'lgan nominator va adresatlar uchun umumiy proyeksiya (ifodalash hamda tinglab tushunish) vositasi sifatida xizmat qilishi" orqali yuz beradi.

Nominatsiya bevosita fikrlashdan emas, balki borliqni kuzatish, ular ustida muayyan ruhiy amaliyotlar bajarish orqali obyekt haqida ma'lumot olish, bilim jamg'arishdan boshlanadi. Shu xususiyatiga ko'ra nominatsiya tashqi va ichki faolliklar uzviylikda yuzaga keladigan "ehtiyot, harakat, motiv, maqsad" kabilar izchilligida voqelanuvchi faoliyatni taqozo etadi.

Har bir leksik birlik, jumladan, shaxs nomlarining tabiatini bilish uchun uning nominativ xususiyatlaridan tashqari, kommunikativ imkoniyatlarini o'rganish ham zarur bo'ladi. Shaxs nomlari "faoliyat materiali yoki vositasi" sifatida o'rganilganda, ko'plab yashirin jihatlari ko'zga tashlanishi bilan bir qatorda, uning matn tarkibida boshqa til birliklari bilan munosabatga kirishuvdan hosil bo'luvchi kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ham aniqlanadi.

V.I. Suprun qayd etganidek, ...onomastik birliklar nutq faoliyatida nutq subyekt, obyekt, harakat joyi va boshqalar kabi muhim koordinatalarining belgisini ta'minlaydi. Bu borada onimlar yuqori kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarga ega: ularsiz nutqning fatik va vokativ funksiyalarini to'liq amalga oshirishning imkoni yo'q. Shu jumladan tilning asosiy ijtimoiy-madaniy funksiyasini amalga

o'shishda asosiy zalvor atqli otlar zimmasiga tushadi: ularda har qanday etnolingvistik jamoaga xos milliy lingvistik xususiyatlar o'z aksini topadi .

“Atoqli otlar doirasini ko'p hollarda til sohasiga bog'laydilar. Haqiqatan, shunday nutq vaziyatlarini tasavvur qilish mumkin, unda odamlar biror ismni tilga olmay kun bo'yi yoki soatlab suhbatlashadilar. Demak, ismlar nutqda faqat ehtiyojga, zaruratga ko'ra paydo bo'ladi. Biroq, til – barcha so'zlar va shakllar xotiramizda talab etilmagunga qadar saqlanib turadi. Demak, atqli otlarga xos xususiyat bunda emas”

O.I.Fonyakova atqli otlarning funksiyalarini boshqacha baholaydi va ularni ma'no segmentlariga ko'ra guruhlariga ajratadi Uning fikriga ko'ra, birinchi guruh onomastik nominatsiya maydonidagi funksiyalardir: 1. Lisoniy:Nominativ-differensial, Identifitsial, Deyktik/ko'rsatish. 2. Nutqiy: Pragmatik, Apellyativ, Aloqa tiklovchi, Murojaat, Fatik. Ikkinchi guruh – atqli otlarning signifikativ maydondagi funksiyalari: 1.Konseptual. 2.Informativ. 3. Akkumulyativ.

Atqli otlarning uchinchi guruhi, O.I. Fonyakovaning fikriga ko'ra, konnotatsiya maydonidagi funksiyalardir. Ular ham, nomlash maydonidagi kabi kichik guruhlariga bo'linadi:1.Lisoniy: Stilistik, Hissiy-baholash, Ijtimoiy-baholash, Hududiy, Madaniy-tarixiy. 2. Nutqiy: 1.Umumiy matn yaratuvchi, Estetik. Shu taxlitda, O.I. Fonyakova atqli otlarning turdosh otlardan farqini aks ettiruvchi 18 funksiyasini ko'rsatib o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Antroponimik birliklar til belgilarining o'ziga xos turidir. Ular og'zaki va yozma muloqotda, turli matnlarda boshqa barcha til belgilari singari o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

R.O.Yakobson kommunikativ akt jarayonini o'rganib, “tilning ikkinchi darajali omillarini ham chuqur o'rganish lozimligini ta'kidlagan edi. Shu nuqtai nazardan R. Yakobson tomonidan ilgari surilgan tilning emotiv (emotsional-ekspressiv), fatik, metalisoniy va estetik funksiyalari”ni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi

Ma'lumki, gapirayotgan shaxsning ruhiy holatini, hissiyotini, istaklarini ifodalash orqali til o'zining emotiv vazifasini, aloqaga kirishuv va keyingi mazmundor muloqotga tayyorlanish orqali fatik, axborotni yanada tushunarliroq, ifodalibroq yetkazish uchun tilning turli vositalaridan foydalanish orqali metalisoniy, axborotning estetik anglanishida til tizimining estetik vazifasi amalga oshadi.

A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida keltirilgan ushbu misrani eslatib o'tamiz: “Agar Farhodning Shirin, bo'lsa majnunlarning Laylosi, Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning “Ra'no”si.

Ushbu keltirilgan misrada antroponimik birlikning metalisoniy funksiyasi namoyon bo'lada. “Ra'no” antroponimik birligi gulshandagi barcha gullar ichidagi ra'no guliga tenglashtirilib, aslida muallif haqiqatan gulni ifodalashga uringanmi yoki gulning nomi orqali asar qahramonini nazarda tutganmi degan mulohazaga chorlaydi.

Til belgisi sifatida antroponimik birliklar ma'lum bir mazmunga ega bo'lib, bu mazmun quyidagi komponentlarga ajratilishi mumkin:

a) eng avvalo antroponimik birlik ifodalayotgan predmet yoki denotatning mavjudligi. Agar denotat mavjud bo'lmasa, uning ismi ham bo'lmaydi. Bu komponent o'z mohiyatida axborotni yashirin mujassam etadi;

b) denotatning aniq sinfga mansubligi, ya'ni ismning denotati – inson. Ismning mazmuniga xos ushbu komponent ismning qaysi jins vakiliga xos ekanligi haqidagi axborotni ham mujassam etadi. Bu komponent o'zida yarim yashirin axborotni tashiydi;

v) antroponimik birlik, ya'ni ism, familiya, taxallus, laqabning aniq bir shaxsga tegishligi;

g) ismning denotat haqida yetkazuvchi axborotning to'liq ekanligi, ya'ni suhbatdoshning aynan kim haqida so'z borayotganligini anglashi.

Har bir antroponim signifikativ vazifani bajaradi. Bu esa universal ijtimoiy komponent – milliy tegishlilikni anglatishdan iborat: ismlar – milliy mulk, ismlar milliy belgilar (John, Ivan, Mamarayim)dir. Xususan, mazmun jihatidan turdosh otga juda yaqin keluvchi, etnonimlarga asoslangan ismlar bu vazifani amalga oshirishda ustunlik qiladi va o'zga til doirasida boshqa elga mansubligi haqidagi axborotni yetkazgan holda “begona” hisoblanadi. Masalan, Qozoqbo'y, O'zbekoyim, O'zbek, Qirg'izbo'y, English, Welsh, Scott, Francis, Judith, Roman.

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tiliga xos antroponimik birlik John butun boshli ingliz xalqini ifodalaydi. Idiomatik birlikka aylangan Jack antroponimi erkak kishini, Gill (Jill) esa ayolni anglatadi. Jack and Gill (Jill) – yigit va qiz yoki erkak va ayol (Every Jack has his Jill – Har kim tengini topadi). (A good Jack makes a good Jill - Yaxshi kishining ishi ham xayrli bo'ladi); (Aqli kishilarning qilg'an ishlari noma'qul bo'lmas. Every man Jack – hamma erkaklar. Jack antroponimi, asosan, o'rta asrlarda ommalashgan bo'lib, u Jackin (ilgari Jankin) antroponimining qisqargan shakli hisoblanadi. Jackin (ilgari Jankin) esa John ismining o'zgargan shaklidir. O'rta asrlarda Jack antroponimi shu qadar ommalashganki, natijada ism turdosh so'zga aylanib, tilda erkak jinsiga mansub barcha insonlarni anglatgan.

Ism – inson tarixi hamda tillarning juda ko'p muammolarini hal etuvchi kalit, chunki tilning boshqa biror sohasida “o'z” va “yot” tushunchalari bu qadar kuchli singmagan, unda imkoniyatlar ismning o'ziga xos xususiyatlari bilan shartlangan va hatto yuzaki muloqotda ham til, vaqt, hududiy chegaralarni oshib o'ta oladi. Antroponimik birlik o'ziga xos madaniy-tarixiy indikator bo'lib, u ism egasining qaysi xalq va qaysi madaniyat vakili ekanligini anglatadi Bu orqali antroponimik birlik o'zining madaniy-xarakterlovchi funksiyasini amalga oshiradi.

Professor A.V.Superanskayaning antroponimik birliklar tashiydigan axborotlarning uch tipini, lisoniy, nutqiy va ensiklopedik kabilarni qayd etganini eslatib o'tgan edik. Ism tashiydigan axborotning doimiy shakli – lisoniy tipdir.

Ismlar mazmuni borasidagi savol nafaqat nazariy ahamiyatga ega bo'lmay, u madaniyatlararo va tillararo aloqalarda ham juda dolzarb hisoblanadi. Atoqli ot tillararo to'siqlarni osongina kesib o'tadi va o'zi mansub bo'lgan til doirasidan tashqarida qo'llanganda ham o'z shaklini saqlashga intiladi. Biroq, qachondir ular mazmunining ma'lum bir elementlari uchun to'siqlarni kesib o'tish qiyin kechadi. O'z mazmunini saqlay olmagani ismlar o'zga til doirasida vazifa bajara olmaydi. Shu o'rinda tushunmaslik muammosi kelib chiqadi. Atoqli otning vazifasi har qanday til doirasida va har qanday vaziyatda nomlash-aniqlashtirish bo'lsada, u juda ko'plab vaziyatlarda milliy til mansubligini saqlab qoladi.

Ismning denotat bilan aloqasini amalga oshiruvchi axborot turi nutqiy axborot hisoblanib, bunda so'zlovchining obyektga nisbatan hissiy munosabati oydinlashadi. Bu nutq vaziyatining ekstralingvistik shartlariga bog'liq bo'lib, shartlarning o'zgarishiga ko'ra axborot hajmi ham o'zgarishi mumkin. Ism ushbu axborot bilan nutqiylashadi.

Murojaat etilgan ma'lum bir ism haqidagi bilimlar, axborotlarning majmui ensiklopedik shakl bo'lib, bunda ushbu ismdan foydalanayotgan til ishtirokchilarining barchasi ushbu bilimlarni egallashlari nazarda tutiladi.

Hech bir shaxs yagona, faqat o'zigagina tegishli ismga ega bo'la olmaydi. Chunki, bir ism takror va takror ko'p shaxslarga berilishi mumkin. Masalan, statistik ma'lumotga ko'ra 2020 yilda Angliya va Uels hududlari kesimida eng ko'p tanlangan ism Muhammad (Muhammad (3710), Mohammed (1615), Mohammad (751) bo'lgan (Buyuk Britaniya Milliy

Statistika tashkilotining Health.Data@ons.gov.uk elektron pochtasidan 2022 yil 30-iyunda yuborilgan ma'lumotidan), O'zbekistonda esa 2021 yilda Muhammadali ismi 28037 nafar o'g'il bolaga, Soliha ismi 28982 nafar qizga, 2022 yil 1 iyul holatiga ko'ra Muhammadali ismi 9567 nafar o'g'il bolaga, Soliha ismi esa 9929 nafar qiz farzandga qo'yilgan (O'zRes. Adliya vazirligining 2022 yildagi 24/8-3/3-325-sonli xatiga ilovasidan). Aniq bir vaziyat chegarasidan tashqarida, yakka tartibda ismlar hech bir aniq shaxsni anglatmaydi va hech qanday funksiyani amalga oshirmaydi: Baxtiyor, Gulnora, Abdurasul, Ivy, Lily, Izabella, Henry, Jack. Til sohiblari tomonidan anglanishi mumkin bo'lgan aniq bir shaxsга tegishli bo'lmagan ismlarni an'anaviy antroponimlar deyish mumkin. Bunday antroponimlar qo'llanadigan muloqot maydoni toraytirilishi, chegaralanishi kerak, aks holda nutq ishtirokchilari uchun ensiklopedik axborot yetarli bo'lmaydi va ular ism denotatini anglay olmaydilar.

Biroq, shunday antroponimlar ham borki, ular ko'p kishiga tegishli bo'lishi mumkin, biroq shu ko'plik orasidan, eng avvalo, faqat bir kishi bilan uzviy bog'lanadi. Bular keng ommaga tanilgan, tarixda yaxshi yoki yomon iz qoldirgan, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan, butun olam yoki ma'lum bir kishilik jamiyati taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi kashfiyotlar qilgan mashhur kishilardir (Muhammad s.a.v, Temur, Bobur, George, Isaak, Benjamin). Bunday ismlar maxsus antroponimlar sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bu ismlarga ega bo'lgan kishilar soni ko'plikni tashkil etishi tabiiy hol, chunki bu kabi mashhurlar va taniqli shaxslarning ismlari motivatsion xususiyatga ega bo'lib, albatta, ota-ona tomonidan o'z farzandiga tanlanadi. Lekin aytilish mumkinki, bunday ismlar eng avvalo o'z sohiblari orasidan aynan o'sha mashhur bir kishi shaxsi bilan uzviy aloqada bo'lib, shunday taniqli shaxs mavjud ekanligi haqidagi axborotni yetkazadi. Masalan, Sohibqiron, Temur yoki Albert, Einstein (Eynshteyn, biroq ingliz tilida talaffuzi Aynsteyn) antroponimlarini eshitganimizdayoq, eng avvalo, bu ismlarning mashhur egalari buyuk sarkarda va mashhur nazariyotchi fizik siymosi ongimizda gavdalanadi va hatto, ismning o'zini ilk bor eshitganimizda uni tanlanishining sababi, omili haqidagi fikrlar suhbat yoki muloqot mavzusiga sabab bo'lishi mumkin. Ism egasi qaysi borada mashhurlikka erishmasin, uning ismi parallel tarzda tanilib boradi. Bu esa taniqli antroponimning onomastikaning boshqa guruhlariga ko'chishiga va hatto turdosh otga aylanishiga olib keladi. Masalan, Bobomurod Omonov jamoa xo'jaligi, S. Rahimov ko'chasi, hooligan (xuligan), sandwich (sendvich).

Klarens Ruk 1899 yilda yozgan "Hooligan Nights" kitobida yozishicha, Londonda o'g'ri va kazzob Patrik Huligan ismli shaxs yashagan. U yomon xulqi bilan shu qadar tanilganki, Huligan antroponimik birligi bezori bolalarga nisbatan qo'llanuvchi "xuligan" turdosh otga aylangan.

Nutq umumiy va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir. Nutqning maqsadga yo'naltirilganlik xarakteri suhbatdoshga va tushunilishiga asoslangan. Nutqning maqsadga yo'naltirilganligi ekstralingvistik vaziyatga bog'liq. Til uzusida antroponimlar kommunikativ funksiyani bajaradi.

Insoniy munosabatlarning asosini til belgilari orqali aloqaga, muloqotga kirishuv tashkil qiladi.

So'zlovchi ism referentiga nisbatan ijobiy, salbiy yoki neytral munosabatni bildirish maqsadida antroponim shaklining ma'lum bir variantini tanlaydi. Ismlarsiz insonlar o'rtasida muloqotni amalga oshirish juda qiyin. Muloqot jarayonida biz juda ko'p holatda antroponimik birliklarga tafakkur jarayonimizning ajralmas qismi sifatida murojaat qilamiz: Kecha bu haqida Dilfuz bilan jiddiy gaplashib oldim. Bunda til belgisi bo'lgan antroponimik birlik referent funksiyasini amalga oshiradi: u butun bir sinfini emas, aniq bir shaxsni ko'rsatmoqda.

– Shu ayolning ismini eslolmayapman? Kim edi?

– Shohida Uzoqova-ku. Alisher Uzoqovning onasi.

Hozirgi kunga qadar o'zbek madaniyatida saqlanib kelayotgan udumlardan biri, turmush qurgan ayolning o'z turmush o'rtog'ining aka-ukasi va opa-singlisini o'z ismi bilan emas, biror-bir laqab bilan nomlashidir. Laqab ularning oiladagi tug'ilish navbati, kasbi-kori, ko'rinishi, boshqa biror xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holatda tanlanadi. Masalan, Kenja, O'qituvchi, Usta, Go'zalxon, Erkajon va h.k.z. Ingliz tilida ayol turmush o'rtog'ining familiyasi bilan nomlanib, nom nominativ, signifikativ, fatik, referent funksiyalarni amalga oshiradi: Mrs.Johnson, Mrs.Blake. Antroponimik birlik fatik funksiyani bajaradi, ya'ni u suhbatdosh bilan muloqotni boshlab olish va keyingi bosqichga o'tishga yo'l ochadi.

– Gavhar, Gavha-a-r, Gavhar deypapman, menga qara.

Menga qara deypapman.

So'zlovchi adresatning ismini aytish orqali uning eshitayotgan yoki eshitmayotganligini tekshirishga urinadi.

Antroponimik birliklarning eng muhim funksiyalaridan biri bu ekspressiv funksiyadir. Chunki, antroponimik birliklarning ekspressiv funksiyasi so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida ism egasiga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Bu funktsiya so'zlovchi tomonidan antroponimik birlikni nutq jarayonida qay tartibda qo'llashiga bog'liq holda amalga oshirilishi kuzatiladi.

O'zbek tilida ismning yetakchi o'ringa o'tkazilishi anglangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshiriladi. Chunki rasmiy qo'llash doirasidan chiqmagan holda, komponentlarning ichki almashuvi orqali (ism, sharif, familiya) formal kontekstning nomlash funksiyasida pragmatik aspekt keskin o'zgaradi: bunda so'zlovchi ism egasining shaxsiga nisbatan alohida hurmatini ifodalaydi. Bundan kelib chiqadiki, ilmiy nashrlarda, ma'ruzalarda antroponimik birliklar kompleks ism, sharif, familiya tartibida tilga olinsa, masalan, To'ra Ergashevich Ibraximov tarzida, ya'ni to'liq va yuqorida ko'rsatilgan tartibda, bunda so'zlovchining antroponim egasi bo'lgan shaxsга nisbatan alohida hurmatini anglash qiyin emas va ular o'rtasida mumkin bo'lgan shaxsan tanishlik, yaqinlik munosabatlari haqida axborot beradi.

**Xulosa va takliflar.** Demak, o'zbek tilida antroponimlar o'rnining bu kabi almashuvi diskursning pragmatik bo'yoqdorligini o'zgartirib yuboradi. Ingliz tilida esa munosabatning bu kabi darajasi kuzatilmaydi, chunki ism yetakchi komponent sifatida saqlanib qoladi. Faqat familiya orqali muloqotni yo'lga qo'yish har ikki tilda ham rasmiylikning keskinlashgan darajasini oshiradi.

Binobarin, vokativ funksiyani bajarayotgan ismni idrok etishda farqlar ancha sezilarli. Rasmiy qolipdagi antroponimik birliklar o'zining fatik funksiyasida so'zlovchining ism egasiga nisbatan hurmatini anglatga ham, suhbatdoshlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa saqlanayotganidan darak beradi.

O'zbek tilida nom sifatida rasman qabul qilinmagan va ma'lum bir muloqot diskursida qo'llanayotgan antroponimik birlikning erkalovchi, qisqartirilgan, suyuvchi shakllari so'zlovchining ism egasiga nisbatan iliq munosabatini ifodalaydi (Gulinur, Guli, Gulli, Gulish, Gulijon, Gulijonim). Biroq, ismlarning bu kabi shakllarini qo'llovchilar doirasi chegarali bo'ladi. Bundan tashqari, antroponimik birliklarga xos bo'lgan yana bir ijtimoiy-madaniy xususiyat ular o'z sohiblari bilan birga "o'sib", "o'zgarib" boradi. Insonning yoshi ulg'ayishi, jamiyatda tutgan o'rnini, mavqei, kasbi-kori, turmush tarzi o'zgarishi bilan bog'liq holda ismning shakllari o'zgarib boradi. Bolaligida Nur, Nurik, Nurikjon tarzida murojaat etilgan antroponimik birlik o'smirlikda Nuriddin, Nuriddinjon, Nuriddinbek, o'rta yosh va keksalik davriga

kelib Nuriddinboy, Nuriddinchol kabi shakllarga ko'chib boradi.

Muloqot ishtirokchilari yoshi, ijtimoiy doirasiga ko'ra antroponimik birlik shaklining to'g'ri tanlay bilish zarur. Masalan, ulg'ayish yoshiga yetmagan shaxsga nisbatan sharifi bilan murojaat qilish yoki atash noqulay yoki kulguli vaziyatni yuzaga keltirishi mumkin.

Madaniyatning bir belgisi sifatida kishi ismi shaxsning kognitiv maydonida alohida o'rin egallaydi. Qaysi antroponim madaniyatlararo yoki bir madaniyat maydonining muloqot

jarayonidagi ishtirokini baholay bilish qiyin. Antroponimlar strukturasi yetarli darajada egiluvchanligi uning shakllaridan foydalanish imkonini kengaytirish bilan birga, o'z navbatida kognitiv akti amalga oshirishiga omil bo'ladi.

Demak, til sohibining kommunikativ kompetentligi shaxsning antroponimdek nozik vositadan foydalana olishida namoyon bo'ladi. Antroponimlardan "foydalanish qoidasi"ni bilgan kommunikant muloqot jarayonida antroponim shaklini to'g'ri tanlash orqali atrofdegilar bilan o'zaro munosabatini boshqara oladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Резанова З.И. Метафорический фрагмент русской языковой картины мира: идеи, методы, решения // Вестник Томского государственного университета, 2010. – №1 (9). – С.26-43.
2. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. Учебное пособие. 2-е издание, дополненное и исправленное. – СПб: РГПУ, 2007. – 819 с.
3. Фоянкова О.И. Имя собственное в художественном тексте. Уч. пособие. Ред. И.А. Сеина. – Ленинград: Печатно – множительная лаборатория ЛГУ, 1990. – С.16
4. Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика//Структурализм: “за” и “против”. – М.:Прогресс, 1975. - С. 197-203
5. Матвеев А.К. Апология имени // Вопросы ономастики. – Екатеринбург // УралГосУн., 2004. – №1. – С.11
6. Суперанская А.В. Терминология и ономастика // Вопросы разработки научно-технической терминологии. – Рига, 1973. – 324 с.
7. Суперанская А.В. Языковые и внеязыковые ассоциации собственных имен // Антропонимика. – М., 1970. – С.7-17.



UDK:811.1

**Jo‘rabek ISLOMOV,**  
Erkin tadqiqotchi  
E-mail: [jurabek.islomov.89@mail.ru](mailto:jurabek.islomov.89@mail.ru)

*O‘zRFA O‘TAFI katta ilmiy xodimi, f.f.n. E.Ochilov taqrizi asosida*

### ISAJON SULTONNING PORTRET YARATISH, PEYZAJ VA BADIY DETAL QO‘LLASH MAHORATI

Annotatsiya

Keying yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq so‘zni, haqiqatni aytish erkinligi keng qamrovda rivojlandi. Bu borada o‘zbek nasrida ancha yutuqlarga erishildi. Nasrda milliy adabiyotning ko‘p asrlilik tajribasi va jahon adabiyotidagi izlanishlarga tayangan holda yangi-yangi asarlar yaratilmoqda. Ana shunday tajribali nasr ustalaridan biri - Isajon Sultonidir. Ushbu maqolada Isajon Sultonning poertret yaratish, peyzaj va badiiy detal qo‘llash mahorati, hayotni o‘zlashtirishning aksi bo‘lgan obrazlilik, ramz va ramzlashtirish masalalari tadqiq qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Poertret, peyzaj, detal, roman, hikoya, badiiyat ramz, majoz, timsol, tahlil, “Bog‘i Eram”, “Oydinbuloq”, “Sog‘inch”, “O‘rmondagi kulba”, “Shamolli kecha”, “Todd”, “Sofiya”, “Ozod”, “Qismat”, “Boqiy darbadar”.

### ISAJON SULTON’S SKILL OF CREATING PORTRET, LANDSCAPE AND USING ART DETAIL

Annotation

In the literature of the following years, the freedom to truly create, speak and tell the truth has developed widely. Much progress has been made in Uzbek prose in this regard. In prose, new works are being created based on the centuries-old experience of national literature and researches in world literature. One such experienced prose master is Isajon Sultan. In this article, Isajon Sultan's ability to create portraits, use landscapes and artistic details, and the issues of imagery, symbols and symbolization, which are the reflection of mastering life, are researched.

**Key words:** Portrait, landscape, detail, novel, story, art, symbol, metaphor, symbol, analysis, "Eram's Garden", "Oydinbuloq", "Missing", "Hut in the Forest", "Windy Night", "Todd", "Sofia", "Free", "Fate", "Eternal Wanderer".

### МАСТЕРСТВО ИСАДЖАНА СУЛТАНА В СОЗДАНИИ ПОРТРЕТОВ, ПЕЙЗАЖЕЙ И ПРИМЕНЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ДЕТАЛЕЙ

Аннотация

В литературе последующих лет широкое развитие получила свобода по-настоящему творить, говорить правильное слово, правду. В этом отношении в узбекской прозе достигнуты большие успехи. В прозе создаются новые произведения на основе многовекового опыта отечественной литературы и исследований мировой литературы. Одним из таких опытных мастеров прозы является Исаджон Султан. В данной статье исследуются способности Исаджона Султана создавать портреты, использовать пейзажи и художественные детали, а также вопросы образности, символов и символизации, которые являются отражением освоения жизни.

**Ключевые слова:** Поэзия, пейзаж, деталь, роман, рассказ, искусство символ, образ, эмблема, анализ, “Садовая Эра”, “Ойдинбулок”, “Госка”, “Избушка в лесу”, “Ветреная ночь”, “Тодд”, “Софья”, “Свобода”, “Судьба”, “Бессмертный скиталец”.

**Kirish.** Adabiyot – inson ichki olamini, ruhiyatni aks ettiruvchi ko‘ngil ko‘zgi, ko‘zdagi va qalbdagi ma‘nolarning aks-sadosi, inson tafakkurining mahsuli ularoq dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlardir. Bu asarlar ya‘ni badiiy asarlar adabiyot va san‘atning voqe bo‘lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy mulqot vositasi hioblanadi. U o‘zida muayyan ijodiy-ruhiy holatni aks ettiradi. Bu tasvirlar albatta ma‘lum bir badiiy obraz orqali yuzaga keladi [1]. Badiiy obraz voqelikdagi narsa-hodisaning ijodiy qayta ishlangan aksi, shunga ko‘ra, u o‘sha narsa hodisani konkret his etiladigan tarzda tasvirlaydi. Ayni chog‘da, tasvirlangan narsa muayyan mazmuni ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy obraz tasvir va ifoda xususiyatlaridan iborat. Badiiy obrazning tasvir va ifoda xususiyati bir-biri bilan turlicha munosabatda bo‘ladigan tushuncha, tasavvur, faraz va shu kabi tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor badiiy obrazvositasida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi. Shu sabali u voqelikni faqat san‘atga xos usulda o‘zlashtirib va o‘zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Portret adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o‘zini tutishi va hokozalarining

badiiy asarlardagi tasviri bo‘lib, “ijodkor portret yaratishda yuz, ko‘z, qosh, lab, burun kabi a‘zolari tasvirlash bilan cheklanmay, gavda, qo‘l, bosh harakatlari manerasi, gapirish ohangi va sur‘ati, kulishi, yig‘lashi (ushbu holatlardagi mimikasi) kabi inson ruhiyati bilan bog‘liq faoliyatlarga ham katta e‘tibor qaratadi” [2].

Badiiy obraz portretining ikki qirrasini mavjud: obrazning tashqi qiyofasi va uning ichki individual-psixologik qiyofasi. Bu xil tasnif, albatta, shartli bo‘lib, har ikki holatda ham yozuvchi qahramonning ruhiyati, xarakteriga kirib borishga harakat qiladi.

Badiiy obrazni yuzaga keltiruvchi asosiy omil bu badiiy portretdir. Badiiy portret – personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri; badiiy obraz yaratishning birlamchi shaklidir. Portret personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliq va odatlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. Portret adabiyotda qadimdan mavjud bo‘lgan hamda tasvir vositasi sifatida o‘zgarib takomillashgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi zamonaviy adabiyotimiz adabiyotimiz turfa xil shakl va ohanglarda o'z aksini topmoqda hamda uning rivojiga o'zining salmoqli ijodi bilan munosib hissa qo'shib kelayotgan, adabiy jarayonda faol ishtirok etayotgan adiblar talaygina. Normurod Norqobilov, Xurshid Do'stmuhammad, Ahmad A'zam, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Luqmon Bo'rixon, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlarning o'ziga xos yo'sinda yaratgan asarlari milliy nasrmiz taraqqiyotini belgilab bermoqda. Bugungi kun ijodkorlari milliy adabiyotning ko'p asrlilik tajribasi va jahon adabiyotidagi izlanishlarga tayangan holda yangi-yangi asarlar yaratishmoqda. Yozuvchilarimiz o'z ijodiy erkinliklari tufayli noan'anaviy ko'rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiyotga olib kirmoqdalar. Ana shunday tajribali ijodkorlardan biri, milliy istiqlol nasriga o'ziga xos uslub, yo'nalish bilan kirib kelgan qator roman va hikoyalar muallifi Isajon Sulton ijodi alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Uning badiiy obraz yaratish va badiiy detallardan mohirona foydalanishi ko'plab tadqiqotlarga zamin hozirlamoqda.

Isajon Sultonning orginal uslubi g'arb va sharq prozasining yuksak ideallari va badiiy sintezni ifoda etgan "Bo'ri", "Og'riq tog'i", "Bog'i Eram", "Yog'och kovush", "Ota qasidasi", "Go'zal", "Tosh kelinchak", "Shamolli kecha", "Bo'ri", "Qismat" kabi qator hikoyalari bilan keng jamoatchilikka tanildi, kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Ma'lumki, keyingi davrda insonlar uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'ladigan kishilar obrazini yaratishga intilish ancha kuchaydi. Adabiyotshunos U.Normatov ta'kidlaganidek, "kuchli, go'zal inson obrazi yaratilgan asarlarga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgan, millat o'z qadrini rostdash, o'zligini to'laroq namoyon etishga erishgan hozirgi kunlarda nihoyatda katta" [3]. Isajon Sulton hikoyalari bugining kishisi, uning orzu-umidlari, dardu hasratlari real voqealar bayonida, o'ziga xos badiiy uslubda ifoda qilinadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Portret ijodkorning inson dunyosini qanchalik chuqur bilishini namoyon etish bilan birga o'quvchining ham inson tabiati to'g'risidagi fikrlarini kengaytiradi, qahramonlarning dardini tushunishi va his qilishiga yordam beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, ijodkorning badiiy mahoratini uning adabiy qahramon portretini tasvirlashiga qarab ham belgilasa bo'ladi. Isajon Sulton asarlarida inson obrazining turli xil talqinlarini kuzatish mumkin. Adib odamlar aro munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo'lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan insonlar. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida tasvirlangan qahramonlar portreti nihoyatda puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Qodiriyning portret yaratish an'anasi zamonaviy adabiyotimizda ijod qilayotgan yozuvchilarimiz asarlarida o'ziga xos uslubda davom ettirilmoqda. Jumladan, Isajon Sulton ham qator hikoyalari bir qancha qahramonlar obrazini yaratgan. U yaratgan qahramonlarning har biri takrorlanmas qiyofasi, kechmish-kechirmishlari bilan o'quvchilar e'tiborini tortadi. Yozuvchi "Oydinbuloq" hikoyasidagi bosh qahramonlardan biri Parizod obrazini tasvirlar ekan, bunda portretning ekspozitsion turidan foydalanadi, ya'ni qahramon asarda ilk marta ko'rinishi bilanoq uning tashqi ko'rinishini ta'riflaydi:

"Oydinbuloq yoniga burildimu... o'sha yerga bir nur tushib turganini ko'rib qoldim. Nur samodan yog'ilmas, Oydinbuloqdan taralar :edi.

Oydinbuloq yonida bir pari turar edi. Uning libosi... Nimasini aytoy, yer qizlari bunday libosni tushlaridayam ko'rmaydilar.

Ko'zlari yulduz edi. Bunday fusunkor ko'zlarni olamda faqat men ko'rganman. Boshqalar ham ko'rganlarida, xuddi men kabi devona bo'lar edilar.

O', bu olamda uning o'xshashi bormikin? U yer qizi emas, ko'k qizi edi" [4].

Portret adabiy qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash asosida uning xarakter qirralarini ochishga xizmat qiladi. Parizodning portretida muallif tengi yo'q pari-paykalni tasvirlash asnosida nur detalidan bir-necha o'rinlarda foydalanadi. Ayni vaqtda ushbu detal Parizodning tashqi va ichki qiyofasiga ishora qilmoqda. Adib o'quvchini obraz mantig'iga yetkazish maqsadida hikoyaning bir necha o'rinlarida qahramonlarning psixologik portretini yaratgan.

Yozuvchi qahramon portretini o'zi tavsiflamaydi, balki boshqa bir qahramon tilidan tasvirlaydi. Masalan, asar qahramoni o'z sevgilisining tashqi qiyofasini "nur taralardi" degan gapini adib personaj tilidan keltiradi va bu ta'rif Parizodning qiyofasini butunligicha ifodalaydi.

Portret adabiy qahramonning tashqi ko'rinishini tasvirlash asosida uning xarakter qirralarini ochishga xizmat qiladi. Parizodning portretida muallif oshiqning bir-biridan yiroqlashishining sababi sifatida TAQDIR turishini aytadi. Ayni vaqtda ushbu detal Parizodga yetolmagan oshiq qiyofasiga ishora qilmoqda.

Umuman olganda, yozuvchi hikoyada Parizodning tashqi qiyofasi (yuzi, labi, qoshi, ko'zi, burni, yoshi kabilar)ni emas, balki uning ruhiy kechinmalarini, voqealarning unga ta'sirini tavsiflashga ko'proq e'tibor qaratgani namoyon bo'lgan.

Epik asardagi obrazlar ichki dunyosi, tuyg'ulari, botiniy evrilishlari ifodasi bo'lgan ruhiyat muayyan voqea ta'siri tufayli tug'iladi. Natijada voqea va ruhiyatning, epik bayon va hissiy talqinning uyg'unligi, uzviy aloqadorligi vujudga keladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "odam tasviri demak - to'lig'icha odamning ichki dunyosi tasviri, uning kechinmalari tasviri demakdir" [5], degan fikr voqea ahamiyatini butunlay rad etmaydi.

Ruhiyat tasviri badiiy asarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, inson psixologiyasi va ichki ma'naviy olamini tadqiq etishga qaratilgan. Shaxs ruhiyati dinamik ravishda ijtimoiy turmush, kishilar munosabatlari taqozosi bilan o'zgarib, yangilanib boruvchi jarayon. Bu jarayonni tahlil qilish an'anaviy va zamonaviy tasvir tamoyillariga bab-baravar daxldordir. Isajon Sulton asarlarida inson ruhiyati turfa chizgilarda beriladi.

"Sog'inch" hikoyasida tabiat tasviri bilan bog'liq holda inson ruhiyatidagi evrilishlarni tasvirlaydi. Adibning bu hikoyasida polifonik tasvir xususiyatari ham mujassamlashgan. Uning hikoyalari shamolning esishida ham o'zgacha bir ma'no mavjuddir. Hikoyadagi musicha obrazida ham ma'lum bir ma'no mavjud bo'lib, insonning beg'uborligi hayot yo'lidagi ziddiyatlarni ko'rinishimiz mumkin. "Oydinbuloq" hikoyasida bolalik xotiralarining beg'uborligi, inson qalbidan chuqur iz olgan yoshlik hayotining go'zalliklari haqidagi tuyg'ular insonni hech qachon tark etmasligiga ishonch hosil qiladi. [6]

Isajon Sulton hikoyalari ota, ona, o'g'il, qiz, turli qiyofadasi odamlar obrazlari alohida originallik bilan yaratiladi. Adib hikoyalari, ayniqsa, ayollar obrazi alohida mehr bilan tasvir etiladi. Bu o'rinda yozuvchining "Go'zal" deb nomlangan hikoyasi tahliliga e'tibor qaratmoqchimiz. Badiiy adabiyotda "kuz" poetik timsoli inson umri hazoni sifatida keltirilishi ma'lum, shu bois asarda kimnidir umr hazoni haqida hikoya qilinishiga ishora beriladi. "Yuzi sutday oq, qoshi qaldirg'och qanotiday, ko'zi yulduzday, qomati tippa-tik, xullas, har qanday kishini lol qoldirib qo'yadigan

darajada suluv" [7] qiz qismati hikoya syujetining asosini tashkil etadi. Adib mahorati shundaki, bu go'zal qizning boshiga tushgan savdolarini bekorchi suhbatdoshlar so'zlari orqali yoritib beradi, hikoyada qiz tomonidan aytilgan bironta so'z ishlatilmaydi. Adib iffatli, go'zal, sadoqatli, vafoli o'zbek qizining tugal siymosini to'laonli gavdalanitirib, haqqoniy va ta'sirchan aks ettira olgan. Hikoya tili o'qishli, uslub ravn, tasvir tabiiy va ta'sirchan. Obrazlarni individuallashtirishda ko'proq ularning nutqi va dialoglardan foydalanilgan.

Isajon Sulton asarlarida ko'pincha oddiy qishloq kishilari, mehnatkash va zahmatkash xalq farzandlarining taqdiri qalamga olinadi. Adibning "Tosh kelinchak" hikoyasida bo'yi yetgan Nazar qishlog'idagi Samad novchaning "cho'pday ozg'in, sochi kalta" Ummugulsum ismli qizini sevib qoladi. Muallif Nazar obrazi ichki olamini uning chek-chegara bilmas muhabbati, dardu-hasratlari fonida haqqoniy tasvirlaydi.

"Qismat" asari mustahkam kompozitsiyasi, polifonik ruhi bilan diqqatni jalb qiladi. Hikoyadagi arxitektonika, obrazlarni yoritish yo'sini betakror, yangi.

Uning yana bir "Otamga nimadir bo'ldi" hikoyasida muallif ro'zg'or tebratish ilinjida uyi, yaqinlaridan olisga ketgan ota taqdirini tasvirlaydi. Hikoya qisqagina. Personajlar ham ko'p emas: "Yozuvchi asarlarida voqeadan ko'ra insonning ruhiyati tahlili yetakchilik qiladi. Odatda, badiiy asarda ruhiy tahlil voqealar tasviriga xizmat qilsa, Isajon Sulton hikoyasida voqea-hodisa tasviri ruhiy holatni ochishga, o'quvchi tasavvurida bu holatning aniq, ta'sirli gavdalanishiga ko'maklashadi. Qahramon psixologiyasini yoritish, ko'nglini kashf etish yozuvchining bosh maqsadiga aylanadi" [8]. Asarda yozuvchi maqsadini amalga oshirishda peyzajdan juda o'rinli foydalanadi.

Asarni badiiy jihatdan mustahkamlovchi vosita uning mantiqiy markazi hisoblanadi. Asarning mantiqiy markazi - mimika, obraz, portret, voqea, detal, avtor munosabati, konflikt.

Adibning "O'rmondagi kulba" hikoyasining mantiqiy markazini qahramonlarning ichki ruhiy konfliktlari tashkil etadi.

Ijodkorning yana bir "Bog'i Eram" hikoyasi qahramoni o'zining beg'ubor bolalik kezarini eslar ekan, tabiatning bulg'anganligi, bir zamonlar zilol suv sharillab oqqan ariqlarning ifloslanganligidan dili og'rigan Xolmuhammad buva bilan uchrashuvi tasvirlangan: "Non yegisi kelayapti deb o'yladimmi, har holda, o'zimning suvga bo'kkan nonimni olib unga uzatganim esimda. Chol bo'lsa nonni oldiyu hech uyalib netmasdang xo'ngrab yig'lab yubordi" [9].

Isajon Sultonning "Qismat", "Sofiya", "Farishta" kabi hikoyalarida ham inson ruhiyatining turfa qirralari talqinlarini uchratamiz. Adib hikoyalarida ruhan yuksalayotgan inson takror va takror talqin qilinadi.

**Tahlil va natijalar.** Isajon Sulton Badiiy portret yaratishda ayniqsa, badiiy detallardan mahorat bilan foydalanadi. Uning ba'zi badiiy detallari obraz darajasiga ko'tariladi.

Nasriy asarlar obraz yaratish, jonli va yorqin kartinalar chizish, voqealarni plastik qo'shma holda gavdalanitirish uchun nazmdagina qaraganda birmuncha kengroq imkoniyatlarga ega. Lekin bundan, prozada obraz chizish uchun detal va tafsilotlarga yo'l katta ochiq ekan, ulardan istagancha foydalansa bo'larkan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har bir tasviriy vositadan, poetik san'atdan foydalanishda ma'lum qoidalarga qat'iy amal qilish lozim bo'ladi. Bunda ham obraz yaratishda asosiy narsa tasvir obekti (narsa- hodisa), odam, jonivorlar va hokozolar/ ning eng yorqin karakterini, tipik barqaror belgi, xususiyat xislatlarini aks ettirib, u haqda yaqqol, tiniq, aniq tasavvur hosil bo'lishiga imkon berishdir. O'rinda ishlatilgan jozibador detal

har qanday asarga, jumladan, hikoyalarga ham jon kiritib, alohida jilo bag'ishlab yuborishi, o'quvchi tasavvurida aniq obraz, yorqin manzara hosil qilishi mumkin. Topib ishlatilgan yorqin detal karakter chizish, obrazning ayrim jihatlarini yarq etib ko'rsatish, tipiklashtirish, umumlashtirishda favqulodda muhim ro'l o'ynaganiga Isajon Sultonning "Mening gulim", "Og'riq tog'i", "Otamga nimadir bo'ldi...", "O'rmondagi kulba", "Shamolli kecha", "Todd", "Atomlar va molekular muzeyida" hikoyalari misol bo'la oladi.

Yozuvchining har bir aksariyat asarlarida peyzaj - tabiat ta'sviri muhim rolni o'ynaydi. Uning "Sofiya", "Suvdagi kosa", "Bog'i eram" kabi hikoyalarida tabiat tavsifi asarning boshidan oxirigacha muhim o'rin tutadi, ya'ni asarning sujeti vazifasini bajargan, desak xato bo'lmaydi. Chunki asarning bosh qahramoni ham, asardagi yetakchi obrazlar ham tabiatdagi hodisalar hisoblanadi. Yozuvchi hayotdagi har bir narsani, voqea hodisani tabiat bilan bog'laydi.

Professor, adabiyotshunos Abdug'afur Rasulov esa, Isajon Sultonning "Ozod" to'plamidan o'rin olgan hikoyalarini tahlil etar ekan uning tabiat hodisalari, turfa mavjudotlarga ma'no yuklashini yuksak baholaydi.

Isajon Sultonning hikoyalarida poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masala yopishib olmaydi. Uning "Shamolli kecha", "Sog'inch", "Avliyo", "Oydinbuloq" hikoyalarida shamol esishi, o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol. Yozuvchining "Boqiy darbadar" romanida bo'ron dahshatli kuch va ilohiy aralashuv kuch sifatida ko'rsatilgan edi. Romanda bo'ron dahshatli tush va ilohiy aralashuv sifatida ko'rsatilgan edi. "Ozod"da sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi. Ozodning Uchyong'oqdan Iskandar tog'igacha borishiga shamol yetakchilik qiladi. "Shamolli kecha" hikoyasida shamol real voqelik hamda taqdir shamoli sifatida namoyon bo'ladi.

"Sofiya" hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to'fonning qisqa muddat ichida qutirishi, asov toyday ko'kka intilishi, toshqin daryodan yutoqib- yutoqib po'rtana urishi, adadsiz kuch bilan og'ochlarni qars-qurs sindirishi, chaqmoq chaqib, g'aramlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi. Hikoyadagi "sofiya" to'foni inson ichki olamining tasviridir. Bu tasvirlar ham asli ramziy bo'lib, inson ruhiy olamidagi evrilishlarning ifodasidir.

Isajon Sulton hikoyalarida peyzaj tasviri asar kompozitsiyasidan muhim o'rin egallab, asarning bayon uslubiga yorug' tasvirlar, romantik ruhiyat olib kirish barobarida, ramziy ma'no ifodalashga ham xizmat qiladi.

"Oydinbuloq" hikoyasida buloq va tol yaprog'i detallariga bir qancha muhim vazifalarni yuklaydi. Oydinbuloqdagi tol yaproqlariga shamol bir paytlar "Bu kunlar sharaflidir", - deb bitar edi. Endi esa ularga "Bu kunlar zavollidir", - deb bitibdi. Asar davomida yaprog' bilan bog'liq tasvir to'rt marotaba takrorlanadi. Va bu yozuvchi ko'zlagan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalaydi:

"Buloq ko'zchasiga bittayaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanyapti";

"Qaynab chiqayotgan suv oy nurida jivirlaydi, shabada bulturgi xazonlarni shildiratib o'ynaydi, buloq ko'ziga tushib qolgan bir yaprog' chirillab aylanadi";

"Oydinbuloq juda kichrayib qolgan. Ammo ko'zchasiga girdobga tushib qolgan bitta yaprog' hanzu chirillab aylanyapti";

"Sezyapsizmi. Oydinbuloqda bir yaprog' chirillab aylanyotir..." [10].

Bu yaprog' - ilk muhabbat, uning shirin xotirasidir. Buloq - soflik, beg'uborlik, hayot timsoli. Buloq qaynamoqda, hayot davom etmoqda. Buloq yasharish, poklik ulashib qaynamoqda. Uning ko'zchasida esa bir yaprog' chirillab aylanadi. Ko'z dunyoni idrok etish, anglash vositasidir.

Demak, qahramon dunyoni bir vaqtlar yuragiga cho'g' tashlagan, biroq zavolga yuz tutgan muhabbat ko'zi ila idrok etayotir. Va bu muhabbat inson tirikligi qadardir.

Parizodning dinamik usulda yaratilgan portretida ham ko'z tasviriga alohida urg'u berilgan. Ko'z – inson qalbining oynasi. Parizoddagi ruhiy-hissiy o'zgarishlar ko'z vositasida qadam-baqadam yorqin tasvirlanadi. “Samodan emas, Oydinbuloqdan taralgan nur”da “yer qizlari tushlaridayam ko'rmaydigan libos”- la turgan parizodning “ko'zlari yulduz, fusunkor”. Tasodifiy uchrashuvdan uning ko'zlarida “xavotir, hurkish” zuhur etadi. Keyinchalik “ohu ko'zlaridagi hurkaklik qo'rquv va g'ussa bilan almashdi”.

Shuning uchun ham asar so'nggi “Sezypsizmi. Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir” jumalari bilan tugallangan.

Asar qahramonlari ismsiz. Biri – bayonchi, ikkinchisi – parimisol Parizod. Yozuvchi bu ikki siymo timsolida minglab-millionlab yuraklarga xos muhabbatni tarannum etgan, kuylagan. Hikoyada bujur tol, buloq, yaproq timsollari muayyan poetik vazifa asosida yorqin tasvir yaratishiga xizmat qilgan. Muhabbatli yurak izhorlari, o'smirlik va o'rta yosh dunyoqarashining o'ziga xos talqini ular vositasida chiroyli ifodalangan.

Tadqiqotchi olim Sa'dullo Quronov o'zining “Co'zning nominativ-tasviriy imkoniyatlari” nomli maqolasida Isajon Sulton so'zdan foydalanish mahoratiga atroflicha to'xtaladi. So'zning tasvir imkoniyatlari juda keng, faqat ularni ro'yobga chiqish darajasi bevosita ijodkor mahoratiga, aniqrog'i, undagi estetik nigohning nechog'li o'tkirligiga bog'liq. Ya'ni olamni musavvirova nigoh bilan ko'rish iqtidoriga ega shoir yo adibgina ko'rganlarini so'z vositasida tasvirlashga imkon qidiradi, o'z navbatida, uning ijodiy izlanishlari so'zning tasvir imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, yozuvchi Isajon Sulton asarlarini o'qiganda, undagi iste'dodning ayni shu qirrasini yaqqol ko'zga tashlanadi. [11]

Isajon Sultonning aksriyat asarlarida bir muhim detal asarning g'oyasini, mazmunini, yozuvchining maqsadini but bo'y basti bilan ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, “Bog'i Eram” hikoyasida – non, “Oydinbuloq” – tol yaproqlari, “Sog'inch” hikoyasida – sog'inch hissi, “O'rmondagi kulba”da – kulba, “Shamolli kecha”da – shamol, dovul, “Todd” hikoyasida – urush, “Boqiy darbadar” romanida – bo'ron, “Kichkina pushtirang maxluqcha” hikoyasida – yomg'ir, “Sofiya” hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to'fon detallari ayni shu vazifani bajaradi.

**Xulosa.** Isajon Sulton inson obrazini yaratishda o'ziga xos mahoratga ega adibdir. U insonning ichki olamini yorqin bo'yoqlarda, real voqelik va badiiy talqin uyg'unligida o'z uslubiga xos tarzda tasvirlaydi. Adib ijodining mavzular ko'lami keng. Unda abadiy mavzular, shuningdek, davr bilan hamnafas dolzarb, diniy va dunyoviy mavzular o'z ifodasini topgan. Adib asarlari kompozitsiyasida peyzaj muhim rol o'ynaydi. Adib hikoyalarning nomlanishi ham peyzajga xos bo'lib, alohida badiiy-estetik funktsiya bajaradi.

Ramz badiiy adabiyotda muhim o'rin tutadi. Yozuvchi asarlarida keltirilgan peyzaj tasviri ramziylik asosida qurilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zan hikoyalar to'lig'icha peyzajdan tashkil topadi. Bu ramziylik vositasida esa yozuvchi kitobxonga berishni istagan g'oya anchayin salmoqdorlik kasb etadi.

Isajon Sulton Inson xarakterini chuqur anglab tasvirlashda, uning botiniy olamini anglatishda bugungi kunning eng ilg'or adiblaridan biridir. Uning hikoyalarida hozirgi nasrimizda kechayotgan ijodiy izlanishlar o'z ifodasini topmoqda. Bu holatni asarlarining mavzu va uslubiy-shakliy jihatdan rang-barangligida, epik bayonning ta'sirchanligi va qahramonlar ichki olamining teran tasvirida ko'ramiz. Bu qahramonlar turli yosh va kasbga mansub bo'lishsa ham ularning qismati.

#### ADABIYOTLAR

1. Д.Куронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. - Т.: Akademnashr, 2010 йил. – 400 - 8 б.
2. Ф.Салаев, Г.Курбониезов. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. 185 бет.
3. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. Тошкент. Маънавият. 2000. Б.71-72.
4. <https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/1443-oydinbuloq-hikoya-isajon-sulton.html>
5. Адабиёт назарияси. I том. - Тошкент: Фан, 1978. - Б.53.
6. Р.Раҳмат “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача /И.Султон. Боқий дарбадар. Роман. Қисса. Ҳикоялар. – Т.: Ўзбекистон, 2011. - Б.267.
7. Исажон Султон. Боғи Эрам. –Тошкент, “Шарқ”, 2015. Б. 207.
8. Сатторова Г.Тизгинсиз тугёнлар ва тафаккур уйғунлиги // Исажон Султон насри бадийати. -Т.: 2017. Б. 177.
9. Исажон Султон. Озод. Роман ва хикоялар. -Тошкент, “Шарқ”, 2012. Б. 368.
10. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isajon-sulton-oydinbuloq-hikoya/>
11. <https://quronov.uz/cўzning-nominativ-tasviriy-imkoniyat/>



**Abdullo ISOKULOV,**  
*Perfect university nodavlat oliy ta'lim tashkiloti o'qituvchisi*  
*E-mail: abdulloisakulov@gmail.com*

*F.f.f.d., dotsent U.Ibragimova taqrizi asosida*

## PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF TELEVISION CAPTIONS

Annotation

In the early days of television and radio broadcasting, screen recordings emerged as the primary means of conveying the names of creators and actors whose company filmed the work, as well as the speeches of characters and authors. The emergence of direct broadcasting, the possibility of transmitting sound along with the image began to assign tasks to subtitles as non-verbal means. The development of computers, the entry of designers and animators into the field of television became important in fulfilling the pragmatic tasks of subtitles.

**Key words:** Pragmatic task, subtitle, television, linguistic task, verbal, non-verbal.

## ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ ТИТРОВ

Аннотация

На заре телевидения и радиовещания экранные записи появились как основное средство передачи имен творцов и актеров, чья компания снимала творчество, а также речи персонажей и авторов. Появление прямого вещания, возможность передачи звука вместе с изображением стали возлагать задачи на субтитры как на невербальные средства. Развитие компьютеров, выход дизайнеров и аниматоров в сферу телевидения стали важными в выполнении прагматических задач субтитров.

**Ключевые слова:** прагматическая задача, субтитр, телевидение, лингвистическая задача, вербальная, невербальная.

## TELEVISION TITRLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Televideniye va efigra uzatish ilk paydo bo'lgan davrlarda ekran yozuvlari ijodkorlar va aktyorlarning nomi, ijodiy ishning qaysi kompaniya tomonidan suratga olinganligi, qahramonlar va mualliflarning nutqini yetkazib beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo'lgan edi. Jonli efir, tasvir bilan birga ovozni ham yetkazish imkoniyatlarining paydo bo'lishi titrlarga nolisoniy vositalar sifatidagi vazifalarni ham yuklay boshladi. Titrlarning pragmatik vazifalar bajarishida kompyuterlarning taraqqiy etishi, dizayner va animatorlikning televideniye sohasiga kirib kelishi muhi ahamiyat kasb etdi.

**Kalit so'zlar:** Pragmatik vazifa, titr, televideniye, lisoniy vazifa, verbal, noverbal.

**Kirish.** Ekran matnlarining ahamiyati jonli efilarni amalga oshirish, filmlarda qahramonlarning nutqini bevosita ifodalash imkon beruvchi texnika vositalari ixtiro qilinguncha nihoyatda ahamiyatli edi. XX asrning 30-yillarigacha titrlar tasvirlarda ifodalanayotgan asosiy ma'no ekran matnlari orqali tomoshabinlarga yetkazilar edi. Boshqacha aytganda, televizion dasturlarda lisoniy vositlar sifatida faqat ekran yozuvlari mavjud bo'lib, tasvirlar nolisoniy vosita sifatida xizmat qilar edi. Ijod mahsulining asosiy g'oyasi titrlar vositasida ifodalangan filmlar "ovozsiz filmlar", "soqov filmlar" deb ham nomlanar edi. Bunday filmlarda, shubhasiz, ekran matnlari juda zarur edi. Shu sababli "XX asrning 20-yillari oxirida (aniqrog'i 1929-yilda – ta'kid bizniki I.A.) dunyoga mashhur bo'lgan "Oskar" mukofoti "Ovozsiz kinoda eng yaxshi titrlar uchun" yo'nalishida ham berildi. Uning birinchi va oxirgi sovrindori amerikalik ssenariy muallifi Jozef Farn bo'ldi. Ammo bu amaliyot kintanqidchilarning qarshiligiga uchradi. Ularning fikricha, kinematografistning ishi muharrir ishi bilan tenglashtirilmasligi lozim edi" [1]. Shunday bo'lsa-da, kinematografiya sohasidagi eng oliy mukofotga ekran yozuvlariga alohida yo'nalish ajratilganligi uning kelgusi taraqqiyotiga xizmat qildi. Titrlar keyingi yillarda televizion dasturlarning ajralmas qismiga aylandi. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Kompyuterning ixtiro qilinishi va takomillashishi (XX asrning ikkinchi yarmidan) ekran yozuvlarining ham taraqqiy etishiga sabab bo'ldi. Endi titrlar faqat ssenariy mualliflari va rejissyorlarning emas, balki dizaynerlar, animatorlarning

to'g'ridan to'g'ri ishiga aylandi. Natijada ekran yozuvlari endi tasvirlarning asosiy mazmunini ifodalovchi vosita emas, televizion dastur yoki filmlardagi pragmatik vositalarni ifodalovchi elementlarga aylandi. Shuningdek, ekran yozuvlari kreolizatsiya (boshqa madaniyatning qadriyatlarini o'ziga singdirish jarayoni [2]) jarayonini ta'minlovchi vositalardan biri sifatida ham qarala boshlandi [3]. Bu, ayniqsa, televizion tarjimalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. N.Valginaning fikriga ko'ra kreolizatsiya verbal matnga noverballik belgilari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni qo'shadi [3]. Kompyuter texnologiyalarining televideniye qo'llanishi, ekran matnlarini dizayner va animatorlar yaratishi ularning imkoniyatlarini keskin oshirdi. Natijada titrlar vositasida juda ko'p lisoniy bo'lmagan, qo'shimcha pragmatik ma'lumotlarni tomoshabinlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Masalan:

Andijon Qo'qonni qabul qildi jumlasida "o" va "q" harflari futbol sport turiga oid muayyan belgi – futbol to'pi shaklida yozilishi natijasida tomoshabin aynan futbol musobaqasi xususida gap ketayotganligini tushunadi. Albatta, buni lisoniy vositalar yordamida ham ifodalash mumkin (masalan, Andijon futbol klubi Qo'qon futbol jamoasini o'z maydonida qabul qildi, tarzida uzundan gap tuzish orqali). Bunda televizion dasturning kreativligi va o'ziga xosligiga putur yetgan bo'lar edi;

ham ijobiy, ham salbiy maqsadlarda qo'llanishi mumkin bo'lgan gaplarning qanday maqsadda qo'llanganligini tomoshabiniga bildirish maqsadini yuzaga chiqaradi. Masalan,

Men seni qayerdan bo'lsa ham, topaman gapini yozuv shakliga va qo'llangan ranglarga quvnoqlik berish vositasida ijobiy ma'noda qo'llanganligini bildirish mumkin; "reklama matnlarida kopirayterlar (turli mavzudagi reklamalar uchun matnlar tayyorlash bilan shug'ullanadigan mutaxassislar [4]) va tomoshabinlar qiziqishlaridan kelib chiqib nutq intensiyasiga bog'liq ravishda yozuvning yoqimsiz qismini o'chirilgan shaklda yozish" [5]. Bunda ustidan chiziq tortilgan yozuv chegirma e'lon qilingunga qadar belgilangan narxni anglatadi va bu tomoshabinda (yoki xaridorda) mahsulotni me'yordagidan ancha arzon narxda sotib olayotganligi haqida taassurot beradi. Titrlarning bunday imkoniyatidan yirik savdo do'konlarida o'rnatilgan narxnomalarda ham foydalaniladi. Ekran matnlarini muayyan xalq, millatning milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi vositaga vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, muayyan ko'rsatuv, dastur, film namoyishi vaqtida milliy tildagi matnlar davlat bayrog'i ranglarida namoyon bo'lishi kabilarda bu ko'zga tashlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ekran yozuvlari dastlabki bosqichlarda kinofilmlarda ko'proq qo'llanganligini yuqorida keltirilgan tahlillar ham dalilladi. Buni televideniya jonli efilarning mavjud emasligi, namoyish bilan bog'liq texnikaning taraqqiy etmaganligi bilan izohlash mumkin. Ammo televideniya faqat zeriktirmaslik uchun xizmat qiluvchi vosita sifatida emas, balki axborot olishning eng muhim manbasi sifatida qarash shakllangandan so'ng hujjatli film, axborot berish bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatuvlarda ham ekran yozuvlaridan faol foydalanila boshlandi. Bu, albatta, televideniya qamrovining kengayishi, axborot uzatishning tezlashishi, unga bo'lgan talabning kuchayishi, aholi savodxonlik darajasining o'sishi, texnika vositalarining rivojlanishi va ularni xarid qilish imkoniyatlarining ko'tarilishi kabi bir-birini taqozo qiluvchi jarayonlar bilan bog'liq edi. Masalan, BBC televideniya ning 1950-yilgi dasturida ekran matnlaridan boshlanmada foydalanilganligi va unda televideniya uchun reportaj tayyorlanganligi, uni kim sharhlashi haqida ma'lumot keltirilgan xolos [6]:



Keyingi davrlarda BBC televideniyesining dasturlarida qo'llangan ekran matnlarini ham rivojlanib borganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, o'tgan asrning 60-yillariga kelib endi dasturdagi yozuvlar harakatlanadigan, muntazam paydo bo'ladigan holatga kelgan edi. Biz tahlil qilgan 1967-yilgi dasturda titrlardan boshlanmada foydalanilgan. Vizual effektlar bilan dasturning nomini

anglatuvchi harflar jamlanmasi hosil qilingan. Shuningdek, dasturning sport xabarlariga bag'ishlangan qismida ekran yozuvlari o'ziga xos tarzda qo'llangan. Bunda Angliya kubogi musobaqasining navbatdagi bosqichida jamoalarning qayd etgan natijalari tablodagi yozuvlarni suratga olish orqali tomoshabinlar hukmiga havola qilingan:

March 1967 - part1		11th March 1967 - part1	
F.A. CUP 5th ROUND		F.A. CUP 5th ROUND	
Birmingham	1	Arsenal	0
Chelsea	2	Sheffield U	0
Everton	1	Liverpool	0
Man C	1	Ipswich	1
Norwich	1	Sheffield W	3
Nottingham F	0	Swindon	0
Sunderland	1	Leeds	1
Tottenham	2	Bristol C	0

**Tahlil va natijalar.** Aynan shu dasturda kompyuter texnologiyalari vositasida ekran yozuvlari va tasvirlari hosil qilingan va ommaga namoyish qilingan. Bu Jenevadan Rimga va Rimdan Dehliga qulay narxlarda sayohat qilish

mumkinligini ko'rsatuvchi ekran yozuvlari edi. Bu ekran yozuvlari sharhlovchining fikrlari fonida namoyish qilinishi mazkur xabarda ularning so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni tashishiga ishora ham edi, albatta:



Ekran matnlarining nolisoniy vazifalar bajarishi BBC ning 1967-yil mart oyidagi sonidan olingan yuqoridagi suratlarda ham aks etgan. Bu borada ekran yozuvlarining verbal va noverbal vazifalarini tadqiq qilgan I.Doroninaning quyidagi fikrlari o'rinli: "Chegarasiz vizual effektlar bilan ishlov berish imkoniyatlari bilan yaratilgan yangicha ekran yozuvlari ularning oddiy ma'lumot beruvchi vositalardan medianing ajralmas qismiga aylanganligi haqida gapirishga imkon beradi. Zamonaviy titrlar nafaqat muayyan ma'lumotni tashiydi, balki tomoshabinga noverbal ta'sir qilish vositasi ham hisoblanadi" [1:148]. Aytish mumkinki, titrlarning nolisoniy vosita

sifatidagi imkoniyatlaridan axborot tarqatish bilan shug'ullanuvchi dasturlarda o'tgan asrning o'rtalaridanoq foydalanilgan.

XX asrning 80-yillariga kelib ekran yozuvlari sezilarli darajada rivojlandi. Endu bunday yozuvlar nafaqat muayyan ma'lumot beruvchi, balki efirmi bezash vositalaridan biriga ham aylandi. Aynan shu davrdan titrlar tomoshabinlarning diqqatini jalb qiluvchi televideniya vosita sifatida deyarli barcha badiiy va hujjatli filmlar, ko'rsatuvlarda qo'llana boshladi. Bu davrga kelib ekran yozuvlari ovoz eshitilishi mushkul bo'lgan joylarda ham tomoshabinlarga ma'lumot yetkazish, ularning

diqqatini jalb etish vositalari sifatida mualliflar tomonidan keng qo'llana boshlandi. Rangli tasvirli televideniyeining paydo bo'lishi ekran yozuvlarining imkoniyatlarini ham karrasiga oshirdi. Bu davrga kelib tahlil qilayotganimiz BBC dasturlarida nafaqat sharhlovchi va suxandonlarning, balki reportaj davomida intervyu olingan shaxslarning ism-sharifi haqida ma'lumotlar ham maxsus titrlarda beriladigan bo'ldi. Vizual effektlarning sifati ko'tarildi, bajaradigan vazifalari doirasi kengaydi. Bularning hammasi ekran yozuvlari televideniye dasturlarining ajralmas qismiga aylanganligini anglatadi.

**Xulosa va takliflar.** Ommaviy axborot vositalari butun xalqqa, jamoatchilikka xizmat qiladi. Zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalariga talab kundan kunga oshib

borayotganligi ham sir emas. Internet, matbuot, radio qatorida televideniye dasturlarining ham jamiyat hayotidagi o'rni sezilari darajada, deyishimiz mumkin. Televideniye dasturlari esa, zamonaviy ekran yozuvlarisiz tasavvur qilish qiyin. Titrlarning qo'llanishi masalasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ulardan televideniye paydo bo'lgan davrdan boshlab turli maqsadlarda foydalanib kelingan. Televideniye titrlari yaratish bilan turli davrlarda rassomlar, muharrirlar, rejissyorlar, dizayner va animatorlar shug'ullanishgan. Albatta, bu borada tilshunoslarning xizmatini ham alohida e'tirof etish lozim. Zero, ekran yozuvlari bir qancha pragmatik vazifalar bajarsada, ularga avvalo, lisoniy vositalar sifatida qarash maqsadga muvofiq.

#### ADABIYOTLAR

1. Доронина И.М., Телевизионные титры как элемент креолизации в коммуникативном пространстве // Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2019. – № 5 (138). – С. 147-150.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Креолизация>
3. Валгина Н.С., Теория текста, – Москва: Логос, 2003. – 173 с.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Копирайтинг>
5. Доронина И.М., Креолизация в коммуникативном пространстве: телевизионные титры // Коммуникативные технологии в образовании, бизнесе, политике и праве: проблемы и перспективы реализации в современной цифровой среде: сборник материалов V Международной научно-практической конференции (Волгоград, 06-08 дек. 2018 г.) / ответственный редактор М.Р.Желтухина; ВГСПУ; ВНОЦ РАО; ИЯ РАН. – Волгоград: Научное издательство ВГСПУ «Перемена», 2019. – С. 276-278.
6. <https://www.youtube.com/watch?v=iQAzSVQBU7I>



*Nafisa KARIMOVA,*  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: filolog\_karimova@inbox.ru*

*O'zJOKU kafedra mudiri, f.f.d.(PhD) B.Bo'ronova taqrizi asosida*

### IJOD LABORATORIYASI XOSSALARI (BADIY G'OYA, ILHOM VA IJODKOR "MEN")

Annotatsiya

Maqolada ijod laboratoriyasi masalalari, jumladan, badiiy g'oya, ilhom, ijodkor "men"i kabi tushunchalar nazariy jihatlar tahlil etilgan. Ijod laboratoriyasini xossalari tashkil etuvchi vositalarning muhim va ahamiyatli ekani ilmiy dalillar bilan izohlangan. Ijodkor mahoratini ilmiy baholash masalasi yuzasidan xulosaviy fikrlar maqolaning asosiy mazmunin tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** ijod, badiiy g'oya, ilhom, ijodiy shaxsiyat, iste'dod, yozuvchi.

### CREATIVE LAB PROPERTIES (ARTISTIC IDEA, INSPIRATION, CREATOR'S "I")

Annotation

The article analyzes the theoretical aspects of creative laboratory issues, including concepts such as artistic idea, inspiration, and creative "I". It is explained by scientific evidence that the tools that make up the properties of the creative laboratory are important and significant. The article's main content the concluding thoughts on the issue of scientific evaluation of the artist's skills.

**Keywords:** creativity, artistic idea, inspiration, creative, personality, talent, writer.

### ТВОРЧЕСКАЯ ЛАБОРАТОРИЯ СВОЙСТВА (ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИДЕЯ, ВДОХНОВЕНИЕ И ТВОРЧЕСКОЕ «Я»)

Аннотация

В статье в теоретическом аспекте анализируются вопросы лаборатории творчества, в том числе такие понятия, как художественная идея, вдохновение, творческое «Я». Научными данными объясняется, что инструменты, составляющие свойства творческой лаборатории, важны и значимы. Основное содержание статьи составляют заключительные мысли по вопросу научной оценки мастерства художника.

**Ключевые слова:** творчество, художественная идея, вдохновение, творческая личность, талант, писатель.

**Kirish.** Ijod psixologiyasi – ijodiy jarayonni ilmiy tahlillovchi, analizlovchi, sintezlovchi, ilmiy psixologik yondashuvga asoslangan adabiyotshunoslik kategoriyasidir. Ijod psixologiyasi muayyan bir, obyekt sifatida tanlab olingan yozuvchi, shoir, dramaturg yoki nosirni umuman olganda ijodkor shaxsini badiiy asar yaratish mahoratini ilmiy, asar yaratish jarayonidagi holatini esa badiiy psixologik asoslar bilan tekshiradi.

Ijodkor laboratoriyasi deganda, dastlab uning tarkibi bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Iste'dod va unga xos tushunchalar, g'oya, ilhom, mavzu tanlash, asarning yozilishiga sababchi bo'lgan omillar, reja, qo'lyozma ustida ishlash, so'z tanlash, ijodkorning ta'sirlanishi, yozuvchi faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar, yozuvchining hayoti davomida boshidan kechirgan va muayyan bir taassurot qoldirgan hodisalarning yozilayotgan asarga qay darajada aloqadorligi, yozuvchining shaxsiy va ijodiy hayoti, kundaliklari, qayd daftarchasining jumla tuzishda nechog'li rol o'ynashi, ijodkor ko'rgan tushining ijodga ta'siri, ijodkor xarakteri kabilar ijod laboratoriyasiga xos unsurlardir. Ijod laboratoriyasining tarkibiy unsurlarini sharhlash orqali masalaga chuqurroq yondashish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ijod laboratoriyasi unsurlariga oid ayrim tushunchalar umumiy, yaxlit shaklda keltirilgan. Qismlarni to'plash va analizlash metodiga asoslanib, mavzuga oid masalalarni adabiyotshunoslikka oid bir qancha manbalardan jamlab o'rganish mumkin. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Ijodkor – kayfiyat olami" maqolasi, Erkin Vohidovning "Shoiru she'ru shuur", Abdulla Oripovning esa "Ehtiyoj farzandi" nomli kitoblari, shuningdek, xorijiy adabiyot sifatida Yan Parandovskiy "So'z

kimyosi" asarini mavzuga doir adabiyotlar sifatida keltirish mumkin. Mazkur adabiyotlardan ijodga oid jihatlarni ko'rish mumkin. Ilmiy-nazariy qiyoslar olib borib, manbalardan o'rinli tarzda ko'chirmalar olindi.

**Tahlil va natijalar.** O'rganishlar natijasida badiiy g'oya, ilhom, ijodkor "men"i, ijodiy reja, qoralamalar tahriri kabilarni ijod laboratoriyasi xossalari deb tushunish mumkin. Shuningdek, har bir tushunchaga individualyondashib baho berish, ijod laboratoriyasi xossalari aniq bir xulosaviy shaklga keltiradi. Badiiy g'oya. Badiiy asar muayyan bir bunyodkor g'oya ijrosidir. Adabiyotda g'oyasiz asar mavjud bo'lmaydi. Badiiy g'oya bu ijodiy faoliyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. G'oya falsafa nuqtayi nazaridan substansiya, ya'ni moddiylikka ega bo'lmagan mohiyat, qoralama shaklda aksidensiyaga aylanadi. Adabiyotshunoslik nazariyasida badiiy asarning mavzu va g'oya mushtarakligi alohida o'rganilgan va qisqacha yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan asosiy fikr, deb qaraladi. Badiiy g'oya –muallifning tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifoda etuvchi g'oyadir. Bunday g'oya yozuvchining hislarini ifoda etgani va shu hislarni o'quvchiga ham yuqtira olgani uchun emotsional (ta'sirchan) kuchga ega bo'ladi[1].

Har qanday ijodiy g'oya o'zining ijtimoiy vazifasiga ham ega, ma'nau yuksalishga undovchi xarakterga egadir. O'z-o'ziga qat'iy talab qo'ygan ijodkorlar ijod laboratoriyasidagi g'oya xususida ham xuddi shunday fikrlaydilar. Masalan, yozuvchi dunyoqarashida shakllangan har qanday g'oya asarga ko'chgach, asarning badiylik vazifaviylik asosini tashkil etadi, xususiyilashish darajasi yanada oshadi. Yozuvchi g'oyani bu shaklda ifodalabdi, u shaklda ifodalabdi, kabi yo'sinlar g'oyaviy asos haqidagi

muhokamalarni umumiy lashtiradi. Ya'ni, muhokamalar har doim yozuvchi va adabiy tanqidchilar munosabatini keltirib chiqaradi. Asar bir emas, bir necha adabiy tanqidchi chig'irig'idan o'tgani uchun muhokamalarga umumiy ma'no qabul qilish mumkin. G'oyaviy asos qanchalik xususiy, qanchalik original bo'lsa, ijodkor dunyoqarashi va badiiy matn yaratish mahorati o'zgalarnikidan shunchalik ajralib turadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, g'oya substansional, qog'ozga tushirgan sari qo'ldan chiqib ketadigandek, o'z qiymatini yo'qotadigan bo'lib tuyulaveradi. Yozuvchilar shuning uchun ham bunday paytlarda o'zini yo'qotib qo'ymasligi uchun mualliflik qoidalari va odatlariga ega bo'lishga intiladilar.

G'oyaning tug'ilishi ikki xil yo'sinda sodir bo'ladi: kutilmaganda paydo bo'lishi va muayyan sistemaning ziddini bajarish orqali. Yozuvchilar g'oyaning tug'ilishini turlicha izohlaydilar. G'oyaning paydo bo'lishi va o'z mohiyatini namoyon etishi har kimda har xil kechadi. Xurshid Do'stmuhammad: "Ko'ngilning allaqayerida yilt etib tug'ilgan g'oya uchquni ba'zan shiddat bilan, ba'zan esa oylar-yillar mobaynida pishib yetiladi boradi"[2] degan edi. Rus adabiyotshunosi Konstantin Paustovskiy g'oyaning paydo bo'lishi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: "G'oya ham fikrlar, hissiyotlar va xotiralar bilan boyigan inson ongida chaqmoqday paydo bo'ladi. Bularning bari asta-sekin yig'ilib boradi va payti kelib bo'shshni taqozo etadi. Siqilgan va hali pala-partish bu olam chaqmoqni – g'oyani dunyoga keltiradi"[3]. K. Paustovskiy fikrlar, hissiyotlar, xotiralar payti kelib bo'shshni taqozo etishi deganda, bevosita ijod jarayoni boshlanishini nazarda tutgani shubhasizdir. U g'oya tug'ilishining birinchi yo'sini, ya'ni kutilmaganda ro'y berishi haqida ko'proq gapiradi. Hissiyotlar his tug'yuga boy, ta'sirchan kishilarni ko'p bezovta qiladi. Tashqi va ichki olamdagi siyratdan ko'p hayratlanish, hayolning taassurotlarga moyilligi, har qanday lahzadan xotira qolishi, xotiralar va taassurotlar bilan yashash san'atkor g'oyasiga xosdir. Adabiyotshunosligimizda g'oya tushunchasi ijod laboratoriyasi sifatida o'rganilishi, tavsiflanishi, ham adabiyot, ham ijtimoiy hayot uchun foydali bo'ladi, degan umiddamiz. Chunki bunday yondashuvda bunyodkor g'oyalar qamrovini kengaytirishi va amalga oshishida ijobiylik vazifasini bajarish samarasi ortib boradi.

Ilhom. Badiiy asar kishiga qanchalar zavq bag'ishlashini kitobxonlar yaxshi his qiladilar. Yozish zavqi esa ijodkor olamiga daxldordir. Ammo ilhom kelmasa, har ikkala ishtiyoq chippakka chiqadi. Ilhom faqatgina ijod ahliga xos ruhiy-psixologik hodisa. Ilhom haqiqiy badiiy asar yozilishiga sabab bo'luvchi asosiy omildir. Ilhom tushunchasining psixologik ta'rifi quyidagicha: "Odamning ruhiy holati; undagi barcha ijodiy kuchlarning quyilib kelishi, ruhiy jarayonlarning faollashuvi. Bunday holatda butun ruhiyat ayni bir vaqtda ishga solinadi. Ilhom paytida ong tiniqlashishi kuzatiladi, fikrlash va ijodiy hayolot sermahsul bo'ladi, his –tuyg' ular to'lib toshadi, e'tibor butkul ijod obyektiga qaratilgan bo'ladi"[4].

San'at bilan shug'ullanuvchi kishilarda his-tuyg'ular yuqori daraja bo'lgani uchun ham ilhom jarayonining kechishini tabiiy qabul qilish kerak. Ijodkor har bir badiiy detal ustida bosh qotirar ekan, asarning shakllanishi ham yangi bino barpo etishday gap. Ilhom esa ijodiy samaradorlikni ta'minlovchi, jarayonni tezlashtiruvchi yagona kuch. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad bilan bo'lgan suhbatlardan birida u ilhomni shunday ta'riflaydi: "Ilhom degan holatni tushunishga harakat qiladigan bo'lsak, bu ijodiy reallik yaratib bilish, uning "Ichi"ga biqinib olish va o'zingizni emin-erkin his etish-ilhom onlari shu. Buni qarangi, ilhom daqiqalari aslida anormal ruhiy holat, ijodkor unday holatlarda qo'lga qalam tutmagani ma'qul, aql-hushi tiniqlashgan holatda ijod qilmog'i zarur, degan fikrlar ham bor. Bunday qarashlarga qanday munosabatda bo'lish esa har kimning

o'ziga havola" [2]. Chetdan qaraganda, ilhomni kelib ishga sho'ng'igan yozuvchi atrofda qilargi tarki dunyo lahzalarini boshidan kechirayotgandek tuyuladi, biroq aslida, ilmiy va amaliy qarashlardan kelib chiqib mulohaza qilsak, aql tiniqlashgan palla aslida ilhom payti ekan. Ilhom haqida Erkin Vohidov aytgan fikr bilan tanishsak: "Shoir ilhom daqiqalaridagina haqiqiy shoir bo'ladi... Ilhom uzluksiz izlanish, o'qish, o'rganish, mehnat qilish natijasidir" [5]. Shoirilar nazdida, ilhom haqiqiy ijod jarayonini tashkil etuvchi sintezlashgan kayfiyat va aqliy mehnat natijasi. Shuningdek, ilhom oni bir emas, bir necha marta sodir bo'lishini ham ta'kidlashimiz lozim. Chunki badiiy detallar turfa xil bo'lib, har biriga ishlov berish albatta, aqliy salohiyat talab etadi, ijodkorini izlanishga majburlaydi. Ijod onlarida yozuvchining ruhi xalos bo'ladi, hayoliy izlanishga echim topilgan palladan unumli foydalanishga kirishadi. Yozadi. Shuning uchun yozuvchilarning ish jarayonida ham asosiy diqqati ijodiy obyektidan o'zgasiga chalg'imaydi. Ilhomning kelishi favqulodda ro'y beradi. Ilhom kelgan pallada yozuvchi hamma narsadan yuz o'girib, bor diqqat –e'tiborini jumla tuzishga, asar voqealar rivojining ishonarli, hayotiy va eng muhimi qiziqarli kechishiga qaratadi. Ilhom kelgan vaqtda ijodkor kun tartibining, ovqat mahalinig, umumiy qilib aytganda maishiy hayotning bahridan kechadi.

O'zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasi muammosini o'rganishda mavzu ko'lami, o'rganilganlik darajasidan kelib chiqib, jahon adabiyotiga ham murojaat qilishga majburmiz. Jahon adabiyotshunosligida ilhom tushunchasini romantizm oqimi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan deb qaraladi [6]. Chunki ilgari bu masala atroflicha o'rganilgan emas. Yan Parandovskiy "So'z kimyosida" ilhom tushunchasiga falsafiy nuqtayi nazar bilan qaralgani aytadi: "Bugun biz qadimgi ilhomni mehnat, qat'iyat va iroda singari tushunchalar bilan almashtirgan, nisbatan yangi an'anani davom ettiramiz. Irodasi zaif odam buyuk ijodkor bo'lolmaydi". Konstantin Paustovskiyning "Oltin atirgul" asaridagi qaydlarini ham keltirib o'sak. Paustovskiy ilhom tushunchasi haqidagi mulohazalari nihoyatda teran. Paustovskiy qarashlariga ko'ra, ilhom qat'iy ish holati hisoblanadi. U rusning mashhur shoirlari fikrini ham o'rganib chiqqan: "Pushkin ilhomga aniq va sodda ta'rif bergan: "Ilhom –ko'ngilning hissiyotlarni jonli qabul qilishga, tushunchalarni fahmlashga bo'lgan rag'batidir. U yuqorida sanalganlarni tushuntirish, anglatish imkonini beradi:"... Deyarli har bir yozuvchining ilhomlantiruvchisi bor. Bunday ajoyib ilhomchi odatda boshqa bir yozuvchi bo'ladi...O'zimga keladigan bo'lsak, Stendal qalamiga mansub "Rimdan maktublar"ning istalgan sahifasi menda yozish istagini uyg'otadi. Biroq men Stendal nasridan juda uzoq narsalar yozaman, bu hol hatto o'zimni ham hayratga soladi". Jahon adabiyoti tajribasini o'rganish orqali, ilhom beruvchi obyekt boshqa bir yozuvchi bo'lishi ham mumkin ekan, deb xulosa chiqarish mumkin. "Oltin atirgul" ijod laboratoriyasi tajribalariga asoslangan asardir. Demakki, yozuvchilarning bir-biridan ta'sirlanishi ilhom tushunchasi doirasida yuz beradigan jarayon ekani ma'lum bo'ldi.

Ijodkor "men"i. Ijod ahli tomonidan to'qilgan nomlar, yuzaga chiqarilgan obrazlarda ularning "men"i ko'zga tashlanib turadi. Juda ko'p vaziyatlarda shoir va yozuvchilar asarlarining mazmun-mohiyatiga o'z qalbining manzaralarini chizadi. Buni keyinchalik o'zlari ochiqdan ochiq e'tirof ham qilishadi. Masalan, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov o'zining "Otello", "Alisher Navoiy", "Alloma" kabi she'rlarining yozilish jarayoni, ular ustida ishlash tarixi to'g'risida quyidagi muhim gaplarni aytadi: "Bu she'rlar, albatta, aniq tarixiy sanalar bilan bog'liq. Lekin ularning zaminida mening hayotga munosabatim bor. Bu tuyg'ular kishining yuragida doimo yashab, muayyan bir turtki sababli she'rga o'tgan, xolos"[7]. Ijod psixologiyasi jihati

qaraganda ushbu ko'chirmadagi "mening hayotga munosabatim" birikmasi muhim sanaladi. Har bir ijod mahsulida shoir va yozuvchilarning borliqqa, hayotga, ijtimoiy muammolarga munosabati aks etgan bo'ladi. Ijodkor ko'nglida pinhon yotgan o'sha "munosabat" qaysidir shaklda badiiy libos kiyadi. Bunday shakllanish uchun esa adiblarning hayotidagi yoki ijtimoiy muhitdagi allaqandaydir bir turtki sabab bo'ladi.

Har bir insonda "men" degan tushuncha bor va u ikki xil bo'ladi. Birinchi taqshi dunyodagi "men", ikkinchisi ichki olamning "men"i. Yozuvchilar badiiy obrazni shakllantirishga, qahramon xarakterini yaratishda ichki "men"ga murojaat qiladi. Ijodkor "men"i asardan asarga ko'chib yashaydi. Asarni biografik metodda tahlil esak, qaysi qahramonga "Men" yashiringanini ko'ramiz. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboevning avtobiografiyasiga tayanib, "O'ziga xos ijod sohibi" nomli maqolani yozgan. "Xudoyberdi To'xtaboevning "Sariq devni minib" dan keyin e'lon qilingan romanida shunday satr bor: "Belim sal bukkiroq, buni o'zim tan olaman, ukalarimni ko'taraverib shunaqangi bo'lib qolganman, bo'yim ham tengqurlarga qaraganda sal pastroq, buni ham inkor qilmayman.., bu "Besh bolali yigitcha" romanining bosh qahramoni Orifjonning so'zlari. Biroq ko'p sonli kitobxonlar hech vaqt Orifga berilgan bu portret xarakteristikasi Xudoyberdi To'xtaboevning o'ziga aloqador ekanini bilmaydi. Ha, bu portretida yozuvchining o'z qiyofasidan nimalardir olingan. Faqat portret ma'nosida emas, balki boshqa jihatlari bilan ham Orifjon adibning prototipi, degan xulosaga kelishga huquq beradi"[8]. M. Qo'shjonov bevosita adib bilan uning bolaligi xususida so'zlashgani, yozuvchi chaqaloqligida etim qolganini, bolalar uyidan bolalar uyiga ko'chib yurganini,

Toshkentdan Qo'qongacha piyoda kelgani haqida bilgani uchun, asosli ravishda Orifjonning prototipini ko'rsatibdi. Yuqorida ko'rib chiqilganidek, prototip sifatida foydalanishi ham mumkin. Yozuvchining ichki "men"i asardagi Orifjonning tashqi "men"i sifatida g'aydalangan.

Adabiyotshunos olim Abdulla Sherning qarashlariga ko'ra esa, bu ikki tashqi va ichki "men" o'zaro kurash olib boradi. Ikkinchisi doim g'olib chiqadi. Agar birinchi (tashqaridagi) "men" kurashda g'olib chiqsa, u holda vujudga kelgan badiiy asar hech qachon san'at namunasiga aylanmaydi[9]. Qalamkashning ichki "meni" obrazlarga hakamlilik qiladi, saralaydi. Shuning uchun ham "men"ning aralashuvi bilan yozilgan asar jonli, ishonarli chiqadi. Tashqi "men" atrofida rostakam odamlar, narsalar, jamiyatlar, maishiy hayot bor. Tashqi "men"da ijtimoiylashuv, rasmiyatchilik ustun bo'lgani uchun ichki "men"da iliqlik mavjud. Hissiyot kuchi yo'q. Shundan kelib chiqib, ijod "men"i masalasida Abdulla Sherning qarashlarini ma'qullash mumkin.

**Xulosa.** Ijod laboratoriyasi unsurlari haqida alohidalangan shaklda xulosa chiqarish, bir tushuncha yuzasidan yakdil qaror qabul qilishga yordam beradi. Badiiy g'oyaning ijod jarayonidagi asosiy kuch ekanini, g'oyaning turlari kengayib boruvchi kategoriya sanalishini ta'kidlamochimiz. Shuningdek, ilhom va ijodkor ichki va tashqi "men"i kabi masalalar ijodkor va badiiy olam, ijodkor va jamiyat kabi mavzularni muayyanlashtiradi. Ijod laboratoriyasi xossalarni o'rganish ularning yana bir qancha turkumlardan tashkil topganini kashf etadi. Xulosa o'rnida aytmoqchimizki, adabiyot nazariyasiga oid masalalar chuqur tahlil etilishi va xulosaviy xarakterga ega bo'lishi badiiy tahlillar uchun yangi imkoniyat yaratib boraveradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T: "O'qituvchi" NMIU, 2005, 99-bet
2. Хуршид Дўстмухаммад. "Ижодкор – кайфият олами" // "Китобдунёси" газетаси, 2017-йил, 26-апрел сони.
3. Константин Паустовский. "Олтин атиргул". Т.: Ф.Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 4 том, Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 128-бет
5. Эркин Воҳидов. Шоиру шеър ушуур. Т.: "Ёш гвардия", 1987-йил, 140-бет
6. Ян Парандовский Сўз кимёси. // "Жаҳон адабиёти" журнали 2017 йил, 1-сон, 114 бет
7. Абдулла Орипов. Эҳтиёж фарзанди. -Т.1988 йил. 124-125-бетлар.
8. "Дунёга танилган адиб" тўплами, – Т. 2012-йил, 32-бет.
9. Абдулла Шер. Эстетика. Т.: "Ўзбекистон", 2014-йил, 306 -бет.
10. Natlib.com sayti



**Abdug'afur QOSIMOV,**  
FarDU professori, filologiya fanlari doktori  
E-mail: a\_kasimovfardu0824  
**Oybek DADAJONOV,**  
FarDU katta o'qituvchisi,  
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail: oybek.dadajonov.89@inbox.ru

Professor, psix.f.d. B.Aliyev taqrizi asosida

### INFLUENCE OF NATURALISM IN THE DRAMA "BEFORE SUNRISE"

Annotation

The article highlights the problem of naturalism, era and hero in Gerhart Hauptmann's drama "Before Sunrise". Based on artistic analysis, poetic methods that illuminate the hero's character are studied.

**Key words:** Naturalism, drama, literature, life, family, woman, hero, character, environment, society, alcoholism.

### ВЛИЯНИЕ НАТУРАЛИЗМА В ДРАМЕ «ПЕРЕД РАССВЕТОМ».

Аннотация

В статье освещается проблема натурализма, эпохи и героя в драме Герхарта Гауптмана «Перед восходом солнца», на основе художественного анализа исследуются поэтические приемы, раскрывающие характер героя.

**Ключевые слова:** Натурализм, драма, литература, жизнь, семья, женщина, герой, персонаж, среда, общество, алкоголизм.

### "QUYOSH CHIQUISHIDAN OLDIN" DRAMASIDA NATURALIZM TA'SIRI

Аннотация

Maqolada Gerhart Hauptmanning "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi naturalizm, davr va qahramon muammosi yoritilgan. Badiiy tahlillar asosida qahramon xarakterini yorituvchi poetik usullar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Naturalizm, drama, adabiyot, hayot, oila, ayol, qahramon, xarakter, atrof-muhit, jamiyat, ichkilikbozlik.

**Kirish.** XX asr G'arbiy Yevropa adabiyotida dramaturgiya naturalizm, tanqidiy realizm va modernizm oqimlari ta'sirida maydonga keldi. Ushbu oqimlarning har biri o'z falsafasi, talqin yuli, kaxramonlari, kompozitsion tizimi va o'ziga xos konflikt shakliga ega edi. XIX asr oxiri va XX asrga mansub bo'lgan ushbu adabiy oqimlar dramaturgiyasi ma'rifatchilik dramaturgiyasi kabi keng ijtimoiy-madaniy qamrovga erisha olmadi. Bu davrda dramaturgiyaning keng taraqqiy etishi uchun ma'lum vaqt talab etildi. Bunga asosiy sabab qilib, proza janrlarining rivojlanishini keltirish mumkin. Drama nazariyasiga doir kuzatuvlar shundan dalolat beradiki, bu janr G'arbiy Yevropa xalqlari ijtimoiy, madaniy turmush tarzi, ayni xuddagi siyosiy o'zgarishlar, falsafiy karashlar, estetik tafakkur va diniy-e'tikodiy extiyoji natijasi o'laroq taraqqiy etdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yuqorida keltirib o'tilgan omillar XX asr nemis dramaturgiyasiga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Nemis ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar adabiyot va san'atda ham o'z ifodasini topdi va uning rivoji murakkab sharoitda kechdi. Ko'plab ijtimoiy, siyosiy qo'zqalonlarga qaramay Germaniyada adabiyot asosiy o'ringa ko'tarildi. Nemis adabiyotida tanqidiy realizm shakllana boshladi, naturalizm, dekadentchilik oqimlari muhim o'rin egalladi, biroq ular adabiyotda ustunlik qilolmadi. Shuni alohida aytib o'tish kerakki, nemis naturalizmi shakllanishiga fransuz adiblarining ta'siri katta edi. Sababi aynan fransuz yozuvchisi Emil Zola (1840-1902) muayyan dunyoqarashga asoslangan voqelikni badiiy idrok etishning ijodiy usuli va tamoyillari tizimi sifatida naturalizm asoschisi bo'ldi. Nemis naturalizmidagi yangi teatrning roli, avlodlar to'qnashuvi nuqtai nazaridan qaraganda, ayollarning oiladagi mavqeini ko'rsata oladigan yangi dramaning ahamiyati asosiy planga chiqdi. XX

asr nemis dramaturgiyasining atqili yozuvchilaridan biri Gerhart Hauptman (1862-1946) naturalizm oqimida yashab ijod qildi. Uning dramaturgiyasida hayotning turli tomonlari tasvirlanib, naturalizm ta'siri sezilib turadi. Biroq tadqiqotchi Karl S.Guthke fikriga ko'ra, Hauptmanning asarlari "naturalizmga aldamchi o'xshash"ligini, umuman olganda naturalizmga qarama-qarshi pozitsiyani egallashini aytib o'tadi. [1] Bu bilan Hauptman Naturalist bo'lmaganligini anglatadimi? Aksincha yozuvchining bir nechta asarlari naturalizm davrida yozilgan bo'lib, naturalizm talablariga mos tushadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Davr nuqtai nazaridan qaraganda naturalizmning maqsadi asardagi voqelikni to'g'ridan-to'g'ri aks ettirishdan iborat bo'lib, uni shevaga, kundalik tilga (muloqot) murojaat qilingan. Karl Hillebrand 1884 yilda shunday yozgan edi: "Zamonamizning deyarli barcha muhim fantastik asarlari xalqning quyi tabaqasiga tegishli, chunki til va tuyg'u o'rtasida hali ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud." [2]

Darhaqiqat, asarda til va tuyg'u o'rtasidagi bog'liqlikning doimiy mavjudligi asar muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi. Asar tili oddiy xalq tilidan berilgani esa asarning jonli chiqishiga, kitobxon qalbiga oson kirib borishiga sabab bo'ladi.

Gerhart Hauptmanga dastlabki shon-shuhrat keltirgan "Quyosh chiqishi oldidan" (Vor Sonnenaufgang, 1889) dramasi bo'lib, biologik determinizm [3] mavzusi bilan chambarchas bog'liq. "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi nemis teatridagi naturalizmning yutug'iga xos bo'lib, inson o'z taqdirini o'zi belgilab yashamaydi, balki uning rivojlanishi allaqachon atrof-muhit, irsiyat va tarbiya bilan, undagi qahramonlar esa iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar va atrof-muhit

ta'siri bilan belgilanadi, degan qat'iylik nazariyasi bilan bog'liq.

Qahramonlarga nisbatan obyektivlikka ega bo'lgan muallifning his-tuyg'ulari va fikrlari dramaning dastlabki qismida chetda qoladi. Bu ham naturalizmning o'ziga xos belgisi bo'lib, asarda uni atrof-muhitni tasvirlash orqali ko'rish mumkin. Dramada har bir harakatdan oldin joy va vaqt aniq tasvirlangan.

Das Zimmer ist niedrig; der Fussboden mit guten Teppichen belegt [4]

Xona quyida; Pol yaxshi gilamlar bilan qoplangan. (Tarjima bizniki – O.D.)

Dramada tasvirlanishicha, ko'mir sotish evaziga boyib ketgan va shu moliyaviy yutuqlar tufayli ichkilikbozlik qurboniga aylangan dehqon oilasi haqida so'z yuritiladi. Mana shunday dehqonlardan biri Krauzedir. Boylik uning ko'zini ko'r qiladi. Natijada Krauze ichkilikka mukkasidan ketadi, achinarlisi uning bu holati ayoli va qiziga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va ular ham ichkilikka tobe bo'ladi. Hattoki kuyovi Martaning eri injener Hofman, konda ishlovchilarni qattiq ekspluatatsiya qiladi. U ham o'zini ichkilikdan tiyolmaydi. Yozuvchi Hauptman jamiyatda ichkilikbozlik haqida fikr bildirib, "oilaning buzilishi ko'pincha haddan tashqari spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bilan bog'liqligini, ammo mavjud imkoniyatdan foydalanib bu bilan kurashish lozimligini, aks holda kelajak avlodga katta havf bo'lishligini" [5] aytib o'tadi. Bu ayanchli muhitda, ayniqsa, injener Hofmanga uning universitetda birga o'qigan do'sti, sotsialist Alfred Lot qarshi qo'yilgan. Yozuvchi asarda har bir qahramonini batafsil tasvirlashga harakat qilgan.

Loth ist mittelgroß, breitschultrig, untersetzt, in seinen Bewegungen bestimmt, doch ein wenig ungelent; er hat blondes Haar, blaue Augen und ein dünnes, lichtblondes Schnurrbärtchen, sein ganzes Gesicht ist knochig und hat einen gleichmäßigen ersten Ausdruck. Er ist ordentlich, jedoch nichts weniger als modern gekleidet. [4]

Lot o'rta bo'yli, keng yekali, gavdali, harakatlarida qat'iylik, ammo biroz noqulaylik bor; uning sochlari sarg'ish, ko'zlari ko'k va ingichka, mo'ylovi och sariq, butun yuzi suyakli jiddiy ifodaga ega. U zamonaviylikdan kam bo'lmagan chiroyli kiyingan. (Tarjima bizniki – O.D.)

Adib qahramoniga ta'rif berish orqali kundalik hayotning haqiqati va oddiyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu tarzda inson hayotining umumiy manzarasini ham ochib berish, jamiyat va uning muammolarini, shu jumladan jamiyatning ayanchli tomonlarini kengroq tasvirlashga urinadi. Drama bosh qahramonlaridan biri Lot burjua jamiyati yuzaga keltirgan adolatsizliklarni qattiq qoralaydi. "ter to'kib ishlagan mehnatkash och qolib, tekinox'r farog'atda yashasa, bu bema'nilik emasmi! Barcha odamlar baxtli bo'lsalar, men ham baxtliman", [6] deydi Lot. Shunday yuksak maqsadlar bilan yashagan Lotda salbiy harakatlar ham tasvirlanadi. Krauzelar naslida alkogolizm ta'siri borligini bilgach, u oilaning kichik qizi sof, pokiza hislatlarga ega Yelenani qo'rqqoqlik qilib tashlab ketadi. Vaholanki Yelena alkogolizmdan umuman yiroqda edi.

**Tahlil va natijalar.** Timofeyev L.N fikriga ko'ra "Drama – o'tkir, ammo qahramon taqdiri turli shakllarda namoyon bo'ladigan, muayyan darajalarda yechimga ega

bo'lgan konfliktlarni aks ettirish", [7] deb yozadi. Darhaqiqat "Quyosh chiqishidan oldin" dramada Yelena xarakteri shahiddek tasvirlangan. Jamiyat muommolaridan uzoqda o'sgan Yelena o'z uyiga qaytganidan so'ng o'ziga kela olmadi. Oilasining har bir a'zosi alkogolga qaramligini ko'rgan Yelena qattiq iztirob chekadi. Yelenaning kelajagi oiladagilarga umuman qizig' yo'q edi. U otasining fermasida yashaydi va uning atrofidagi odamlar yo kambag'al ko'mirchilar yoki dalalarini sotib boyib ketgan savodsiz dehqonlar edi. U ijtimoiy jihatdan zaif, o'qimagan muhitga moslasha olmaydi.

Asarda Yelenaning boshqa muhitda tarbiyalangani unchalik ahamiyatli emasdek tuyulsa-da, uning ichkilikka berilib ketmasligining asosiy sababi shu edi. Onasining o'limi va otasining ikkinchi turmushi Yelenaning mehribonlik uyida voyaga yetishiga olib keladi, ammo uning bolaligi bir qarashda fojiali ko'rinsa-da, bu fojiali bolalik uni spirtli ichimlikdan qutqaradi.

Alfred Lot Krauzelar oilasida yagona obektiv shahs bo'lib, oilaning qolgan a'zolaridan farqli o'laroq, ichkilikning oqibatlarini kelajakka ta'siri haqida ko'p o'ylaydi va uni qanday oqibatlarga olib kelishini biladi. Bu uning Yelenani tark etishining asosiy sababi edi. Uning oilasi alkogolga tobeligi oila merosi uchun juda katta xavf edi. Lot Yelenaga uylangan taqdirda unga nima taklif qila olaman deb o'ylaydi. U juda tanqidiy va instinktga ega odam sifatida har doim shubhali hayollarga berilar edi.

„Loth: Loth: Auch habe ich dir, sowie ich weiß, bereits einmal gesagt, daß ich in Bezug auf das Heiraten nichts verschworen habe; was ich fürchte, ist: daß es keine Frau geben wird, die sich für mich eignet.“ [8]

"Loth: Bundan tashqari, bilishimcha, men senga bir marta aytdimki, men nikoh haqida hech qanday qasam ichmaganman; Men qo'rqaman, menga mos keladigan ayol bunday bo'lmaydi. (Tarjima bizniki – O.D.)

Bu masalada Hauptman o'sha vaqtda keng tarqalgan fiziologik ta'limotga suyanadi. Qahramon Lotning chegaralangan qarashlari Yelenani baxtsizlikka olib boradi va uning o'limiga sababchi bo'ladi. Lekin dramadagi bosh konflikt alkogolizm masalasi emas, balki sotsialist Lot bilan kapitalist Hofman o'rtasidagi ziddiyat asosiga qurilgan sinfiy kurashdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, Gerhart Hauptman naturalizm oqimida o'z o'rniga ega bo'lgan nemis ijodkorlaridan biridir, sababi adib asarlarida hayotning haqiqiy tasvirini bera olgan. U jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini diqqat bilan kuzatadi. Shu sababli yozuvchi asarlarida asosiy e'tibor hayotni birlashtirgan ijtimoiy adolatsizlikni, insoniy qadriyatlarini tiklash yo'lida jon kuydirib kurashadi. Uning asarlaridan sezish mumkinki, suv oqimiga qarshi suzuvchi odam ekanligi yaqqol ko'rinib, ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy adolatsizlikni qoralaydi. Gerxart Hauptmanning "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi "tabiiy drama" deb atash mumkin. Adib asari orqali ana shu ijtimoiy maqsadni ko'zlaydi. "Quyosh chiqishidan oldin" dramasi ilmiy aniqlik bilan obyektiv idrok qilinsa, asar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Bugungi davr asarlarida tabiiylikka ko'p murojat qilinishi, suniylikdan uzoqlashish tilimiz va badiiy adabiyotimiz yuksalishiga sabab bo'lgan bo'lur edi.

#### ADABIYOTLAR

1. Karl S. Guthke: Gerhart Hauptmann. Weltbild im Werk. Zweite veränderte Auflage. München: Francke 1980, S. 55.
2. Schmäling, W. Die deutsche Literatur. Ein Abriss in Text und Darstellung: Naturalismus. Philipp Reclam. Jun. GmbH. 1999. S. 22.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-томли. – Москва: Рус тили, 1981. – Б.222.
4. Gerhart Hauptmann. Vor Sonnenaufgang. Soziales Drama. Herausgegeben von Peter Langemeyer. Reclam universalbibliothek. www.reclam.de. S. 10.
5. Hauptmann, Gerhart: Sämtliche Werke Hrsg. Von Hans Egon Hass. Ullstein GmbH, Berlin, 1996. S. 55
6. Каримов Ш. Немис адабиёти тарихи. Мумтоз сўз. Тошкент. 2010. – Б. 109.

7. Жўрақулов У. Адабий-тарихий жараён: Ижодкор. жанр. Хронотоп. Ғафур Ғулом нашриёти. Тошкент. 2015. – Б. 9.
8. Hauptmann, G. Vor Sonnenaufgang; Soziales Drama. Berlin: Ullstein Buchverlage GmbH. 2006. S. 73.
9. Dadajonov O. Nemis ma'rifatparvarlik dramasida qahramon xarakteri talqini/ O'zMU Xabarlari, 202-204 betlar. Toshkent-2022, 1/3. 3 bet.
10. Dadajonov O. EMERGENCE STAGES OF UZBEK DRAMA/ INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY, IBAST ISSN: 2750-3402, Volume: 3, Issue: 4 April 2023. SJIF Impact Factor: 8.2. Germaniya, 380-384 betlar. 5 bet.
11. Dadajonov O. STAGES OF DEVELOPMENT OF THE MODERN DRAMA/ ACADEMIC INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTI-DISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION Hosted from Pittsburgh, USA.97-99 betlar. 3 bet.



Laziz QUDRATOV,

Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: laziz.kudratov.88@inbox.ru

SamDCHTI, f.f.d. dotsent G'.Q.Mirsanov taqrizi asosida

### MATNNING SINTAKTIK BIRLIGI MUAMMOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilni lingvistik tahlil qilish – til materiali sifatida, turli sintaktik tarkibga ega qurilmalar, matnning bir nechta segmentlari nazariy jihatdan tahlilga tortiladi. Shu sababdan matnning asosiy tarkibiy qismini, uni tabiati va shu yo'nalishidagi mavjud fikr-munosabatlarni bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Superfrazal birliklar, murakkab frazeologik birliklar, element, referent, homomorf.

### ПРОБЛЕМА СИНТАКСИЧЕСКОГО ЕДИНСТВА ТЕКСТА

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистический анализ языка – как языкового материала, устройства с различным синтаксическим содержанием, теоретически к анализу привлекаются несколько сегментов текста. Именно поэтому в тексте излагается основная составляющая, ее характер и сложившиеся мысли-отношения в этом направлении.

**Ключевые слова:** Суперфразовые единицы, сложные фразеологизмы, элемент, референт, гомоморфный.

### THE PROBLEM OF SYNTACTIC UNIT OF A TEXT

Annotatsiya

Linguistic analysis of language in this article – as a language material, devices with different syntactic content, several segments of the text are theoretically subject to analysis. For this reason, the main component of the text, its nature and the existing thought-relations in the same direction are described.

**Key words:** Superphrasal units, complex phraseological units, element, reference, homomorph.

**Kirish.** Matn tilshunosligi o'rganilayotgan predmetga qarab ikki bo'limni o'z ichiga oladi: matn nazariyasi – yaxlit nutqiy asar; superfrazal birliklar haqidagi ta'limot – matnning tarkibiy qismlari. Matn tilshunosligi birinchi navbatda matn tipologiyasi muammolari, ularning tarkibi, til vositalarining matn janriga mosligini o'rganish bilan shug'ullanadi. Murakkab sintaktik birliklar (MSB) haqidagi ta'limotlarda, matnning keng imkoniyatlari hamda sintaktik birliklarning strukturaviy-semantik xususiyatlariga keng etibor qaratiladi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Murakkab sintaktik birliklar (MSB)ni lingvistik tadqiq qilishda nafaqat tarkibiy qismlar, balki birikmalarning semantik ifodasi, mazmunli bog'lanishini taminlovchi vositalar ham etiborga olinadi. MSBning lingvistik maqomi masalasi bilan bir vaqtlar V. V. Vinogradov [2] hamda N. S. Pospelovlar [3] shug'ullangan edilar. Keyinchalik MSBning tarkibiy qismi va uning semantik xususiyatlari yadrosini mujassam etuvchi til birligini aniqlashga keng etibor qaratiladi [4]. E. A. Referovskaya MSBning strukturaviy va semantik xususiyati bevosita matnni tarkiblantiruvchi hodisa sifatida namoyon bo'lishi borasidagi mulohazalarni bildiradi [5].

Turli sintaktik birliklar sohasida olib borilgan jadal izlanishlarga qaramay, tilshunos olimlar matnning asosiy tarkibiy qismi bu – superfraza birlikmi yoki paragraf ekanligi xususida umumiy bir to'xtamga kela olmadilar. Xususan, matnning asosiy tarkibiy qismi sifatida paragrafni e'tirof etilishi borasidagi fikrlar malum ishlarda o'z tasdig'ini topgan [6].

Matnning sintaktik birlik masalasi doirasidagi tortishuvlar ham tasodifiy emas. N. S. Pospelov, murakkab sintaktik uyushgan bo'laklar masalasi bo'yicha ilk izlanish olib borgan tilshunos hisoblanadi. Olim murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarini turli sintaktik vositalar va usullar

yordamida bog'langan gaplar guruhi sifatida qabul qiladi. Uning izohlashicha – “Bu kabi uyushgan gaplar – asar muallifi tomonidan o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan xabarining badiiy ta'sirchanligini oshiradi. Bunday jumalarni o'zaro bog'lash uchun yo teng va zidlov bog'lovchilari yordamidan yoki boshqa usullardan foydalaniladi. Jumlaning ma'nosiga ko'ra vaziyatga mos kesim shakllaridan foydalaniladi” [7]. N. S. Pospelov murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarga atroflicha ta'rif berib o'tgan. Muallif sintaktik jihatdan uyushgan bo'laklarni murakkab frazeologik birliklar (MFB) terminini kiritadi. Ammo ushbu (MFB)larning strukturaviy-semantik mexanizmi, semantik tarkiblanishi turli tillar qiyosida hali batafsil tahlil qilinmagan va shu tufayli ushbu sohani chuqurroq tadqiq qilish ehtiyoji mavjud. Bundan tashqari, ayni paytda (MFB)larni aniqlashning yagona mezonlari mavjud emas. Shuning uchun matn asosiy tarkibini tashkil etuvchi sintaktik birliklar sifatida bu abzatsga etibor qaratiladimi yoki superfraza birliklar majmui tarzida berilishi kerakmi degan o'zaro tortishuvlar mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Matn sintaktik birlik sifatida tadqiq qilishda bir-biriga qarama qarshi bo'lgan turli konsepsiyalarni mavjudligi ko'zga tashlanadi. Ayrim tilshunoslar, jumladan L.G. Fridman, D. Ashurova paragrafni, ya'ni abzatsni nafaqat kompozitsion yoki stilistik jihatdan, balki, murakkab frazeologik birlik sifatida ham tahlil qilib chiqishga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuv L.G. Fridman ilmiy asarlarida ham batafsil aks ettirilgan. L. G. Fridman ayrim olimlarning mulohazalarini rad etgan holda, murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarni sifatida qabul qilishlarini yoqlamaydi. Vaholanki, birinchi qarash vakillari MFBlarni abzatsning bir qismi yoki butun bir bo'lagi va hattoki bir nechta abzatsni qamrab oladi deyishsa, ikkinchi toifa vakillari esa: uni abzatsdan kichik yoki teng bo'lgan nutq bo'lagi, deya takidlashadi va hattoki ular MFBni abzatsdan katta bo'lishi

mumkin emas degan fikrni olg'a suradilar. Uchinchi bir yo'nalish vakillari – MFBlar doimo abzatsdan kichik bo'lishini tasdiqlashadi. Mana shunday murosasiz tortishuvlar natijasida, murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarning matnlardagi o'rnini abzatslarga taqqoslash borasida turli qarashlar va ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarning rasmiy belgilarini, ularning semantik tarkibini to'raligicha aniqlash imkoniyati L. G. Fridman konsepsiyasida inkor etiladi [6].

MFB birlik sifatida paragraf o'zida qanday jihatlarni, semantik bog'liqliklarni namoyon qililishi kuzatiladi. L. G. Fridman ta'rifiga ko'ra, "paragraph" atamasi superfrazaviy birlikni belgilash uchun xizmat qiluvchi lingvistik atama sifatida qo'llaniladi. U tipografik atama ma'nosini anglatmaydi va shu bilan birga, tinish belgisi xususiyatini ham o'zida nomoyon etmaydi.

Agarda muayan matnda paragraflarga ajratishning obyektiv mezonlariga murojaat qiladigan bo'lsak, L.G. Fridman uning asosiy mazmun elementining o'zgarishi, voqeya-hodisa sodir bo'lish o'rnini va vaqtining o'zgarishi, ishtartakat vaqtining siljishi, boshqa mavzuga o'tish yoki uning segmentini o'zgarishi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [6]. Bu shuni anglatadiki, obyektiv mezonlariga ko'ra, paragraf MSBga aynan o'xshashdir. Murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarga ajratishda T.G Biryukova ulardagi fe'l kesim zamonlarining qo'llanilishining muayan mantiqiy ketma-ketligiga asosan moslashishiga e'tibor qaratadi [8] Xeyngard va S. Vuud esa ushbu bo'laklarni – yangi mavzuga o'tish munosabati bilan yoki mavzu davomiyligining buzishi hamda mavzudagi rema progressiyasining o'zgartirishiga qarab ajratadi [9];

D. van Deyk murakkab sintaktik uyushgan birliklarda sintaktik va semantik munosabatlarni muhimligini ta'kidlaydi. Muallif, bunda tugallanganlik mazmuni ahamiyatli sanalishiga e'tibor qaratadi [10]. D.Ashurova esa har qanday uyushgan birikmalarining informativlik xususiyati muhim ahamiyat kasb etadi [11]. Malumki, matn tarkibi matn birligining ichki bog'liqligi, ishtirok etadigan birliklarning o'zaro bog'liqligi natijasida ifodalangan umumiy axborotning to'la-to'kisligi bilan belgilanadi. Matn birliklari sifatida esa jumla bitta sintaktik va semantik tarkibga birlashgan frazalararo birliklardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham matn muayyan obyektiv mezonlar asosida shakllantirilgan bo'lishi kerak.

**Tahlil va natijalar.** Frazalararo birliklar grammatik bog'liqlikka ega bo'lgan matn nazarda tutiladi. Bunda paragraf o'rtasida rasmiy chegara belgilash noo'rin degan xulosaga kelinadi. Matndagi paragraf doimo matnda yangi mavzuga o'tishni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ammo asosiy semantik element – voqea joyi va vaqti o'zgarishi yoki uning segmentidagi o'zgarishlar bo'lgan joyda bo'lishi kabi parametrlar bilan belgilanadi. Ammo bu kabi tarif barcha ma'lumotlariga doimo to'g'ri kelavermaydi. Jumladan, N. S. Valgikaning ta'kidlashicha sintaktik birliklarni funksional jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, matn funksional semantik va strukturaviy birlik sifatida shaklan va mazmunan o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysunadi [12].

Bu yerda L.M. Losevaning asosli mulohazalarini keltirib o'tish o'rinlidir: "Biz murakkab sintaktik uyushgan bo'laklarni (MSUB) paragrafqa qarama-qarshi qo'ya olmaymiz. Chunki ular o'rtasida o'zaro bog'liklik mavjud. Biroq, ularni bir-biridan mutlaqo ajratmasdan, yozma matnda muayan voqe'likni ifodalovchi aynan bir vazifani o'tovchi vosita sifatida qabul qilish ham noto'g'ridir" [13]. Badiiy ifoda maydonida paragraf hamda MSUB vosita sifatida ular – o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi yoki hamohang ta'sir doilarasiga ega bo'lishi, hatto unga aynan teng bo'lishi ham mumkin. Biroq kompozitsion-stilistik nuqtai nazardan, ular o'tasidagi tenglik doimo to'g'ri deya hisoblash noo'rindir. Shu sababdan, asosiy kompozitsion-stilistik vazifasiga ko'ra

tasniflanishi lozim. Paragrafni (rasmiy mezonlarga binoan) superfrazaviy birlik bilan mos kelish sharti bilan supersintaktik birlik deb atash mumkin. Belgilangan formal-sintaktik vositalar asosida belgilangan paragraf va MFB orasidagi chegaralari bir-biridan uzoqlashsa, ular o'rtasida uzleksiz tegishlilik aloqalari ham bo'lmaydi. Natijada paragraf asosiy matnning sintaktik komponenti maqomini yo'qotadi.

MFB, aksincha, doimo mavzu yoki mikrotemaning o'zgarishi, badiiy tasvir mantiqiy ketma-ketligining zamonga nisbatan o'zgarishi munosabati bilan muayan chegaraga ega bo'ladi, ya'ni MFB paragrafdan farqli o'laroq, matndagi ma'no guruhlaridagi voqeya-hodisa joyi yoki vaqtining o'zgarishi va boshqa bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shubhasiz, sintaktik xususiyatga ega bo'lgan matnning asosiy tarkibiy qismi semantik, kommunikativ va strukturaviy atamalarda o'ziga xos birlik sifatida belgilangan yozma nutq segmenti MFB deb tan olinishi kerak. Ma'lumki, har qanday matn, shu jumladan MFB muayan bir voqe'likni ifodalashi bilan bog'liqdir. Matnning voqe'lik bilan o'zaro bog'liqligida uning barcha tarkibiy qismlari, nafaqat so'zlar, gaplar, MFB va undagi murakkab predikativ birikmalarining lug'aviy leksemalar hamda sintaktik tuzilmalari sifatida, balki, birinchi navbatda, nutq bo'lagidagi konkret predmetlar nomlari va aniq faktlar haqidagi bayonotlar tushiniladi. MFB birliklarini ikki asosiy xususiyatga ajratgan holda ko'rib chiqishimiz mumkin: sintagmatik va funksional jihatlarga. Sintagmatik jihatdan MFB "maxsus bir-biri bilan uzviy aloqaga ega bo'lgan jumlar majmui" sifatida baholanadi. MFB dagi gaplarning bunday yondashuv asosida bog'lanishi uning tarkibiy va semantik yaxlitligini ta'minlovchi lingvistik vositalar birinchi o'ringa chiqadi. Funksional jihatdan MFB batafsil bayonot sifatida e'tirof etiladi. Bunda asosiy e'tibor MFB ning strukturaviy va semantik xususiyatlari jihatidan uning referensial (murojaat vositasi) funksiyasiga qaratiladi. Shubhasiz, MFB bir vaqtning o'zida ham sintagmatik, ham funksional shakllanishni o'zida nomoyon etadi. Ammo, MFBni o'rganishda sintagmatik-funksional va funksional-sintagmatik yondashuvlarni bir-biridan farqlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ikkala yondashuv ham MFB ning aniqlashning turlicha usullarini taqdim etadi: birinchi holatda – uning tarkibiy va semantik parametrlarini, ikkinchi holatda esa, – referensial (murojaat) jihatlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada MFB atamasi bilan bir qatorda "vaziyat" atamasi ham qo'llaniladi, bu aslida MFB ning funksional jihatini, uning lingvistik faktlarni voqe'lik bilan bog'lash xususiyatini aks ettiradi. Tilshunoslikda "vaziyat" atamasi turli ma'noda qo'llaniladi. O'ylaymizki, uning ba'zi ta'riflarini ko'rib chiqish va bu atama haqidagi tushunchamizni aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Frenkis Gill "vaziyat" tushunchasiga (yozma hamda og'zaki nutqda) ekstralingvistik omillari "majmui" sifatida qaraydilar. Muloqot (og'zaki yoki yozma) maydonida, vaziyat hamda suhbat mavzusi o'rtasida uzleksiz aloqa mavjud. Shu sababdan, suhbatni boshqaruvchi shaxs muloqot jarayonida avvalroq tilga olingan biror bir element yoki faktga qayta murojaat qilganida, muloqotdoshlar gap aynan nima haqida ketayotganligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishligi kabi amaliy hamda ijtimoiy faktorlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi [14]. Ekstralingvistik omillarning butun majmuasi: ijtimoiy, yosh, intellektual, psixologik va boshqa omillar ifodaning ma'nosi va sintaktik tuzilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ana shunday struktura va semantika orqali, muallif yetkazilmoqchi bo'lgan xabarida o'sha ekstralingvistik omillar o'z ifodasini topadi. "Vaziyat"ni bu darajada tushunish uchun ifodani struktura jihatidan shakllanishida ekstralingvistik omillarning ta'sirini o'rganishni taqozo etadi.

V. G. Gak tomonidan "vaziyat" tushunchasiga berilgan tarif ham aynan shunga o'xshash. Olim tomonidan "vaziyat"ga berilgan ushbu ta'rif avvalgisiga o'xshab ketadi,

ya'ni "ekstralingvistik omillar – bu badiiy bayonning tarkibiy-semantik tashkil etilishidir" [15]. Bundan tashqari, juftliklarning o'zaro munosabatini o'rganishda yetakchi vazifani ekstralingvistik omillar o'taydi.

Matnda aks etgan har qanday voqelikni "vaziyat" yordamida tushunish mumkin. Lekin bu atama bilan tildan tashqari voqelik va lingvistik hodisalarni belgilashga urinishlar bir vaqtning o'zida e'tirozlarni ham keltirib chiqaradi. Ma'lumki, ekstralingvistik voqe'lik vazifasida kelgan referent maqomidagi "vaziyat", denotantlik darajasidagi ifoda "vaziyati" dan mutlaqo farq qiladi. Matndagi har qanday badiiy tasvir ekstralingvistik hodisaning barcha muhim xususiyatlarini (ularning o'zaro bog'liqligida) aks ettira olmaydi. Faqat birgina haqiqat umume'tirof etilgan, ya'ni denotativ darajasidagi vaziyatda aynan o'sha holatga mos keluvchi real voqe'lik xususiyatlarini aniqlash mumkin xolos. Ushbu vaziyatda V. G. Gakning fikriga ko'ra til tizimi obyektlarini atroflicha aks ettiruvchi homomorf modellarga murojaat qilib, faqat u yoki bu tasodifiy tanlangan elementlarga e'tibor qaratadi [15]. Umuman olganda, til vositasida tasvirlangan hodisalar real olam bilan solishtirganda butunlay boshqa dunyoni ifodalaydi degan fikrdan yiroq bo'lishimiz lozim, ya'ni badiiy tilda aks etgan olam qonunlari faqat til va insonga xosdir. U haqiqiy dunyodan farqli o'laroq, unga o'zining ichki qarashlarini hamda munosabatlarini yuklaydi va shu bilan tilda aks etgan yangi dunyoni yaratadi. Darhaqiqat, tilda aks etgan nazariy bilim o'zida faqat ikkinchi darajali dunyoni mujassam etadi, ya'ni uning qonunlari o'z mazmuniga ko'ra bir yoqlama bo'lsa-da, real voqelikka yetarli darajada ko'p jabhada mos keladi" [16].

Ekstralingvistik vaziyat va denotativ darajasidagi vaziyat tushunchalarini orasidagi keskin qiladi. Ekstralingvistik

vaziyatni voqelik hodisalari sifatida o'zaro bog'langan obyektlar to'plami ko'rinishida qabul qilish mumkin. Ekstralingvistik vaziyat shaxs ongida namoyon bo'lib, ruhiy holatga aylanadi. Kommunikativ vazifaga muvofiq fikrlash orqali, o'zgartirilgan ruhiy holat allaqachon axborot holatidir. U ham matn mazmunini tashkil qiladi.

Loxafer Syuzanning ta'kidlashicha, "vaziyat" tushunchasini anglash uchun uni yana ikkita turga ajratadi. "Vaziyat tushunchalarini bir-biridan yaxshi farqlash kerak, – deb yozadi u, – muloqot sodir bo'layotgan paytdagi vaziyat, ular gaplashayotgan vaziyatdan farq qiladi. Vaholanki, aynan ikkinchisi haqiqiy voqelikni bayon qiladi. Bu holatni shartli ravishda tema deb atash mumkin [17].

**Xulosa va takliflar.** Demak, "vaziyat" atamasi bir-biri bilan ma'lum bir tarzda o'zaro bog'liq bo'lgan uchta mutlaqo boshqa-boshqa hodisalarni aniqlab keladi, jumladan: a) obyektiv voqelikning predmetlari va hodisalari orasidagi o'zaro munosabatlarni; b) gapning tuzilishida ishtirok etuvchi lingvistik elementlarni tanlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy, yosh, intellektual, kognitiv, psixologik va boshqa omillarning o'zaro aloqasini; v) obyektiv voqelik predmetlari va hodisalarini iyerarxik munosabatlarida aks ettiruvchi gaplarning denotativ belgilar majmuini ifodalab keladi. Mazkur jihatlar vaziyatni tilda aks etgan voqelikning bir bo'lagi sifatida qabul qilinishi mumkinligidan dalolat beradi. Mazkur jihatlar vaziyatni obyektning o'zlari va bayon doirasidan tashqaridagi moddiy voqe'lik hodisalari o'rtasida emas, balki faqat denotativ belgilar o'rtasidagi aniq bir ifodada ko'rsatilgan ba'zi munosabatlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim degan xulosaga kelish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Москальская О.И. Грамматика текста. М.: Высшая школа, 1981. -175с.
2. Виноградов В.В. О теории художественной речи. - М.: Высшая школа, 1971. – 238с.
3. Поспелов Н.С. Проблема сложного синтаксического целого в современном русском языке. - учёные записки МГУ. Труды кафедры русского языка. - М., 1948.–С 31-41.
4. Аскольдов С. Концепт и слово Русская словесность: Антология М, Академия,1997. -С112-136.
5. Реферовокая Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. - Л.: Наука, 1983. - 215 с.
6. Фридман Л.Г. Грамматические проблемы лингвистики текста. Автореф. д-ра филол. наук. - Л., 1979. - 52 с.
7. Поспелов Н.С. Проблема сложного синтаксического целого в современном русском языке. - учёные записки МГУ. Труды кафедры русского языка. - М., 1948.–С 31-41.
8. Бирюкова Т.Г. Анализ и синтез текста, : Учебное пособие. – Елец: ЕГУ, 2007. –98 с.
9. Huehnegard J., Woods C. Akkadian and Eblaite, in The World's Ancient Languages, ed. R.D. Woodard. Cambridge, 2004.
10. Teun van Dijk. Text and context : Explanations in the Semantics and Pragmatics of Discourse. London; Longman Group LTD 1997.
11. Ashurova D. Text Linguistics Tashkent,"Tafakkur qanoti". 2012. – 200 p.
12. Валгина Н.С. Теория текста. Учебное пособие. Москва, Логос. 2003.-280с.
13. Белонова Н.И. «Комфорт речевого общения» (Дружеское письмо) // Русский язык в школе. N 5., – 1996. – С. 43-58.
14. Francis G. Labelling discourse: an aspect of nominal-group lexical cohesion. //Advances in Written Text Analysis, London: Routledge,1994. –P 83–101.
15. Гак В. Г. Высказывание и ситуация // Проблемы структурной лингвистики. М., – 1972. -356 с.
16. Keen S. Introduction: Narrative and the emotions // Special Issue, Narrative and the Emotions. Poetics Today, 32, 2011. –P 1–53.
17. Lohafer S. Between Story and Essay: Micro-Markers of Storyness //Liminality and the Short Story: Boundary Crossingsin American, Canadian and British Writing. New York: Routledge, 2015. -P 108–117.



*Oybek QULMAMATOV,*  
*O‘zDJTU “Ingliz tili tarjima nazariyasi” kafedrasida tayanch doktoranti (PhD)*  
*E-mail: okulmamatov@gmail.com*

*O‘zDJTU dotsenti, f.f.f.d. (PhD) T.S. Ismailov taqrizi asosida*

### ASKIYA VA DOZENS JANRLARINING NUTQIY TA‘SIRCHANLIGINI OSHIRISHDA STILISTIK VOSITALARNING O‘RNI

Annotsatsiya

Stilistik vositalar ijodiy matn yaratishda, adabiyotda samarali muloqotning muhim qismi hisoblanadi, chunki ular murakkab g‘oyalarni yetkazish, his-tuyg‘ularni uyg‘otish, tilni yanada jozibali va esda qolarli qilish imkonini beradi. Odatda, ijodkorlar o‘z asarlarini yaxshilash va o‘quvchi/tinglovchi uchun kerakli ta‘sirni yaratish uchun badiiy tasvir vositalaridan foydalanishadi. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining askiya hamda afro-amerikalik xalqlarning dozens nutq janrlarida stilistik vositalarning qo‘llanilishini ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Askiya, dozens, stilistik vosita, kulgi, qofiya, alliteratsiya, antiteza, onomatopeya, metafora, sarkazm, ironiya.

### THE ROLE OF STYLISTIC DEVICES IN INCREASING THE VERBAL EFFECTIVENESS OF ASKIYA AND DOZENS GENRES

Annotation

Stylistic are an important part of effective communication in the creation of a creative text, in literature, because they allow to convey complex ideas, evoke emotions, make the language more attractive and memorable. Usually, authors use literary aids to enhance their work and create the desired effect for the reader/listener. This article examines the use of stylistic devices in the speech genres of askiya of Uzbek people and dozens of African-Americans.

**Key words:** Askiya, dozens, stylistic device, laughter, rhyme, alliteration, antithesis, onomatopoeia, metaphor, sarcasm, irony.

### РОЛЬ СТИЛИСТИЧЕСКИХ ПРИЕМОВ В ПОВЫШЕНИИ РЕЧЕВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЖАНРОВ АСКИЯ И DOZENS

Аннотация

Стилистические средства являются важной частью при создании творческого текста, эффективного общения в литературе, поскольку позволяют передавать сложные идеи, вызывать эмоции, делают язык более привлекательным и запоминающимся. Обычно авторы используют наглядные пособия, чтобы улучшить свою работу и создать желаемый эффект для читателя/слушателя. В данной статье рассматривается использование стилистических средств в речевых жанрах аския узбекского народа и dozens афроамериканских народов.

**Ключевые слова:** Аския, dozens, стилистический прием, смех, рифма, аллитерация, антитеза, звукоподражание, метафора, сарказм, ирония.

**Kirish.** O‘zbek xalq og‘zaki ijodining askiya va qiziqchilik san‘atini saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish prezidentning 11.07.2023 yildagi “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PQ-222-son) qarori [1] qabul qilindi. Topqirlik, hozirjavoblik, nozik did va madaniyat, so‘zamolik, teran bilim va samimiyat bilan tomoshabinni kuldirish san‘ati hisoblangan askiya insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YUNESKOning representativ ro‘yxatiga kiritilganligi mazkur janrning nafaqat O‘zbekistonda o‘rganilishiga turtki bo‘ldi, balki ushbu voqea butun dunyo mutaxassislarining bu san‘at turiga nisbatan qiziqishini oshirdi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos askiyani boshqa xalqlardagi unga o‘xshash janrlar bilan qiyoslab o‘rganish muhim sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Askiya va dozens og‘zaki nutq janrlari (so‘z o‘yinlari) hisoblanib, ularning har ikkalasi zukkolik, topqirlik, hozirjavoblikni talab etadi. Ishtirokchilarning qanchalik mahoratli ekanliklari ularning badiiy tasvir vositalari va stilistik elementlardan samarali foydalanishlariga bog‘liq. Askiya so‘z o‘yini o‘zining maxsus ifoda vositalari tizimi hamda muayyan lingvostilistik talablariga ega emosional-ekspressiv nutq ko‘rinishi hisoblanadi [3]. U o‘zbek so‘zlashuv nutqining o‘ziga xos

lingvokulturologik jihatlarini namoyon etadi, nutqning shirasini quyushtiradi, ta‘sir quvvatini oshiradi.

Bizning fikrimizcha, askiya so‘z o‘yini o‘zida implisit axborot ko‘lamini tajassum etadi. Implisitlik “tilning yashirin kategoriyalari” sifatida talqin qilinadi. So‘zning tashqi shakli bilan ifodalanmaydigan, ammo uning ichki mazmunidagi kognitiv axborot fon bilimlar orqali idrok qilinadigan bunday lisoniy birliklar tilshunoslikda haligacha ko‘plab atamalar bilan yuritilib kelinmoqda. Ular ichida eng ko‘p qo‘llanadiganlari implikasiya, implisit mazmun, implisit ma‘no, implisit axborot, yashirin fikr (теневое высказывание), ikkilamchi ma‘no, ataylab qoldirib ketilgan fikr (намеренные смысловые пропуски), kontekstni rivojlantiruvchi tushunchalar deyish mumkin.

O‘zbek milliy so‘z o‘yini hisoblanagan askiya o‘zining ifoda etish kompleksi – nutqning ziynati – zakiylik vositasiga ega.

Jamiyatimizning barcha sohalarida so‘zlovchilar u yoki bu darajada, albatta, so‘z o‘yini, hazil-mutoyiba va askiya elementlaridan foydalanadi. Bu xalqimizning milliy mentaliteti bilan bog‘liq nutqiy etiketga aylangan. Askiya so‘z va jumalardagi tagdor kesatq, istehzo, piching, mazax, shama’ va boshqa kulgi qo‘zg‘atuvchi rang-barang ko‘chma ma‘nolarni ilg‘ab olib, unga munosib javob topa bilishdan iborat so‘z o‘yini san‘atidir [10].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Askiyachilar nutqida turli lingvistik hodisalar, badiiy san'atlar qo'llaniladi. Biz quyida ularning bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

Askiyachilar nutqida ohangdorlik, qofiya tarzidagi lisoniy so'z o'yiniga zakilylik san'atining mohiyatini ochib beruvchi muhim uslubiy vositalardan biri sifatida qarash lozim bo'ladi.

“Qofiya” deb ataluvchi askiyaning maxsus ko'rinishida ohangdorlikni yuzaga chiqaruvchi omillar poyetik nutqdagi qofiyadan farq qiladi. Matnda qofiya, avvalo, nasriy shaklda bo'lib, adabiyot ilmidagi saj' san'atiga o'xshash bo'ladi:

Ibrohimjon: Nasrulla aka, keling endi bir qofiyabozlik qilishaylik.

Nasrullo: Bo'пти, qani boshlang, o'tirasizmi og'zingizga nos solib: bay-bay taxir, deb.

Ibrohimjon: Boshingiz garang bo'lganda aytmovdimmi: meni chaqir deb.

Shevaga oid so'zlar:

Qori aka: Iya, Mamayunus, devoringizning avvalgi loyi sho'r tuproqdan qilinganmidi, shuvoqlari guvalakda turmay to'kilib ketipti!

Mamayunus: Ko'rmaysizmi, Qori aka, ish bilan bo'lib, shuvoqqacha qo'lim tegmadi [11].

Shuvoq leksemasiga chegaralash ma'nosidagi –gacha (–qacha) morfemasini qo'shgan holda shuvoqqacha so'zi shu vaqtgacha degan ma'noni ifodalash uchun hosil qilingan. Shuvoq leksemasi ikki xil ma'no (loy suvoq va cho'lda o'sadigan o'simlik) anglatishidan tashqari, askiyada harif (tarafkash)ning laqabi («ka»)ga ishora etuvchi diskurs hisoblanadi.

Alliteratsiya (undoshlarni takrorlash):

Mamaroziq aka: Tursunbuva! Mana bular ishimizdagi kamchiliklarni kampirning chig'irig'idan chiqarganday chiqarishadi. Biz tuzatdik, ularni ham bir tuzatmaymizmi?

Turli stilistik ifoda uchun til birliklarining fonetik strukturasi ataylab o'zgartiriladi. Bu esa askiya matnini inson omili asosida, antroposentrik jihatdan tahlil etish, nutq (matn)dagi tovush o'zgarishlarini: tovush almashishi, tovush tushishi, tovush ortishi hodisalarini “tovush almashtirish”, “tovush tushirish”, “tovush ortirish” atamalarini bilan nomlash to'g'ri bo'ladi.

Tovush o'zgartirish:

Karimov: Qovog'ingni ochsang-chi, og'ayni! Seni qattiq tanqid qilganlar ular-u, menga kekklik qilasanmi?

Salimov: Hali men tanqid qilmadim degin. Ana maynabozlik. Aytib turib aytmadim deb, tonadigan bo'lsang, sen suttu oq desang ham ishonmayman.

Karimov: Ahvoling shu bo'ladigan bo'lsa, og'ayni, keyincha, meni u zog'dan ko'rganda, so'kinib, qarg'ab yuramasang go'rgaydi.

Tovush almashtirish:

Tohirjon: Kolxoz duradgorlari brigadalarga chiqmay, nuqul rainsnikida pol ochishadi-ya.

Hasanjon: Komissiya kamchiliklarni ko'rsatgani yaxshi, ishga foydasi tegadi. Siz bo'lsangiz komissiya kelganda, o'zingizni ponaga olasiz.

Har ikkala gapdagi birikmalarning ichki tomoni(ma'nosi)ga e'tibor qaratsak, pol ochmoq – uying yuradigan taxtali qismini ochmoq ma'nosida, fol ochmoq – kishi bilishga qiziqqan noma'lum voqea, hodisalarini go'yo oldindan aytib berishga urinmoq yoki oldindan «bilmoq», aytib bermoq [12] ma'nosida; panaga olasiz – hech kim ko'rmaydigan yashirin joyga berkinasiz ma'nosida, ponaga olasiz birikmasi pona – narsalarni yorish, kerish yoki biriktirish uchun ishlatiladigan bir uchi tig'li yog'och yoki temir[13] ni nazarda tutib hosil qilingan.

“Antiteza” (fr. Antithese – zid qo'yish):

Jo'raxon: Siz ham dalaga chiqib qozon boshidan kelmabsiz. Hasharga emas, osharga keldi deydishi.

O'xshatish va metaforalardan foydalanish:

Komil qori: Nariga qochma, behi kel, Buxorjon.

Aka Buxor: Bor-yey. Ariqqa tushib ketdim, kerak bo'lsam, o'zing kelib yig'ishtirib ol mani.

Komil qori: Tezroq kela qolgin, sen o'zing qip-qizil anorimsan...

Aka Buxor: Ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, nodon, muncha boyo'g'lday kekkeyasan.

Komil qori: Aybimni topib gapirding lak-lak, rahmat senga...

Tahlil va natijalar. Lisoniy birliklarni kontekstda bir necha vazifalarda qo'llash – polifunksional so'z o'yini, bir necha ma'nolarda qo'llash – polisemantik so'z o'yini, ko'pincha bu hodisalarning qorishib ketishi esa sinkretik so'z o'yini deyiladi.

Sinkretik so'z o'yinlarida sinkretizm hodisasi namoyon bo'lishi yuqorida aytib o'tildi. Bunday so'z o'yinlarining quyidagi ko'rinishlarini qayd etish lozim bo'ladi:

Onomasizatsiya – turdosh otning atqililashishi. Bunday usuldan askiyachilar o'z nutqida “raqibi”ni mot qilish uchun, shoir va yozuvchilar esa poetik kontekstda matn ekspressivligini ta'minlash uchun foydalanadilar:

Ota-onam tinmay yer,

Tugab qolmasmikin Yer. (Chuvachangning hayrati. Iqbol Mirzo)

Appelyativatsiya – atoqli otning turdoshlashishi, ya'ni onomasizatsiyaning aksi. Masalan, Quyosh-quyosh. Bunda ham so'z o'yini ifodalannmayapti. Agar so'zlovchi undan maqsadli foydalansa, so'z o'yini yuzaga chiqadi.

Askiyachilar nutqida onomasizatsiya va appelyativatsiya hodisalaridan sinkretik holatda foydalanish hollari uchrab turadi. Bunday vaziyatda har ikkala hodisa qorishib ketadi. Masalan, Qo'qonda Urfiy degan, Xo'jandda Kamol Xo'jandiy kabi shoirlar bir-biri bilan do'st bo'lib, Kamol Xo'jandiy Urfiyni mehmonga chaqiradi. Supada suhbat qilib o'tirganlarida Kamol Xo'jandiyning kichkina kuchugi dasturxon yoniga kelib, hatto dasturxoniga tegib ketsa ham, u indamas ekan. Urfiyning juda g'ashi kelib, achchig'i chiqibdi va oxiri so'rabdi:

Urfiy: Bu maxsumchaga nima nom qo'yganlar?

Kamol Xo'jandiy: Urfiy nomlardan birini qo'yganmiz-da.

Urfiy: Kamolga yetsin!

Suhbatda shoirlar bir-birining ismini atoqli va turdosh ot vazifasida qo'llaganlar va natijada so'z o'yinining go'zal bir namunasi yaratganlar.

“Atamalar o'yini”. Biror-bir soha atamalarini bilan amalga oshiriladigan so'z o'yini hisoblanadi. Ushbu usuldan so'z san'atkorlari – askiyachilar atamalar o'yiniga asoslangan payrovlar yaratadilar:

Ishoqjon: Jo'rtaqa luqma soldim-da, qaragam, gapning egasini aytasiz-u, kesimga hayron bo'lib turibsiz.

G'anijon: Adashtirmay turing, yana nomingizni olmoshtirib, sizga Ergash, bo'laklari bu, deb o'tirmayin.

Ushbu matnda qo'llangan ega, kesim, olmosh, ergash gap kabi tilshunoslik terminlari termin vazifasini bajarmagan, biroq “Til” payrovi talabi bilan so'zlovchi ushbu atamalarga ishora qilib o'tgan. Natijada bir ma'noli xarakterga ega bo'lgan terminlar nutqda ko'p ma'noli so'z sifatida voqelashgan.

Odatda, qizg'in og'zaki haqorat yoki hazil shakliga ishora qiluvchi dozens kontekstida hazilomuz jummalarni yanada jozibador va ta'sirli qilish uchun ma'lum stilistik vositalar qo'llaniladi. Quyidagi bir nechta misollarga e'tiborni qaratamiz.

Giperbola (mubolag'a): Mubolag'a dozens janridagi odatiy stilistik vositadir. Ishtirokchilar ko'pincha o'zlarining

haqoratlarini yoki maqtanishlarini kuchaytirish uchun giperbolik tildan foydalanadilar. Misol uchun, kimdir shunday deyishi mumkin: "Your mama's so fat, she takes up two city blocks!" ("Onang shu qadar semizki, u shaharning ikkita mahallasiga zo'rg'a sig'adi!").

Giperbola yoki bo'rtirilgan gaplar to'g'ridan-to'g'ri o'z ma'nosida qabul qilinmaydi, balki ular dozensdagi og'zaki tortishuvlar paytida hazil va urg'u yaratish uchun ishtirokchilar tomonidan tez-tez ishlatiladi: "Your shoes are so old, they were probably worn by the dinosaurs" ("Oyoq kiyimingni eskiligini qara, dinozavrlar kiyganga o'xshaydi").

Mubolag'a dozens san'atining asosiy elementi bo'lib, unda ishtirokchilar o'zlarining og'zaki nutq qobiliyatlarini namoyish qilish uchun bo'rtirilgan hazillardan foydalanishadi.

Metafora va o'xshatish: Metafora va o'xshatishlar kulgili va hazilomuz bo'lishi mumkin bo'lgan taqqoslashlar uchun ishlatiladi. Misol uchun, "You're as slow as molasses in January" ("Sen qahraton qishdagi qiyom kabi sekinsan") yoki "Your breath is like a skunk's spray" ("Nafasing juda ham badbo'y, ichingda it o'lganmi deyma").

Dozensda yorqin va o'rinli taqqoslashlar yaratish, haqoratlarini yumor bilan bezash maqsadida metafora va o'xshatishlar ishlatiladi: "Your brain is like a one-bedroom apartment – no room for anything else!" ("Sening miyang bir xonali hech nima joy bo'lmaydigan kvartiraga o'xshaydi!").

O'xshatishlar dozens jarayonida, kishilarning do'stona og'zaki bahslarida nuqson yoki kamchiliklarni bo'rtirib ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Alliteratsiya: Alliteratsiya so'zlar qatorida bir xil boshlang'ich undosh tovushdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu haqoratli hazillarga ritm va ta'sir qo'shishi mumkin. Misol uchun, "You're a bumbling, babbling buffoon" (ushbu misoldagi 3ta so'z undosh "b" tovushi boshlangan – bumbling, babbling, buffoon).

Ironiya (kinoya): Ironiya yumor hosil qilish yoki vaziyatning absurdligini ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, "You're so smart, you must be the one who invented stupidity" ("Siz juda aqlisiz, ahmoqlikni o'zingiz o'ylab topgan bo'lsangiz kerak"), "You're so intelligent; I'm surprised you haven't won a Nobel Prize yet" ("Siz juda aqlisiz; haligacha Nobel mukofotini qo'lga kiritmaganingizdan hayronman") kabi gaplarni aytish.

Bu misollarda bo'rtirilgan maqtovlarni aytish uchun istehzodan foydalanilgan, ular kontekstda kelganida, aslida kamchiliklarni ta'kidlaydi yoki haqorat mavzusini hazilomuz bilan tanqid qiladi.

Takrorlash: Ba'zi iboralarni yoki haqoratlarini takrorlash ma'lum bir fikrni ta'kidlashi va uni yanada esda qolarli qilishi mumkin. "You think you're tough? You think you're tough? You couldn't even lift a feather!" ("Sen kuchlimisan? Sen kuchlimisan? Sen hattoki patni ham ko'tara olmaysan!"), "Your car is a relic, a relic from the Jurassic era" ("Sening mashinang Yura davridan qolgan yodgorlik, yodgorlik").

Dozensda takrorlash san'atining qo'llanilishi fikrni, urg'uni kuchaytirish uchun xizmat qiladi, ko'pincha og'zaki sparring paytida haqoratni yanada samarali va esda qolarli qiladi.

So'z o'yini: So'z o'yinlari, ikki xil ma'nolilik va aqli so'zlarni tanlash dozens o'yinida samarali bo'lishi mumkin. Masalan: "You're so ugly, even a scarecrow would run from you" ("Siz juda xunuksiz, hattoki dala qo'riqchisi sizni ko'rganda qochib ketadi").

So'z o'yini aqli va yumoristik uslubiy vosita bo'lib, undan kreativ haqoratlarini yaratish uchun samarali foydalanish mumkin: "You're so forgetful, you'd leave your own shadow behind" ("Siz shunchalik unutuvchansizki, hatto o'z soyangizni esdan chiqarib qoldirib ketasiz").

Ushbu misollar so'z o'yinlari dozensdagi haqoratlariga yumor va ijodkorlikni qo'shishi va ularni o'ynoqi va esda qolarli qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Sarkazm: Kimnidir masxara qilish yoki mazax qilishni nazarda tutib, aytilmoqchi bo'lgan fikrning aksini aytishni o'z ichiga oladi. Bu ko'pincha dozens paytida o'ynoqi haqoratlarida ishlatiladi: "Oh, you're a real genius, aren't you?" ("Voy, sen chinakam dahosan, shunday emasmi?"), "You're so organized; I'm sure your chaotic mess is all part of your master plan" ("Siz juda tartiblisiz; ishonchim komilki, sizning tartibsiz hatti-harakatlaringiz bosh rejangizning bir qismidir").

Qofiya: Qofiyali haqoratlar jozibali va esda qolarli bo'ladi: "Your clothes are so old, they belong in a museum, and your face belongs on a broom" (museum – broom), "You're so slow, you move like molasses in the snow" (slow – snow).

Bu kabi qofiyali haqoratlar dozens bahslariga o'ynoqlik va ritmik element qo'shadi.

Bo'rtirilgan tasvirlar: Yorqin va kulgili xayoliy suratlar yaratish uchun ko'pincha bo'rtirilgan tasvirlardan foydalaniladi: "Your laugh is so loud, it could wake the dead!" ("Sening kulging shu qadar balandki, hatto o'liklarni uyg'otishi mumkin!").

Bo'rtirilgan tasvirlar tanlangan mavzuning kulgili va bo'rtirilgan rasmini chizishga xizmat qiladi.

Jonlantirish (tashxis) – narsa yoki tushunchalarga insoniy xususiyatlarni birlashtirish orqali hazil qilish. Tashxisda insoniy xususiyatlar orqali narsa yoki tushunchalarga nisbat beriladi va jozibador hazillar hosil qilinadi: "Your car is so old, it coughs and wheezes like an elderly grandparent" ("Mashinangiz juda eski, yoshini yashab oshini oshagan otaxondek yo'talib, xirillab turadi"), "Your hair is so unruly, it's like it has a mind of its own" ("Sochingiz shu qadar itoatsizki, uning o'ziga xos aqli bor").

Bu san'at dozens haqoratlariga o'ynoqlik va xayoliy jihat qo'shadi, ularni yanada jozibali va kulgili qiladi.

Analogiyalar: Bir-biriga bog'liq bo'lmagan narsalarni taqqoslash original va kulgili bo'lishi mumkin. "Your dancing is like a cat on a hot tin roof – all over the place!" ("Sizning raqsingiz issiq tunuka tomidagi mushukga o'xshaydi – hamma joyda mavjud!").

Shuningdek, bir-biriga aloqasi bo'lmagan narsalarni taqqoslash dozensda hazil yaratish uchun samarali xizmat qiladi: "Your cooking is as appetizing as a shoe on a dinner plate" ("Sizning pishirgan taom ovqat tarelkasida turgan tuffidek ishtahani qitiqlaydi"), "Your jokes are as funny as a root canal without anesthesia" ("Sizning hazillaringiz narkozsiz ildiz kanalini davolash jarayoni kabi kulgili"). Bunday noodatiy analogiyalar (o'xshatishlar) bo'rtirilgan qiyoslash orqali haqoratni yanada yorqinroq va esda qolarli qilishga xizmat qiladi.

Onomatopeya: O'zlari tasvirlagan tovushlarga taqlid qiluvchi yoki o'xshash so'zlar dozensdagi haqoratlariga yorqin va kulgili element qo'shishi mumkin: "Your voice is like nails on a chalkboard, screeeech!" ("Ovozingiz doskani mix bilan chizgandagi "qichqiriq"ga o'xshaydi!"). Dozensdagi onomatopoeik iboralar kulgili va bo'rtirilgan audio tasvirini yaratadi, haqoratlarini yanada qiziqarli qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Askiya va dozens nutq janrlarida stilistik vositalarning qo'llanilishi kontekstdagi asosiy maqsadni yetkazishda kulgili, kreativ va yumoristik bo'lishni ta'minlaydi. Yuqoridagi stilistik vositalardan foydalanish ishtirokchilarga o'zlarining og'zaki nutq qobiliyatlarini namoyish qilish jarayonida eksplisit va implisit ma'noli hazillarni yaratishga yordam beradi. Ushbu janrlarni tadqiq etish jarayonida ularning lingvomadaniy jihatlariga e'tiborga olinishi lozim. Askiyachilar nozik did va madaniyat bilan "jangga" kirishsalar, dozens ijrochilar agressivlik, haqoratli

so'zlarni ishlatish orqali tomoshabinlar e'tiborini qozonishga harakat qilishadi.

**ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/6531520>
2. Дусматов Ҳ. Ўзбек миллий сўз ўйинларининг лингвостилистик тадқиқи // [Матн]: монография / Ҳ.Дусматов; масъул муҳаррир: А.Мамажонов; ЎзР ОЎМТВ, Фарғона давлат ун-ти. 2022. -11 б.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. –Toshkent: Musiqa, 2010. –315 b.
4. Раззоков Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки ижодида сатира ва юмор (Фарғона материаллари асосида). – Тошкент: Фан, 1965. – 34 б.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2008. IV jild. –354 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'ME, 2006. III jild. –294 b.



**Munira MAMATKULOVA,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tadqiqotchisi*

*E-mail: mamatkulovamunira598@gmail.com*

*O'zMU filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD Z.Pardayev taqrizi asosida*

### THE HERO OF THE TIME IS THE DEMAND OF THE TIME

Annotation

In this article, the images of contemporary heroes created up to this day were analyzed with the help of dramaturgical works. The main emphasis was placed on the character of the heroes. It was argued that the heroes of the time are relevant for all eras.

**Key words:** Hero of the times, era, past, people, Soviet theater, dramaturgy, historical drama, state.

### ГЕРОЙ ВРЕМЕНИ — ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация

В данной статье с помощью драматургических произведений проанализированы образы современных героев, созданные до наших дней. Основной акцент был сделан на характерах героев. Утверждалось, что герои своих времен актуальны для всех эпох.

**Ключевые слова:** Герой времени, эпоха, прошлое, народ, советский театр, драматургия, историческая драма, государство.

### ZAMON QAHRAMONI - DAVR TALABI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shu kungacha yaratilgan o'z davrining zamon qahramonlari obrazlari dramaturgik asarlar yordamida tahlil qilindi. Unda qahramonlar xarakteriga asosiy urg'u berildi. Zamon qahramonlari barcha davr uchun dolzarb ekanligi asoslandi.

**Kalit so'zlar:** Zamon qahramoni, davr, jadidlar, xalq, sovet teatri, dramaturgiya, tarixiy drama, davlat.

**Kirish.** O'zbek dramaturgiyasi paydo bo'lgan davrdan buyon talaygina o'z davrining qahramonlari yaratildi. Zamonlar o'zgarishi bilan qahramonlar ham o'zgaradi. Ular xislatlarida o'xshash va bir-biridan tubdan tafovut qiladigan jixatlar ham mavjud bo'ladi. Qahramon qiyofasi o'sha davr ijtimoiy, siyosiy muhiti ta'sirida shakllanib, ehtiyojlarga monand yaratiladi.

Bugungi kunda "Qaysi spektakl obrazini zamonamiz qahramoni deyish mumkin", degan haqli savol ham tug'ilishi tabiiy. Avvalo, savolning o'zi haqida o'ylab ko'rish kerak, nazarimizda. Tomoshabin o'rgangan to'la ma'nodagi mukammal shaxslar aslida ijodkorlar hayoloti mahsuli ekanligini unutmash kerak. Birinchi prezidentimiz bundan bir necha yil avval bu haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: "Zamonaviy, ijobiy qahramon haqida gapirganimizda, kimni tasavvur qilamiz. Oddiy odam, oddiy insonni! U hayotda xato qilishi ham mumkin, hayotni noto'g'ri tushinishi ham mumkin, hayotga munosabati har xil bo'lishi mumkin. Aytaylik, turli toifalarga noma'qul bo'lishi mumkin. Lekin men nimani xohardim? Ijobiy qahramon, avvalo yurt taraqqiyoti, el-yurt taqdiri, yurt tinchligi, xalq faravonligi, dunyoda o'zbek millati, o'zbek xalqi, umuman, yurtimiz hech kimdan kam bo'lmasdan yashashi uchun jonbozlik, kerak bo'lsa fidoyilik ko'rsatishi kerak. Inson hech qachon yuz foiz ijobiy bo'lmaydi".

Bugungi teatr san'ati ijodkorlarining aksariyati mana shu tamoyil asosida ijod qilayotgani jarayonning ijobiy tus olayotganini ko'rsatadi. Ularning qahramonlari xato ham qiladi aql va hissiyot kurashida chalg'iydi ham, ammo insonligini saqlab qoladi.

Zamonaviy qahramon obrazi haqida fikr yuritilganda tarixiy davrlarda xalqimiz uchun namuna qilingan o'z zamonasining qahramonlarini tahlil qilib chiqish zarur. Turkiston XIX asr oxiri XX asr boshlarida chor Rossiyasi tomonidan zabt etilib, mustabid tuzum orqali tanazzulga yuz

tuganligi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan orqada qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongda turg'unlik milliy qadriyatlarining toptalganligi jadidlarni jahon tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga chorladi. Ma'rifatlikdan boshlangan jadidchilik 1917-yilga kelib kuchli siyosiy harakatga aylandi. "Teatr bir yarim-ikki soat ichida tarix yoki zamonaviy hayotdan hikoya qilib, tomoshabin qalbida o'chmas iz qoldirishi mumkin. Asr boshida jadidlarning teatr san'atini maktab va matbuot bilan bir qatorga qo'yib, teatni minbar, ibodatxona, ma'rifat o'chog'i, odobxona deb bilganlari bejiz emas"[10] Masalan, jadid dramaturgiyasi bosh qahramonlari maqsad va intilishlariga nazar tashlansa, ular ma'rifatsizlikdan azob chekayotgan, eski maktab va madrasalarni isloh qilish haqida qayg'urayotgan, istiqloq uchun kurashayotgan shaxslar sifatida gavdalandilar Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Zaharli hayot", "Ilm hidoyati", A Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hoji Mo'in "Mazluma xotin", "Eski maktab yoki yangi maktab", "Isloh va maktab haqida kengash Majlisi", A Avloniyning "Advokatlik osonmi?" kabi dramalari yuqoridagi fikrimizga asos bo'ladi. To'g'ri bu davrda yaratilgan sahna asarlarida qahramonlar xarakteri talab darajasida ishlanmagan, asosan va'zhonlikka tayangan holda yaratilgan bo'lsada, o'sha muhit uchun qanday qahramonlar zarur bo'lganligidan bizga darak beradi. Bu davr mualliflari tomoshabin ongiga ta'sir qilib uni ma'rifatsizlikdan qo'zg'atish uchun turli darajadagi qahramonlarni yaratdilar. Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?" pyesasidagi Davronbek, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" idagi Ziyoli, Hamzaning "Zaharli hayot" idagi Maryam obrazi kabilarni olaylik, ular o'z da'vatlarida o'sha zamon talabi va zaruriyati, qanday ishlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlab o'tishgan. Bu harakatlar xalqni qotib qolgan muxitdan oldinga ildamlashga, yangiliklarga intilishga o'rgata

boshladi. Bunday o'zgarishlar Rossiya hukumatiga ma'qul kelmadi, sababi "o'z xalqini bilgan, o'zligini anglagan xalq o'zga millatga tobelik qilmaydi". Shuning uchun millatimiz jadidlari birma-bir mahv etildi, ularning aziz nomlarini xalq xotirasidan o'chirishga harakat qilindi. Lekin xalq ularni unutmad.

Jadid dramaturgiyasidan keyingi davrda tuzumning o'zgarishi, mustamlakachilik, sotsialistik g'oyalarning avjiga chiqishi, bir oz vaqtdan so'ng ikkinchi jahon urushining boshlanishi xalqqa davr ruhiyatiga monand qahramonlarni namoyon qilish kerakligi bilan kechdi. "Oradan ko'p o'tmay, chorizmning mustamlakasiga aylantirilgan, iqtisodiy-madaniy qoloq holga tushgan o'lkamiz Turkistonda feodalizmni uzil-kesil ortda qoldirmasdan kapitalizm jamiyati qurilmay turib, demakki, proletariat sinf to'la shakllanmagan bir sharoitda Rossiya ta'siri va ko'magida sotsiolistik inqilob g'alabasi ta'min qilindi[11]. Bu davrda yaratilgan dramalar tarixiy revolyutsion mavzuga bag'ishlangan, yoki bo'lmasam shu kunning ijtimoiy-axloqiy masalalarini badiiy talqin qilgan. Dramaturglar o'z asarlarida adolat uchun, haqiqat uchun, ilg'or g'oyalar, yuksak ideallar uchun, birinchi navbatda sotsiolizm g'oyalari, kommunistik etiqod uchun o'zini fidoi qilgan kurashchan insonlarni tasvirlaydilar. Asosan oktyabr sotsialistik revolyutsiyasi va grajdanlar urushi davrini badiiy tahlil qilishga ishtiyok qo'yishadi. Bu fikrimizga misol sifatida Cho'lponning "Yorqino'y" (1921y.), "Hujum"(1928y.). Fitratning "Abulfayzxon" (1924y.), "Arslon" (1926y), H.X.Niyoziy "Boy ila xizmatchi" (1918y.), "Itibod qurbonlari" (1919y), "Xolisxon", Abdulla Avloniyning "Biz va Siz" (1923y), Ziyov Said hamda Mo'minjon Muhaminadjonov hamkorlikda yaratgan "Qonli kun"(1926y), G'ulom Zafariy "Halima"(1926y.), Oydinning "Yangilikka qadam"(1926) kabi pyesalari qahramonlarini keltirib o'rinishimiz mumkin. 1930-1941 yillardagi pyesalar uchun umumiy xususiyat shuki, dramaturglar butun e'tiborini ijtimoiy, ahloqiy masalalarga, mehnat jarayonini qamrashga, xalqning jamoa xo'jaliklariga birlashishi va xotin-qizlar ozodligi uchun kurashga aloqador muammolar, umuminsoniy muammolarga va insoniy xarakterlarga qaraganda davrning ijtimoiy ruhini aks ettirish ustun turdi. Bu albatta o'sha vaqtdagi tuzum talabi bo'lib, "asosan tashviqotchilik tamoyillari kuchaytirilgan asarlar yaratilgan" deb bemalol aytay olamiz. K.Yashinning "Ikki komunist (1929y), "Yondiramiz" (1931y.), "Gulsara"(1934y. M.Muhamedov bilan hamkorlikda yozilgan), "Nomus va muhabbat" (1935y), "Nurxon" (1940y), Zinnat Fatxullin "Niqob yirtildi" (1930y), "Burgut yanchildi" (1931y.), "G'unchalar" (1933y.), "Istiqlol" (1933-34y.), "Sotqinlar" (1933y.), Usmon Nosirning "Dushman" (1931y.), "Atlas" (1934y), Mamarasul Boboyevning "Oq oltin" (1932y.), Sotti Husaynning "G'alaba" ("Loyqalar"1932y.), Ziyov Said "To'ralik sirtmog'i" (193 ly.) kabi pyesalar bu davr ijtimoiy hayoti hamda qahramonlari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. "1917 yil bilan boshlangan tarixiy davrda san'at va adabiyotda Pavel Korchagin, Georgiy Melexev, Qo'qon batrak, Yo'ldi, Oyqiz singari qahramonlar kirib keldi. Agar bu qahramonlarning ma'lum bir qismini o'sha davr bilan o'z vazifasini o'tab bo'lgan bo'lsa, boshqalari hali ham xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari-yu go'zal insoniy fazilatlar bilan kitobxonlar yo tomoshabinlarning fikri zikrini o'zlariga jalb etib keladilar. Shunday ekan, balk, san'at va adabiyotga lkkichi, toifadagi qahramonlar ko'proq kerakdir.

Lekin gap shundaki sovet teatri va sovet adabiyoti o'zlarining xorijiy "birodar"laridan tarbiyavay ahamiyatga molik asarlar, bilan farq qiladi. Shu asarlar, va ularda yaratilgan qahramonlar, bilan hayotiy jarayonga faol aralashadi Voqelikdagi, ayrim tamoyilarning ayj olishiga yordam berdi. Shu nuqfai nazardan qaraganda, Pavel Korchagin singari qahramonlar, albatta, kerak"[12].

Qo'qisdan boshlanib qolgan fashistlar Germaniyasining yovuz urushi eng daxshatli, va shavqatsiz Jang yillari, ya'ni Ulug' vatan urushi davrida maydonga kelgan pyesalarni, olaylik, o'zbek dramaturglari o'zlarining sahna asarlarda Vatan urushi davrning eng muhim va dolzarb masalalari yoritishga harakat qildilar. Ular butun diqqatni, xalqni ozodlik, vatanparvarlik, qahramonlik ruhida tarbiyalashga, sabotli - matonatli qilishga qaratdilar. Buning asosiy sabab, xalq urush oqibatida anchayin tushkunlikka tushib qolgan edi. Ular ruhiyatini ko'tarish vatan uchun jon berish faxrli ish ekanligini insonlar qalbiga singdirish vatanparvarlik hissini jonlantirish uchun bunday chora tadbirlar zarur edi. televidenie rivojlanmagan bir davrda xalq ongiga ta'sir etuvchi birdan-bir vosita bu - teatr hisoblanardi. N.Pogodin, H.Olimjon, Tuyg'un va S.Abdullalar hamkorlikda "O'zbekiston qilichi" (1942y), Tuyg'un va Amin Umaryiy "Qasos" S.Abdulla va Chusuy "Qurbon Umarov", K.Yashin va S.Abdulla "Davron ota" (1942y) birgalikda ijod qilib sahna asarlarini yaratishgan. "Bu yillarda yozilgan dramatik asarlar shundan dalolat beradiki, bizda harbiy mavzuni yoritish borasidagi, an'analarning yo'qligi, dasrlab jamoa bo'lib, hamkorlikda ijod qilishni taqozo etdi[13]. Bundan tashqari Z Fatxulning "Sinov kunlari" K.Yashinning "O'lim bosqinchilarga" (1942y.), "Oftobxon" (1944y.) kabi pyesalarni ham bu davrning tezkorlik talablari asosida yaratilgan asarlar deb olishimiz mumkin. Kundalik talab taqozosi bilan yozilgan bunday pyesalar keyinchalik uncha iz qoldirmadi. Shuni ham aytish kerakki, urush yillarida dramaturglarimiz tarixiy-inqilobiy hamda tarixiy mavzularda dramaturgiyamiz solnomasidan o'chmas o'rin olgan talay sahna asarlari ijod qilishdi. Shu ma'noda dramaturg Uyg'un hamda Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" (1941y), Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" (1943-1944y.), H.Olimjonning "Muqanna" (1943y.), Oybekning "G'alvirchi" (1941y.). "Mahmud Tarobiy" (1941y.) asarlari dunyoga keldi. Ayniqsa Uyg'un hamda Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" tarixiy dramasi bejiz yaratilgani yo'q. Sababi pyesada talonchilik, adolatsiz urushlarning keskin qoralovchi liniyaning mavjudligi, bundan tashqari asar butun boshligicha adolat bilan zulm o'rtasidagi murosasiz kurashga yomonlik bilan yaxshilik, ilg'or, oliy tuyg'ular, yuksak orzu-istaklar bilan jaholat, marazlik, qoloqlik, pastkashlik, ifloslik o'rtasidagi o'tkir konfliktga bag'ishlanib, tabiatning gulto'ji bo'lmish Inson va uning ezgu g'oyalari ulug'lanadi. Asarda Navoiy o'z davrining eng ilg'or g'oyalari uchun aktiv kurashuvchi buyuk shaxs sifatida talqin qilinadi: uning xarakteri, undagi barcha oliy fazilatlar yuksak maqsad-ideallariga g'ov bo'lgan kuchlarga qarshi kurash jarayonida namoyon bo'ladi. Ana shu qarshilikni yengishga intilgan Navoiy obrazida qahramonlik ruhining bo'rtib turushining sababi shunda.

Asar bosh qahramon, Navoiy obrazidagi mukammallik, insoniy fazilatlar, ahloq kategoriyalari uning yetuk insonligi tomoshabinda ana shunday buyuk shaxs avlodlari ekanligidan faxrlanish hissini uyg'otadi. Unga o'xshashga, xalq dardida yonishga, komil inson bo'lish yo'lida izlanish va intilishga undaydi. Bunday klassik asarlarda ko'tarilgan mavzu va qahramonlar barcha davrlarga xos sanaladi va hech qachon o'z ahamiyatini yo'qolmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuni yoritishda xususan M.Qodirov. "O'zbek teatri an'analari" (G'.G'ulom nom.nashr. 1976)., T.Tursunov "Sahna va zamon" (T., Yangi asr avlodi, 2007), "XX asr o'zbek teatri tarixi" (T., Yangi asr avlodi, 2009), H.Ikromov. "Davv va teatr" (T.,O'zME nashr., 2009)., Arastuning "Axloqi kabir" (T., Yangi asr avlodi, 2015.), B.Jalilovning "O'zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari" (T,1984.), Izzat Sultonning "Istehkom" (T., G'.G'ulom nom. nash. 1981.), B.Imomov, Q.Jo'rayev, H.Hakimovlarning "O'zbek dramaturgiyasi tarixi" (T.,

O'qituvchi nash. 1995.), N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, U.Nurmatov, O.Sharafiddinovlarning "XX asr o'zbek adabiyoti tarixi" (T., O'qituvchi nash. 1999.), Hafiz Abdusamatovning "Drama nazariyasi" (T., G'.G'ulom nom.nash 2000.), Dilfuza Rahmatullayevaning "O'zbek teatri: tarixiy drama"(T., San'at nash. 2004.), S.Qodirovning "Komediya san'ati tarixi" (T. San'at nash. 2008.), "Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati" (T., G'.G'ulom nom.nosh.2015.) kabi adabiyotlarda u yoki bu ma'noda zamonaviy qahramon muammosi ko'tarilgan. Yuqorida qayd etilgan ilmiy adabiyotlar biz uchun muhim nazariy manba hisoblanadi. Shu bilan birgalikda biz mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan muammoga yangicha qarash bilan murojaat etamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuning ilmiy-metodologik asosini teatr san'ati rivojiga aloqador farmon va qarorlar, shuningdek teatrshunoslik ilmida mavjud ilmiy nazariy tamoyillar, ilmiy yondashuvlar asosiy nazariy manba vazifasini o'tamoqdi. Izlanishlar davomida, tadqiqot metodi, tarixiy – xronologik, qiyosiy – umumlashma kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O'rganilayotgan mavzuda O'zbek Milliy akademik drama teatri repertuaridan zamonaviy qahramon obrazini o'zida namayon qilgan spektakllar ajratib olinib, tahlil qilindi, shuningdek zamonaviy dramaturgiyada ro'y berayotgan muammolar va ijtimoiy ma'naviy hayot rivojlanishida teatr bilan bog'liq muommalarni ilmiy o'rganish masalalari yoritildi. Mavzuda ilgari surilgan ilmiy amaliy xulosalar, ilmiy – uslubiy tavsiyalardan O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy va mafkuraviy ishlarda hamda barkamol avlodni tarbiyalashda va ularda badiiy ijodini shakllantrishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Teatr tarixi", "San'at nazariyasi", "Ma'naviyat asoslari" fanlarini o'qitishda manba sifatida qo'llash maqsadga muvofiq.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni vataniga, xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni har tomonlama komil insonlar bo'lib yetishishida zamonaviy qahramon obrazining ta'sir kuchi katta. Chunki mafkuralar va g'oyalar kurashi keskin ketayotgan bugungi globallashuv davrida yoshlarni vatanparvarlik g'oyalari singdirilgan milliy qahramonlar bilan tarbiyalash, zamon alg'ov-dalg'ovlari oldida dovdirab qolmaydigan bilimli va psixologik jihatdan komil mutaxassislarni yetkazib berish kechiktirib

bo'lmaydigan vazifalarimizdan biridir. Takliflar shundan iborat: birinchidan - Teatr san'ati mavqeini insonlar orasida oshirish zarur. Sababi televideniya rivojlangani sari aholi o'rtasida teatrga bo'lgan qiziqish anchayin tushib ketgan. Shuning uchun ham ommaviy-axborot vositalarida insonlarni teatrga jalb qildira oladigan reklama roliklarini joylashtirish. Ayniqsa aholi auditoriyasini keng qamrab olgan "MY5", "ZO'Rtv", "NAVO", "M"tv, "Bolojon" telekanallarida spektakl primyeralri aks etgan reklamalarni joylashtirish. To'g'ri bu jarayon uchun ko'p mablag' talab qilinadi. Shuning uchun ham teatr san'atiga ta'luqli bo'lgan reklamalar namoyishini yuqorida sanab o'tilgan xususiy kanallari ucun davlat tomonidan majburiy qilib belgilab qo'yilishi lozim. Bundan tashqari teatr san'atiga ta'luqli qiziqarli, keng qamrovli ko'rsatuvlar tayyorlash. Bu ko'rsatuvlar tayyorlanishini albatta san'at sohasini mukammal o'zlashtirgan malakali san'at jurnalistlari zimmasiga yuklash.

Ikkinchidan: Malakali dramaturglar tayyorlash. Bu jarayonni oliy ta'lim muassasasidan emas aksincha boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalaridan boshlash lozim. O'sib kelayotgan yosh avlod orasidan iqtidorlar qanchalik erta aniqlansa ularni malakali kadr bo'lib yetishishiga, hamda ularning yurtimizda dramaturgiya rivojiga hissa qo'shish samaradorligi oshgan bo'lar edi.

Uchinchidan: Zamonaviy qahramon obrazini faqatgina katta avlod vakillari tashrif buyuradigan teatr sahnalarida emas, qo'g'irchoq teatrlari, yosh tomoshabinlar teatri spektakllarida ham o'z qiyofasini topishiga harakat qilishimiz, hamda alohida ko'rik festival tashkil etilishi lozim. Sababi katta avlod vakillari ma'naviy olamida ma'lum turg'unlikka erishib bo'lingan, ular zamonaviy qahramon da'vatlarini, shijoatini tahlil qiladi xalos. Kichik yoshdagi tomoshabin ruhiyatida taqlid qilish hissi kuchliroq bo'lgani uchun ham to'g'ri tanlangan zamonaviy qahramon obrazi hayotda adashmasliklariga maktab darajasini o'taydi.

To'rtinchidan: Yurtimizda bog'cha yoshidan boshlab bolalarni teatrga mehr qo'yishga o'rgatish. Jajji sahna ko'rinishlarini aynan bog'cha, maktab yoshidagi bolalar ishtirokida tashkil qilish bu jarayonni sa'at instituti bakalavr va magistr talabalari zimmasiga yuklash. Farzandlarda tarbiyani shu yo'sinda olib borish kelajakda ularning o'zlari zamonaviy qahramon obraziga asos bo'luvchi tiplar bo'lib yetishishiga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O'zbek tetrida milliy g'oya talqini. – Toshkent: O'zDSI, 2009.
2. Ikromov H. Davr va teatr. – Toshkent: O'ME Davlat ilmiy nashriyoti, - 2009.
3. Imonxo'jayev S. Muhsin Hamidov bir aktyor teatri asoschisi. – Toshkent: 2010.
4. Rahmonov M. O'zbek teatri. Qadim zamonlardan XVIII asrga qadar, - Toshkent: Fan, 1957.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
6. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. – Toshkent: 2010.
7. Qodirov M. Sahnamiz lochinlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashr. 1986.
8. Abdusamatov. Drama nazariyasi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000.
9. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. T., O'qituvchi, 1995, 189-b
10. S.Qodirova "Istislo, Ijod, imkoniyat" Teatr jurnali/ 3-son. 2014y. 3b
11. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1995y. 15b.
12. Naim Karimov. Munosabat. Teatr jurnali. 1999y. 4-son. 12 b.
13. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1995y. 117b.



Maftuna MAHMUDOVA,

O'zDJTU "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: maftunamakhmudova880@gmail.com

O'zJOKU dotsenti, f.f.d N.Qosimova taqrizi asosida

## IJTIMOY TARMOQLARDA FEYKLARNI BARTARAF ETISH MUAMMOSI

Annotatsiya

Insoniyat tarixida jurnalistika paydo bo'lgach, ommaviy axborot vositalarining bir qator turlari, dastlab matbuot, so'ng radio va televideniye shakllangani barchamizga ma'lum. Taraqqiyotning eng so'nggi bosqichida internet ham jurnalistikaga kirib keldi. Internet tizimining dunyo auditoriyasini jalb qilishi uchun to'rt yil kifoya qildi. Endi odamlar biror voqea sodir bo'lsa, ushbu xabarni ijtimoiy tarmoqlar orqali an'anaviy OAVda e'lon qilinmasidan oldin xabardor bo'lishga ulgurmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, o'z navbatida, turli sohalarni virtual olamga ko'chishiga olib keldi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda feyk va dezinformatsiyaga oid ma'lumotlarning tarqalishini oldini olish xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Mediasavodxonlik, axborot xavfsizligi, ijtimoiy yangiliklar.

## THE PROBLEM OF ELIMINATING FAKES IN SOCIAL NETWORKS

Annotation

We all know that after the emergence of journalism in the history of mankind, a number of types of mass media were formed, first the press, then radio and television. At the latest stage of development, the Internet also entered journalism. Four years were enough for the Internet system to attract a world audience. Now, when something happens, people get to know about it through social media before it is published in traditional media. Social networks, in turn, have led to the migration of various industries to the virtual world. This article is about preventing the spread of fake and disinformation information on social networks.

**Key words:** Media literacy, information security, social news.

## ПРОБЛЕМА ЛИКВИДАЦИИ ФЕЙКОВ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Аннотация

Все мы знаем, что после появления журналистики в истории человечества сформировался ряд видов средств массовой информации: сначала пресса, затем радио и телевидение. На последнем этапе развития Интернет вошел и в журналистику. Четырех лет хватило, чтобы интернет-система привлекла мировую аудиторию. Теперь, когда что-то происходит, люди узнают об этом через социальные сети до того, как это будет опубликовано в традиционных СМИ. Социальные сети, в свою очередь, привели к миграции различных отраслей в виртуальный мир. Эта статья о предотвращении распространения фейковой и дезинформационной информации в социальных сетях.

**Ключевые слова:** Медиаграмотность, информационная безопасность, социальные новости.

**Kirish.** Bugungi kunda internet zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Mamlakatimizda ham internetni rivojlantirish va jurnalistikada uning imkoniyatlaridan keng foydalanish tobora jadallashib bormoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini keltirish joiz: "Eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir"[1]. Butun sayyoramizni o'rab olgan interaktiv dunyo Internetning barcha foydalanuvchilarini birlashtiradi. Mavjud veb-industriya jadal rivojlanib, inson hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda. Internetning muhim vazifalaridan biri iste'molchilar o'rtasida brend, tovar va xizmatlarni qidirish, shuningdek ommaviy axborot vositalarini ommalashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, internet hozirda jamoatchilik orasida ommalashib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlarning vujudga kelishi hamda jamiyatdagi o'zgarishlarga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkazishiga zamin yaratdi. Ilgari faqat muloqot qilish vazifasini bajargan ijtimoiy tarmoqlar hozirda barcha sohalar uchun faoliyat maydoni bo'lib xizmat qilmoqda. Ular orqali tengsiz imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun

jamiyat hayotida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga o'zlarining fikr va munosabatlarini bildirish uchun tengsiz bir vositaga aylangan. Bugun ijtimoiy tarmoqlar nafaqat faol fikrli yoshlarni asosiy vaqtini o'tkazuvchi joyga, balki, ommaviy axborot vositalarining o'rni bosa oluvchi vositaga aylandi.

### Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar.

Ijtimoiy tarmoq – (inglizcha, social networking service so'zidan) ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi internet tarmog'i, platforma, onlayn servis yoki veb-sayt[2].

2005-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davrni ko'pchilik ekspertlar internetning "ijtimoiylashuvi" bilan bog'laydi. Darhaqiqat, AQSHda birinchilardan bo'lib paydo bo'lgan Friendster, MySpace kabi ijtimoiy bu davrga asos soldi. Biroq hozirga kelib bu sohaning "otaxonlari" ma'lum darajada undan ortda qolib ketdi, foydalanuvchilarning e'tiboridan qolishga ham ulgurdi[3].

Bugungi kunda internet texnologiyalari jadal rivojlanishi bilan odamlar voqealar dunyosi va dunyo voqealaridan xabardor bo'lish uchun ko'proq internet tarmog'iga, jumladan ijtimoiy tarmoqlarga murojaat etishmoqda. Ijtimoiy internet tarmoqlarida mutlaqo o'zgacha muhit hukmronlik qiladi: bu yerda an'anaviy OAVga xos bo'lgan axborotni tanlash va tarqatishning qat'iy qoida va prinsiplari mavjud emas, axborot plyuralizmi esa sezilarli darajada kuchli. So'nggi tadqiqotlarning ko'rsatishicha,

amerikaliklarning 62 foizi yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzatib borishar ekan, shuningdek ularning 14 foizi ijtimoiy tarmoqlarni yangiliklardan xabardor bo'lishning asosiy va ustuvor vositasi, deb hisoblaydi. 2016-yil oxiriga kelib, Facebook foydalanuvchilari soni 1,8 milliard kishiga, Twitter foydalanuvchilari esa 400 million kishiga yetgan edi. Buguna kelib ushbu raqam sezilarli ravishda oshgan[4].

**Tadqiqot natijalari.** So'nggi o'n yil ichida Facebook va Twitter kabi ijtimoiy media platformalaridan foydalanuvchilarning sonining ortishi insonlarning bir-biri bilan muloqot qilish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirdi va qulay imkoniyat yaratdi. Ammo, Internetda mavjud ma'lumotlar har doim ham ishonchli emas. Ushbu platformalar so'ngi yangiliklarni tezda ulashish bilan birga feyk ma'lumotlarni tarqalishiga ham zamin yaratadi. Internetda mavjud bo'lgan juda ko'p miqdordagi feyk yangiliklar individual darajada shuningdek jamiyatda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Berilgan ma'lumotlarning yolg'on yoki soxta emasligini aniqlash juda ham qiyin masalan chunki, ijtimoiy tarmoqlarning ma'lumotlar platformasining o'ziga xos xususiyatlari bu vazifani yanada murakkablashtiradi, chunki kontent yaratish va uni tarqatish osonlashdi, bu esa o'z navbatida tahlil qilish uchun juda katta miqdordagi ma'lumotlar bazasini yaratilishiga sababchi bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotni targ'ib qilish – bu tez sur'atlarda amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, bu platformadan millionlab insonlar foydalanishadi. Biroq, an'anaviy axborot manbalaridan farqli o'laroq, ijtimoiy media platforma kontentning ishonchligi bahsli holatdir. So'nggi o'n yil ichida Facebook va Twitter kabi ijtimoiy media va mikroblog platformalaridan foydalanishda o'sish kuzatilmoqda. Har kuni milliardlab foydalanuvchilar butun dunyo bo'ylab o'z fikrlarini xabar, foto, videolar orqali yetkazish uchun ushbu platformalardan foydalanadilar. Hukumat idoralari Twitter va Facebook ham ushbu platformalardan o'zlarining rasmiy sahifalarida o'zlarining muhim ma'lumotlarni tarqatish uchun foydalanadilar, chunki bu platformalar orqali tarqatiladigan ma'lumotlar qisqa vaqt ichida ko'p insonlarga yetib borishi mumkin. Ammo, ko'pgina yolg'ondan iborat bo'lgan harakatlar, shu jumladan propaganda(tashviqot) va mish-mishlar, foydalanuvchilarni har kuni aldashi mumkin. Feyk xabarlar va mish-mishlar pandemiya davrida ham juda keng tarqalgan va ko'plab tartibsizliklarni keltirib chiqargan. Insonlarning o'zlari bilmagan holda yolg'on ma'lumot tarqatishlari tizimli(rejalashtirilgan) feyk ma'lumot tarqatish rejasiga qaraganda ancha jiddiyroq muammoni keltirib chiqaradi. Ilgari jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazishga urinishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan bo'lsa-da, endi uyushtirilgan mish-mishlar ijtimoiy tarmoqlardagi mediasavodxon bo'lmagan foydalanuvchilarga qaratilgan. Agar odamlar noto'g'ri yoki firibgarlik madsadida yaratilgan kontentni bilmasdan tarqatishsa, bu ma'lumot barcha yo'nalishlarda ishonchli ijtimoiy tarmoqlar bo'ylab tarqaladi va natijada soxta yangiliklarni aniqlash murakkablashadi. Xalqaro terminologik fond "FND" (Fake news detection) ya'ni "soxta yangiliklarni aniqlash" sohasida muammoni tushunishdan tortib modelni baholash uchun asos yaratishgacha davom etayotgan tadqiqot harakatlariga qaramay, ishonchli va samarali modelni yaratishga ehtiyoj bor. Feyk yangiliklarni va mish-mishlarni aniqlash uchun turli xil yondashuvlar shakllantirilgan. Ular kontent tarqalish ma'lumotlari foydalanuvchi profili voqeaga oid ma'lumotlar tashqi bilimlar vaqtinchalik ma'lumotlar, multimodal ma'lumotlar va boshqalarga asoslangan metodlarni misol qilish mumkin[5].

Sosial tarmoqlar mutaxassislari ogohlantirganidek, total axborot appokalipsis (oxirat)ning yaqinlashishi haqiqat va yolg'on o'rtasidagi chega ralarining yo'qolishida ko'rina boshlaydi. Kunning asosiy qismini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadigan insonlarda bora-bora zerikarli realikka apatiya (zerikarli kontent layk yig'ishi mushkul) shakllanib, haqiqatni yolg'ondan farqlash ehtiyoji yo'qolib boradi. Masalan, Facebook, Twitter va Google'da klik, layk, repostlar ta'minlab beradigan reklamali o'tishlar va shu orqali pul topish muhim (targeting reklamani sozlashlari) bo'lishi mumkin. Axborot sifati esa ikkinchi darajali masala aylandi.

**Xulosa.** Feyk yangiliklarning tasniflarini tahlil qilish ushbu media-fenomenning axborot texnologiyalarining zamonaviy rivojlanish sharoitida yuzaga kelish xavfini ko'rsatmoqda. Majoziy ma'noda, feyk yangiliklarning nazoratsiz tarqalishi ulkan halokatli kuch - "axborot terroraktlari" ni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu hodisaning salbiy tomonlarini anglash, ijtimoiy va davlat institutlarini feyk to'lqinlarni filtrlash mexanizmini izlashga undaydi. "Fake news"ning turli xil turlarini tahlil qilib, ular bilan kurashish ko'pincha qiyin vazifa degan xulosaga kelish mumkin, chunki virtual makonda nashr etilgan hikoyalarning ishonchligini tekshirish va mualliflarini tuhmat qilishda ayblash mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, feyk yangiliklarga qarshi kurashish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish mumkin:

1. Axborot maydonini doimiy ravishda kuzatib borish va potentsial tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash tegishli dalillashirilgan tushunchalarni eng ko'p kuzatiladigan tarmoqlarga ulashish;

2. Aniqlangan feyk yangiliklarni batafsil tahlil qilish: axborotni tarqatadigan asosiy kanallarni aniqlash, axborot tarqalishi mumkin bo'lgan manba, maqsadli auditoriyaga ta'sirini va uning reaksiyasini baholab boorish;

3. Mumkin bo'lgan holat yuzasidan gipoteziyangizni tuzing;

4. Agar feyk ma'lumot haqiqiy tahdid manbai bo'lib xizmat qilsa maqsadli auditoriya tomonidan tan olinmasa va rad etilmasa, uni zararsizlantirish bo'yicha harakatlar rejasini tuzish kerak, unda qarama-qarshi dalillar sifatida keltirilgan dalillarning tuzilishi va mazmuni, ushbu ma'lumotni tarqatish kanallari va axborot manbalari bilan o'zaro ta'sir qilish usullari ko'rib chiqilishi kerak. Ularga javoban, yangi axborot oqimi yo'qoladi;

5. Jurnalist o'z navbatida aniqlagan feyk ma'lumot manbalarini aniqlashi tashkilot yoki tegishlilik darajasiga ko'ra qisqa vaqt ichida surishtiruv o'tkazishi va natijalarni e'lon qilishi zarur.

Biz yuqorida sanab o'tilgan barcha fikrlarni bir necha soat ichida amalga oshirilishi kerak, chunki zamonaviy axborot makonida mistifikatsiyalarning tarqalish tezligi yuqor va bir xil tezkor javob choralarini talab qiladi.

"Feyk" ("Fake news") atamasining ma'nosi va kelib chiqishini va uning semantik jihatdan ko'rib chiqib, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va Internet-manbalarda ushbu hodisaning jurnalistik, o'quv va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan misollarini tahlil qilib, kontseptual apparatda, ushbu hodisani tasvirlashda hali ko'p qarama-qarshiliklar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Uni o'rganishning nazariy va uslubiy jihatidagi mavjud bo'shliqlar shuni ko'rsatadiki, ushbu hodisani tahlil qilishga ilmiy yondashuvlar ko'pincha o'xshash hodisalar tarkibidan tanlanishidir. Shu nuqtaiy nazardan "fake news" toifasidagi xabarlar orqali jamoatchilik fikrini buzish va mumkin bo'lgan axborot oqimlarini monitoring qilish usullarini ishlab chiqishni murakkablashtiradi va sekinlashtiradi.

**ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlarini kasb bayrami bilan tabrikladi <https://daryo.uz/2017/06/27/shavkat-mirziyoyev-ozbekiston-matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari-xodimlarini-kasb-bayrami-bilan-tabrikladi/>
2. <http://ru.wikipedia.org/>
3. [www.infoman.uz](http://www.infoman.uz)
4. Пром Н.А. (2020). Фактуализация реальности в медиадискурсе: характеристики, типы, способы выражения / автореф дисс.д-ра филол. наук.
5. Allcott H., Gentzkow M. (2017). Social Media and Fake News in the 2016 Election // Journal of Economic Perspectives. Vol. 31, Number 2, Spring.



UDK:811.1

Xosiyat NAVRUZOVA,  
ToshDO'TAU o'qituvchisi  
E-mail: navruzovaxosiyat98@gmail.com

O'zMU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

## DEVELOPMENT OF COMPOUND SENTENCES WITH DEMONSTRATIVE PRONOUNS IN STUDENTS OF GRADES 5-11

Annotation

In this article, a description of the experiment conducted in order to determine the mastery of compound sentence forms by students of grades 5-11 was presented. The order of the sentences made for compound sentence forms was changed and shown to the students through a projector. At the next stage, a question based on the given sentence was read and the participants of the experiment were asked to record their answers on the distributed answer sheet. From the results of the experiment, it was found that students of grades 5-11 did not fully master the forms of demonstrative pronouns.

**Key words:** Language acquisition, demonstrative pronoun, conjunction, construction, lexical error.

## РАЗВИТИЕ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ С УКАЗАТЕЛЬНЫМИ МЕСТОИМЕНИЯМИ У УЧАЩИХСЯ 5-11 КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлено описание эксперимента, проведенного с целью определения усвоения форм сложных предложений учащимися 5-11 классов. Порядок предложений, составленных для сложных форм предложений, был изменен и показан студентам через проектор. На следующем этапе зачитывался вопрос по заданному предложению и участникам эксперимента предлагалось записать свои ответы на розданном листе ответов. По результатам эксперимента установлено, что учащиеся 5-11 классов не в полной мере освоили формы указательных местоимений.

**Ключевые слова:** Владение языком, указательное местоимение, союз, конструкция, лексическая ошибка.

## 5-11-SINF O'QUVCHILARIDA KO'RSATISH OLMOSHILI QO'SHMA GAPLARINING O'ZLASHTIRILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 5–11-sinf o'quvchilarida qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba bayoni keltirildi. Qo'shma gap shakllari uchun tuzilgan gaplarning tartibi o'zgartirilgan holda o'quvchilarga proyektor orqali ko'rsatildi. Keyingi bosqichda ko'rsatilgan gap asosida tuzilgan savol o'qib eshittirildi va tajriba ishtirokchilaridan tarqatilgan javoblar varaqasida javoblarni qayd etish so'raldi. Tajriba natijalaridan 5–11-sinf o'quvchilari ko'rsatish olmoshili qo'shma gap shakllarini to'la o'zlashtirmaganligi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Til o'zlashtirish, ko'rsatish olmoshi, qo'shma gap, konstruksiya, leksik xatolik.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish[16] vazifalari ona tili o'qitish metodikasini milliy va xorijiy tajribalar uyg'unligida takomillashtirishni taqozo etadi. Ona tili predmeti o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi omilidir[1]. Ma'lumki, ta'limda nimani o'qitish va qanday o'qitish savollariga to'g'ri javob bera olish ta'limning samaradorligini ta'minlovchi asosiy mezondir. Til o'zlashtirilishining ilmiy tadqiq qilinishi o'quvchining o'zlashtirish imkoniyatini aniqlab, ta'limning samaradorligini oshiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili** (Literature review). Gap shakllarining o'zlashtirish masalasi nazariy jihatdan o'zbek tilshunosligida o'rganilmagan. Shu sababdan jahon tilshunosligi nazariyalari va metodlariga tayanildi. Asosiy adabiyotlar sifatida Eve Clarkning "Ona tilining 1-jadval

o'zlashtirilishi" ("First Language Acquisition"), Holger Diesselning "Ona tilida qo'shma gaplarning o'zlashtirilishi" ("The acquisition of complex sentences") va shu kabi til o'zlashtirishga doir adabiyotlar va internet manbalaridan foydalanildi.

Qo'shma gaplar ko'p jihatdan sintaktik va semantik bilimlarni egallash va rivojlantirishni o'rganish uchun asosiy maydonni ta'minlaydi. Qo'shma gaplarning o'zlashtirilishi sintaktik va semantik bilimlarning eng asosiy jihatlari tekshirishda yordam beradi[8].

Holger Diesselning "Qo'shma gaplarning o'zlashtirilishi" ("The acquisition of complex sentences") nomli tadqiqot ishida qo'shma gaplarning o'zlashtirilishini tahlil qilish uchun beshta ingliz tilida so'zlashuvchi bolalarning kuzatuv ma'lumotlariga asoslangan. Bolalarning yosh oralig'i 1;8 yoshdan 5;1 yoshgacha bo'lgan. Ma'lumotlar 357 ta kompyuterlashirilgan spontan transkriptlardan olingan ota-ona va bola nutqidan iborat bo'lgan. Barcha ma'lumotlar "CHILDES" ma'lumotlar bazasidan olingan. Ushbu tadqiqotda nutqi kuzatilgan 5 ta tajriba ishtirokchisi oltmishinchi yillarning oxiri va yetmishinchi yillarning boshlarida yashashgan. Ularning nutqi bir nechta tadqiqotchilar tomonidan yozib olingan. 1-jadvalda tajriba ishtirokchilari haqida ma'lumotlar keltirildi.

Bolalar	Tadqiqotchi	Yosh	Nutqlar soni	Fayllar soni
Adam	Roger Brown	2;3-4;10	46,498	55

Sara	Roger Brown	2:3-5:1	37,021	139
Nina	Patrick Suppes	1:11-3:4	32,212	56
Peter	Lois Bloom	1:9-3:2	30,256	20
Niomi	Jacqueline Sachs	1:8-3:5	14,656	87
Umumiy		1:8-5:1	160,643	357

Tajriba jarayonida bolalar nutqida 2 yoshgacha qo'shma gaplar faol bo'lmagan, hatto Adam va Saraning nutqida kuzatilmagan. 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda umumiy 0.33 o'zlashtirish ko'rsatkichidan xulosa qilish mumkinki, qo'shma gaplar bola nutqida 2 yoshdan faol bo'la boshlaydi[15].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz ushbu tadqiqotda birinchi marta o'zbek tili misolida 5-11-sinf o'quvchilarida ko'rsatish olmoshili qo'shma gaplarning o'zlashtirilishini tajribaviy tadqiq qildik. O'zbek tilida qo'shma gaplarning o'zlashtirilishi tadqiq qilinmagan masala hisoblanadi. Biz savol-javob tajriba usulidan foydalangan holda 5-11-sinf o'quvchilari ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarni to'la o'zlashtirmaganligi haqida gipotezani ilgari suramiz.

Tajriba ishtirokchilari. Tadqiqotimizda 2021-2022-o'quv yilida Toshkent shahar Sergeli tumani 351-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qigan o'quvchilar ishtirok etishdi: 5-"A" – 23 ta, 6-"B" – 32 ta, 7-"B" 25 ta, 8-"B" 26 ta, 9-"A" va "B" – 50 ta, 10-"A" va "B" 32 ta, 11-"A" va "B" 41 ta o'quvchi.

**Tajriba materiali.** 5-11-sinf o'quvchilarida gap shakllarining o'zlashtirilish holatini aniqlash uchun dastlab turli sintaktik konstruksiyalarga asoslanib gaplar tuzib olindi. Tajribadan aniq natija olish uchun har bir konstruksiyaga 5tdan jami 150 ta gap shakllantirildi. Keyingi bosqichda ushbu gaplarning turli qismlariga savollar berib, so'roq gaplarga aylantirildi. Quyida ko'rsatish olmoshili qo'shma gaplarning o'zlashtirilishini tekshirish uchun foydalanilgan tajriba materiali keltirildi.

1	Shunday ne'matlar borki, ularni pul bilan sotib olib bo'lmaydi.	Qanday ne'matlar bor?
2	Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi.	Nimani biling?
3	Shunday odamlar borki, ular bilan suhbatlashib xursand bo'lasan.	Qanday odamlar bor?
4	Shunisi achinarliki, Sarvar o'tayotgan vaqtiga achinmaydi.	Sarvar nimaga achinmaydi?
5	Shunisi quvonarliki, sinfimizdagi o'quvchilar bir-biri bilan ahil.	O'quvchilarning o'zaro munosabati qanday?

Tajriba jarayoni. Avval gaplar o'quvchilarga proyektor orqali ko'rsatildi. Ko'rsatilgan gapni o'qib, tushunib olish kerakligi aytiladi. Keyin gap o'quvchilarga qayta o'qib eshittirildi va proyektor bo'sh sahifaga o'tkazildi. So'ng

**Tahlil va natijalar.** T(to'g'ri), N(notog'ri), T/b(to'liq bo'lmagan), O'(o'zga). (Natijalar % ko'rsatkichda)

1. Shunday ne'matlar borki, ularni pul bilan sotib olib bo'lmaydi.
- 2.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	O'rtacha
T	13	16	24	24	30	35	15	22
N	48	75	36	40	50	43	44	48
O'	39	9	40	36	20	22	41	30

2. Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	O'rtacha
T	0	9	24	28	28	34	32	22
N	61	40	72	60	46	47	49	53
T/b	39	51	4	22	26	19	19	25

3. Shunday odamlar borki, ular bilan suhbatlashib xursand bo'lasan.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	O'rtacha
T	13	6	20	22	18	16	15	16
N	48	56	48	46	48	68	71	55
O'	49	38	32	32	34	16	14	29

4. Shunisi achinarliki, Sarvar o'tayotgan vaqtiga achinmaydi.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
T	100	100	100	100	100	100	100

5. Shunisi quvonarliki, sinfimizdagi o'quvchilar bir-biri bilan ahil.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
T	100	100	100	100	100	100	100

O'zlashtirish ko'rsatkichlaridan shuni bilish mumkinki, 5-11-sinf o'quvchilarida ko'rsatish olmoshili qo'shma gap konstruksiyalarini o'zlashtirish to'liq shakllanmagan.

Tajriba natijalar tahlili:

Shunday ne'matlar borki, ularni pul bilan sotib olib bo'lmaydi.

Savol: Qanday ne'matlar bor?

Tajriba natijalari keltirilgan jadvalda 5-11-sinf o'quvchilarining ushbu gap uchun berilgan savolga o'rtacha 22% "pul bilan sotib olib bo'lmaydigan" deya to'g'ri javob

berishganini kuzatish mumkin. 48% o'quvchi "shunday" deya bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshili javob sifatida keltirgan. O'quvchi ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gapni tushunmagan. 30% o'quvchi esa gap tarkibida keltirilmagan, biroq "pul bilan sotib olib bo'lmaydigan" birikmasini avvaldan xotirasida mavjud bo'lgan birikma bilan o'zgartirib, so'z boyligiga tayanib javob yozgan. Ishtirokchi o'zi uchun qaysi ne'mat muhim bo'lsa, javobida shuni ifodalagan. Quyidagi jadvalda o'quvchilar yozgan javoblar keltirildi.

	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
O'	qiziqarli, baxt,	mehr, shirin	bebaho, baxt,	mehr, baxt, havo,	havo, oila, vaqt,	ona mehri, vaqt,	ishonch, mehr,

	bola, ilm, kitob	ne'matlar, farzand	do'stlik, inson, mehr	yer, mehr, erkinlik, ozodlik, non, mehr, insof, ozodlik, tinchlik, mehr	ilm, odamzodagi a'zolar, mehr, qimmatli ne'matlar, vijdon, g'urur, insof, mehr-oqibat, e'tibor	mehr, oqibat, mehr, ishonch, bebaho ne'matlar, vaqt	sog'inch, sevgi, sog'liq, do'stlik, bebaho ne'mat
--	------------------	--------------------	-----------------------	---	--	---	---

Shuni bilingki, hech bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. Savol: Nimani biling? Ushbu savolga ham 22% ishtirokchi "hech bir yangilik bexosiyat bo'lmasligini" deya savolni to'g'ri tushunib, gapni to'liq o'zlashtirgan holda javob yozgan. 53% ishtirokchi esa "shuni" deya gap mazmunini

tushunmagan holda javob yozgan. 25% ishtirokchi esa gap mazmunini anglamagan holda gap tarkibida mavjud bo'lgan va esida saqlanib qolgan jummalarni yozishgan. Quyidagi jadvalda o'quvchilar yozgan javoblar keltirildi.

	5-sinf yangilikni, xabarni	6-sinf xabarni, har bir yangilikni, yaxshi xabar, xabarlarini.	7-sinf yangilikni	8-sinf bexosiyatni, xosiyatligini, yangilikni	9-sinf yaxshilikni, yangilikni	10-sinf yangilik	11-sinf xabar, yangilik
--	----------------------------	--	-------------------	---	--------------------------------	------------------	-------------------------

Gap tarkibidan aynan jadvalda keltirilgan so'zlarning eslab qolinishiga savol tarkibidagi "bilmoq" fe'li sabab bo'lgan. Ishtirokchi savolni eshitgach "bilmoq" so'ziga assotsiativ so'z sifatida mazmunni tushunmagan holda gap tarkibidagi bir so'zni tanlagan. Masalan, "yangilikni biling"

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarni o'zlashtirish bo'yicha kamchiliklarni keyingi misolda ham kuzatish mumkin. Shunday odamlar borki, ular bilan suhbatlashib xursand bo'lasan. Savol: Qanday odamlar bor?

16% ishtirokchi gap mazmunini to'g'ri tushungan va ergash gap tarkibidagi javobni sifatdoshli birikma holda ifodalab javob yozgan. 55% ishtirokchi "shunday" deya ushbu gap turini o'zlashtirmaganligi uchun xato javob yozishgan. 29% ishtirokchi esa avvaldan xotirasida mavjud so'z boyligiga tayanib javob yozgan. Ishtirokchi o'zi qanday kishi bilan suhbatlashib xursand bo'lsa, javobida shu sifatlarini ifodalagan. Quyidagi jadvalda o'quvchilar yozgan javoblar keltirildi.

	5-sinf yaxshi, mehribon	6-sinf yaxshi	7-sinf yaxshi odamlar, quvnoq odamlar, eshituvchan	8-sinf yaxshi, samimiy	9-sinf yaxshi, mehrlil, ochiq yuzli, quvnoq, tushunuvchan, suhbatdosh,	10-sinf xushchaqchaq, suhbatdosh	11-sinf yaxshi, dono, quvnoq, o'z fikri bor odam
--	-------------------------	---------------	--	------------------------	--	----------------------------------	--

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gap turining keyingi misollaridagi savollar ergash gap tarkibidagi bo'lakka qaratilgan va ishtirokchilar to'liq javob berishgan. Shunisi quvonarliligi, sinfmizdagi o'quvchilar bir-biri bilan ahil. Savol: O'quvchilarning o'zaro munosabati qanday? Shunisi achinarlikli, Sarvar o'tayotgan vaqtiga achinmaydi. Savol: Sarvar nimaga achinmaydi?

**Xulosa va takliflar.** Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatish olmoshili qo'shma gaplarning o'zlashtirilishiga ko'rsatish olmoshi ta'sir etadi. Ying-jing Zhaoning "Xitoy tilida bolalarning ko'rsatish olmoshini o'zlashtirishi" nomli maqolasida ko'rsatish olmoshlari bolaning birinchi o'zlashtiradigan so'zlaridan biri sifatida aytiladi. Ko'rsatish olmoshi harakatlar bilan birgalikda, masalan, imo-ishora orqali yoki ko'z harakatlari bilan biror narsani ko'rsatish orqali o'zlashtiriladi, ya'ni bola ko'rsatish olmoshini eshitganda yoki ko'rganda unga ishora qiluvchi harakat kutadi[14]. Dastlab keltirilgan uchta gapda savol ko'rsatish

olmoshiga qaratilgan edi. Keyingi gaplardagi savollar ko'rsatish olmoshiga bog'liq emas. Shu sababdan natijalar orasida keskin farq kuzatildi.

Sifatdoshli va olmosh ishtirok etgan gaplarda bu birliklarning ma'nosini gap yakunlanmaguncha to'liq tushunib bo'lmaganligi sababli umumiy mazmun yaxshi anglanmaydi. Tezkor xotiraning "stress"ga tushishi tushunilishga ta'sir etadi[7].

Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplarda olmosh ishtirok etgani uchun bu birliklarning ma'nosini gap yakunlanmaguncha to'liq tushunib bo'lmaydi va ko'rsatish olmoshi tushunishga ta'sir etadi. Shuningdek, bu gaplarning konstruksiyasi murakkab bo'lganligi uchun retsipientdan diqqat va kognitiv tajriba talab qiladi. Bizning tadqiqotimizda aynan shunday gaplarning yaxshi tushunilmaganligi kuzatildi va bu turdagi gap konstruksiyasi to'liq o'zlashtirmaganligiga dalil sifatida baholandi.

#### ADABIYOTLAR

- O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili(10-11-sinf) Toshkent – 2017.
- Azimova I.A. "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persipsiyasining psixolingvistik tadqiqi" (Monografiya). – T.: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 160 b.
- Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.
- Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: "Tasvir" nashriyot uyi, 2019.
- Miller, C.A. (1956). The magical number seven, plus or minus two: Some limits on our capacity for processing information. *Psychological Review*, P. 97.
- Nicholson, T. (1998). Reading comprehension processes. In G. B.
- Rayner, K. (1975). The perceptual span and peripheral cues in reading. *Cognitive Psychology*, 7, 65-81.
- The first language acquisition of complex sentences (Chapter 14) - The Cambridge Handbook of Child Language The Cambridge Handbook of Child Language - March 2009
- Diessel, Holger. The acquisition of complex sentences – 2004. pp. 8–11.
- John H. Holland Redwood City, California. – Addison-Wesley, 1998.
- Clark, E. First Language Acquisition. Second edition. The Edinburgh Building, Cambridge CB2 8RU, UK. –P.184.
- Jack Richards. Communicative language teaching today. Cambridge University Press 32, Avenue of the Americas, New York, NY 10013-2473, USA.
- Just, M.A., & Carpenter, P.A. (1980). A theory of reading: From eye fixations to comprehension. *Psychological Review*, P-354.
- Yi-jing Zhao. Children's Acquisition of Demonstrative Pronouns in Mandarin Chinese
- Guasti M. (2002). Language acquisition: The growth of grammar. Cambridge, MA: MIT Press, 2002. – P. 474.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2019-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5212-son Farmoni. Umumiy qoidalar. – 1-b.



UDK: 811.512133'373.49+811.111'373.49

Zebinso NO'MONOVA,  
Andijon davlat universiteti doktoranti  
E-mail: linguistzebo@gmail.com

ADCHTI f.f.n.dots N.Pazilova taqrizi asosida

### EVFEMIZM KONSEPTINING NOMINATIV MAYDONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy lingvistikada kognitiv tilshunoslikning tadqiqot obyekti, kognitologiyaning asosiy tushunchasi bo'lgan konsept masalasi, uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, tilshunoslikda evfemizm masalasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, maydon tushunchasi hamda evfemizm konseptining nominativ maydoni masalalari atroflicha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Konsept, maydon, nominativ maydon, semantika, konseptuallashtirish, konseptosfera.

### NOMINATIVE FIELD OF THE EUPHEMISM CONCEPT

Annotation

In this article, the research object of cognitive linguistics in modern linguistics, the issue of the concept, which is the main concept of cognitology, and its specific features are highlighted. Also, in linguistics, the issue of euphemism, its specific features, the concept of field and the nominative field of the concept of euphemism have been thoroughly studied.

**Key words:** Concept, field, nominative field, semantics, conceptualization, conceptsphere.

### НОМИНАТИВНОЕ ПОЛЕ КОНЦЕПТА ЭВФЕМИЗМА

Аннотация

В данной статье освещается объект исследования когнитивной лингвистики в современной лингвистике, вопрос о концепте, который является основным понятием когнитологии, и его специфические особенности. Также в лингвистике подробно изучен вопрос об эвфемизме, его специфических особенностях, понятии поля и номинативном поле понятия эвфемизма.

**Ключевые слова:** Концепт, поле, номинативное поле, семантика, концептосфера, концептосфера.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, insoniyat paydo bo'lgandan boshlab, ularni o'ran turgan dunyoning sirlarini o'rganish, izlanishlar olib borish, kashf etish hamda bu orqali o'zlarining tajriba va mahoratlarini rivojlantirib borish, ana shu tajribalarini esa o'zlarining ya'ni insonlarning o'z manfaatlarini tomon yo'naltirish birdan-bir maqsadi bo'lib kelmoqda. Ushbu kognitiv jarayonlarda odamlar olamdagi barcha voqeahodisalarni kuzatadi, ularga xos xususiyatlarni aniqlaydi hamda ularni bir-biridan farqli tomonlarini ajratib, qiyoslay boshlaydi. Shu nuqtai nazardan, mantiqshunos olim N.I.Kondakov bu haqida shunday fikr bildiradi: "Qiyoslash – ob'ektiv borliqdagi narsalar, narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdir, boshqacha aytganda, har qanday predmet va hodisani bilish uni boshqa bir predmet bilan qiyoslashdan boshlanadi" [1].

**Adabiyotlar tahlili.** Avvalo, evfemizm so'ziga ta'rif berib o'tishimiz joizdir. Tadqiqotchi E.Tyurina evfemizmga shunday ta'rif beradi: "Evfemizm aytilishi noqulay bo'lgan til birliklarining, ba'zi hollarda esa qaysidir jihatdan taqiqlangan, odobsiz deb topilgan qo'pol, dag'al, yoqimsiz so'z va iboralarning boshqa so'z va ifodalar bilan pardali, yumshoq aks ettirilishidir" [2].

Olima I.Zabodkina shunday yozadi: "Evfemizm o'zida ko'plab ijobiy xislatlarni jamlaydi bular: xushmuomalalik, nazokat, muloyimlik, odob va h.k [3].

S.Brunet qayd etadiki, evfemizm birliklarining kuchayishi, yoki o'ta xushmuomalalik, demokratik normaga zid bo'lib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi [4].

Olima N.S.Arapova talqinicha "Evfemizmni qo'pol, yoqimsiz haqiqatni yumshoq yoki obrazli ifodalamoq, deb aytadi [5].

I.R.Galperin "Evfemizm –so'z yoki gap bo'lib, yoqimsiz so'zni almashtirish, uni muqobil holatda ifodalash uchun ishlatiladi, -deb yozadi [6].

L.Krisin yozadi: "Evfemistik almashuv kommunikativ konfliktlar va omadsizliklardan qochish uchun ishlatiladi yoki qo'llaniladi, bu esa suhbatdosh bilan kommunikativ noqulayliklar keltirib chiqarmaydi [7].

I.L.Vasilyevich evfemizmni ijtimoiy munosabatlarda yoqimsiz so'z va ifodalardan qochish deb harakterlaydi [8].

Yuqorida evfemizm hodisasi nima ekanligiga oydinlik kiritib oldik, endi esa evfemizm konseptiga quyidagi ta'rifni berib o'tamiz: "Evfemizm konsepti – bu obektiv borliqning bir bo'lagini o'zida aks ettirgan, unga xos muhim va ikkinchi darajali belgi xususiyatlar har bir til egalari xotirasida mavjud bo'lib, emotsional obraz sifatida nomoyon bo'lib, xushmuomalalik belgilari majmuidir".

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy kognitiv tilshunoslik ko'plab an'anaviy ilmiy muammolarni yangicha izohlab, so'z bilan mustahkamlangan bilimlarni tushunishimizni rivojlantiradi va chuqurlashtiradi. Ushbu muammolardan biri tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan ma'no va tushuncha o'rtasidagi munosabatlar muammosidir. Tushuncha va ma'no o'rtasidagi munosabatlar muammosi kognitiv tilshunoslikning eng muhim muammosidir, chunki kognitiv tilshunoslikning alohida lingvistik yo'nalish sifatida mavjudligi ham, o'z navbatida olingan natijalarni oldindan belgilab beradigan tadqiqot metodologiyasi ham uning nazariy asosiga bog'liq [9]. Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so'z bo'lib, (conssept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashirib yuborila boshlangach,

uning tom ma'nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. Lingvistik ensiklopedik lug'atda konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "konsept bu - "so'z ma'nosi" kabi tushuncha bo'lib, faqat bog'lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma'notil tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo'ladi". Konsept tushunchasini turli xil soha va yo'nalishlarda uchratishimiz va har bir sohada konseptning o'z ma'no va vazifasi borligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, psixolingvistika, tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik sohalarini nuqtai nazaridan konsept talqinlari ko'rib chiqilgan. Psixolingvistika nuqtai nazaridan konsept insonning psixik hayot qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, shaxsning bilish va muloqot jarayonida dinamik xarakterga ega. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi.

Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining asosiy mavzusi konsept bo'lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi. Konsept - bir millatga tegishli bo'lgan hayotiy tajriba natijalarini o'zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig'indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa bo'lgan munosabati, bir millatning nimadir haqida o'y-fikrlar, qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi bo'lib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni o'zichiga oladi. Konsept insonni o'rab turgan olamni anglash natijasida orttirilgan bilimlar yig'indisi va tajribasida mavhum birlikni namoyon etadi. Bu qarashlar Yu.S.Stepanov xulosalarida ham keltirilgan. Uning fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo'lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo'lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba'zi vaqtda madaniyatga ta'sir ko'rsatadi. Bu qarashlarga N.D.Artyunova tomonidan aniqlik kiritilgan. Olimani fikricha, konsept bir qancha faktorlarni o'zaro aloqa natijasi: folklor, milliy urfodatlar, din, hayotiy tajriba, obraz, qadrlilik tuyg'usi [10]. Konsept o'ziga xos madaniy qatlam, inson va olam o'rtasidagi aloqa tasviri. Bizga ma'lumki, konsept lisoniy birliklar (so'z, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obyektiv borliq, predmet va hodisalar haqida ma'lumot, tushuncha, tasavvurlarni o'zida tashishi, saqlashi, o'zgaga yetkazib berishi bilan jamiyat a'zolarining predmet va hodisalariga bo'lgan munosabatini qayd etishi bilan o'ziga xosdir. Turli madaniyatlarda konseptlar olami turlicha aks etadi. Konsept imkoniyati individual hissiy va madaniy tajriba natijasida til egalari tomonidan boyitiladi. Konsept ma'nosi murakkab tuzilgan. Shuning uchun olimlar tomonidan konseptga tizimli hodisa sifatida qaraladi. Bu tizim qatlam so'zi bilan talqin qilinadi.

**Tahlil va natijalar.** Evfemizmlarni ifodalovchi verbalizatorlar har bir tilda muhim bo'lganidek, ingliz va o'zbek tillari konseptosferasida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa turli xil konseptlar singari evfemizm konsepti ham tartiblashgan ichki strukturaga ega bo'lib, unga xos belgi xususiyatlar makro va mikromaydonchalarni tashkil etadi. Jamiyat ongida mavjud bo'lgan evfemizm konseptiga xos xususiyatlarni noverbal atributlar hisoblanadi. Vaholanki, ushbu konseptning verballashgan, muloqot jarayonida relevant bo'lgan qismini esa verbal konseptual atributlar deb hisoblaymiz. A.P.Babushkin va I.A.Sternin bu borada shunday yozadilar: "Konseptning verballashgan yoki verballashmaganligining sababi aynan kommunikativlikdir.

Konseptning verballashuvi yoki verballashmaganligi uning tafakkur birligi sifatida ongda real mavjudligiga ta'sir etmaydi. Ongda verballashmagan konseptlar juda ham ko'p" [11].

Evfemizm konseptining strukturasi va mazmuni milliylik kasb etishi bois ushbu konseptning mazmun-mundariyasi, uning lisoniy manzarasi masalalarini qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillar misolida tadqiq etish nafaqat lingvistik konseptologiya uchun, balki til umumiy nazariyasi, chog'ishtirma lingvokulturologiya uchun ham qimmatli va ahamiyatli natijalar berishi shubhasiz.

Evfemizmni konsept sifatida o'rganar ekanmiz, har bir soha xoh bu ijtimoiy yoki siyosiy soha bo'ladimi, insonlar ish faoliyati jarayonida muommolarni minimallashtirish, konfliktida qochish, ya'ni ijtimoiy mavqeyi yuqoriroq yoki pastroq bo'lgan subektlarni haqorat qilmaslik, salbiy real bo'lgan voqealarni yumshatish uchun yo bo'lmasa axloqiy sabablarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri aytilish joiz bo'lmagan vaziyatlarni neytrallashtirish uchun evfemizm konsepti ostida birlashtiruvchi birliklar zaruriy muloqot quroli sifatida muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, ba'zi o'rinlarda haqiqatdan ham nohaq ekanligini to'g'ridan-to'g'ri aytilish o'rniga "Haqiqatdan yiroqlashmang" yoki "Haqiqatdan uzoqlashmang" yoki "ko'zi ko'r" ifodasini o'rniga "ko'zi ojiz", "qulog'i kar" ifodasi o'rniga "qulog'i og'ir"lardan foydalanish har qanday subektga nojo'ya ta'sir etmaydi deb o'ylaymiz.

Evfemizm konsepti verbalizatorlari shakili strukturasi ko'ra: so'z (ibora), evfemik birikma, evfemik gap ko'rinishlari farqlanadi.

So'z shaklidagi evfemizm konsepti verbalizatorlari – har bir kundalik jarayonda yo bo'lmasa ijtimoiy yoki siyosiy vaziyatlarda yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, turli xil salbiy holatlardan qochish uchun evfemizmlardan foydalanishimizdek, ko'proq so'z shaklidagi evfemik vositalardan foydalanamiz. Masalan, homilador so'zi o'rnida yuklik, qo'rqqoq so'zi o'rnida yuraksiz, ayol so'zi o'rnida zaifa, kabi misollarni kundalik hayotda ham, badiiy adabiyotlarda ham uchratishimiz mumkin.

Ba'zida voqelik, vaziyat, xatti-harakatlar bilan bog'liq denotant bir so'z bilan ifodalanganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi: ....shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlangan tovush bilan so'radi:

Siz o'shami?

Men o'sha, - dedi bek.

Bu iboradagi o'sha so'zi Kumushning dardi bo'lib, ko'ngil qo'ngan insonini ifodalaydi [16].

Ibora shaklidagi evfemizm konsepti verbalizatorlari – og'zaki va yozma nutqda evfemik ma'noni ifodalash uchun iboralardan ham foydalaniladi. Ko'p hollarda axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lgan yoki noqulay vaziyatlarni yumshoq tarzda ifodalash uchun frazeologik birliklardan foydalaniladi. Ularga misol sifatida quyidagilarni berishimiz mumkin: qari so'zi o'rniga yoshini yashab, oshini oshab, chidamoq so'zi o'rniga tishimizni tishimizga qo'ymoq, aybini ochiq aytmoq o'rniga yarasiga tuz sepmoq, uyulantirmoq o'rniga boshini ikkita qilmoq

So'z birikmasi shaklidagi evfemizm konsepti verbalizatorlari – evfemizmlarning so'z birikmasi orqali ifodalaniishi deganimizda, albatta, hokim va tobe munosabatidagi birikmalar nazarda tutiladi hamda ular barqaror emasligi bilan iboralardan farq qiladi. Misol uchun:

Gap shaklidagi evfemik vosita – gap shaklidagi evfemizm konsepti verbalizatorlari ega va kesim ko'rinishida bo'lib, ko'proq sodda gap holida bo'ladi. Misol uchun:

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida sanab o'tilgan lisoniy birliklarni evfemizm konseptining lisoniy nominativ birliklari deb ataymiz. Evfemizm konsepti verbalizatorlari evfemizm sistemasida bir maydonni tashkil etadi. Shuningdek, bu

maydonni evfemizm konseptining nominative maydoni deb ataymiz. Bu maydon turli til sathlariga mansub birliklardan tashkil topgan bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, evfemizm konsepti nominative maydoni mazmun va ifoda planiga egadir. Ushbu maydonni tashkil etuvchi birliklar evfemizm konseptiga xos belgi-xususiyatlarni ifodalash uchun xoslangan bo'ladi. Maydonni tashkil qiluvchi birliklar uning markazida turuvchi evfemizm verbalizatorlaridan biri arxisemasi atrofidan joy oladilar. Lingvokognitiv, funksional-semantik tahlillarga tayangan holda shuni ma'lum qilamizki, evfemizm konseptini ifodalovchi verbalizatorlarning nominative maydonini dominanta, yadro va periferiya qismlarga ajratdik hamda maydon dominantasi iboralar (frazeologik birliklar), uning yadrosini frazema, leksema, sentsemalar, periferiyasini esa parema va textemalar tashkil etadi.

Ko'rinadiki, evfemizm konseptining nominativ maydoni ingliz va o'zbek tilshunosligida kam o'rganilgan bo'lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan evfemizmning ko'proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistemali tadqiq etilgan. Uning yondosh hodisalarga munosabati, turdosh bo'lgan tiplari, til sathidagi o'rni belgilanganligi, lisoniy va nutqiy evfemalar farqlanib, evfemik ma'no kategoriyalari funksional-uslubiy jihatdan tasnif qilinganligi ahamiyatli. Qolaversa, ingliz va o'zbek tilshunoslari orasida evfemizm konseptining nominative maydoni yuzasidan hanuz bahs-munozaralar olib borilayotganligi uning turli sohalar bo'yicha chuqurroq o'rganilishi lozimligidan dalolat beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Kondakov N.I. (1954) Logika [Logics]. Moscow: Uchpedgiz
2. Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. –Н. Новгород, 1998. 127
3. Заботкина В.И. Новая лексика в современном английском языке. –М.: Высшая школа, 1999.-137 с.
4. Brunet S. Les mots de la fin du siècle. Paris: EditionBélin, 1996. 254 p.
5. Арапова Н.С. Эвфемизмы //Лингвистический энциклопедический словарь.–М.:Просвещение, 1990.-248 с.
6. Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: КомКнига, 2005. -144 с.
7. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995). –М.: Языки русской культуры, 1996. -С. 64-72.
8. Василевич Е.М. Словарь социолингвистических терминов. -М., 2006. -312 с.
9. Rahmanova, I., & Mamatkulova, X. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA VAQT KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(12), 47-50
10. Rahmanova I., & Mamatkulova, X. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA VAQT KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(12), 47-50
11. Babushkin, A.P., Sternin, I.A. (2018) Kognitivnaya lingvistika i semasiologiya [Cognitive linguistics and semasiology]. Voronezh: OOO "Ritm"



UDK: 415.002.3:413.164 (045)

*Maxfurat OMONOVA,*  
*Qashi davlat universiteti dotsenti v/b*  
*E-mail: mahfurat.omonova@mail.ru*

*Qarshi DU f.f.d.prof. X.Jabborov taqrizi ostida*

## CHOQ'ISHTIRALAYOTGAN TILLARDA MELIORATIV TERMINLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada chog'ishtiralayotgan tillarda meliorativ terminlarning struktur-grammatik xususiyatlari va ingliz tilidagi "melioration" va o'zbek tilidagi "melioratsiya" terminlari va tushunchalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** meliorativ, terminologiya, birikmali termin, onomasiologik komponent, atributiv komponent, ekstralingvistik, struktur-grammatik.

## СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЛИОРАТИВНЫХ ТЕРМИНОВ В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются структурно-грамматические особенности мелиоративных терминов в сопоставляемых языках, а также концептуальные значения термина "melioration" в английском языке и термина "melioratsiya" в узбекском языке.

**Ключевые слова:** Мелиоратив, терминология, составные термины, ономазиологический компонент, атрибутивный компонент, экстралингвистик, структур-грамматический.

## STRUCTURAL AND GRAMMATICAL FEATURES OF MELIORATIVE TERMS OF COMPARATIVE LANGUAGES

Annotation

The article deals with the structural and grammatical features of meliorative terms of comparative languages as well as conceptual features of "melioration" in English and "melioratsiya" in Uzbek languages

**Key words:** Meliorative, terminology, compound terms, onomastic component, attributive component, extralingvistik, structural and grammatical.

**Kirish.** Hozirgi zamon tilshunosligida turli birikmali terminlarni struktur-grammatik, semantik jihatdan o'rganish muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa nazariy va amaliy terminologiyaning nafaqat asosiy muammolaridan bo'lib kelmoqda, balki ilmiy-texnik tarjimaning dolzarb masalalaridan biri hamdir. Melioratsiya terminologiyasida tub terminlar, ya'ni drenaj, irrigatsiya, suv, zovur, zax, sho'r, meliorator, akveduk kabi terminlar kam sonli tashkil etganligi uchun biz maqolamizda birikmali terminlarga atroflicha to'xtalishni lozim topdik.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, birikmali terminlar muammosi terminologiya bo'yicha tadqiqotlarda turli darajalarda o'rganilgan: komponentlarning mantiqiy munosabatlari, tuzilishi va ma'no jihatdan ularning bog'liqligi maqsadida o'rganilgan xolos. Birikmali terminlarni o'rganishga qilingan xarakterlarga qaramasdan, hozirgi paytda muammoning yechimi to'liq poyoniga yetdi deb bo'lmaydi. Buning sababi termin ta'rif, uning chegarasi, xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan yondashuvning aniq emasligi bo'lsa, ikkinchidan, semantik munosabatda uyushmagan birikmali terminlarning tahlili bir tomondan, birikmali va erkin terminlarni, boshqa tomondan esa, birikmali terminlar va frazeologizmlarni qiyoslab o'rganishga olib keladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tilshunos olim Ye.M.Volfning fikricha, "sifatlar turli semantik otlarga osongina moslashadi va bu bilan ma'no rang-barangligini ta'minlaydi". Yuqorida keltirilgan fikrlarga asosan, tadqiqotning asosiy maqsadi, melioratsiyaga oid birikmali terminlarni onomasiologik, struktur-grammatik, semantik va

tizimli xususiyatlari ketma-ketligidan tashqari bo'lgan voqelikning maxsus belgilari sifatida o'rganishdan iborat.

Terminologiya uchun xos bo'lgan eng tipik ko'rinish bu atributiv, ya'ni (aniqlanmish + aniqlovchi) strukturaga ega "onomasiologik struktura"lar asosida bo'lgan birikmali terminlardir. Onomasiologik strukturalarda onomasiologik asos sifatida aniqlanayotgan a'zo, "agar asos deganda predmetlar, belgilar, xarakterlar yoki belgilar xususiyatlari guruhiga mansublik, ya'ni ma'lum so'z orqali ifodalangan juda umumiy tushunchalar kategoriyasiga ega bo'lgan asos tushunilsa", o'zida ushbu guruh ramkasida differensial axborotni tashiydigan aniqlovchi a'zo esa, onomasiologik belgi sifatida namoyon bo'ladi. Agar asos tanlovi nomlashning to'g'ridan to'g'ri ma'noviy vazifasi bilan aniqlansa, ya'ni predmet guruh namoyandasi kabi belgilansa, unda nomning belgisi tushuncha guruhi qatorini ajratib beruvchi uning individual xususiyatini tanlashga bog'liq bo'ladi. Bu turdagi ma'noviy struktura turli ilmiy-texnik tushunchalarga aniq nom berish uchun xizmat qiladigan terminlarning funksional xususiyatlariga mos keladi. Birikmali terminlarning dastlabki tahlili, eng avvalo, uning birinchi, asosiy komponenti qaysi so'z turkumi yoki shakli ifodalashini aniqlashdan boshlanadi: asosiy, ya'ni bu holda substantiv birikmali terminlarning asosiy a'zosi ot so'z turkumi predmetlik (harakat quroli, harakat obyekt, harakat natijasi va boshqa konkret-predmetlilik belgilarni) ma'nosi, hamda mavhum semantikali so'zlar sifatida ishlatiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida birikmali meliorativ terminlarning eng tarqalgan guruhini, aniqlovchi komponentni ot so'z turkumi namoyon etadigan birikmali terminlar tashkil

etadi. Bunday terminlarning soni 680 tani tashkil qiladi. Birikmali terminlarning tarkibidagi otlarning asosiy vazifasi uning guruhiga oid hodisalardan uning farqli belgilarini ko'rsatish orqali aniqlanmish hodisasini tasniflashdan iborat. Bu holatda ingliz va o'zbek tillaridagi ot va sifat so'z turkumlari o'rtasidagi ma'no farqlari unchalik sezilmaydi. Masalan, low flow – past oqim, river flow – daryo oqimi, open basin – oqimi bor suv xavzasi (basseyni), irrigation basin – sug'orish havzasi, perennial canal – kechayu-kunduz oqadigan kanal, power canal – sun'iy kanal, control dam – nazorat kanali, furrow drainage – jo'yakli drenaj, delivery conduit – katta bosimli nov.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, sifatlar belgi bildiruvchi so'zlardir, ya'ni predmetni ko'rsatmaydi, balki ularga belgi beradi. Bu aspektda otlar funksional jihatdan sifatlariga yaqin bo'lib, narsani emas, u yoki bu munosabatdagi asosiy komponentni belgilaydi va belgining belgisi bo'lib xizmat qiladi. Otlarning semantik strukturasi o'zgaruvchanligi, uning boshqa so'z turkumlariga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlantirishi, masalan, belgining belgisini nomlashi uning birikmali terminlar komponentlari sifatida ishlatilishi kabi keng funktsionalligini ta'minlaydi. Birikmali terminlarning asosiy komponentining aniqlovchi sifatida kelishi, otlarning predikat vazifasini bajarishga undaydi: ular nafaqat narsa va hodisani nomlash bilan birga predmetga, materialga, jimga, jarayonga bo'lgan munosabat orqali uning xususiyati, sifati, belgisini ham ifodalaydi. Ba'zida aniqlanmish so'zning semantikasi denotat bilan munosabatni o'rnatishda, yangi tor sohaga oid ma'no ifodalashi mumkin, masalan, Irrigation lateral – yomg'irlatib sug'orish qurilmasi; Catch basin – yomg'ir suvi yig'iladigan kollektor; Limundation canal – liman kanal.

Aynan mana shu ot so'z turkumi bilan ifodalangan belgi, butun bir birikmaga birikmali xususiyat beradi, masalan, mitter uniformity – tomchilatib sug'orishda tomchilarning bir maromda sarflanishini ta'minlovchi uskuna;

Ingliz va o'zbek tillariga mansub meliorativ terminlar orasida birikmali terminlarning ko'p qismini ot so'z turkumi tashkil etadi. Shuning uchun ham ingliz va o'zbek tillarida eng sarmahsul va keng tarqalgan tizimli modellar N+N (ot +ot) va Adj+N (sifat+ot) ekanligi kuzatildi. Ingliz tiliga mansub melioratsiyaga oid ikki yoki undan ortiq komponentli birikmalarning so'z turkumlari bo'yicha struktur-grammatik munosabatida quyidagicha:

a) ikki oddiy ot birikmasi: spray nozzle – suvni sachratib beruvchi moslama, field weir – tuproqosti sug'orish sistemasini boshqaruvchi uskuna, control jet – boshqaruvchi suv oqimi, neutron mater – neytronli namlikni o'lchash moslamasi;

b) oddiy ot va yasama otlar birikmasi (ba'zida ikki yasama ot ishtirok etishi mumkin): infiltration ditch – infiltratsiyali drenaj, soil evaporation –tuproqdan namning bug'lanishi, drainage melioration – yer zaxini qochirish melioratsiyasi;

v) sodda va qo'shma otlar birikmasining aniqlovchi komponent sifatida: groundwater basin – yer osti suvlari xavzasi, check-basin irrigation – suv bostirib sug'orish, night-storage irrigation – tungi sug'orish.

- type komponentli murakkab otlar asosan melioratsiyaga oid turli xil uskunalar, uskunalar elementlarini, asboblarni nomlab kelsa, kam xolatlarda melioratsiyaning mavhum nomlari sifatida ishlatiladi, masalan, spectacle-type gate – айлана тўғон, screw-type flowmeter – suv sarfini o'lchaydigan parrakli asbob, vortex-type flow – girdobli oqim, relief-type drainage – relyeffli drenaj.

Murakkab otlar meliorativ terminlarning o'ziga xos belgisini ifodalashda katta imkoniyatga egadir. Yuqori axborot berish xususiyatiga ega bu otlar bir necha belgilarni o'zida

mujassamlab, qisqa, bir til formasida ifodalash imkoniyatiga egaligi bilan birga muloqotda "berilgan" tushunchani oson ifoda etishidir. Bu kabi tuzilmalarning katta imkoniyati ularning ichki omillari: analogiya, turg'unlik, nutqda tez-tez ishlatilishi ham katta ahamiyatga ega, bunday hodisa birikmali terminning asosiy komponentini ifodalashda ham kuzatiladi, masalan, irrigation pumping plant – sug'orish nasos stansiyasi; yoki aksincha, asosiy va tobe qismlari ham murakkab otlar bilan ifodalangan bo'lishi mumkin, misol uchun, velocity-area gauging station – gidrometrik stansiya.

Ikkita otdan tashkil topgan atributiv komplekslar komponentlarning o'zaro bog'liqligi va semantik bog'lanishning kuchayishi bilan ta'riflanadi. Bunday semantik bog'lanishlar ba'zi terminlar ikki alohida nomlarning qo'shilmalari deb emas, balki yagonalashgan nom sifatida maydonga keladi. Komponentlarning semantik bog'lanishi terminlarning uchinchi so'zga bog'lanishida kuzatiladi. Bu kabi holatlarda ikki komponent birlashib, butun birikmali terminning bitta komponentiga aylanadi, masalan, zero moisture index – namlikning boshlang'ich ko'rsatgichi, water division-box – suv tarash novi, furrow depth meter – jo'yak chuqurligini o'lchash asbobi.

On, in, off, over kabi adverbial (ravishdosh) bo'laklarning old pozitsiyada ishtirok etgan birikmali terminlar ham uchrab turadi. Agar adabiy tilda bu kabi bo'laklar fe'l bilan qo'shib kelsa, terminologiyada ular otlar bilan qo'shib kelishadi va ot-terminning semantikasiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, off old qo'shimchasi otga inkor ma'nosini berib, terminda u yoki bu belgini inkor etib keladi, off-channel basin – daryo yonidagi (dan tashqari) suv ombori.

**Tahlil va natijalar.** Melioratsiya terminologiyasida aniqlovchi komponent sifatida sifat ishtirok etgan atributiv terminlar keng tarqalgan va ularning umumiy soni 262 tani tashkil etadi. Ma'lumki, sifatlar real voqelikni nomlaydilar – obyekt, predmet, hodisalardan uzoqlashgan holda belgi, xususiyat va sifatini belgilab beradilar. Ular haqidagi belgi va tushunchalarni obyektiv belgilagan holda, "sifatlar, narsa nomlari bilan uyg'unlashib, o'z nominativ muhimligini, minimal aniqlovchi sintagmalarda konkretlashadi.

Birikmali nomlarning komponenti sifatida kelishi, sifatlar predmetning o'ziga xos qaysi belgi va xususiyatlari bilan ushbu turkumlaridan ajralib turishiga bog'liq. Boshqa tomondan, sifatlar nomning asosida yotgan belgi va xususiyatlarni, predmetning boshqa xususiyatlaridan ajratib olib, uni u yoki bu guruhga tegishligini va eng asosiy belgilarini aniqlashga xizmat qiladi. Birikmali terminlarning yasalishida sifatlar bilan birga nisbiy sifatlar ham ishtirok etishadi. Birikmali terminlarni tarkib topishida sifatni belgilaydigan sifatlar soni sanoqli. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri, ular so'zning sifatini emas, balki predmet, hodisalarning o'zaro turkum munosabatlarini ifodalaydi. Qoida bo'yicha ular oddiy darajada bo'lishadi, biroq ba'zida qiyosiy va orttirma darajada ham uchrab turishadi, masalan:

low gate – ostki shlyuz;

largest peak discharge – maksimal suv sarfi;

highest low water – sayoz suvlarning eng yuqori sathi.

Melioratsiyaga oid birikmali terminlarning tarkib topishida nisbiy sifatlar sonining ko'pligini ta'kidlab o'tish joiz. Nisbiy sifatlar o'z semantikasida narsa va predmetlarning o'zaro turli munosabatlarini aks ettirishadi va ularning munosabatlarni aniq va ravshan belgilash xususiyati birikmali terminlar yasalishida keng foydalaniladi. Alohida belgilari bilan parametrik sifatlar ajralib turishadi va adektiv so'zlar guruhining aniq semantik belgilarini ifodalaydi, masalan,

horizontal flow – gorizontol oqim;

diagonal weir – diagonal to'g'on;

lateral drain – yonbosh drenaj;

linear system – old tomonga (frontal) yuradigan mashina;

parallel drainage pattern – parallel drenaj.

Sifatlarni birikmali terminologiyani tashkil etishi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi usulda umumiy sifatlarning birikmali terminlar tarkibiga o'z nominativ ma'nosi bilan ishtirok etadi va o'z navbatida u tor ilmiy ma'noli nomni yasaydi. Misol uchun,

Deep percolation that amount of water that passes below the root zone of crop or vegetation – o'simlikning tomirida(yer ostida) oqadigan suv.

Open, natural, straight, mechanical, dry, clean kabi sifatlari birikmali terminlar yasashida faol ishtirok etadi va asosan quyidagi terminlarda uchraydi:

open flume – ochiq kanal;

natural drainage – tabiiy drenaj;

mechanical ditcher – mexanik zovur kovlaydigan uskuna;

straight gravity dam – to'g'ri gravitatsiya to'g'oni;

dry drainage – quruq (bug'lantiruvchi) drenaj;

clean canal – sun'iy kanal.

Sifatning ot bilan birikib, termin hosil qilish xususiyati umumadabiy tildagi terminlar hisobidan son jihatdan kam.

large dam – katta to'g'on;

small dam – kichik to'g'on;

giant boom – kengqamrovli yomg'irlatib sug'orish uskunasi;

small trencher – kichik zovur qazish uskunasi.

Boshqa xolatda, oddiy sifatlari birikmali terminlar tarkibida kelganda, umuman, boshqa ma'noni anglatishi mumkin bo'lgan dead, negative, sweet, bare, hard kabi sifatlari mavjud:

bare pipe-line – yer usti novi;

negative well – quduq;

sweet water – chuchuk suv;

blind dam – yopiq to'g'on;

hard water – qattiq suv.

Ma'lumki, sifatlarning yangi ma'no kashf etishi belgilarning ma'lum darajada atributivlashining turli predmetlarning denotat ma'nosi bilan bog'liqligidir. Sifatlarning semantik jihatlaridan asosiysi bu ma'no strukturasining kengligi va o'ta semantikligidadir. Tilshunos olim YE.M.Volfning fikricha, "sifatlari turli semantikali otlarga osongina moslashadi va bu bilan ma'no rang-barangligini ta'minlaydi".

Birikmali terminlardagi aniqlovchi komponent nafaqat sodda sifat munosabatida bo'ladi, balki tuzilishi murakkab bo'lgan lo'nda, ifodali adyektiv xosilalar ko'rinishida ham ifodalanishi mumkin, ularning shakli esa termining yetarlicha belgisini ifodalaydi Masalan:

low-rate sprinkler – past bosimli yomg'irlatib sug'orish kurilmasi;

high-frequency irrigation system – yuqori chastotali sug'orish tizimi;

free-surface flow – bir maromda oqadigan suv;

high-water gage – suvning baland sathini o'lchash reykasi.

Tadqiqot qilinyotgan terminologiyada taqdim etilayotgan murakkab sifatlari guruhi murakkablashgan sifat xosilalarini ham o'rganadi.

mechanical shift irrigation – mexanik yomg'irlatib sug'orish tizimi.

Bu murakkab sifatlarning birinchi komponenti bo'lib sifat yoki ravishlar ishtirok etadi va termining semantik ma'nosi darajasini, meyorini belgilab keladi.

medium-shift pump – o'rta bosimli suv osti nasosi;

high-water dam – selga qarshi turuvchi to'g'on;

large-capacity storage gauge – кўп ёгинни ўлчаш асбоби;

high-rate sprinkler – intensiv yomg'irlatib sug'orish tizimi;

long-range sprinkler – keng radiusli yomg'irlatib sug'orish tizimi.

Yuqorida keltirilgan birikmali terminlar misollaridagi birinchi komponent muayyan bir struktura, shakl, holatni ko'rsatadi:

steady-state infiltration – o'rnatilgan filtr;

flat-veer weir – yupqa uchburchak suv to'g'oni;

long-crested weir – boshlanishi keng to'g'on;

open-channel waterway – ochiq kanal.

Sifat ishtirok etgan birikmali terminlarning ikkinchi komponentlarini asosan otlari tashkil etadi, ma'lum sohaga tegishli bo'lgan bir qator kompleks tushunchalarni aks ettiradi:

low-water flow – sayoz oqim;

free-flow irrigation – nazoratsiz sug'orish;

short-term disposal system – qisqa muddatli sug'orish tizimi.

Ma'lumki, atoqli otlarning muhim jihatlaridan biri nominativ-identitiv vazifasi bilan chegaralanib qolishi, predmetning, shaxsning faqat nomini anglatib, mazkur individumning yoki predmetning belgisini ko'rsatmaydi. Tadqiqotchi A.M. Pinkovskyaning fikricha, atoqli ot genetik jihatdan ma'lum bir yagona denotatga chiqadi. Turg'un terminlar tarkibiga kirmagan yagona denotat o'zining asosiy ma'nosini yo'qotadi va o'zgacha ma'no kasb etadi.

Atoqli otlari birikmali terminlar tarkibiga kirganda o'zining asl, konkret, xususiy ma'nosidan yanada uzoqlashib, terminidagi asosiy komponent ma'nosiga moslashadi va termin tarkibida obyektning belgisini anglatishiga xizmat qiladigan komponentga aylanadi. Meliorativ terminologiyada atoqli otlari predmetni nomlash va qayta nomlashda ishtirok etishadi, turli narsa va hodisa belgisini anglatishga xizmat qiladi:

turli qurilmalar: Chipolletti weir – Chipolletti to'g'oni;

asbob va instrumentlar: Venturi mater – Venturi suv o'lchagichi;

usullar: Penmann's method – Penmann usuli; mashina,

mexanizmlar: the Carter system – o'ziyurar yomg'irlatib sug'orish qurilmasi;

boshqa tushunchalar: Parcy's law – Parsi qonuni.

Birikmali terminlar tarkibida atoqli otlarning ishlatilishi sababi qonun, metod, hodisa yoki mashina xitirosi muallifiining nomiga qo'yilganligi bilan izohlanadi. Yana bir sababi, atoqli otning geografik tushuncha bilan bog'liqligi, ya'ni aynan xitirochining ismi yoki ishlatilishi vazifasiga ko'ra ishlatiladi:

Rerolle system – Perolle sug'orish tizimi;

Montana flume – "Montana" rusumidagi gidrometrik lotok;

European bear-trap gate – yevropacha klapanli to'g'on.

Tarkibida son so'z turkumi ishtirok etgan turli nomlarni ifodalab keluvchi birikmali terminlar ham alohida o'rin tutadi. Ular soni terminologiyada 39 ta. Sonlarning belgisi ma'nosi asosida son tushunchasi yotadi. Atoqli otlari ishtirok etgan terminlar kabi son so'z turkumi bir nomni boshqasidan son jihatdan ajratib turadi, lekin ma'nosiga ta'sir ko'rsatmaydi. Lotte bu jarayonga quyidagicha izoh bergan: "shunday terminlar borki, u yoki bu shaklda son, meyor darajasini belgilab beradigan terminoelement yordamida tushunchalar belgilarini ifodalaydi, lingvistikada, bizning nazarimizda, umuman sonni ifodalaydigan terminoelementlarga va ular kategoriyalarini ifodalovchi usullariga hali yetarlicha e'tibor berilgani yo'q".

Tafakkur va tilda son kategoriyasini o'rganilganda, mantiqshunoslar shuni ta'kidlashadi, "son kategoriyasi universal hodisadir, ya'ni, mantiqiy kategoriya bo'lib, borliqni o'rganishning zaruriy bosqichi hisoblanadi". Narsalarning tashqi belgilarini tavsiflaganda: hajmi, soni, u yoki bu

hususiyatlar darajasini ifodalaganda, sonni ifodalagan terminoelementlar nafaqat son balki sifat belgilarini ham ifodalaydi, bu bilan ko'p holatlarda terminning umumiy ma'nosida oldingi rejaga o'tadi. Ma'noviy va mantiqiy aspektda son terminoelementi tilda obyektiv mavjud munosabatlar sonini ifodalaydi, biroq to'g'ri va nominativ ma'nolarni ifodalash ularga xos emas va ular predmet, narsa, hodisa, jarayonlarning sonini belgilaydi. Quyidagi terminlarni misol tariqasida keltirish mumkin:

three-dimensional tank – uch fazali lotok;

two-arm sprinkling machine – ikki-qo'lli (tutqichli) sug'orish qurilmasi;

one-layer filter – bir qatlamli filtr.

Son belgisi nafaqat real borliq munosabati bilan to'g'ridan to'g'ri ifodalanadi – son kategoriyasi xos bo'lgan son so'z turkumi bilan, balki tartib sonlarga ma'no jihatdan yaqin bo'lgan sifatlar orqali ham ifodalanadi, masalan, double level-fling – ikki qatlamli tekislash; dual-purpose ditch – sug'orish va namlantirish uchun kanal. Son so'z turkumi ishtirokidagi terminoelementlar qo'shma so'z komponentlari sifatida ham kelishi mumkin:

two-line sprinkler lateral method – ikki quvurli sug'orish qurilmasi;

twin-chamber trickle irrigation laterals – ikki quvurli tomchilatib sug'orish qurilmasi.

Qo'shma so'z tarkibida eng ko'p "bir, ikki, uch" sonlari ishlatiladi. Chunki "bir, ikki, uch" sonlari borliqdagi deyarli barcha narsa va hodisalarga xos sonlardir va ko'pchiligi ushbu sonlar bilan chegaralanadi. Bu turga eng avvalo, asosida ikki qism, bo'lim, narsadan tashkil topgan predmet nomini ifodalovchi, bir xil juftlik belgilarga ega bo'lgan birikmali terminlar birinchi o'rinda turadi.

Birikmali terminlar orasida grek va lotin tillaridan olingan terminoelementlar ham bor va ular sonni ifodalashi mumkin:

bi-level subsurface drainage – ikki yarusli yerosti drenaji;

bi-wall trioklerline – ikki qatlamli (devorli) nov; quaternary canal – to'rtinchi tartibdagi kanal.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan misollar turli tizimli tillarda son kategoriyalarini tadbiq etish ma'lum semantik ma'nolarni kashf etilishiga dalil bo'la oladi, ya'ni noaniq son ma'nosidan aniq son ma'nosini anglatishi tillararo darajada aniqroq namoyon bo'ladi. Tartib son bilan ifodalangan terminoelement o'z semantikasiga mos holda, aniqlanayotgan predmet yoki jarayonning sanoq tartibidagi o'rnini ko'rsatadi. Demak, tartib sonlar ishtirok etgan birikmali terminlar ma'nosini aniqlashda predmetning o'z qatoridagi tartib sonini belgilash orqali aniqlash mumkin. Misol tariqasida quyidagi terminlarni keltirishimiz mumkin: primary flow irrigation – oqova suv bilan birinchi marta (sinalma) sug'orish; secondary flow irrigation – oqova suv bilan ikkinchi marta (sinalma) sug'orish; tertiary method – uchinchi usul (suvni tozalash). Navbatni ifodalashda, odatda tartib sonlardan foydalaniladi. Biroq ayrim sonni ifodalaydigan terminoelementlar o'zining asosiy semantik va kategorial ma'nolaridan biridan predmetning sifatini yoki mantiqiy tartibini ifodalaydi.

Shuning uchun ham son terminoelementlarni boshqa predmetning o'z belgisini aks etadigan element bilan almashtirish oson, primary canal – main canal; second high water – lowest higher water. Yuqorida ko'rib chiqilgan misollardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin, birikmali terminlar tarkibida keladigan son munosabatlarni anglatishga xizmat qiladi va shu bilan birga ilmiy-texnik obyektlarni tasnifiy xususiyatlarini namoyon qiladi.

Umuman olganda, birikmali meliorativ terminlarning struktur-grammatik xususiyatlarini o'rganish, ko'rib chiqilgan har qanday so'z turkumlarning atributiv komponent sifatida birikmali terminning asosiga qo'shilganda, ular yagona bitta ma'noga ega bo'lgan, ekstralingvistikadagi predmet yoki hodisaning aniq turini belgilab beradigan yoki tasnifiy xususiyatlarini aks ettiradigan birikmali birlikni tashkil etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Кубрякова Е.С. Части речи в ономаσιологическом освещении. Москва.: Наука, 1981.
2. Вольф Е.М. Семантика и грамматика прилагательного. – И.: Наука, 1978.
3. Мешков О.Д. О речевых композитах в современном английском языке. // Иностранные языки в школе. 1981.
4. Харитончик З.А. Имена прилагательные в лексико-грамматической системе современного английского языка. М., Высшая школа, 1985.
5. Jespersen С.А. Modern English grammar on Historical principle. London. Allen & Irving. 1946.
6. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Москва, 1977.
7. Ефимов В.И. Определения качества и количества как системы дефиниций. Ростов-на-Дону, 1986.-С.82.
8. Швачко С.А. Функциональная эволюция делительных английского языка.// Морфемика и аффиксальная комбинаторика языка. - Калинин, 1982.



*Nodirjon OTAQULOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti*  
*E-mail: nodirorient@gmail.com*

*O'zMU dotsenti, f.f.d. (DSc) G.S.Kurbonova taqrizi asosida*

### SUBKOLLOKVIAL FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola fransuz tilida subkollokvial frazeologik birliklarning semantik masalalari bo'yicha tadqiqotchilarning ishlari tahlilini o'rganishga bag'ishlangan. Subkollokvial frazeologik birliklarning aksariyati maishiy, emotsional va ijtimoiy-siyosiy hamda intellektual sohalarga tegishli mavzuiy guruhlari o'rganilgan. Ushbu mavzuiy guruhlar orasida "maishiy" sohaga oid subkollokvial frazeologik birliklarning ko'proq uchrashi frazeologik lug'atlardan yig'ilgan misollar orqali aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Subkollokvial frazeologizm, semantik, ekspressiv-stilistik, maishiy, emotsional, intellektual.

### СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУБКЛЛКВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу работ исследователей по семантическим вопросам субколлокальных фразеологических единиц французского языка. Большинство субколлокальных фразеологизмов имеют изученные тематические группы, относящиеся к бытовому, эмоциональному и социально-политическому, а также интеллектуальным сферам. Среди этих тематических групп наибольшее распространение субколлокальных фразеологизмов, относящихся к "бытовой" сфере, выявлено на примерах, собранных из фразеологических словарей.

**Ключевые слова:** Субколлоквиальный фразеологизм, семантический, экспрессивно-стилистический, бытовой, эмоциональный, интеллектуальный.

### SEMANTIC FEATURES OF SUBCOLLOQUIAL PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article is devoted to the analysis of the work of researchers on semantic issues of subcolloquial phraseological units of the French language. Most subcolloquial phraseological units have studied thematic groups related to everyday, emotional and socio-political, as well as intellectual spheres. Among these thematic groups, the greatest prevalence of subcolloquial phraseological units related to the "household" sphere was revealed by examples collected from phraseological dictionaries.

**Key words:** Subcolloquial phraseology, semantic, expressive-stylistic, household, emotional, intellectual.

**Kirish.** Subkollokvial frazeologik birliklar deganda biz qo'pol, hazil, kinoya, kesatish, so'kish, urishish, janjallashish, ekspressiv, kesatq, kamsitish, pastga urish, nafratni bildiradigan, erkalatish, tanbeh, zavqli, quvonchli, bo'rtirish yoki kuchaytirish, yuqori uslub, dabdabali, hurmatni ifodalaydigan, mensimaslikni bildiradigan, uzrli, betakalluf, mazax qilish, kulgili, xo'rlash, so'kinish, behayolik kabi stilistik farqlash shkalasida so'zlashuvga oid FBlardan pastdagi pozitsiyani egallagan FB'larni tushunamiz [4].

FB'larning sodda so'zlashuv tiliga oidligi ularning tarkibida sodda so'zlashuv tilida qo'llaniladigan so'z va iboralarning, dag'al so'zlarning, somatizmlarning, eskirgan so'zlarning, dialektizmlarning, keng tarqalgan atoqli otlarning, ins-jinslarni tilga olishning, hayvonlar nomlarining mavjudligi bilan aniqlanishi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ko'plab tadqiqotchilar, ya'ni P.Giro [12], F.Gade [10], L.Kalve [6], J.Gudayye [11], M.Furniye [8], D.Fransua-Jejelar [9] subkollokvial frazeologiya qamrab olayotgan tematikasining nisbatan cheklanganligida lug'at boyligi bilan xarakterlanadi, degan mulohazada hamfikrdirlar.

Tilshunos olim L.Kalve[6]ning ta'kidiga ko'ra, subkollokvial frazeologiya tomonidan ishlab chiqilyotgan asosiy tematik tushunchalarning doirasi ham o'rganilyotgan tillarda mos keladi. Shubhasiz, ushbu qoidani boshqa tillarning "past" frazeologiyalariga ham qo'llash mumkin. Subkollokvial frazeologiyaning o'xshash tematikasi til universalisasi xarakteriga ega, chunki ular fransuz, ingliz, rus, nemis, italyan yoki ispan tillari bo'lmasin, sinonimik markazning

keskinlashuvi har doim hayot, emotsiyalar, jism, peyorativ harakatlar, moddiy boyliklar, odamlar o'rtasidagi munosabatlar va h.k. bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda frazeologik korpus, yalpi tanlash metodi asosida izohli hamda bir va ikki tillik frazeologik va ixtisoslashtirilgan lug'atlardan tanlab olindi. Bulardan I.G.Reyning "La phraseologie du français"[13], Colin, Mével, Leclère "Distionnaire de l'argot français et de ses origines"[7] lug'atlaridan olingan. Tadqiqot uchun qimmatli etimologik ma'lumotlar Vladimir Gakning "Noviy fransuzko-russkiy frazeologicheskiy slovar"[2] va boshqa bir qator nashrlardan olingan FBlar hisobiga FB'larning ro'yxati ancha kengaygan.

Mazax qilish, kulgi, qo'pol, "past" moddiy obrazlar bilan boyitilgan "rablecha o'zini tutish" – hozirgi subkollokvial lug'atning ajralib turuvchi jihatlaridir. M.Baxtinning fikricha, bular xalq ijodiyotining mahsuli hisoblanadi, xalq madaniyati uchun esa har doim, dunyoni karnavalcha, ya'ni o'zgacha his etish deb belgilagan narsaga xosdir. Hayotni karnavallashtirish (o'zgacha), Baxtinning konsepsiyasida adab-axloq, ijtimoiy, ma'naviy normalardan chekinish tarzida namoyon bo'ladi, bu xalq uchun qalbni yumshatish usuli, reallikdan qochish bo'lmas-da, har kuni bo'lib turadiganga va doimiylikka oqilona qarshilik ko'rsatish hamda "to'g'ri" hayotga chaqiriqning usuli hisoblanadi [1].

FB'larni yirik semantik sohalarga dastlabki bo'lishda shu fakt shubhasiz bo'ladi-ki, fransuzcha subkollokvial lug'atlarda FB'larning asosiy ko'pchiligi "maishiy" sohaga birlashtirilgan, bu mutlaqo tabiiydir, chunki ushbu frazeologik

qatlam, bevosita “xalq” mahsuloti bo‘lib, hamma e’tirof qilgan maishiy yo‘nalishga egadir. Keyingi o‘rinda, to‘plangan SFBning soni bo‘yicha quyidagi sohalar keladi, ya’ni “emotsional”, “ijtimoiy-siyosiy” hamda “intellektual”.

Buning ustiga, o‘rganilayotgan tilda yirik semantik sohalar mos kelganligi bilan, ularning kichik tematik guruhchalarga bo‘linishlari har doim ham bunday emas. Tematik guruhlarga biz SFBni ularning leksikografik manbalardagi kengaytirilgan tasvirlari bilan aynan o‘xshatish asosida, ularning semantikasida umumiy, integral semalarning mavjudligi asosida saralab oldik.

**Tahlil va natijalar.** Subkollokviyal lug‘atning ham miqdoriy, ham semantik planlarida eng keng yoyilgan “maishiy” sohaning mazmuniy to‘ldirilishini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, frazeologiyaning o‘rganilayotgan qatlamida qamrab olinayotgan mavzularning to‘plami umuman olganda turli tillar uchun universaldir. “Maishiy” sohada biz quyidagi mavzularni uchramiz, ya’ni “pul”; “jism”; “o‘lim”; “ish/mehnat”; “aldov/firibgarlik”; “janjal/mushtlashish/ jazolash”; “qo‘rqinch/qo‘rqoqlik”; “spirtli ichimlik”; “ovqat”; “kiyim”; “inson va uning xarakteristikalarini”; “makonda siljish”; “bekorchilik/bekor yurish”; “mushkul ahvol”; “sevgi/do‘stlik/nikoh”; “ahmoqlik” kabilar.

Fransuz tilining “maishiy” semantik sohasi ichidagi eng yirik tematik guruhdan, spirtli ichimlik/ichkilikbozlik bo‘lib, bunga misollar: basculer ip godet; casser le goulot (la gueule à une bouteille); lever le coude; rincer le bec; s’affûter (se rincer, se coder) dans le sifflet; s’en jeter un dans les narines; s’en mettre plein les trous de nez; siffler le guindal; s’humecter (se laver, se rincer) les amygdales (le gosier); tomber un zinc (une bouteille); viande saoule; pété à mort; bourré comme un coing (une cantine); sac à vin; avoir la gueule en chocolat; être chocolat; avoir les bottes (les pompes) à bascule; avoir sa charge (sa musette, sa pointe, son casque, son compte, son fade, son gaz, son plumeau, son plummet, son pompon); avoir une pistache; être casquette, être chicorée; perdre son lit en marche; voir des éléphants roses [2,6,7,8,13] va h.k.

Shu bilan birga, jism tematik guruhiga misollar: épaules qui marchent (qui trottent); chiffon rouge; les jambes en parenthèses (en italiques); haricots verts; balai d’amour (à chiottes); fer à souder; quart de Brie; étagère à mégots; nénets d’homme; cage à pain; boîte à ragout; tiroir à poulet; boîte au sel; machine à mouleurs; petit pain; pièce de dix sous; terre jaune; turbine à chocolat; bijoux de famille; service trois pièces; grain de café; cigare à moustaches; jambe du milieu va h.k.

Inson va uning xarakteristikalarini: couillon sotte la lune; con comme une manche; crane (tête) de piaf; moules à gaufres; bas de plafond; pomme à l’eau; fleur de nave; tête de corvées; tête de cochon; tête de holz (de pioche, de bois); lime sourde; grosse légume; homme de poids; père peignard; un drôle de pistolet; dur à cuire; mauvais fer; sale fer; fausse couche; poire blette; sale gnière; tranche de gail (de melon); une sacrée (grosse) peinture; mec à la colle forte; péter plus haut que son cul; enfonceur de portes ouvèrtes; avoir du coffre (du crime) va h.k.

Pul bilan bog‘liq tematik guruhga: les aligner; être au fric; gagner l’impossible; avoir de l’oseille; allonger sa galette; avoir la grosse galette; les lacher; avoir de l’os; en prendre; avoir le sac; être plein aux as; rouler sur l’or; vaisselle de fouille; envoyer la valse; gagner sa matérielle; avoir mal au pouce; n’avoir pas un radis; être dans la limonade; aller à l’arche; envoyer la soudure; fusiller son pèze; les toiles se touchent; être dans la pommade va h.k.

Ovqat/ovqatning yo‘qligi/ochlik: casser la croûte (une graine); débrider la margoulette; jouer des dominos; se farcir la dîne (le chou); se taper le caberlot (le chou); s’en faire

crever le bocal; s’en mettre jusqu’aux yeux; s’en mettre plein la lampe (plein les trous de nez); se caler amygdales (les babines); se les caler; se la sonner; boudier le mastic; faire jockey; avoir la dalle (la dent, les chocottes); claquer du bec; la piler; la sauter; tortiller des courants d’air; avoir l’estomac dans les talons va h.k.

Mushtlashish / jazolash: souhaiter sa fête; travailler les côtelettes; carder la laine; casser la margoulette; abîmer (arranger, endommager) le portrait à qn; passer à la plume; péter (casser) la gueule; tricoter les côtes; cirer les meubles; se chiquer la gueule; se créper le chignon; se donner un coup de pégne; tremper line soupe à qn; tanner la peau va h.k.

Makonda siljish: jouer des compas (des flûtes, des fourchettes, des fuseaux, des guibolles); piquer un galop (un cent mètres); chier du poivre; faire l’adja; faire natchav; partir comme un lavement; se déguiser en cerf (en courant d’air); se la briser; se faire l’escarotte (la malle, la paire, la valise, la valochette); faire les boules; faire sa panthère; jouer des calouses; tirer sa longe; piler du poivre; tirer la longe; remuer (secouer) son panier à crottes; tortiller de la brioche (des fesses, du cul) va h.k.

O‘lim: verser sa cuiller au magasin; la casser; déchirer son tablier; la déchirer; la dessouder; déposer le bilan; déposer son géranium; dévisser son billard; éteindre son gaz; faire sa malle, fermer son parapluie; manger (bouffer) les pissenlits par la racine; mettre les volets à la boutique; oublier le goût du pain (de respirer); passer l’arme à gauche; remercier son boucher (son boulanger); rendre ses clés; s’en aller (sortir) les pieds devant; se faire un costume en bois; se laisser glisser va h.k.

Cevgi/sevgi munosabatlari: béguin carabine, se fricasser le museau; se sucer la pomme; avoir des histoires avec qn; rouler des patins (un escalope, une galoche, une pelle, une saucisse); en pincer pour qn; être porté sur le true; règle de trois; chaud de la pointe (de la pince), chaud lapin; faire du plat à qn; avoir le béguin pour qn; attacher une gamelle à qn va h.k.

Aldov/firibgarlik: baiser la gueule; faire marcher; faire monter (grimper) à l’arbre; faire une barbe; fourrer (foutre) dedans; mener (faire mettre, charrier) en double, monter un bateau; la faire à l’oseille à qn; poser un lapin; faire avaler le goujon à qn; faire crème; faire voir le tour; mener en belle, plomber de la gargoine; tirer une carotte [2,6,7,8,13] va h.k.

Fransuz tilida SFBlar ichida eng ko‘p qo‘llaniladigani “maishiy” semantik soha bo‘lib, o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi hamda miqdor jihatdan tildagi analogik semantik sohadan ko‘proqdir [5].

Olib borilgan tadqiqot ko‘rsatadiki, “pul” guruhiga ham pulni ishlab topish/to‘plash/sarflash jarayonini aks ettiruvchi FBlar, ham inson moddiy ahvolidning ikki qutbini, ya’ni boylikni/kambag‘allikni, shuningdek pulga munosabatni bildiruvchi FBlar kiradi: avoir de l’oseille, être bourré à bloc, avoir la grosse galette, pomper le fric, vaisselle de poche, n’avoir plus une pépite, les toiles se touchent, n’avoir pas une radis dans la poche, allonger thune, verser le potage à la seringue [2,6,7,8,13].

Fransuz tilining tematik jihatdan milliy-madaniy o‘ziga xosligi hatto FBlarning tematik to‘plamidan iborat bo‘lib qolmay, balki, to‘g‘rirog‘i, “markaz-periferiya” o‘qida taqsimlanishidan, tematik dominantalardan va ularning konkret tarqatuvchilaridan iboratdir.

Misol uchun, “tana” tematik guruhini olishimiz mumkin. Fransuzcha subkollokviyal lug‘atda an’anaviy “rablecha” tana a‘zolarining nafaqat quyidagi belgilarini uchramiz: ket/anus: petit pain, machines à toulures, pont noir, rose des vents (anus pour les homosexuels), terre jaune, trou qui pète, trou qui pue, trou de bale, turbine à chocolat va h.k.; qorin/ko‘krak: sac à tripes, avant-scène, cage à pain; andomning: le Grand Chauve à col roulé, petit frère, cigare à

moustaches, pain au lait, triangle d'acier, robinet d'amour, grain de café, boîte à ouvrage, bouton de rose, triangle de Bermudes, salle de fêtes, bijoux de famille va h.k.; ammo yuzning ham: bonne bille, moules à gaufres (yoki à pastilles), une drôle de brioche, tête à gambier, tête de pipe, gueule à coucher dehors avec un billet de logement; ko'zlarining: duo d'amour, faux quinquet, lanternes de cabriolet, œil en trou de bite, œil à la coque, boules de toto, œil poche; sochlarning: douilles savonnées; tilning: chiffon rouge, diligence de Rome; soch to'kilgan joyning: skating à mouches, bille (yoki boule) de billard; quloqlarning: entonnoir à musique, étagère à mégots; mo'yovlarning: balai à chiottes, balai d'amour; burunning os à moelle, fer à souder, quart de Brie; toshning: épaules qui marchent; qoshlarning: ramasse-miettes; kipriklarning; dessus de chasses.

Fiziologik mavzuning davomida qayd qilish kerakki, fransuz tilida noshaim (beadab) mavzu juda rivojlangan: glisser oi lâcher un fil, changer oi écluser l'eau des olives, égoutter la nouille, tirer un fil, perdre ses légumes, faire un lâchet d'un parachutiste sénégalais, démouler un cake, filer la mousse, téléphoner au pape (yoki à Hitler).

Shuningdek jinsiy, shahvoniy sevgi mavzusi ham: mettre le poisson dans le bocal, marquer midi, faire minette, scalper le mohican, compter les mouches, tourner la page, avoir le petit pain, prendre un pain dans la fourée, coup de sabre, sirop de corps d'homme (yoki de paf de rose), sauter du train en marche, faire petit sale, balancer (yoki envoyer) la sauce, partir en béchamel, durcir du chinois, tailler une pipe, tremper son biscuit (yoki son panais), avoir les doigts de pieds en bouquet de violettes, zizi-pan-pan, amour vache [2,6,7,8,13].

Tu mollis du cœur et durcis du chinois. Un plaisir capiteux t'empare (San-Antonio "De l'antigel dans le culbute", p.67).

Jinsiy sevgi subkollokviyal frazeologizmlar o'zbek va rus tillardagi frazeologik lug'atlarda ham uchraydi, ammo fransuz tilidagiga qaraganda ancha past darajada hisoblanadi.

V.S.Yelistratovning ta'kidiga ko'ra, olamni kulgili odamiylikka o'rgatish sodir bo'ladi, tana, ya'ni badan olam izohlab beriladigan kulgi prizmasiga aylanadi [3]. Subkollokviyal semantikaning bunday antropomorfikligi (insonga xos xususiyatlarni predmet va hayvonlarga o'tkazish) fransuz milliy madaniyatida qadimdan qo'llanilib keladi. O'rta asrlarning kulgi madaniyatini, xususan Fransua Rablning "Gargantuya va Pantagryuel" asari orqali, o'rgangan M.M. Baxtin bu asarni "so'z va tana o'rtasidagi beo'lchov uzilish" [1] deb ta'riflaydi. Bu davrda umuman inson tanasi va xususan insonning "osti", inson "osti" bilan bog'liq bo'lgan ayrim fiziologik jarayonlar cherkov tomonidan ruhning tana ustidan g'alabasi haqida singdirilayotgan g'oyalar fonida ijtimoiy ong bilan qandaydir axloqsiz va iflos sifatida idrok qilinardi.

**Xulosalar va takliflar.** Inson va uning tavsifi guruhida to'plangan subkollokviyal frazeologik birliklarning sonlari bo'yicha ajratib ko'rsatilgan tematik guruhlar tilning ekspressiv-frazeologik fondi tarkibida alohida muhimlik namoyon qilib qolmay, balki ayrim hollarda o'ziga xos tarzda biridan ikkinchisiga o'tadi, ya'ni xalq tezaurusida qandaydir ma'noda bir-biriga yaqin tushunchalarni bildiradi.

Fransuz tilida "maishiy" semantik soha struktur jihatdan tildagi analogik sohaga qaraganda murakkabroq ekanligiga qaramasdan, milliy olam manzarasi uchun ma'lum ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бактин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. — М., 1965; 1990. Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/author/233357-mihail-bahtin>.
2. Гак В.Г. Новый французко-русский фразеологический словарь / В.Г. Гак. М.: Рус. яз., 1993. - 1194с.
3. Елистратов В.С. Словарь русского арго: Материалы 1980-1990 гг. / В.С. Елистратов. М.: Русские словари, 2000. — 694с.
4. Отакулов Н.Б. Субколлоквиал фразеологик бирликларнинг экспрессив – стилистик характеристикаси. НамДУ, Илмий ахборотнома, 2022 й, 3-сон, 465-6.
5. Телия В.Н. Семантика идиом в функционально-параметрическом отображении / В.Н. Телия // Фразеология в Машинном фонде русского языка. М.: Наука, 1990. - с.32-47.
6. Calvet L.-J. L'argot / L.-J. Calvet. P.: Presses Universitaires de France, 1999.- 128p.
7. Colin J.-P. Dictionnaire de l'argot français et de ses origines / J.-P. Colin, J.-P. Mevel, C. Leclere. P.: Larousse, 2001. - 908p.
8. Fournier M. Nique ta langue! / M. Fournier // Sciences humaines. — 2000.-№27.-p. 46-47.
9. Francois-Geiger D. Introduction / D. Francois-Geiger // Colin J.-P., Mevel J.-P. Dictionnaire de l'argot français et des ses origines. P.: La-rousse, 2001.-p. 875-883.
10. Gadet F. Le français populaire / F. Gadet. P.: Presses Universitaires de France, 1997. – 128 p.
11. Goudaillier J.-P. Argolatrie et argotophobie / J.-P. Goudaillier // Langue française. 1991. -№ 90. - p. 10-12.
12. Guiraud P. L'argot / P. Guiraud. P.: Presses Universitaires de France, 1956.- 126 p.
13. Rey I.G. La phraseologie du français / I.G. Rey. Toulouse: Presses Universitaires du Mirail, 2002. – 268 p.



UDK: 821.111.

**Dilnoza RUZMATOVA,**  
*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti dotsenti*  
**Shaxnoza BEGIMKULOVA,**  
*Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Yangiyer filiali katta o'qituvchisi*  
*E-mail: cool.begimkulova@inbox.ru*

*Guliston davlat pedagogika instituti v.b dotsenti X.Mamatova taqrizi asosida*

#### AFG'ON-AMERIKA ADIBALARI SAIMA VAHAB VA NILUFAR PAZIRA IJODIDA PATRIARXAL USTUNLIK VA UNING TASVIRIY IFODASI

Annotatsiya

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan afg'on-amerika adibalaridan Saima Vahabning "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") va Nilufar Paziraning "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") asarlarida qadriyatlar insoniy, milliy, oilaviy rakurslarda talqin etilib, ularda afg'on millatining o'ziga xos sifatleri, fazilatleri, donishmandligi, milliy g'urur orqali o'z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, millatning madaniyati, imon-e'tiqodi, milliy urf-odatleri, mehr-oqibati, milliy tarbiyaning barcha qirralari o'ziga xos qadriyatlarida namoyon bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** Afg'on-amerika adabiyoti, oilaviy qadriyat, patriarxal ustunlik, ta'lim, tarbiya, avtobiografik metod.

#### ПАТРИАРХАЛЬНОЕ ГЛАВЕНСТВО И ЕГО ВИЗУАЛЬНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ АФГАНСКО-АМЕРИКАНСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ САЙМЫ ВАХАБ И НИЛУФАР ПАЗИРА

Аннотация

Среди афганско-американских писателей, являющихся объектом нашего исследования, «В стране моего отца.(Афганская женщина бросает вызов своей судьбе)» Саймы Ваха и Нилуфар Пазира «Кровать красных цветов: в поисках моего Афганистана», их произведения общенациональные и общечеловеческие, литературно-художественный анализ производился на ценностной основе. В произведениях ценности интерпретируются с человеческой, национальной и семейной точек зрения и отражают уникальные качества, добродетели, мудрость и национальную гордость афганского народа. Иными словами, культура нации, вера, национальные традиции, доброта и все аспекты национального воспитания проявляются в своих уникальных ценностях.

**Ключевые слова:** Афгано-американская литература, семейная ценность, патриархальное превосходство, образование, воспитание, автобиографический метод.

#### PATRIARCHAL HEADSHIP AND ITS VISUAL EXPRESSION IN THE WORKS OF AFGHAN-AMERICAN WRITERS SAIMA WAHAB AND NELOFER PAZIRA

Annotation

Among the Afghan-American writers who are the object of our research "In My Father's Country( An Afghan Woman Defies Her Fate)" by Saima Wahab" and Nelofer Pazira's "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan",their works are national and universal literary and artistic analysis was done on the basis of values. In the works of these creators, the values are interpreted from human, national, and family perspectives, and they reflect the unique qualities, virtues, wisdom, and national pride of the Afghan nation. In other words, the nation's culture, faith, national traditions, kindness, and all aspects of national education are manifested in their unique values.

**Key words:** Afghan-american literature, family value, patriarchal superiority, education, upbringing, autobiographical method.

Afg'on-Amerika adabiyoti yozuvchisi Saima Vahabning "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") [1] asarida erkak dominant rolida tahlilga olsak. Yozuvchi Saima Vahob Afg'onistonning Qobulida tug'ilgan bo'lib, bolaligida otasining KGB xarbiylari tomonidan hibsga olishlarini guvohi bo'ladi va bu unga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, shundan keyin boshqa otasini ko'rmaydi va har doim Afg'onistonni ona yurt deb emas, balki ota yurt deb eslaydi. U o'n besh yoshida Amerikada istiqomat qiluvchi amakisinikiga ko'chib keladi va juda qisqa muddatda uch yil ichida ingliz tilini mukammal o'rganib, o'rta maktabni ham tugatadi. E'tiborlisi, amakisinikiga kelganlarning barchasi 6-17 yosh oraliqidagi o'spirinlar bo'lib, ularning to'rt nafari qarindosh o'smir yigitlar va ikki nafari Saima va uning singlisi Najiba edi. Amerikaga kelish sanasiga 1991-yil 3-may deb urg'u berarkan, muallif bu kunni bir umr o'zi uchun "ozodlik kuni" deb hisoblaydi: "I was fifteen years old when we

arrived in America, on May 3, 1991. Later we would call that day Liberty Day, and celebrated it each year" [1]. (1991-yil 3-mayda Amerikaga yetib kelganimizda o'n besh yoshda edim. Keyinchalik bu kunni Ozodlik kuni deb nomladik va har yili birgalikda nishonlardik.)

2004-yilda Saima Vahob Afg'onistonda tarjimon sifatida ishlash uchun mudofaa pudratchisi bilan shartnoma imzolab, armiya safiga yagona tarjimon ayol sifatida ishga qabul qilinadi. U hayoti davomida ko'rgan-kechirganlarini, o'zining "In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate" ("Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari") nomli avtobiografik romanida tasvirlaydi. Asar Saimaning tug'ilishi va otasining nihoyatda xursand bo'lishi-yu, juda mamnunligidan quroldan osmonga o'q uzishi bilan boshlanadi. Garchi qiz farzand bo'lsa ham, aynan o'sha quroldan o'q otilishi asarda ramziy ma'no kasb etib, Saima Vahobning butun hayoti harbiy lagerlar bilan bog'liqligiga ishora beradi. Otasining qizidan faxrlanishini quyidagi

jumlalar ham isbotlaydi: "I promise that my daughter will prove that she is better than many Pashtun sons, and will do more for help than one hundred sons combined"[1,9] (Qizim ko'plab pushtun yigitlaridan a'lo va yuzlab o'g'il farzandlar bilan taqqoslaganda vatanga ulardan ko'ra ko'proq nafi tegishiga va'da beraman.) Saimaning otasi Yevropada ta'lim olgan, g'arbiy madaniyatga guvoh bo'lgan va o'sha tamaddunning o'ziga kerakli ijobiy tomonlarini qabul qilgan inson sifatida, diniy ta'lim bilangina cheklangan ayoliga ham istasa o'qishni davom ettirishi mumkinligi va bu yo'lda doimo uni ham moliyaviy, ham ma'naviy qo'llashini ta'kidlaydi. Saima Vahobning otasidan qanchalik faxrlanishini, xatto otasining oshxonada oilasi, xotini uchun yaratib bergan imkoniyatlardan ham ko'rish mumkin. "But my father not only loved to cook, he designed our kitchen to suit his strange methods. Traditionally, Afghan women squat on their heels while cooking because everything- the burners, the food - is on the ground level, but my father realized how much easier it was to cook while standing. So in the late seventies, we were the only family we knew in all of Kabul who had kitchen countries, and Mamai cooked standing up"[1]. (Otam faqatgina ovqat pishirishigina yoqtirmasdan, oshxonamizni noodatiy tarzda jixozlashga ham qiziqardi. Afg'on ayollarining an'anaviy oshxonasi yerda o'tirib ishlashga moslashgan bo'lib, o'choq atrofida o'tirib taom tayyorlashgan. Otam tikka turib oshxonada ishlash afzalliklarini bilgach, yetmishinchi yillarning oxirlarida butun Kobul bo'ylab yagona o'zgacha uslubda ya'ni tikka turib ishlash mumkin bo'lgan oshxonada jihozlarini o'rnatgan va onam endilikda tik turgan holda taomlar tayyorlardi.)

Saima Vahobning bolalik chog'larini xavotirga to'la bo'lib, mamlakatga sovet ittifoqi armiyasi bostirib kiradi va mamlakat aholisi qo'rquvda yashay boshlaydi. Otasi xibsga olingandan so'ng bobosi ya'ni Baba oila mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi va ularni Kobuldan o'z qishlog'iga olib ketadi. Bobosi balki otasi qamoqdaligi sabab bolalarga va keliniga juda mehribon bo'lib, ularga qo'lidani kelgancha sharoit yaratib beradi, "Qur'on" o'qishni va uni arab tilidan pushtun tiliga o'girishini o'rgatadi.

Bobosi oilada erta turmushga qarshi bo'lib, Saimaga sovcilar kelganda qat'iy yo'q deya javob beradi. U nabirasining qishloq ayollaridan farqli ravishda ta'lim olishini, jamiyatda o'z o'rnini egallashini xoxlardi. "The first time he refused a marriage proposal, he was very respectful, knowing how quickly you can make a mortal enemy out of a Pashtun by insulting him. But over the next couple of years, I heard stories of him kicking out men who came into our mehmaan khana, guest house, asking for my hand in marriage for their sons, Baba yelling at them, "Are there no other girls left in the world? Leave my granddaughter alone!"[1] (Bobom ilk bor menga sovcilar bo'lib kelgan martabali insonni rad etarkan, bu bilan Pushtunlar orasida dushman orttirishi hech gapmas edi. Yillar o'tib eshitganlarimga ko'ra, kimki o'g'li uchun qo'limni so'rab kelsa, bobom dunyoda nabiramdan boshqa qiz yo'qmi deb haydab solarkan.) Bobosining o'rnini Saimaning hayotida be'qiyos bo'lib, u Saima erishgan barcha muvaffaqiyatlarga birdek sababchi inson sifatida gavdalanadi. "I was too shy to say anything about what he was doing, but he knew exactly what I felt and would put his arm around me." Don't worry, he would say. "Everything will work out. As long as I am alive, everything will be fine. "I believed him completely, and with him on my side, I felt like I could conquer any obstacle in life"[1]. (Bobomning qilayotgan ishlari haqida nimadir deyishga juda uyalardim, ammo nimani his qilishimni bilan va yelkamga qo'lini qo'yib, "Hammasi o'z iziga tushadi, toki men tirik ekanman, hammasi zo'r bo'ladi", derdi. Men unga batamom ishonardim, agar bobom men bilan birga bo'lsa, barcha to'siqlarni yengib o'tadigandek tuyulardi.)

Ammo mamlakatdagi vaziyat jiddiy tus olgani bois bobosi Saimani va yana boshqa nevaralarini Amerikaga professor tog'asini o'qitishga jo'natadi va tog'asi ularning ilm olishida katta rol o'ynaydi. Hatto bolalar uchun uyda til o'rganishlari uchun ingliz tili o'qituvchisini yollaydi. 2004-yilda institutni bitirib, Afg'onistonga kelganida Saima ham ingliz, ham pushtun tillarida ravon tarzda qila oladigan yagona tarjimon edi. U asosan xarbiy bazalarda erkaklar bilan yonma-yon ishladi va barcha u bilan faoliyat olib borgan amerikalik harbiylar uni ham ayol emas, oddiy bir askar sifatida qabul qilishadi. Ayrim o'rinlarda bu holat hatto Saimani hayron qoldirardi. Demak, o'z nomi bilan harbiylar patriarxal jamiyat namunasi sifatida Saima Vahabning "Ota yurtimda" romanida tasviriy ifodalangan.

Saima yozuvchi sifatida o'z hayotini tasvirlarkan otasi va bobosidan boshqa hech kim uning hayotidagi muhim erkaklar safida bo'la olmadi, garchi bir necha bor munosabatlarga kirishsa ham, hech bir aloqalar jiddiy yakun topmaydi. Barcha uni yoqtirgan yigitlarning rad javob olishlariga yoki munosabatlarning to'xtatilishiga Saimaning diniy, siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarini sababchi bo'ladi. Vasiliy, Greg va Erik portretlari ijobiy bo'yoqdorlik bilan yo'g'rilgan bo'lib, hech birini salbiy xususiyatlar bilan tasvirlamaydi. Muallif hayotidagi barcha yigitlardan bobosining siymosini gavdalanirishni xoxlardi va aynan bobosining xususiyatlarini qidirardi. Nega otasining emas, bobosining siymosi Saima Vahab uchun muhim degan haqli savolga, aynan o'zligini tanigan yillar bobosi bilan birga o'tganligini sabab qilib keltirish mumkin.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan quyidagi jumla orqali bosh qahramonning psixologik portretiga chizgilar beradi: "You know the American in me wants to jump up and hug you and accept the proposal with teary eyes, but the practical Pashtun in me wants to know if I am ready to fight my extended family, all two hundred of them, for you. You have to convince me that we are going to be together forever because I am causing this type of drama just once, and then never again in my life. More than that, I have to convince myself I can be with you for the rest of my time on earth. I am only doing this once, and it has to be worth it." [1,186] (Bilasanmi, ichimdagi amerikaligim quvonchdan sakrab, seni quchoqlab, ko'zida yoshlar bilan taklifingni qabul qilmoqchi, ammo pushtunligim ikki yuzdan ortiq urug'-aymog'imga sen uchun qarshi kurasha olish yoki olmasligimni bilmoqchi.) Bu bilan Saima Vahabning har ikkala madaniyatga ham tegishlilik va har qanday vaziyatni ham ikki xil qarash bilan ya'ni amerikancha va avg'oncha tahlil qilishini ko'rsatadi.

Oilaviy qadriyatlarda ota roli va uning farzandlar tarbiyasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan yana bir asar Nilufar Paziraning "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") [2] romani bo'lib, bu asar ham to'liq biografik uslubda yozilgan. Nilufar Pazira – adiba, rejissyor, jurnalist va aktrisa sifatida faoliyat olib boradi. U 1973-yilda Hindistonning Xaydarobodida afg'onlar oilasida dunyoga keladi, otasi shifokor va onasi o'qituvchi bo'lib ishlagan. Bolaligi Qobulda o'tadi. Mamlakatdagi notinch vaziyat oilani Pokistonga ko'chib ketishiga sabab bo'ladi va bir yil o'tgach Kanadaga immigrant oila sifatida butunlay ko'chib ketishadi. Hozirga kunda Nilufar Pazira Torontoda istiqomat qiladi va Kanada teleradiokompaniyasida ishlaydi. Ottavadagi Karleton universitetida jurnalistika va ingliz adabiyoti bo'yicha bakalavr darajasini (1997-yil) va Monrealdagi Konkordiya universitetida antropologiya, sotsiologiya va din bo'yicha magistr darajasini oldi.

2001-yilda Nilufar Pazira bosh rolni ijro etgan "Qandahor" nomli xujjatli filmning suratga olinishiga adibaning 1998-yilda Tolibonlar hukmronligidagi Afg'onistonga borib, bolalikdagi do'stini qutqarish uchun

qilgan sa'y-harakatlari asos qilib olinadi. Shu yilning o'zida Pazira "Kandahar Films" studiyasiga asos soladi. 2004-yilda u "Dayana Afg'oniston ayollar jamg'armasi" tashkil qilarkan xayriya jamg'armasining nomlanishida ham aynan o'sha bolalikdagi do'sti nomi bilan tashkil etdi. "A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan" ("Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab") romanini Afg'onistonda yashagan yillari yozib tugatgan va asar Kanada adabiy mukofoti "Drainie-Taylor Biography Prose" bilan taqdirlangan. 2007-2009 yillarda Nelofer Pazira –Pen Kanada prezidenti ya'ni Kanada yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qiladi. U Karleton universitetining faxriy huquq doktori darajasiga (2006), shuningdek Tompson Rivers universitetining adabiyot bo'yicha fan doktori darajasiga sazovor bo'lgan.

Adibaning rahm-shafqat, aql va zakovat bilan yozilgan "Qizil gullar oshyoni: Afg'onistonimni izlab" avtobiografik asari – ishg'ol ostida bo'lgan hayotning chuqur ta'sirchan portreti hamda oila, xalq va mamlakatning unutilmas hikoyasi tasvirlangan chuqur hissiyotga boy asardir. Asar Nilufar Paziraning bolalik xotiralari ya'ni qamoqdagi otasi Habibuloni ko'rishga borgan bilan boshlanadi. Voqealar rivoji bola ko'z o'ngida sodir bo'ladi. Hattoki oilada aka-ukaning mamlakatda bo'layotgan siyosiy o'zgarishlarga qarashlari farqli bo'lib, aka-Habibullo mustaqillik, ayollar ilm olishi, teng huquqli bo'lishi tarafdori bo'lsa, uka-Asad eski tuzum tarafdori edi. Oila boshi haqiqiy vatanparvar Sovet hukumatiga qarshi bo'lsada, onasi Jamila bunday notinch mamlakatda yashay olmasligini, ona sifatida bolalarining hayoti xavf ostida ekanligi uchun tinmay eri bilan baxslashardi, ya'ni qizi Nilufar bilan mamlakatni tark etish kerak deb hisoblashardi.

Asar avtobiografik usulda muallif tilidan bayon qilingan. Romandagi asosiy g'oyalar:

- mamlakat boshiga kim kelishidan qat'iy nazar ayollarning huquqlari poymol bo'layotgani;
- bosh qaxramon va uning dugonasi, ular ortidagi ikki oilaning qarama-qarshi fikrlari;
- Habibulloning vatanparvarligi, do'stining esa demokratiyaga qarshiligi;
- diniy ta'limotlarning to'g'ri-noto'g'ri talqin qilinishi.

Asar to'liq realizm asosida yozilgan bo'lib, Nilufar Paziraning otasidan fahrlanishi motiv darajasiga ko'tariladi. Ta'kidlash joizki, ushbu roman oilaviy qadriyatlardan ko'ra Avg'onistonning tarixiy tasviriga urg'u beradi va tarixiy dalillar asosida xujjatli asar xususiyatlarini namoyon etadi.

Yuqorida tahlil qilingan afg'on-amerika adibalari Nilufar Pazira va Saima Vahab asarlari erkak dominant afg'on jamiyatida ayol va uning o'rmi masalasini badiiy tasvirlashgan. Ularning asarlari avtobiografik usulda yozilgan bo'lib, mualliflar o'zlari guvoh bo'lgan voqealarni reallikka asoslanib, afg'on milliy qadriyatlari bilan yo'g'rilgan "erkak" ijobiy portretini yaratishgan. Har ikkala adibaning hayot va ijod yo'lida erishgan muvaffaqiyatlariga ular tegishli bo'lgan jamiyatdagi erkaklar asosiy sababchi sifatida ko'rsatiladi. Ayollarning ilm olishi va ziyoli bo'lishida ota-bobo-tog'amamaki zanjiri mohiyati Saima Vahobning "Ota yurtimda. Afg'on ayolining taqdirga qarshi kurashlari" hamda Nilufar Paziraning "Qizil Gullar Oshyoni: Afg'onistonimni Izlab" asarlarida mayda detallarga tayanib, ochib beriladi. Demak, tahlilga tortilgan ikkala asarlarda qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan erkaklar obrazi adibalar tomonidan har tomonlama ijobiy bo'yoqdorlik asosida yoritilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Saima Wahab. In My Father's Country. An Afghan Woman Defies Her Fate. New York: Crown Publishers, 2012. – 463 P.
2. Nelofer Pazira. A Bed of Red Flowers: in Search of My Afghanistan. New York: Free Press, 2005. – 416 P.
3. Umurov X. Badiiy ijod asoslari.-Toshkent, O'zbekiston, 2001.
4. Xoldorov D.E. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida): Filol.fan.bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. ...-Toshkent, 2017.-147
5. Ruzmatova D.R. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi. Filol. fan.bo'y. fal. d-ri. ...diss.-Toshkent, 2020.-146 b



UDK:811.2

**Dilorom SABIROVA,**  
*Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,  
Urganch Innovatsion Universiteti o'qituvchisi  
E-mail: dilorom.sabirova@mail.ru*

*UrDU dotsenti, (PhD) Q.Olloyorov taqrizi asosida*

### NAZAR ESHONQULNING “SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI” ASARIDA POLIFONIK HIKOYA STILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida, xususan, Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” asarida hikoya uslublari, badiiy uslubdagi polifonik bayon ko'rinishlari haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur asardagi obrazlar xarakterida o'ziga xos chizgilar, ularning bir-biri bilan munosabatlari va qarashlaridagi ziddiyat va umumiyliklar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Polifoniya, polifonik bayon uslubi, personaj nutqi, parallel qarash, ziddiyatli qarsh, personaj, asar g'oyasi.

### POLYPHONIC STORY STYLE IN “SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI” (“THE WIND CAN'T BE CAUGHT”) BY NAZAR ESHONQUL

Annotation

This article talks about narrative styles and polyphonic narration in artistic style in modern Uzbek literature, in particular, in Nazar Eshonqul's work “Shamolni tutib bo'lmaydi” (“The Wind Can't Be Caught”). Also, the character of the characters in this work is thought about the specific lines, their relations with each other and the conflicts and commonalities.

**Key words:** Polyphony, polyphonic narrative style, character's speech, parallel view, conflicting opposition, character, idea of the work.

### ПОЛИФОНИЧЕСКИЙ СТИЛЬ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ВЕТЕР НЕ ПОЙМАТЬ» НАЗАРА ЭШОНКУЛЯ

Аннотация

В данной статье говорится о стилях повествования и полифоническом повествовании в художественном стиле в современной узбекской литературе, в частности, в произведении Назара Эшонкуля «Ветер не поймать». Также в характере героев этого произведения продуманы конкретные линии, их отношения друг с другом, конфликты и общности.

**Ключевые слова:** Полифония, полифонический стиль повествования, речь персонажа, параллельный взгляд, конфликтная оппозиция, персонаж, идея произведения.

O'zbek nasrining o'tgan asrning oxirlari va yangi asr boshlaridagi holati o'tgan asr G'arb badiiy nasri an'alarini eslata boshladi. Bunday holat bir tomondan nasriy janrlarning shiddat bilan taraqqiy etishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zbek adabiyotining jahon andozalari bilan uyg'unlashuviga olib keldi.

Bugungi o'zbek hikoyanavisligi o'zining yangi-yangi namunalari bilan boyib, adabiyotimizning yuqori cho'qqilarni zabt etishiga zamin yaratayotir. Xususan, Nazar Eshonqul hikoyalari o'ziga xos obrazlar tizimi, turmushni real ranglarda tasvirlarini yuzaga keltirishi bilan xarakterlidir. Voqealar bayonida asar qahramonlarining o'zaro munosabatga kirishishida qarashlar to'qnashuvi, personajlar dunyoqarashini yuzaga keltiruvchi chizgilar nazar Eshonqul qalamining o'ziga xos qirralarini aks ettirib turadi.

Zamonaviy o'zbek nasrida alohida o'ringa ega bo'lgan N. Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasi polifonik tasvir usullarining yaqqol ko'zga tashlanib turishi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, polifonik tasvir usuli o'zbek adabiyoti uchun hozirgi kungacha o'zining zamonaviylik darajasini saqlab kelmoqda. Garchi bunday hikoya qilish uslubi zamonaviy priyomlar sirasiga kirsa ham, asar syujeti jarayonlari muayyan darajada eski davr voqealari asosiga qurilgan.

Demak, tasvir usuli bilan asarda bayon etilayotgan voqealar zamonaviylik nuqtayi nazaridan mos bo'lmashligi ham mumkin ekanligini “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasi misolida ko'rishimiz mumkin. Bugungi o'zbek nasrining taraqqiyotida N.Eshonqulning alohida xizmatlari bor [5].

Adibning o'zigagina xos uslubining shakllanishiga jahon adabiyotidagi eng sara adabiyotlarni o'rgangani va ularga ergashib ijod qilishga uringani sabab erishilgan deb hisoblash, bizningcha, xato bo'lmaydi. Adibning nafaqat nosir yozuvchi, balki tarjimon va kishilar orasida, ular bilan birga nafas olgan jurnalist sifatidagi faoliyat bilan ham shug'ullangani yozuvchining hikoyalarini xalq orasidan chiqqan, olamni o'zicha idrok etuvchi original personajlar bilan to'yintirilishiga zamin hozirlagan.

“Shamolni tutib bo'lmaydi” deb nomlangan hikoyaning nomlanishining o'zidayoq ramziylik, hikoya mazmuniga ishora kabi bir qancha funksiyalar singdirilganki, bu yerda yozuvchining hikoyada ro'y beradigan voqealarga munosabati ufurib turibdi. Fanda “so'zlovchi nomlar” degan tushuncha mavjud. Xuddi ana shu jumlani “Shamolni tutib bo'lmaydi” sarlavhasiga ham tatbiq etish mumkin deb hisoblaymiz. Ma'lumki, polifonik bayon uslubida turli xil qarashlar, atrofdagi voqealarga personajlar munosabatidan tashqari yozuvchining munosabati ham ishtirok etadi va bu qarash yoki munosabat asar qahramonlariniki bilan har doim ham mos kelavermashligi mumkin.

Polifoniya – nafaqat hokiya qilish stili, balki asardagi qarashlar, munosabatlar uyg'unligini, jamlanmasini ham anglatadi. Badiiy yaxlitlik, poetik ong strukturasi va o'ziga xos rivoya texnikasini anglatadi [1]. Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasida polifonikaning yorqin namunasini anglash qiyin emas. Avvalo, asar ahramonlariga e'tibor qaratamiz. Hikoyaning eng markaziy personajlaridan biri Bayna momo obrazidir.

Nazar Eshonqulning ayol obrazi yaratish texnikasi alohida tahsinga sazovor. Bayna momo obraziga ijodiy yondashuvi o'ziga xos: uningcha, adib yaratgan timsol milliy iftixorimiz, g'urur va sharaf-shonimizdir. Bu asar o'ziga qadar yaratilgan o'zbek hikoyalaridan bir necha jihatlar bilan ajralib turadi [2].

Hikoya nomlanishining o'zida olam-olam ma'no yashira olgan yozuvchi, umrning hech kimga bo'ysunmay shiddat bilan o'tib borishini xuddi shamolni hech kim to'xtatib qololmasligi bilan qiyoslaydi. Bayna momo timsoli orqali esa eri va o'g'lidani judo bo'lgan, hayotida jiddiy sinovlarni boshidan kechirgan, yozuvchi ta'bir bilan aytganda "bag'ri qon" keksa ayol, momo obrazi ifoda etilgan.

Mazkur obrazning siymosini yasartish uchun yozuvchi juda ham original lisoniy detallardan foydalanadi va badiiy uslub uchun obraz chizgilarining yuqori namunalarini yaratadi. Asardan olingan quyidagi parchada ana shu fikrimizning dalilini ko'ramiz: "...polvonning o'limidan so'ng hech qachon chiroq yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan anavi hujra kabi qorong'u musibat to'la uyi ichkarisiga kiritmagan bo'lsa-da, ular qahr va g'azabini sitam bilan ichiga yutib kelgan bu kampirni ehtirom bilan eslashardi..." [4].

Bayna momo obrazining olamni idrok etishi, atrofda qilargalarga nisbatan qahr-u g'azabi voqealar ro'y bergan davrga nisbatan yozuvchining qarashlari bilan deyarli uyg'unlashgan polifonik hikoya uslubidan foydalanilgan. Momo timsolidan foydalanish badiiy uslubning eng keng tarqalgan ko'rinishlaridan biri bo'lib, bunday obrazlarda hayotning past-balandini ko'rgan, kishilarning yaxshi-yu yomonini anglaydigan, hayotiy tajribasi yetarli bo'lgan keksa ayol timsoli tanlanadi.

Momoning qishloqdoshlari bilan aralashib ketmaganligining sabablaridan biri – eri Raim polvon va o'g'lining "quloq" deya ta'qib qilinib, keyin "itday xor qilib" otib tashlanganida befarq qarab turganlari momo xarakterining asosiy detali sifatida tasvirlanadi. E'tibor qilinsa, bu o'rinda tasvirlanayotgan insoniy munosabatlar orqali tariximizning muayyan bir davri, o'zining hayot yo'lini qurib olgan, tadbirli, zamonasining peshqadam insonlarining ta'qib qilinish voqealari yozuvchi tomonidan Bayna momo va uning eri, o'g'li obrazlari chizgilar orqali mohirona tadqim etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Polifonik hikoya uslubining ta'sirli priyomlaridan biri sifatida qayd qilish mumkinki, yozuvchi mana shunday hikoya detallari orqali kuchli emotsional holatlarni yuzaga chiqara olgan. N. Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida ilgari surilgan yana bir holat – kishilarning bir maromda kechadigan hayotiy jarayonlari hisoblanadi. Hikoyada nazarga olinadigan voqealar davomida Zamon otboqarning olamdan o'tishi tasvirlari, qishloq ayollarining bunday marosimlardagi odat tusiga kirib qolgan jarayonlarni ado etishlari kabilar va hikoya oxiriga kelib Bayna momoning ham olamdan o'tishi tasvirlarida xalqimiz hayotida ro'y bergan muayyan davrga xos urf-odat va an'analar o'z ifodasini topadi.

Asarning muqaddima qismidan unda ro'y beradigan voqealar sobiq sho'rolar davrida ro'y berganligini sezish qiyin emas: "Yuz yillardan beri tersotaliklarning g'ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko'rimsizlik va keksalik bag'ishlab turgan, noma'lum va mudhish sinoatlarga to'la qadim qo'rg'onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi: temir tirnoqli buldozerlar uyning devorlarini qulatar ekanlar, uy bilan qo'shib, o'zlarining ham nimalarini buzib, vayron qilishayotgandek, tersotaliklar bir chekkada jimgina kuzatib turishar va naq ellik yilcha taqdirning beshafqat o'yiniga qarshi kurasha-kurasha dunyodan yolg'iz va izsiz o'tish azobini ko'tarib kelgan,

hayoti o'zlariga hamon tushuniksiz va mavhum tuyuladigan Bayna momoni eslagan ayollar ko'zlariga yosh olib, bolalarini bag'irlariga bosganicha, olis va g'amgin xotiralarga berilib, mung'aygan alfozda o'tirardilar..." [4].

E'tiborga olish lozimki, ushbu hikoya janriga mansub asar o'zbek yurtida yashayotgan kishilarning o'tgan asr boshlaridagi turmushi jarayonlarini badiiy aks ettirishga qaratilgan bo'lib, rus tuzumining o'lkamizga joriy etilish davrlari salbiy bo'yoqlarini original tarzda ifoda etilganligi bilan qimmatlidir.

Asar haqida taniqli tahlilchilarimizning bildirgan fikrlari ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. N.Eshonqul ijodidagi o'ziga xos qarashlar, boshqa ijodkorlarnikidan farqli ohanglar haqida mashhur tanqidchi, adabiyotshunos olim U.Normatov shunday mulohaza bildirgan: "...Yozuvchi nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan tomonlarni aks ettirish jihatidan tengsizdir. Ayniqsa, uning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida tasvirga olingan qahramonning yangiligi va ohangning o'zgachaligi bilan ajralib turadi..." [3].

Ushbu hikoyaning ta'sirli bo'lishiga, bizningcha, obrazlar xarakterini va qarashlarini ochib berishda qo'llanilgan zamonaviy tasvir usullardan hisoblangan – polifonik tasvir tamoyillariga murojaat etish sabab bo'lgan. Polifonik tasvirlash usulini asarning ekspozitsiyasidayoq kuzatish mumkin. Asar ekspozitsiya (tushuntirish) ya'ni dastlabki holatda asar voqealari sodir bo'ladigan joy haqida, shuningdek, asar qahramonlari haqida ilk ma'lumot berish bilan boshlangan.

Haqiqatan ham, mazkur hikoya qahramonlari, xususan, hikoya markaziy qahramonlaridan biri hisoblangan Bayna momo obrazi tashiydigan umumiy ma'noning ko'lamdorligi va badiiy ruhiy ifodalarning chuqurligi nuqtayi nazaridan "Asrga tatigulik kun" romanidagi Nayman onaga, "Chol va dengiz" dagi qariya obrazlariga tenglashtirish mumkin [3].

Darhaqiqat, ikkala asarni o'qib qiyosiy tahlil qilganimizda bu ikki ayolning sabr-bardoshi, matonati, hayot yo'li, ko'ngil iztiroblari bir biriga o'xshash ekanligiga amin bo'lishimiz mumkin. Faqat birgina farqi Nayman onaning ko'nglida xalqiga nisbatan nafrat olovi yo'qilmagan. U o'g'lining o'limiga ko'nikkanday ko'rinsada, ammo yuragidagi shubha uning vujudini kemirib borardi. Chunki u farzandining yarador holda yo'qolganini bilar, lekin uning rostdan o'lganmi, yoki shafqatsiz jungjanglar qo'lga asir bo'lib tushganmi shuni aniq bilolmasligi uni qiyin ahvolga solib qo'ygan edi. Bayna momo va Nayman onaning ahvolini qiyoslab tahlil qilganimizda yolg'iz o'g'lining (har ikkala asarda) tirik yoki o'lik ekanligini bilolmay, butun umri kutish bilan arosatda o'tayotgan mushטיפar ona hamda o'g'lining jon berganiga guvoh bo'lgan, ko'z oldida o'lim sarhadiga yo'l olgan farzandini kuzatgan baxtiqaro ona timsolini ko'rishimiz mumkin [7].

Darhaqiqat, Bayna momo ham xuddi Nayman ona singari hayotning shafqatsiz sinovlariga duch kelgan mushטיפar ona timsolidir. Simvolik nuqtayi nazardan Nayman ona bilan umumiylik kasb etgani bilan xarakter va turmush tashvishlarining o'zgacha ko'rinishlariga duch kelishi bilan Bayna momo o'ziga xoslik kasb etadi.

Bayna momo xarakteridagi o'ziga xosliklarni: hayot mashaqqatlari ezib qo'ygan jussasini zo'rg'a ko'tarib yursada, fe'lida qo'rslik va qat'iyat mujassam bo'lgan inson qiyofasini ko'rish mumkin. U turmush o'rtog'ining va o'g'lining shafqatsizlaracha o'ldirilishiga tomoshabin bo'lib turgan hamqishloqlariga bir umr ko'nglida kek saqlab, ulardan alamzada bo'lib yurdi [6].

Hikoya voqealari rivojida alohida o'ringa ega bo'lgan personajlardan Raim polvon va Zamon otboqar kabi shaxslar xarakteri chizgilarida ham polifonik bayon uslubiga xos

unsurlar keng qo'llanilgan. faqat qishloq emas, balki butun tog'li xalqning orini ko'targan, nomini chiqargan Raim polvonni quloq deya ta'qib qilishlariga yo'l qo'ygani va o'g'li bilan erini zamonning egasi, ammo bir paytlar Raim polvonning malayi bo'lgan Zamon otboqarning ixtiyoriga berib qo'yganligida edi. Raim polvonning Zamon otboqar tomonidan o'ldirilishi asarning tuguni, konfliktning boshlanish davri hisoblanadi. Shu tugundan so'ng Bayna momoning nafratga, alamga to'la hayoti boshlanadi.

Asar qahramonlarining xarakteri, dunyoqarashi betakror detallar orqali o'quvchiga ma'lum qilinadiki, ularning chizgilaridagi fe'l-atvoridan qanday obraz ekanligini anglash o'quvchiga topshiriladi. Nazar Eshonqulning mazkur asaridagi qahramonlarga munosabatning o'ziga xos jihati mavjud, u ham bo'lsa, personajlar tasviridagi universallik hisoblanadi.

Agar ba'zi birovlar Raim polvon timsolida salbiy jihatlarni anglasa, obrazni boshqa ohangda tasavvur qilish mumkin yoki, aksincha, Zamon otboqar timsolida ham har bir

o'quvchi o'ziga xos jihatlarni anglab olishi mumkin va yozuvchi bunga imkon qoldiradi. Polifonik hikoya qilish usulining xususiyatlariga ko'ra obrazlarning dunyoqarashlari bilan yozuvchining ham qarashlari mos bo'lmasligi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, muallif ko'p hollarda Raim polvon va Bayna momolarning pozitsiyasida ekanligini sezdirib boradi.

Hikoyada nomlari keltirilmagan shaxslar "qishloq ayollari", "talaba qizlar" kabi umumiy ishtirokchilar ham keltiriladi. Mazkur timsollar orqali ommaviy voqealarni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanirishda foydalaniladi. E'tiborga molik jihati shuki, bunday timsollar shunchaki ishtirok etmaydi, yozuvchi ulardan ham asarning umumiy g'oyalarini ifoda etishda samarali foydalanilgan.

**Xulosa.** O'rnida aytish mumkinki, N.Eshonqul qalamiga mansub "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi qahramonlari va voqealar tasvirida jahon adabiyoti tasvir usullari an'analaridan samarali foydalanilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Avezova G. Polifonik tafakkur tipi badiiy yaxlitlikni ta'minlaydigan omil sifatida. Hosted from Toronto, Canada. <https://econferencezone.org>. 27th Oct. 2022.
2. Azimjonov H. Nazar Eshonqul ijodida ayol obrazi. Miasto Przyszłości. Kielce 2023.
3. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Тошкент: Маънавият, 2000.
4. Nazar Eshonqul. Shamolni tutib bo'lmaydi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutobxona nashriyoti, 2005.
5. Qosimov M. Istiqlol yillarida hikoyachilik taraqqiyoti. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) Decemr, 2022.
6. Ermatova F. N.Eshonqul hikoyalari leksik tahlili // Talqin va Tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2 | 2181-3035 | № 22. –B.35.
7. Gulfiza Murodilloy. Bir hikoya tahlili ("Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi misolida). Elektron o'quv-uslubiy ko'rsatma. – Termiz: 2015.



UDK:811.2

Sadoqat SAMANDAROVA,  
O'zRFA doktoranti,  
E-mail: samandarovasadoqat8@gmail.com

O'zJOKU o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doctori (PhD) S.Q.Maxsumova taqrizi asosida

## DIFFERENT CLASSIFICATIONS OF EUPHEMIC AND DYSPHEMIC EXPRESSIONS IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

In this article provides information on studies of euphemisms and dysphemisms at several stages of in Uzbek linguistics. The similarities and differences of modern linguistic research from ancient sources to the present day are analyzed.

**Key words:** Euphemism, dysphemism, professional speech, derivative meaning, ethnolinguistics, taboo, metaphorical method, methonomic method.

## РАЗЛИЧНЫЕ КЛАССИФИКАЦИИ ЭВФЕМИЧЕСКИХ И ДИСФЕМИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация об исследовании эвфемизмов и дисфемий на нескольких этапах узбекского языкознания. Анализируются сходства и различия современных лингвистических исследований от древнейших источников до наших дней.

**Ключевые слова:** Эвфемизм, дисфемизм, профессиональная речь, производное значение, этнолингвистика, табу, метафорический метод, метонимический метод.

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA EVFEMIK VA DISFEMIK IFODALARNING TURLI TASNIFLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligining bir necha bosqichlarida evfemiya va disfemiya mavzusining tadqiq qilinishiga oid ma'lumotlar berilgan. Dastlabki manbalardan to bugungi kun zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Evfemizm, disfemizm, professional nutq, hosila ma'no, etnolingvistika, tabu, metaforik usul, metonomik usul.

**Kirish.** Nutqiy evfemizmlar shaxsning qanday lingvomadaniy muhitga daxldorligi, tafakkur tarzi, dunyoqarashi, so'zning nozik qirralarini his etishi va tildan foydalana olish mahoratiga bog'liq holda sodir bo'ladi. Evfemistik ifodalar asosiy axborot mazmuni va uning ustida qavatlangan konnotativ (ko'chma) ma'no hamda munosabatdan tashkil topadi. Evfemik ifoda hosil bo'lishida so'zning bosh ma'nosi kuchsizlanishi natijasida ko'chma ma'no bo'rtib, yaqqol e'tiborga tushadi.

So'nggi yillarda ayni mavzuga murojaat qilgan tadqiqotchilar sifatida Sh.Shamsieva va D. Yusupovalarni ham qayd etish mumkin. Sh.Shamsieva o'zining doktorlik ishida o'zbek va xitoy tillaridagi evfemizmlarning qiyosiy tahlilini olib borgan bo'lsa, D. Yusupova izlanishlarida "evfemizm – idrokiy topilma" degan fikrni ilgari surgan. Bu ta'rifni tadqiqotchi shunday izohlaydi: "Aytish mumkinki, axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni ancha yumshoq tarzda ba'zan so'z yordamida, ko'proq birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji evfemizmlarni yuzaga keltiradi va ijtimoiy qatlam egalarining har biri nutqida har doim nutqiy sharoitga mos yangi topilma sifatida yaratilaveradi. Nutqda evfemizmlarning qiymatini ularning noodatiligi, favquloddaligi, inson tafakkuri ifodalanishi zarur bo'lgan narsa va hodisalar orasidagi uyg'unliklarni metaforik tarzda ko'ra olishi, til sezgirligi, ichki sezimning kuchi bilan xarakterlash mumkin. Demak, evfemizm – idrokiy topilma".

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'tgan asrning 60-yillarida mazkur mavzuda ish olib borgan ilk o'zbek olimi sifatida esa N.Ismatullaev ta'kidlanadi. Uning dissertatsiya mavzusi qaydlarda "Hozirgi o'zbek tilida evfemizmlar" nomi

bilan uchraydi. Olim o'z tadqiqotida evfemizmlarni 5 turga bo'lib tasnif qilgan[2]. 1997 yilga kelib yana bir tadqiqotchi A.Omonturdiev evfemizmni "uslubshunoslikning tadqiqot ob'ekti sifatida allaqachon o'z yechimini topishi kerak bo'lgan mavzu" sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qilgan edi[5]. Keyinroq 1983 yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasida mualliflar jamoasi tomonidan evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma'lumotlar berilgan. Ushbu manbada evfemizm aytish noqulay yoki noo'rin bo'lgan so'z yoki ibora o'rniga ishlatiladigan "pardali" so'z yoki ibora sifatida ta'riflanadi. Xususan, badiiy adabiyotda evfemizmlarning ahamiyati haqida so'z borar ekan, ular aytilishi uyatli, noqulay va noxush vaziyatlarni izohlashda yagona stilistik vositasi sifatida ishlatilishi, qolaversa, badiiy asarda obraz va personajlarning maqsadi, dunyoqarashi va saviyasini ifodalashdek muayyan stilistik maqsadni ifodalashi ta'kidlangan[12].

Vaqt o'tib, til taraqqiyoti, uslubshunoslik global muammolarning yechimi sifatida notiqlik san'ati maqomiga ko'tarilishi taqazosi bilan professional nutqning barcha tarmoqlarini ixtisoslashuv nuqtai nazaridan, ya'ni chorvador, ovchi, dehqon, yurist, jurnalist, diplomat, baxshi, shifokor, kurashchi, sovchi, to'quvchi, tikuvchi, temirchi, san'atkor, rassom kabilar nutqini fundamental tadqiq qilish, xususan, ularning evfemik vositalarini yozib olish, evfemiologiyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha – tilshunoslikdan o'sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darslik, lug'at tuzish kabi muammolar davr talabiga aylandi. A.Omonturdiev muayyan soha evfemiyasi, ya'ni chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingvistik tomondan

tavsiflashga bag'ishlangan "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida chorvadorlar nutqidagi, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlarini, an'analari, marosimlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan evfemizmlarni tadqiq qildi.

Aynan evfemizmgga oid alohida tadqiqotlardan tashqari, ba'zi olimlar ishlarida mavzuga turli yo'nalishlar doirasida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, H.Shamsiddinov so'zlarning evfemik funktsional-semantik sinonimlari haqida fikr-mulohazalarini bildirib evfemizmi funktsional-semantik sinonimlarni yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida baholaydi [11]. E.Qilichev evfemizmlarni disfemizmgga qarama-qarshi turuvchi hodisa sifatida baholagan bo'lsa [6], A.Mamatov evfemizmlarga iboralarning yuzaga kelish usuli sifatida qaraydi. U doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to'xtaladi. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog'liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma'nosiga e'tibor qaratiladi [3]. Olima Z.Xolmanova "Boburnoma" asarida qo'llangan evfemizmlarni 2 turga ajratib tadqiq etadi [9]. Bu borada Abdulla Qodiriy ijodiga murojaat qilgan X.Qodirova evfemizmlarni ijodkor nutqi asosida tahlil qilgan. Mazkur tadqiqotlarda evfemizmlar tilning muayyan bir sathiga tegishli birlik sifatida o'rganildi [7].

Qator olimlarning ishida evfemik hodisa inson omili bilan bog'liq holda tadqiq etilgan. Jumladan, tilshunos M.Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida evfemizmgga maxsus o'rin ajratilgan. Olim monografiyasida tabu va evfemizmgga hodisasi munosabati, o'rganilish tarixi masalalariga alohida tahlil qilinib, evfemik ma'noning hosila ma'no ekanligini, bu hosila ma'no metaforik, metonimik usulda vujudga kelishini, ulardan, ayniqsa, metafora evfemik ma'no hosil bo'lishida katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlanadi [4]. N.G'aybullaeva esa tibbiy evfemizmlarni davriy nashr materiallari asosida tadqiq qilgan [8]. Sh.G'ulomova e'tiborni evfemizmlarning gender xoslanishiga qaratdi. Ushbu ishlarning umumiy xulosasi sifatida evfemizmlar orqali millat mentalitetining eng nozik qirralari namoyon bo'lishini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Asrlar davomida nasldan-naslga o'tib kelayotgan qadriyatlarining tildagi ifodasi aynan shu birliklarda aks etadi. E'tiborli jihati, evfemizmlarda sub'ektiv munosabatlarining ta'sirchanligi bilan bir qatorda yashirin mavhumlik ham ifodalanadi [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'rganilayotgan hodisaning tasniflariga keladigan bo'lsak, har bir tadqiqotchi ishida umumiyliklar uchraydi, albatta, ammo bir-birini takrorlamas, o'ziga xos izohlarni ham uchramiz. Masalan, N.Ismatullaev evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi:

1) tabu bilan bog'liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning bir-birlari nomlarini aytmassliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar);

2) bid'at, irim qilish bilan bog'liq evfemizmlar;

3) ma'nosi qo'pol, aytish noqulay bo'lgan so'z va iboralar o'rnida qo'llanadigan evfemizmlar;

4) nutqiy bezamalik, ko'tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo'llanadigan jargon evfemizmlar;

5) stilistik evfemizmlar.

A.Omonturdiyev tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda ifodalar tasnifi mavzuli guruhlarga ajratilganiga guvoh bo'lamiz:

1) oila qurish bilan bog'liq evfemik vositalar;

2) axloqsizlik bilan bog'liq evfemik vositalar;

3) intim munosabat bilan bog'liq evfemik vositalar;

4) murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar;

5) inson a'zolari va ular bilan bog'liq kiyim nomlari evfemasi;

6) jismoniy nuqsonlar bilan bog'liq evfemik vositalar;

7) ovqatlanish va uning hazmi bilan bog'liq evfemik vositalar;

8) insonning salbiy faoliyati bilan bog'liq evfemik vositalar;

9) ayrim odat-an'ana bilan bog'liq evfemik vositalar;

10) qarilik tushunchasi bilan bog'liq evfemik vositalar;

11) o'lim bilan bog'liq evfemik vositalar.

Shuningdek, olimning "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida evfemik birliklar 7 guruhga ajratilgan:

I. Voqelikning tabulani darajasiga ko'ra:

1) nomini aytib bo'lmaydigan, aytish man etilgan evfemik birliklar;

2) qo'rqinch, noxush xabar yoki o'lim bilan bog'liq evfemik birliklar

3) nomini aytish mumkin, biroq nutq etikasiga mos kelmaydigan evfemizmlar.

II. Semantik-grammatik shakllanishiga ko'ra:

1) lisoniy;

2) nutqiy.

III. Ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik, originallik darajasiga ko'ra:

1) individual;

2) okkazonal.

IV. Ma'noning ifodalanish usuliga ko'ra: tagma'noli.

V. Til evfemik qatlamini shakllantirishdagi roliga ko'ra:

1) ritorik;

2) olmoshli.

VI. Ifoda vositasiga ko'ra:

1) verbal;

2) noverbal:

a) implikativ;

b) kinetik.

VII. Noadabiy til vositalarining qo'llanishiga ko'ra: argo-simvolik evfema:

a) umumnutqiy;

b) xususiy nutqiy.

A.Omonturdiyev siyosiy publitsistik uslubdagi har qanday tanqidiy tushunchalarni hamma vaqt ham oshkora ifodalab bo'lmaganligidan ba'zan majoziyashtirilishini ta'kidlaydi va yumshoq "yopiq" shaklda ishlatilgan har qanday evfemik ifoda vositalarini siyosiy-badiiy yoki siyosiy majoziy evfema deb atash mumkinligini aytadi. Intim munosabatga aloqador evfemik vositalarni A.Omonturdiyev o'zining "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati"ga to'plagan, ular sirasiga xalq orasidagi 150 dan ortiq iborani kiritgan.

Badiiy adabiyotdagi evfemik va disfemik birliklarini tahlil qilgan tadqiqotchi X.Qodirovaning tasnifiga ko'ra nutqga xos evfemizmlar ikki katta guruhga ajratiladi:

1) lisoniy belgilar;

2) nolisoniy belgilar.

Olima bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Evfemik birliklar serqirra hodisa, bu ularni har bir belgisi asosida turlicha tasnif qilish imkonini beradi. Zero, individual nutqga xos evfemizmlar lisoniy va nolisoniy omillar qorishuvidan iborat yaxlitlik bo'lib, bu omillar asosida qo'lga kiritilgan natijalarni umumlashtirishgina har bir evfemizmgga o'ziga xos, shuningdek, shaxs idiolektiga xos evfemizmlarning individual mohiyatini aniqlash imkonini beradi" [7].

Ikki sharq tili va qadriyatlarini qiyosiy tahlil qilgan olim Sh.Shamsiyevaning talqiniga ko'ra, evfemizmlarning ikki xil paydo bo'lish omili bor:

1) biror xalq etnomadaniyatida muayyan narsa, hodisa nomini aytishning taqiqlanishi yoki bu kabi birliklarni qo'llashning lisoniy an'anadan qolishi;

2) muayyan tushunchaning jamiyatda qaror topgan etik-estetik an'analarga to'g'ri kelmay, madaniy muloqot talabiga sig'may qolishi. Har ikki omil tufayli kelib chiqadigan cheklovni qondirish maqsadida til sohiblari turlichatuzilishdagi evfemizmlardan foydalanadilar [10].

**Tahlil va natijalar.** Har bir tadqiqotchi o'z ishini mazmunidan kelib chiqqan holda evfemik ifodalarni guruhlashtirgan. Ularning ayrimlari bir-birini takrorlaydi ham. Ayniqsa, N.Ismatullaev va A.Omonturdiyevning dastlabki tasnifida o'xshashliklarni ko'rish mumkin. Omonturdiyevning tasnifi Ismatullaevnikidan yanada batafsilroq, guruhlar ko'lamini kichikligi bilan farq qiladi. "Professional nutq evfemikasi" nomli tadqiqotdagi verbal va noverbal evfemizmlar talqini X.Qodirovaning guruhlashtirishida ham uchramiz. Sh.Shamsievaning tadqiqotida evfemizmlarni ikki katta guruhga ajratilishi, A. Omonturdiyevning evfemik ifodalarning voqelikning tabulanih darajasiga ko'ra guruhlashiga uyqashdir. Demak, evfemizmlarni tasniflash borasida, nisbatan mukammal va batafsil talqin A.Omonturdiyevning doktorlik dissertatsiyasida aks etgan.

Disfemik ifodalar haqida esa bunday kengko'lamli tasniflarni topish mushkul. Tadqiqotlarda disfemizm mavzusi umumiy izohlar, misollar bilan cheklanilgan.

Masalan, A.Hojievning 1985-yilda nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmgga izoh beriladi. Biroq lug'atda disfemizmga doir fikr bildirilmaydi. Lingvistik adabiyotlarda evfemizmgning antonimi sifatida disfemizm, kokofemizm atamaları va kuchli so'zlar birikmasi qo'llanilgan.

Birinchi va ikkinchi termin haqoratimiz va ozroq yumoristik mazmunga ega, ulardan biron narsa maqsad qilinganda oldindan rejalashtirilgan haqoratli so'z sifatida foydalaniladi. Oxirgisi esa, asosan, bahs-munozara, tortishuvlarda qo'llaniladi.

Ma'lum bo'ladi, o'zbek tilshunosligida evfemizmg disfemizmga nisbatan kengroq o'rganilgan bo'lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan evfemizmgning nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari tizimli ravishda tadqiq etilgan.

Disfemizm haqida esa A. Shomqsdovning "O'zbek tili stilistikasi" kitobida hamda M.Mirtojiyevning "O'zbek tili semasiologiyasi" monografiyasida ayrim izohlar keltirilgan. Ya'ni, A.Shomaqsudov fikrni qo'pol va dag'al formada ifodalash usulida qo'llaniladigan so'z va iboralarni kokofemizm, deb to'xtalib o'tgan. M.Mirtojiyev bu izohga e'tiroz bildirgan holda: "Disfemizm esa tropning bir ko'rinishi hisoblanadi. Trop biror tushuncha, muayyan so'zning hosila ma'nosi sifatida ifoda topishi bo'ladi. Ammo A.Shomaqsudov keltirgan misol, garchi dag'al ifoda bergan bo'lsada, trop emas, parafrazalardir", deydi [4, 129].

M.Mirtojiyevning monografiyasida evfemizmg va disfemizm uchun ajratilgan bo'limda bunday ifodalarga

nisbatan batafsil to'xtalib o'tilgan. Mazkur manbada, har ikki atamaga dunyo tilshunoslarining izoh va munosabatlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Shuningdek, X.Qodirovaning Abdulla Qodiriy asarlaridagi evfemik va disfemik ifodalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotida disfemizmning jahon miqyosida o'rganilishi, kokofemizm va disfemizmni bir-biridan farqlaydigan jihatlariga e'tibor qaratilgan. Ishda A.Qodiriy ijodida qo'llanilgan disfemizmlar mavzu, ma'no va shakliy jihatdan tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida disfemik ifodalarga izohlab o'tilgan kamyob ishlardan biri sifatida mazkur tadqiqotdagi guruhlanishga to'xtalib o'tishni o'rinni deb bildik:

I. Disfemik ma'noli birliklarning mavzuviy guruhlari:

- 1) so'kish va haqoratni ifodalovchi;
- 2) qarg'ishni anglatuvchi;
- 3) masxara, kinoyani anglatuvchi.

II. Disfemik birliklarning ma'noli birliklarining ma'noviy munosabati asosidagi tasnifi:

- 1) ma'nodosh disfemik birliklar;
- 2) zid ma'noli disfemik birliklar.

III. Disfemik birliklarning ma'no qamrovi asosidagi tasnifi:

- 1) monosemantik disfemik birliklar;
- 2) polisemantik disfemik birliklar;
- 3) Metaforik asosli disfemik birliklar;
- 4) Metanomik asosli disfemik birliklar;
- 5) Snekdoxik asosli disfemik birliklar.
- 6) Vazifadoshlik asosidagi disfemik birliklar

IV. Disfemik birliklarning shakliy strukturasisiga ko'ra tasnifi:

- 1) so'z shaklidagi;
- 2) frazeologik;
- 3) so'z birikmasi;
- 4) gap shaklidagi.

**Xulosa va takliflar.** Zamon taraqqiy topib borgani sari, mamlakatimizdagi siyosiy o'zgarishlar zamonaviy o'zbek tilining jonli va adabiy muloqotida ham disfemik ifodalarning tobora ko'proq qo'llanilishiga olib kelyapti. Ma'lumki, disfemizmlar ta'sir kuchi nuqtai nazaridan neytral ma'noli so'zlarga nisbatan kishi xotirasida ko'proq saqlanib turadi va buyruq mazmuniga turki vazifasini o'taydi. Aynan mana shu jihati sabab bugun ko'plab siyosiy chiqishlarda disfemizmda tez-tez foydalanilayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Qolaversa, jamiyat rivoji uchun uning har bir a'zorida mustaqil fikrni shakllantirish targ'iboti ortidan tanqidiy munosabatlarning avj olishi ham disfemik ifodalarni ko'proq qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Demak, o'zbek tilida nafaqat badiiy, balki ijtimoiy nutq qatlamida ham disfemizmning batafsil tahliliga ehtiyoj mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. Gulyamova Sh.K. O'zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2020. 147 b.
2. Ismatullayev N. Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. diss... kand. filol. nauk. — T., 1963. 23 s.
3. Mamatov A.E. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fanlari d-ri... diss. – T., 1999. 312 b.
4. Mirtojiyev M.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 288 b.
5. Omonturdiyev A.J. Evfemik vositalarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi.. diss. — T., 1997. 176 b.
6. Qilichev E. O'zbek tilinint praktik stilistikasi: Ped. in-ning filol. fak. stud. uchun o'quv-qo'll. — T.: O'qituvchi, 1985. 104 b.
7. Qodirova X. Abdulla Qodiriyning evfemizmg va disfemizmlardan foydalanish mahorati: filol. fan. nomz.diss. – T., 2011. 146 b.
8. G'aybullayeva N.I. O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashr materiallari asosida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2019. –50 b.
9. Xolmanova Z.. "Boburnoma" leksikasi tadqiqi: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref. – T., 2009. 22 b.

10. Shamsiyeva Sh. Xitoy va o'zbek tillarida maishiy evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent, 2020. 149 b.
11. Shamsiddinov H. So'zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1997. № 6. – B. 22.
12. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov P., Rustamov A. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. – 248 b.



*Nargiza SUYAROVA,*  
*Qarshi davlat universiteti dotsenti*  
*E-mail:suyarovanargiza578@gmail*

*Filologiya fanlari doktori, professor B.Mengliyev taqrizi asosida*

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA METAFORANI QIYOSIY O‘RGANISH

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida metaforani qiyosiy o'rganish, tahlil qilish, va uning janrlarini o'rganish kelajakda ularga to'g'ri madaniyatlararo aloqani o'rnatishga, tilshunoslik to'g'risida yaxshi ma'lumotga ega bo'lishi aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Metafora, tahlil, sintaktik, morfologik tasnif, madaniyatlararo aloqa.

### СПРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ МЕТАФОРЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье говорится об анализе и сравнительном изучении метафоры в английском и узбекском языках. Также высказаны мнения о том, что изучение ее жанров в будущем поможет установить с ними межкультурные связи.

**Ключевые слова:** Метафора, анализ, синтаксическая, морфологическая классификация, межкультурная связь.

### COMPARATIVE STUDY OF METAPHOR IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

In this article, a comparative study of metaphor in English and Uzbek languages, analysis, and study of its genres, in establishing a proper cross-cultural connection with them in the future, good information about linguistics is mentioned.

**Key words:** Metaphor, analysis, syntactic, morphological classification, intercultural communication.

**Introduction** Comparative analysis of Metaphor in English and Uzbek is significant from practical point of view. Training students in the context of professional and specific aspects of the foreign languages, and also studying its genres helps them in the future to establish correct intercultural communication, to be well informed about linguistics, obviously helps to improve literacy skills, to become among colleagues authoritative, stimulates professional growth in the professional environment.

The systems of English and Uzbek languages differ in their morphological classification. Due to its history English language belongs to the elective type, being rather analytical, than syntactical.

That is why prepositions play the role of connectors between the parts of the sentence. The Uzbek language belongs to the agglutinative type but the syntactical relations in it are expressed with the help of other grammatical signals occupying post positive positions i.e. with the help of post syllables and the affixed morpheme of special categories. This fluctuation of the level units (for instance: English prepositions and Uzbek affixes) show the all morphemes of the expression of the surface structure of a content. The indicated difference influence the linguistic expression of metaphor in two languages, it refers to attributive and prepositional relations between the words forming simple metaphor, which cause their structural variations.

**Literature review.** Let's illustrate what is said by the following language facts. In Modern English the following models of metaphor exist expressed by a noun

A + (copula) + B

B + of + A

A's + B

A + B

B + A

Let's explain the symbols: N – noun, V – verb.

Adj – adjective Copula – linking

B – Which is to be actualized?

A – Actualization

V – Affix of predicate (in the Uzbek language).

R – Affix of genitive case (in the Uzbek language).

P – Affix of possessiveness (in the Uzbek language) is the signal of inter language transformation.

Let's examine how each type of model can be rendered into Uzbek language.

In the structural model A + (copula) + B the actualized noun may be in the function of a predicative and its lexica marker – the actualization is the subject of a sentence. The syntactic relation between the components may be expressed explicitly or implicitly.

In the first case there is a direct predicting, in the second case the connecting verb “to be” acts as a finite form of the verb. In the Uzbek language its characteristic for the indicated model direct predicting connection between the elements as described, below in the formula:

A + copula B – A – B

N1 + copula + N2 – N + N

“Beauty is the handmaiden of love”.

Go'zallik muhabbat cho'risi.

The translation of the structural model A + copula + B may be accompanied by its actualization on the morphemic level of a noun which functions as an actualized component. In this case the noun in the common case gains an affix of the predicate, agreeing with the indication of a person in Uzbek language.

A + copula + B – A + B

N1 + copula N2 – N + N

“Punctual to the minute, as usual! You are an animated chronometer Martini”.

“Ayni vaqtida, o'z minutida keldingiz! Hamma vaqt shundaysiz! Tirik xronometrsiz, Martini”.

If the noun which is actualized is in singular form of a third person then the affix of predications (-dir) is often dropped and direct predicting is observed.

A+(copula) + B – A + B

$N1 + (\text{copula}) N2 - N+N$

$P+ (\text{copula}) +N2 - P1 + P$

"That man is a hungry shark".

"Bu odam - ochko'z naxang".

If in English the actualized noun has a pronoun as its actualization, this actualization can be omitted and the actualized noun may get an affix of predications i.e. again as in the previous case, in the Uzbek version of translation there appears a case of actualization on morphemic level.

1.  $A+ (\text{copula}) +B - (A) + B$

2.  $P1 + (\text{copula}) + N - (P1) +N$

These types of metaphors in the literature are known as an abbreviated comparison. Probably this comes from the following fact: they are translated into Uzbek language with the help of two comparative construction.

1.  $A+ (\text{copula}) +B - A + \text{xuddi} + B$

2.  $P1 + (\text{copula}) + N2 - N1 + \text{xuddi} +N2 + (v)$

"She is a green apple" - "U naq qirmizi olmadikgina"

**Research methodology.** Another structural model of metaphor expressed by a noun is  $B+ \text{of} +A$  which received a terminological name. Here the preposition indicates to the dependency of a metaphor the components and that is why both components of this model need their own expecting expression. It should be mentioned that the contents of the first.  $A + \text{copula} + B$  and  $B + \text{of} + A$  structural models are different.

According to the opinions of some investigators the first type of metaphor is based on the comparison of resemblance in itself and the second type of metaphor does not have any comparison at all and ever simple resemblance.

We think that comparative construction in original though it bears a deep implicit nature.

"The moon is a woman". - The moon is like a woman.

$N2 + \text{copula} + N2 - N1 \text{ copula} + \text{like} + N2$

"A chart - room of knowledge" - knowledge is like a chart - room.

$N1 + g + N2 - N2 + \text{copula} + \text{like} + N1$ .

The accessory of these two languages to different lingual groups gives different lingual forming of the genitive metaphor.

The preposition does not appear between the metaphorical components but the joining of affixes is typical in Uzbek language with the English genitive metaphor.  $B + \text{of} + A$

If the actualized component in the form of a singular noun of third person has the affix of passion ( $u\backslash cu$ ) which is always formally expressed then the genitive case expressed by an affix of a actualization may be explicitly expressed or omitted: Accordingly, the first type of lingual expression of possession are called "double sided" (double affixed) and the second "single sided" (single affixed).

$B + \text{of} + A - A + B p$

$N1 + \text{of} + N2 - N + N u\backslash cu$

"I had no vision or miracles in my repertoire of memory".

"Mening xotira repertuarmda esa na bir kashfiyot va na bir mo'jiza bor".

$B + \text{of} + A - A2 + B1$

$N1 + \text{of} + N2 - Nning + Nu\backslash cu$

"In a quarter of minute I was a hub of a well..."

"Ko'zimni ochib yumguncha qaragam, aravaning gubchagi bo'lib ketibman".

The syntactic synonym of the model  $B + \text{of} + A$  is  $A's + B$ .

They differ only in the means of grammatical connection between the morpheme components. In one case it is preposition, in other case it is flexion with the sign "s" as post position. In spite of the fact that both these structures

express possessiveness still there is a certain semantic difference between them.

If in the attributive combinations with the post - positive element "s" one subject is presented as a part indissolubly, connected parts of a whole thing with the help of preposition "of" the meaning of the part and the whole thing is preserved but the part is presented as a separate subject and though there is an indication of their connections, this connection is less organic and indissoluble. This proposal may be visually illustrated with the help of componential analysis step definitional analysis.

For example:

"I wish you'd draw off a diagram and footnotes of that conscience of yours".

Let's do the analysis of given metaphors "diagram" and "footnotes" diagram.

Figure composed of lines, serving to illustrate or to aid in a illustrate

To elucidate, clear up, explain clear up to make or become clear, orderly or perspicuous.

Perspicuous -clear, clearly expressed, lucid evident

Evident -clear to understanding or to judgement; obvious.

Understanding -ability to understand

Conscience -the internal recognition of the moral quality of one's motive and actions.

Moral - the power of apprehending the difference between right and wrong.

Apprehend - mental 1) to learn. 2) to become conscious by the senses. 3) to understand.

Another example on this model  $A's + B$

"Not a leaf stirred, not a sound obruaded upon great Nature's meditation".

Nature -the material world or its collective objects or phenomena, of the earth itself, as contrasted with those of human civilization

World -the earth and all created things upon it: the terraqueous globe and its inhabitants. Inhabitant -One who inhabit; a human being or animal, dwelling in place.

Meditation - 1) the action or an act.

Meditation - serious and sustained reflection or mental contemplation.

Mental - 2) carried on or performed by the mind.

Mind - II 2) that which a person thinks about any subject or question.

Analysis and results. Comparing the two metaphoric genitive structures  $B + \text{of} + A$  and  $A's + B$  we see that a common feature correlates, in the first case, with the themes of the metaphorical word "diagram" on the sixth step and of the actualizes "conscience" on the third.

In the second case both actualization and actualized words "nature".

Meditation - on the third step in the Uzbek language categories of case and possessiveness are expressed morphologically.

By the way the categorical form of the genitive case may be expressed explicitly or implicitly. Accordingly, the structures of metaphors may be "double-sided" and "single-sided" in Uzbek language.

$A's + B - A + Bp$

$N's + N - N + Nu\backslash cu$

"Perhaps he was arranging American arms for the third force - the Bishop's brass hand: all that was left of his young scared unpaid levies".

"U uchunchi kuch episkon karnaychilariga Amerika qurol - aslahalarini yetkazib berib turgan..."

The result of the analysis showed the "double sided" lingual formation during the translation of the English genetic

metaphor into the Uzbek language may be observed in the following cases:

A) Between the actualization and the actualized noun there appears a determination which relates to the later.

"If our streets were not strung with signs of gorgeous hues and thronged with hurrying purchasers, we would quickly discover how firmly the skill hand of winter lays upon the heart"

"Ko'chalarimizda tiqilib yotgan charag'on reklamalar va hamma tamonga shoshib ketayotgan piyoda kishilar bo'lmaganda kishining muzdek qo'li bag'rimizni yozgan".

B) The actualisor is expended by determinate.

"I am a surgeon of old shoes".

"Men eski choriqlarning tabibiman".

C) The actualized component correlates to a certain subject.

"The cold and silence of outer space chilled the heart and smote the trembling lips of nature".

- "Sovuq va skunat tabiatning qalbini muzlatib, qaltiroq lablarini mo'yilab qo'ygan".

D) Expressing the dependency of a part on the whole.

- "A human being again not a unit of the tribal machine".

- "U endi qabila deb atalmish mexanizmning ventchasi bo'lmay yana odam qiyofasiga kirgan edi".

E) The actualized expressed relative or intimate relationships.

- "If you aren't the devil, Tom, yours his twin-brothers".

- "Tom, agar siz iblisning o'zi bo'lmasangiz ham uning ukasi bo'lasiz".

The "single - sided" lingual formation occurs in the following cases:

If the parts of the sentence from the closest speech surroundings of metaphor in translated language are complicated by an affix (-ning).

- "The needle of understanding will yet point steadfast and unwavering to the distant pole of truth".

- "O'shanda aql strelkasi haqiqatning olis qutbini qilt etmay qatyi ko'rsatib turaveradi".

b) In case of maximal expropriation of the replaced feature based on deep and potential meanings.

- "Let we draw the curtain of charity over the rest of the scene".

- "Sahnaning bu yeriga olam pardasini tushuramiz".

c) When actualized component denotes rank, position or title.

- "...the messenger of death, sent from the fatal weapon of Hawk-eyed, had found a victim"

- "...daxshatli qichqiriq lochinko'z miltig'idan uzilgan ajal elchisini o'z qurbonini topganidan darak berdi".

d) When the actualized component expresses a relation not to a certain person or subject, but to on abstract notion.

- "Sandler must foam the froth of youth away before discreet age could dare to retaliate".

- "Extiyotkor qarilik qasos qaytarishga kirishguncha mayli, sendidash yoshlik ko'pish teshib olsin."

Thus, during the translation of metaphor from English into Uzbek language the formal impose of English and Uzbek models has not been observed. It is interesting to mark that the syntactical relationship between the components of metaphorical word combination are identical. That is why the following models are qualified as partial correspondence.

English	O'zbekcha
$B + \text{of} + A \rightarrow A_r + B_p$	(N <sub>ning</sub> + N <sub>u/cu</sub> )
$N_s + \text{of} + N_2 \rightarrow A + B_p$	(N + N <sub>u/cu</sub> )
$A's + B \rightarrow A_r + B_p$	(N <sub>ning</sub> + N <sub>u/cu</sub> )
$(N's + N_2) \rightarrow A + B_p$	(N + N <sub>u/cu</sub> )

When the actualized is expressed by an adjective A+B (Adj + w) or a verb B + A (N + v) the lingual formation and syntactic relations between the components of metaphorical word combinations are identical in both languages. Such correspondence of structural metaphor models in the English and the Uzbek languages may be called as a full conformity.

A + B (Adj + N)	A + B (Adj + N)
B + A (N + V)	B + A (N + V)

The model in which both members of the metaphoric word combination are expressed by a noun and are in predicate relations also belongs to the full conformity.

A + (copula) + B	A - Br
N1 + (copula) + N2	N - Nr

So to say, general scheme of structural conformity during the translation of metaphors from English to Uzbek look like the following:

	$\rightarrow A - B$	N1
-N2		
A + (copula) + B	$\rightarrow$	A - Br
N1 - Nr		
N1 + (copula) + N2 (A)		+Br
(N1) + Nr		
A + xuddi + B		(N1 + xuddi + N2 +
(V)		
B + of + A	$\rightarrow$ Ar + Bp	(Nning + Nu/cu)
N1 + of + N2	$\rightarrow$ A + Bp	(N + Nu/cu)
A's + B	$\rightarrow$ Ar + Bp	(Nning + Nu/cu)
(N's + N)	$\rightarrow$ A + Bp	(N + Nu/cu)
A + B (Adj + N)	$\rightarrow$ A + B	(Adj + N)
B + A (N + V)	$\rightarrow$ B + A	(N + V)

**Conclusion and recommendations.** Besides that it is necessary to stress once more that all types of structural conformities and non-conformities of metaphors. But a starting point from which we begin learning the semantically and pragmatically conformities of the any types of metaphors in two languages further. It is clearly seen that the translation of any language unit is not a simple mechanical word substitution or the substitution of the structure of one language by the words and structures of another language. The process of translation is not recreation of the lingual phenomena as organic components of the text which is taken as a translation unit. In our case such unit is the metaphor used in two macro context.

#### LITERATURE

1. Boboxonova A. T Ingliz tili stilistikasi, Toshkent, 1995.
2. Henry O. Short stories M. 1951.
3. Haggard G.R. The lady of blossomed-Leipzig 1909.
4. Cooper J.F The last of Mohicans M. 1959 .
5. Мусаева В.Д Сопоставительный анализ атрибутивных словосочетаний с двумя существительными в вузах из-на т. М .1973 .
6. G.Green "The Quiet American", 1968.
7. Mark Twain "The Adventure of huckleberry Finn" – M, 1960.
8. The works of Shakespeare. M 1973.
9. Y. London. Short stories M. 1950.
10. Abrahams P A Wreath of Udamo N York 1956.



*Mastura XAITOVA,*

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: mastura-xaitova@mail.ru*

*O'zJOKU katta o'qituvchisi PhD S.Maxsumova taqrizi asosida*

#### DAVLAT TASHKILOTLARI MATBUOT XIZMATLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR O'RNATISHDAGI FUNKSIYALARI

Аннотация

Maqolada mamlakatimizda axborot xizmatlarining alohida mustaqil soha sifatida rivojlanishini, uning huquqiy asoslarini yaratilishi, davlat tashkilotlari matbuot xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari, "matbuot xizmati", "axborot xizmati" va "jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi" tushunchalarini farqli jihatlarini, jamoatchilik bilan aloqalar tushunchasi, RR tushunchasi va uning mohiyati hamda professionalizm masalalari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** RR, pablik rileyshnz, RR mutaxassislar, matbuot xizmati, axborot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, OAV qonunchiligi va professionalizm masalalari.

#### FEATURES OF THE PRESS SERVICES OF STATE ORGANIZATIONS AND THEIR FUNCTIONS IN ESTABLISHING PUBLIC RELATIONS

Annotation

The article analyzes the development of information services as a separate independent sphere in our country, the creation of its legal foundations, the peculiarities of the activities of press services of state organizations, various aspects of the concepts of "press service", "information service" and "public relations department". Hence, the article examines the concept of public relations (PR) and its essence, and issues of professionalism.

**Key words:** PR, public relations, PR specialists, press service, information service, public relations department, communication, mass media, media legislation and issues of professionalism.

#### ОСОБЕННОСТИ ПРЕСС-СЛУЖБ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ИХ ФУНКЦИИ В УСТАНОВЛЕНИИ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ

Аннотация

В статье проанализировано развитие информационной службы как отдельной самостоятельной сферы в нашей стране, создание ее правовых основ, особенности пресс-служб государственных организаций, отличительные черты понятий "пресс-служба", "информационная служба" и "отдел по связям с общественностью", понятие связей с общественностью, понятие PR и его сущность, а также вопросы профессионализма.

**Ключевые слова:** PR, паблик рилейшнз, PR специалисты, пресс-служба, информационная служба, связи с общественностью, коммуникация, средства массовой информации, законодательство о СМИ и вопросы профессионализма.

**Kirish.** Huquqiy demokratik davlat jamiyatning barcha jabhalarida o'zaro tushunish va ma'lumot almashish asosida jamoatchilik bilan aloqalarni doimiy ravishda saqlab turishi kerak. Shu sababli davlat boshqaruv organlaridagi jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlarining asosiy maqsadi kommunikativ imkoniyatdan foydalangan holda davlat siyosatini amalga oshirishning manbai sifatida foydalanish mexanizmini yaratish hisoblanadi. Davlat hokimiyatining aloqa imkoniyatlari nafaqat samarali axborot kanallarining mavjudligi, balki aholi bilan muloqot qilish, o'z qarorlarini jamiyatga to'g'ri tushuntirish, turli ijtimoiy guruhlarining fikrlarini eshitish imkoniyatining mavjudligiga ham bog'liqdir.

Davlat hokimiyati organlari nafaqat jamiyatni xabardor qilish vositasi, balki mahalliy va umummilliy miqyosdagi muammolarni hal qilishda faol va samarali ishtirok etishga undash maqsadida aholining asosiy qatlamlarini "tarbiyalash"ga ya'ni ularning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Davlat organlari matbuot xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishdan oldin, "matbuot xizmati", "axborot xizmati" va "jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi" tushunchalarini farqlab olishimiz lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqolada "matbuot xizmati", "axborot xizmati" va "jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi" tushunchalarini bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash uchun bir nechta xorijlik olimlarning adabiyotlari va mamlakatimizda amalda bo'lgan qonunchilikni tahlil qildik.

Davlat boshqaruvi tizimidagi jamoatchilik bilan aloqalar – bu davlat organlari tuzilmalarining fuqarolar va jamoat institutlari bilan maqsadli o'zaro ta'siri bo'lib, ular tomonidan amalga oshiriladigan davlat hokimiyati va boshqaruvining axborot-kommunikativ funksiyasi sifatida belgilanishi mumkin. Bu esa jamoatchilik turli doiralarning u yoki bu qaror va harakatlarga bo'lgan munosabatini baholash imkonini beradi. Shuningdek, e'lon qilingan va amalda olib borilayotgan siyosatni aniqlash, amalga oshirilayotgan dasturlarni jamoat manfaatlarini bog'lash, jamoatchilik fikrini o'rganish, qabul qilish va amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash, tegishli choralarni ko'rish uchun turli muammolarni hal qilish bo'yicha samarali g'oyalarni shakllantirish hisoblanadi[1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevral kuni e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 125-sonli qarori[2]ga muvofiq davlat

va xo'jalik boshqaruvi organlarining matbuot xizmatlari "axborot xizmati" shaklida e'tirof etiladi. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan o'z kuchini yo'qotgan Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-sonli qarorida ham davlat tashkilotlarining matbuot xizmatlari "axborot xizmati" deb nomlangan edi.

Axborot xizmati – bu mahalliy ijro etuvchi hokimiyat apparati tarkibiy bo'linmasi bo'lib, uning rahbariga bevosita bo'ysinadi. Axborot xizmatining ishini tashkil etish uning qaysi sektorda ishlashiga bevosita bog'liq[3].

Shu o'rinda davlat organlarining matbuot xizmatlari va tijorat tuzilmalaridagi jamoatchilik bilan aloqalar bo'limlari ya'ni PR xizmatlari o'rtasidagi farqlarni belgilab olish lozim.

Davlat tuzilmalarida matbuot xizmatlarining ishini tashkil etish ushbu bo'linmalarining tijorat va ijtimoiy tarmoqlarda ishlashini tashkil etishdan farq qiladi, chunki birinchidan, uning ishini tashkil etish uning manfaatlarini ifoda etadigan davlat organining strategik maqsadlari, yo'nalishlari va funksiyalariga qarab quriladi. Ikkinchidan, u avtonom ob'ekt bo'lishi mumkin emas, tarkibida u faoliyat ko'rsatadigan davlat organi faoliyatidan ajralgan. Bu shuni anglatadiki, hokimlik axborot xizmati xabar bergan barcha ma'lumotlar, masalan, viloyat (tuman, shahar) hokimligi apparati rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Rossiyalik tadqiqotchi G.V.Atamanchukning fikriga ko'ra, "jamoatchilik bilan aloqalar davlat boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida aniq belgilangan funksiyalar to'plamiga ega"[4]. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, boshqaruv funksiyasini bajarib, matbuot xizmatlari davlat tashkilotlari rahbariyatini jamoatchilik fikri to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, unga davlat faoliyatining turli yo'nalishlarini axborot bilan ta'minlashda yordam berish bo'yicha bir qator ishlarni o'z ichiga oladi. Davlat tashkilotlarining ikkinchi muhim vazifasi G.V.Atamanchukning ta'kidlashicha, mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlashdir. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni funktsionallik tushunchasi orqali aniqlash mumkin ya'ni ijtimoiy tizim keyinchalik uning tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri natijasida tizimning normal ishlashini ta'minlab, uning rivojlanishiga sabab bo'lganda barqaror hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiq etilayotgan mavzuni to'liq ochib berish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Bir nechta tadqiqotchilarning fikrlari o'rganilib, mavzu yuzasidan tegishli xulosalar qilindi. Jumladan, bir qator tadqiqotchilar qatori yana bir rus olimi A.Kochetkova fikrlari ham tahlil qilindi. U davlat hokimiyati organlaridagi matbuot xizmatlarining eng muhim yo'nalishi sud-huquq tizimlarining samarali ishlashini axborot bilan ta'minlashdir, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, demokratik jamiyatdagi hokimiyat xalqqa hisobot berishi kerak va axborot harakatlari iqtisodiy qarorlardan oldin bo'lishi lozim, ayniqsa, ular ko'pchilikning manfaatlariga bevosita ta'sir qilsa[5].

**Tahlil va natijalar.** Ushbu ish doirasida davlat organlarining matbuot xizmatlari funksiyalari bo'yicha barcha nuqtai nazarlarni tahlil etgan holda, A.Yu.Rusakov tomonidan taklif qilingan va bizning fikrimizcha, eng to'liq va aniq bo'lgan jamoatchilik bilan aloqalarining funksiyalarini tasniflashga to'xtalamiz. U quyidagi funksiyalarni ta'kidlaydi davlat organlarining matbuot xizmatlariga tavsiya etadi:

- axborot-tahliliy funktsiya davlat faoliyatining aniq yo'nalishlari, uning strategiyasi va taktikasi bo'yicha axborot siyosatini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar bo'yicha voqealar harakatini dinamikada qayd etadi. U tashqi va ichki kontragentlarni sinchkovlik bilan o'rganishni, davlat siyosatini amalga oshirishda aniq vaziyatlarni tahlil qilishni, jamoatchilik fikrini, kayfiyatini, aholining reaksiyalarini

baholashni, eng samarali davlat qarorlarini qabul qilish uchun bir qator tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi;

- axborot-kommunikatsiya funksiyasi aholi bilan axborot ishlarini olib borishda, shuningdek, davlat muassasasi ichidagi ijtimoiy-psixologik muhitni saqlash, xizmat etikasi va korporativ identifikatsiyaga rioya qilish uchun axborotni ishlab chiqarish, ko'paytirishni ta'minlaydi;

- maslahat va uslubiy funktsiya jamoatchilik bilan munosabatlarni tashkil etish va yo'lga qo'yish bo'yicha maslahat berishdan iborat. Shu jumladan, davlat hokimiyati organlarining turli tuzilmalari va bo'linmalari bilan hamkorlik va ijtimoiy sheriklik, dasturlar va aksiyalarning konseptual modellarini ishlab chiqish;

- tashkiliy-huquqiy harakatlar ommaviy axborot vositalari, audio va video jihozlardan foydalangan holda faol aksiyalarni, turli darajadagi ishbilarmonlik uchrashuvlarini, ko'rgazmalarni, konferensiyalarni tayyorlash va o'tkazish, matbuot xizmati faoliyatini huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha umumiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi[6].

Davlat hokimiyati organlari tarkibidagi jamoatchilik bilan aloqalar xizmatining o'zni haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, ko'p jihatdan uning ahamiyati rahbariyatning pozitsiyasiga bog'liq. Qanday vakolatlar beriladi, strategik qarorlar qabul qilishda ushbu bo'limga e'tibor qaratish va ularning faoliyati natijalarini hisobga olish butun matbuot xizmatining samaradorligiga bog'liq. Bugungi kunda hokimiyatning turli darajalarida kadrlar xatosi tajribasi mavjud bo'lganda, barcha sharoitlarni hisobga olgan holda, matbuot kotibi lavozimiga nomzodlar yanada ehtiyotkorlik bilan tanlanadi. Ushbu lavozimni joriy etish hokimiyat organlarida keng qo'llaniladi. Biroq uni apparat tarkibiga "kiritish" uchun ko'plab variantlar mavjud. Ko'pincha, birinchi shaxsning matbuot kotibi hokimiyat rahbari (nutq mualliflari) uchun nutq matnlarini tayyorlaydigan, jurnalistlar bilan aloqalarini ta'minlaydigan mutaxassislar apparatiga bo'ysunadi. Matbuot kotibi rahbarga hamma joyda hamrohlik qiladi, uning nomidan jurnalistlarga sharhlar berishi mumkin. Bunday holda matbuot kotibi xizmati to'g'ridan-to'g'ri birinchi shaxs bilan ishlaydigan alohida bo'limdir.

Davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalarining mohiyati esa umumiy ijtimoiy, korporativ va xususiy manfaatlarning kelishilishini ta'minlashdan iborat. Uning maqsadi jamoatchilik bilan aloqalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan funksiyalarda namoyon bo'ladi.

Davlat hokimiyati organlari tizimidagi jamoatchilik bilan aloqalar funksiyalari ikkinchisining faoliyatining tabiati va o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq.

Muayyan davlat tuzilmasining holatiga qarab funksiyalar farq qilishi mumkin. Masalan, hududiy hokimiyat mahalliy hokimiyatga qaraganda kengroq funksiyalarga ega. Boshqaruv darajasi va jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlarining xususiyatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Masalan tuman va shahar hokimiyatlarida kommunikativ funktsiya va fuqarolar bilan doimiy va tashkiliy aloqa keng amalga oshiriladi. Hududiy hokimiyatlarda asosiy e'tibor axborot funksiyasiga va shunga mos ravishda ommaviy axborot vositalari bilan ishlashga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar.** Demak, davlat organlarida axborot xizmatini tashkil etish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlarining jamoatchilik bilan samarali muloqotini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Axborot xizmatining asosiy maqsadi aholiga davlat siyosati, dasturlari va xizmatlari to'g'risida to'g'ri va o'z vaqtida ma'lumot berishdir. Bu ma'lumotlar fuqarolarning ongli qarorlar qabul qilishlari va demokratik jarayonda ishtirok etishlari uchun zarurdir.

Maqsadga erishish uchun davlat organlarining axborot xizmati turli xil kanallar, masalan, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va press-relizlar orqali ma'lumotlarni to'plash, tahlil

qilish va tarqatish kabi bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Shuningdek, ular taqdim etilgan ma'lumotlar jamoatchilikning barcha a'zolari, jumladan, nogironlar yoki til to'siqlari bo'lganlar uchun hamochiq bo'lishini ta'minlashi kerak.

Ushbu vazifalarga qo'shimcha ravishda, axborot xizmati jamoat sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar yoki ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash va hal qilishda ham faol bo'lishi lozim. Buning uchun jamoatchilik oldida turgan muammolarni chuqur tushunish, shuningdek, samarali muloqot strategiyalarini ishlab chiqish uchun boshqa davlat idoralari va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ishlash qobiliyati talab etiladi.

Umuman olganda, davlat organlarida axborot xizmatini samarali tashkil etish shaffoflik, hisobdorlik va aholining hukumatga ishonchini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Axborot xizmati bo'limlari to'g'ri va o'z vaqtida ma'lumotlarni taqdim etish orqali fuqarolarning sog'lom va faol jamiyatni targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan demokratik jarayonlardan xabardor bo'lib, ishtirok etishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi vaqtda jamoatchilik bilan aloqalarni samarali tashkil etish va jamoatchilikni tushunishning uchta asosiy yondashuv mavjud:

- altruistik;
- kompromistik (murosali);
- pragmatik [7].

Altruistik yondashuv orqali jamoatchilikni PR – “jamoatchilik manfaatlariga xizmat qilish” uchun umumiy hamkorlikni tashkil etishga qaratilgan faoliyat ekanligiga ishonirishga qaratilgan.

PR (inglizcha Public relations iborasining qisqartirilgan shakli) asoschilaridan biri S.Blek quyidagi ta'rifni eng yaxshisi deb biladi: “PR – bu tendentsiyalarni tahlil qilish, ularning oqibatlarini bashorat qilish, tashkilot rahbariyatiga tavsiyalar berish va tashkilot va jamoatchilik manfaati uchun harakat dasturlarini amalga oshirishga asoslarga san'at va fanidir”[8]. Ushbu ta'rif 1978-yil 11-avgustda Mexiko shahridagi 30 ta Milliy va mintaqaviy PR assotsiatsiyalarining Butunjahon PR Assambleyasidagi bayonotida berilgan.

Kompromistik (murosali) yondashuvi ikki nuqtaga urg'u beradi:

- muayyan manfaatlarni qondirishga xizmat qilish;
- tashkilot jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda jamiyat uning manfaatlariga to'g'ri munosabatda bo'lishiga umid qilish.

Pragmatik yondashuv esa tashkilot va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda idealizmdan mahrum bo'lib, o'zaro manfaatli xodimlarga urg'u beradi. Shu o'rinda tadqiqotchi J.P.Boduanning PRga “kerakli odamlar bilan samarali munosabatlar”[9] deb bergan ta'rifini ta'kidlash o'rinli hisoblanadi.

Pragmatik yondashuv doirasida PRning eng to'liq ta'rif quyidagi ta'rif deb hisoblanishi mumkin: PR – bu loyiha ichidagi, shuningdek, ushu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun loyiha ishtirokchilari va uning tashqi muhiti o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan axborot-tahliliy va texnologik tadbirlar tizimi.

Keng ma'noda PR – bu muloqotni ongli ravishda tashkil etish. PR boshqaruv funksiyalaridan biridir. PRning maqsadi o'zaro tushunishga erishish va ikki tomonlama aloqa orqali tashkilot va uning auditoriyalari o'rtasida samarali munosabatlarni o'rnatishdir.

Demak, amaliyotda “PR xizmati” va “Axborot xizmati” atamalarini sinonim sifatida ham qo'llashimiz mumkin. Modomiki, PR xizmati va Axborot xizmatini uyg'un holda tushunish mumkin ekan, ularning prinsiplari ham bir-biri bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari Axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4366-sonli qarori[10] bilan davlat hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, respublika ahamiyatiga molik idora, muassasa hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarining axborot xizmatlari, matbuot markazlari, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha xizmatlarining asosiy vazifalari ya'ni funksiyalari belgilab qo'yilganligi matbuot kotibiga uning xizmat doirasiga kirmaydigan boshqa vazifalarni yuklashning oldini oladi va samarali jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatib tashkilot faoliyati tezkor va xolis yoritilishiga zamin yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Государственное управление: основы теории и организации: учебник: в 2т. – т.1 /Под общ. ред. В.А. Козбаненко. – 2-е изд., с изм. и доп. – М.: Статут, 2002. – С.171
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 125-sonli qarori – <https://lex.uz/uz/docs/-3561681>
3. Косимова Н., Бабаджанова Г., Исламова Л. Эффективная коммуникация с общественностью. Практическое пособие для информационных служб. – Т. 2013. – С. 10
4. Атаманчук, Г.В. Теория государственного управления. – М.: Омега-Л, 2004. – С. 256
5. Кочеткова А. PR-планирование в государственной сфере // Пресс-служба. – 2007. – №8. – С.42
6. Русаков А.Ю. Связи с общественностью в органах государственной власти. Учебное пособие. – СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2006. – С.18-19.
7. Мишон Е.В. Связи с общественностью в органах власти. – М.: Кнорус, 2022. – С. 7.
8. Блэк С. Паблик рилейшнз. Что это такое? – М.: Новости, 1990. – С. 151.
9. Бодуан Ж.П. Управление имиджем компании. Пиар: предмет и мастерство. – М.: Инфра-М, 2001. – С. 38.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-4366-sonli qarori – <https://lex.uz/docs/-4390513>